

792.5
А-64

MUKARRAMA TURG'UNBOYEVA NOMIDAGI
"O'ZBEKRAQS" MILLIY RAQS BIRLASHMASI

ОБЪЕДИНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ТАНЦА «УЗБЕКРАКС»
ИМЕНИ МУКАРРАМ ТУРГУНБАЕВОЙ

L. AVDEYEVA

**O'ZBEK MILLIY
RAQSI TARIXIDAN**

BIRINCHI KITOB


(Qadimiy zamonlardan 2000-yilga
qadar o'zbek an'anaviy raqs san'ati)

Л. АВДЕЕВА

**ИЗ ИСТОРИИ УЗБЕКСКОЙ
НАЦИОНАЛЬНОЙ
ХОРЕОГРАФИИ**

КНИГА ПЕРВАЯ

(Узбекское традиционное танцевальное искусство
с древнейших времен до 2000 года)



Toshkent 2001

I. RAQS VA RAQS TO'G'RISIDAGI ASARLAR

Odamlar nima uchun raqsga tushadilar?

Bu savolning javobi qisqa yoki uzun bo'lishi mumkin. Raqsni inson hayotidagi bir hodisa sifatida hamda san'at hodisasi sifatida estetiklar va fiziologlar, folklorchilar, ruhshunoslar va tilshunoslar, madaniyat tarixchilari va xoreografiya tarixchilari, raqs pedagoglari, badiiy gimnastika ustozlari va shifokorlar, asosan san'atshunoslar o'rganishadi.

Raqs, san'atning boshqa turlari kabi, inson hayotini va butun olamni o'rganishning badiiy usuli hisoblanadi. Turmush jarayonlarini o'rganadigan fanlar tushunchalar vositasida, ya'ni mavhum xulosalar bilan "fikrlaydi". San'at, turmush jarayonlarini o'rganar ekan, ularni fazoviy va badiiy umumlashtirilgan obrazda tasavvur qiladi.

Raqs — zamoniy va makoniy san'atning shunday turiki, unda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan, tasviriy va ifodali harakatlari bilan yaratiladi.

Raqs gavdaning boshlang'ich holatidan ritmik gavda harakatlari turkumi orqali yakuniy holatga o'tish orqali vujudga keladi.

Zamoniy-makoniy san'at — raqs, sirk janrlari, teatr tomoshalari — faqat ijro vaqtidagina haqiqiy voqelikka aylanadi (ya'ni mavjud bo'ladi).

Musiqiy, vokal ijro, nazm va navoni o'qish ham faqat ijro vaqtida, "maqom"ning o'zida, "ko'zga tashlanadigan" mujassamlikka ega bo'lmay, "voqelik"ka aylanadi.

Fazoviy san'at — haykaltaroshlik, rassomlik, grafika, me'morlik yaratilgan vaqtdan boshlab uzoq muddatga "ko'zga tashlanadigan voqelik"ka aylanib, fazoda yashaydi.

Musiqiy, musiqiy-raqs san'ati tinglovchiga, tomoshabinga "hissiyotlarning bevosita ifodasi va fikrning bilvosita ifodasi" sifatida ta'sir qiladi (hissiy "turtki" vazifasini o'tab fikrni qo'zg'aydi").

Ammo inson fikri va hissiyotining harakati odatda inson psixikasida yonmayon hisoblanadi, zamonda ham, makonda ham namoyon bo'lmaydi, ular ko'zga ham *tashlanmaydi*, *eshitilmaydi* ham. Biroq, aynan fikrning hissiyot bilan qo'shilishi san'atning mazmuni — uning ma'naviy asosi hisoblanadi.

Ma'naviy jarayonlar insonda mustaqil toifa sifatida mavjud bo'ladi.

"Ma'naviy" asos ko'riladigan, eshitiladigan, ko'rib eshitiladigan obrazni yaratib, san'at shakllarini tashkil qiladi. Shuning uchun ham mazmun va shaklni parchalash mumkin emas.

Ammo san'atshunos olimlar san'at "anatomya"sini o'rganish, tahlil qilish maqsadida shunday "parchalash"ni amalga oshiradilar.

Zamon va zamon-makoniy san'at fazoviy san'atdan farq qilib, tomoshabinlarning faqat hissiy xotirasidagina iz qoldiradi.

Dramatik spektakllarni "tiklovchi" teatrshunoslar pyesalarga (real mavjud materialga) murojaat qilib, uni rejissyorlik rejaları hamda rasmlar, fotosuratlar, tanqidchilar va tomoshabinlar fikrlari, ijrochilar va ijodkorlar xotiralari bilan to'ldiradilar. Teatrshunoslar "material"ni to'plab, spektaklning badiiy mohiyatini va uning tomoshabinlarga ta'sir etishning asosiy omillaridan biri hisoblanadigan hissiy muhitini qay darajadadir tiklagan holda spektaklni tiklashlari mumkin.

Musiqali spektaklni og'zaki tiklash ancha murakkab — nota qog'oziga tushirilgan musiqa partituralari, tasvir hamda og'zaki bayonlar bilan to'ldirilgan ariyalar matni spektaklning hatto mazmuniy mohiyatini faqat taxminan tiklashi mumkin, chunki musiqani so'z bilan faqat taxminan bayon qilish mumkin, musiqali-teatr tomoshasi mazmunini esa musiqaning muayyan, aniq ijrodagi "mazmuniy hissiyotlari" tashkil qiladi.

Aslini aytganda, ayni bir asarning bitta jamoa ijrosidagi har safargi taqdimoti oldingisidan ham, keyingisidan ham farq qiladi, zero, har bir spektakl — ijrochilar minimal o'zgarsa-da, "yangi" zamonda yashaydi, muhimi, har bir spektaklda uning namoyish etilishi jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan tomoshabin yangi bo'ladi. Shuning uchun teatrshunoslar o'z tadqiqotlari, ocherklari, monografiyalarida qandaydir "o'rtacha" spektaklni qayd etadilar; o'z hissiy xotiralariida bir necha ko'rsatuvdan olgan taassurotlarini umumiy lashtiradilar, bu taassurotlarni spektaklning umumiy lashtiradigan obrazida ifodalaydilar.

Raqs tomoshalari — balet, maxsus raqs dasturlari — tadqiqotchi-fiksator uchun yanada kamroq "moddiy" bazaga ega. Ijrodan tashqarida mavjud bo'lgan partitura yoki klavir, ya'ni nota belgilari orqali qog'ozga tushirilgan musiqa va balet syujeti yoki raqs mavzuini bayon qiluvchi libretto xoreografik spektakl yoki dasturning "voqeligi" hisoblanadi. Muayyan orkestr ijrosidagi musiqa talqini, raqs "matni", ya'ni raqsning mazmuniy shakllari: alohida kompozitsiyalar, monologlar, dialoglar, balet sahnalari — oldindan og'zaki bayon shaklida ham, belgi shaklida ham qayd etilmaydi. Xoreograf jonli namoyish-hikoya asarini yaratadi. Raqs shakllari bevosita ijrochilar xotirasini qayd etadi.

Aytib o'tish lozimki, raqqoslar xotirasi o'ziga xosdir, "umuminsoniy" xotira — ko'rish, eshitish, hissiy xotiradan tashqari, raqqoslar "mushaklar xotirasi"ga ega bo'ladi. Bu ularga har bir balet va butun repertuar baletlarining raqs partituralarini, har bir raqsni va ko'pgina dasturlar raqs larini eslab qolishlarida hamda ijro etishlarida yordam beradi.

Teatr dramatik san'ati tarixchilari qayta tiklangan spektakllarning katta materialiga, pyesaning "moddiy" bazasini birlashtirgan hissiy empirik ta'riflarga va rejissyorlik, ijrochilik san'atining hissiy ta'riflariga asoslanadi.

“Musiqqa tarixi” odatda oldindan nota belgilari bilan qayd etilgan musiqali asarlar tarixi hisoblanadi. Ijrochilik san’ati — musiqiy hayotning o’zi — faqat tarixiy fakt sifatida eslab o’tiladi yoki umumlashgan — she’riy, empirik ta’rifaa beriladi. Mashhur rus musiqashunosi va kompozitori Afanasevning fikricha, “musiqaning san’at sifatidagi haqiqiy hayoti nota yozuvi emas, balki ma’nodir”.

Balet san’ati tarixi teatrshunoslar va musiqashunoslar foydalanadigan ilmiy usullarni o’zida mujassamlashtiradi.

Balet san’atini o’rganish sohasi bo’yicha yetakchi rus mutaxassisi Yu.I.Slonimskiy XIX asrning birinchi yarmida yashagan mashhur fransuz xoreografi Karl Blizis asaridan xabar beruvchi “Raqs san’ati” maqolasida “Raqs to’g’risidagi maxsus adabiyotlar juda kam”, deb yozadi.¹

Fransuz inqilobi davrida Kayuzak, Noverr, Kompan, Baron, Blazis, Gote va boshqalar, inqilobdan avvalgi yillarda Rossiyada Benua, Dyagilev, Skalkovskiy, Levinson, Svetlov, Pleshchea, Volinskiy, Kugellar balet san’ati to’g’risida yozganlar.

XX asrning yigirmanchi va o’ttizinchi yillarida Yevropa baletining islohotchilari J.J.Noverr (“Raqs to’g’risida xatlar”), K.Blazis (“Raqs san’ati”), A.Burnonvil (“Teatr hayoti”). L.Adis (“Fransuz raqs maktabi an’analari”) asarlari rus tiliga tarjima qilindi. Tarjimalar rus baletshunoslari Yu.I.Slonimskiy, I.I.Sollertinskiy, L.D.Blokning xoreografiya mumtoz siymolariga bag’ishlangan tadqiqotlari bilan birga chop etildi. Shu yillarda Yu.Slonimskiyning rus baleti mumtoz siymolariga bag’ishlangan kitob va maqolalari e’lon qilindi².

Yuqorida aytib o’tilgan asarlar amaliyotchilar, balet asarlari yaratuvchilarining fikrlari va aniq maslahatlarini qamrab olgan. San’atshunoslar ishlari seriyalarida ijodiy yo’nalishlar, mashhur baletmeysterlar iste’dodlari to’g’risida ocherklar shaklida umumiy ma’lumotlar keltiriladi. Bu asarlarda spektakllarning mazmuniy shakllari aniq tahlil qilinmaydi.

O’ttizinchi yillar oxirlarida A.Ya.Vaganovanning ko’p yillik amaliy faoliyati natijasi bo’lgan “Klassik raqs asoslari”³ kitobi chop etildi. A.Ya.Vaganovanning kitobi balet mumtoz raqsi asosiy shakllari bayon etilgan ilk asar bo’ldi. Keyinchalik Mey va Nazarovanning “Klassik raqs alifbosi”⁴, A.Mesererning “Klassik raqs saboqlari”⁵ kitoblari va boshqalar chop etildi.

¹ *Слонимский Ю.И.* Искусство танца. Сб.: Классики хореографии. — Л. — М., 1937. Мастера балета. — Л., 1937.

² *Жан Жак Наверр.* Письма о танце. — М. — Л., 1965; Указ. Классики хореографии; *Адис Л.* Традиции французской школы танца; *Блок Л.* Филипп Тальони и его школа; *Слонимский Ю.* Балетмейстер Бурнонвил; *Бурнонвил А.* Театральная жизнь.

³ *Ваганова А.Я.* Основы классического танца. — Л., 1937.

⁴ *Базарова Н., Мей В.* Азбука классического танца. — М. — Л., 1964.

⁵ *Месерер А.* Уроки классического танца. — М., 1967; *Тарасов Н.* Классический танец. — М., 1971; *Костровицкая Н., Писарев А.* Школа классического танца. — Л., 1968; *Серебрянников Н.* Поддержка в дуэтном танце. — Л., 1969.

Aytib o’tilgan kitoblar xoreologlar (xoreografiyani o’rganadigan san’atshunoslar) uchun maxsus amaliy faoliyat bilan shug’ullanmay turib mumtoz raqs asoslarini o’rganish, o’rgangandan so’ng esa baletni faqat hissiy jihatdan emas, balki aqliy-mantiqiy jihatdan ham tadqiq qilish imkonini beradigan “moddiy voqelik”ka aylandi.

Qirinchiy yillarning o’rtalaridan boshlab sovet baleti tarixiga bag’ishlangan asarlar ko’paya boshladi: 1960—1970-yillarda rus, sovet va xorijiy balet tarixi haqida tadqiqotlar va monografiyalar chop etgan mualliflar safi kengaydi.

Yu.Baxrushin “Rus baleti tarixi”⁶ asarini, V.Krasovskaya to’rt jildlik “Rus baleti tarixi” va to’rt jildlik “G’arbiy Yevropa baleti tarixi”⁷ asarini yaratdi.

Yu.Slonimskiy, F.Lopuxov, N.Elyash, P.Karp, V.Vanslov, G.Dobrovolskaya, V.Chistyakova, S.Katonova, E.Suris, Yu.Churko, Yu.Stanishevskiy, P.Xuchua, X.Nurjanov, R.O’rozdeldiyev, L.Sarinova, L.Tormis va boshqalar sovet respublikalari ayrim balet jamoalari va xoreografiya arboblari bag’ishlangan tadqiqotlarida, ocherklarida, monografiyalarida butun sovet baletining taraqqiyot yo’lini yoritdilar.

1937-yilda SSSR Davlat xalq raqsi ansambli, 40—50-yillarda esa deyarli barcha respublikalar, muxtor respublikalarda xalq raqsi ansambllari tashkil etildi.

1937-yilda A.Lopuxov, A.Shiryayev, A.Bocharovlarning “Xarakterli raqs asoslari”⁸ asari dunyoga keldi. Kitobdagi yetakchi baletshunos Yu.Slonimskiyning o’ttiz ikki sahifalik maqolasi ko’p sonli dalillar va muhim nazariy-tarixiy umumlashtirishlarga boy bo’lib, ular xalq, turmush va salon raqslari zaminida, biroq, xususiy shakllarda, muhimi, mumtoz balet raqsi stilistikasiga yaqinlashtirilgan uslubda yaratilgan xalq “balet” raqsining tuzilishini anglash imkonini beradi.

“Klassik raqs asoslari” va “Xarakterli raqs asoslari” kitoblarida quyidagilar aks ettirilgan:

— birinchidan, jahon balet teatrlarining barcha yutuqlarini o’zida mujassamlashtirib, balet san’ati rivojining o’ziga xos mazmun va shakllarini taqdim etgan rus balet maktabining islohotchilik mohiyati. XX asrda rus balet san’ati cheksiz manbaga — Yevropa va Osiyoda yashovchi xalqlarning raqs madaniyatiga murojaat qildi;

— ikkinchidan, bu kitoblarda raqs shakllarining metodik ishlanmalari va bu shakllarni so’zli-tasvirli ifodalash usullari berilgan.

1950-chi, ayniqsa, 1960—70-yillarda Sovet Ittifoqiga birlashgan xalqlarning folklor raqs materialiga asoslangan xalq-sahna xoreografiyasini aks ettirgan

⁶ *Бахрушин Ю.* История русского балета. — М., 1977.

⁷ *Красовская В.М.* История русского балета. Т. I—IV. — М. — Л., 1958, 1963, 1971, 1975. История западно-европейского балета. Т. I—IV. — Л., 1979, 1981, 1983.

⁸ *Лопухов А., Ширяев А., Боcharов А., Слонимский Ю.* Основы характерного танца. — Л. — М., 1939.

kitoblar, risolalar, maqolalar muntazam chiqib turdi. Bularning orasida T.Tkachenkoning “SSSR xalqlari raqslari” alohida o‘rin tutadi⁹.

Etnografik yo‘nalishdagi xalq raqslariga bag‘ishlangan turli xil kitoblar, maxsus jurnallarda muayyan mintaqalar xalqlari hayotida saqlangan yoki yaqin o‘tmishda mavjud bo‘lgan raqslar to‘g‘risidagi materiallar berilgan. Raqs turlarini qamrab olgan, mufassal va keng sharhlar bilan ta‘minlangan arman raqslari, raqs sahnalari, teatrlashtirilgan sahnalarning armanistonlik mashhur olim S.S.Lisisian tomonidan yaratilgan ko‘p jildli nashrini nodir asarlar jumlasiga kiritish mumkin. U, shuningdek, raqslarni yozib olish belgi tizimi (o‘ziga xos “notalar”)ni yaratish ustida tajriba ham olib bordi.

Raqs paydo bo‘lgan davrlardan boshlab to shu kungacha bosib o‘tgan shakllanish bosqichlarini aks ettirgan birorta milliy yoki xalq xoreografiyasi tarixini yaratish — o‘ta qiyin vazifadir.

Tarixni yaratish uchun katta material zarur bo‘ladi. Bu materialda raqs san‘ati mavjud bo‘lgan turli davrlarda so‘z yoki belgilar vositasidagi yozuvlar asosiy o‘rinni egallashi kerak. Bunday materiallar esa yo‘q va bo‘lishi ham gumondir.

Raqsnı “yozib olish”, uning shakllarini ifodalashga urinishlarni insoniyat 40 ming yil muqaddam boshlagan.

Odamlarning raqs tushayotgan figuralari qoyalardagi rasmlarda, releflarda, tosh, loy va yog‘och haykalchalarda aks ettirilgan. Bareleflarda — Misr fir‘avnlari maqbaralari tosh plitalaridagi bo‘rtma tasvirlarda (miloddan avvalgi III—II mingyilliklar); Gretsiya (miloddan avvalgi VI—IV asrlar) va Rim (miloddan avvalgi II—I asrlar va milodiy III—IV asrlar) tasviriy san‘atida raqqoslar va raqqosalar tasvirlari bor.

Greks va Rim adabiy manbalarida raqslar, ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqidagi yozuvlarni, mashhur ijrochilar nomlariga aytilgan maqtovlarni uchratish mumkin.

Ammo bunday materiallar raqsning paydo bo‘lganligini, butun insoniyat tarixi mobaynida mavjud ekanligini va rivojlanganligini, ammo raqslarining o‘zi esa bizga noma‘lumligicha qolib kelayotganligini bildiradi. Raqsning bir necha fazalari tasviri yoki belgilarda bayon qilinishi uning musiqiy-ritmik shaklini tiklash imkonini bermaydi. Gavda, qo‘llar, oyoqlarning bir xil holatlari plastik shakllarda mutlaqo farqli musiqani aks ettirgan mutlaqo farqli raqs kompozitsiyalarda qayd etilgan bo‘lishi mumkin.

Sof tarixiy tadqiqotlar juda kam bo‘lib, ularning orasida K.Goleyzovskiyning jiddiy tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan “Rus xoreografiyasi obrazlari”¹⁰ asarini,

⁹ *Ткаченко Т.* Танцы народов СССР. — М., 1967; *Лисициан С.С.* Танцевальный и театральный фольклор Армении. (Тезисы докл. на VII Межд. конгр. антропологических и исторических наук). — М., 1964.

¹⁰ *Голейзовский К.* Образы русской хореографии. — М., 1964.

Yu.Churkoning “Belorus xoreografiyasi”¹¹ doktorlik dissertatsiyasini, N.Jarniskayaning jonli hayotdan olingan materiallarga asoslangan, qiziqarli dalillar va xulosalardan iborat tadqiqoti bo‘lmish “Yoqutiston raqslari”¹² kitoblarini alohida qimmatli manbalar sifatida qayd etish mumkin.

Janri, materialning tashkiliy tuzilishi bo‘yicha turlicha bo‘lgan bu asarlarni yagona uslubiyat birlashtiradi. “Raqs tarixi” mualliflari uchun hozirgi kunda “jonli” ijro etilib turgan xalq raqsi va raqsning yaqin o‘tmishdagi hayoti to‘g‘risidagi ishonarli xabarlar asosiy material vazifasini o‘tagan.

Arxeolog san‘atshunoslar o‘zlari topgan raqqos figuralarni tasvirlar ekanlar, ular qaysi asrda yaratilganini (bir-ikki asr xato bo‘lishi mumkin) ko‘p sonli manbalar asosida aytib beradilar hamda mazkur tasvir va raqsning o‘zi ham paydo bo‘lishiga qanday hayotiy hodisa sabab bo‘lganligini izohlaydilar. Agar tasvirlar san‘atshunoslik shartlari bilan oddiy ketma-ketlikda qo‘yib chiqilsa, eng qadimiy va qadimiy raqs san‘ati to‘g‘risida tarixiy ocherk paydo bo‘ladi.

Madaniyat tarixchisi A.Avdeyev ana shunday yo‘lni tanlab, tadqiqot materiallariga boy bo‘lgan “Teatrning paydo bo‘lishi” asarini yaratdi¹³.

Qadimiy raqs san‘atning eng qadimiy turlaridan biri bo‘lib, uni tasviriy san‘at aa teatr san‘atini undirgan ildiz deyish ham mumkin, musiqa esa raqs bilan birga yashaydi. Raqqoslar tasvirining o‘zi go‘yo uchta san‘atni bayon qiladi: musiqani nazarda tutadigan raqs va tasviriy san‘atning o‘zi.

Ko‘pincha raqs tushayotgan figuralar tasvirida teatr san‘ati elementlarini uchratish mumkin — raqqoslar niqob va o‘ziga xos kiyimda bo‘ladilar, ya‘ni “o‘z nomlaridan” emas, balki personaj nomidan, “obrazga” kirib raqsga tushadilar.

A.Avdeyevning “Teatrning paydo bo‘lishi” asari insoniyat madaniyati tarixining muhim muammosiga bag‘ishlangan ilk keng qamrovli tadqiqot bo‘ldi, u teatrshunoslar va xoreografiya tadqiqotchilari tafakkurini uyg‘otdi. A.Avdeyev san‘atshunos-arxeologlarning tadqiqot metodlaridan bevosita foydalandi, u eng qadimiy tasvirlardan bugungi kun tomon bordi, ya‘ni u tahlil maqsadida bundan bir necha o‘n ming yilliklar oldingi paleolit (eng qadimgi tosh asri), ko‘p asrlar muqaddam o‘tib ketgan bronza va temir davri tasvirlarini olib, qadimiy mualliflarning xilma-xil ma‘lumotlari, zamonaviy arxeologlar, tarixchilar, tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlari va xulosalariga, asosan tarixchilar, etnograflar, sayyohlar fikriga tayangan holda qadimiy tasvirlarni hozirgi kunda dunyoda mavjud bo‘lgan va kam rivojlangan,

¹¹ *Чурко Ю.М.* Хореографическое искусство Белоруссии. Автореф. на соискание уч. ст. доктора искусствоведения. — М., 1972.

¹² *Жорницкая Н.* Якутские танцы. — М., 1966.

¹³ *Авдеев А.Д.* Происхождение театра. — Л. — М., 1955.

“madaniylashmagan” xalqlar hayotidagi bayram tomoshalari va diniy udumlari bilan taqqoslaydi. Tabiiyki, kurrai zaminning barcha qit’alari A.Avdeyev uchun tadqiqot maydoniga aylanadi, bunda turli davrlar va turli xalqlarga tegishli bo’lgan, turli manbalardan olingan ma’lumotlar qiyoslanadi.

Hozirgi kunda, XX asrning ikkinchi yarmida, arxeologlar paleolit, neolit, bronza, temir, ya’ni bizdan oldingi barcha davrlarning ko’plab tasviriy san’at yodgorliklarini topib, tadqiq qilganlaridan so’ng bu turdagi asarni yaratish imkoniyati tug’ildi.

Kurrai zaminning deyarli barcha qit’alarida, barcha kenglik va meridianlarda tanilgan eng qadimiy rassomlik namunalari, g’orlardagi rasmlar, daryo bo’yi toshlaridagi bareflar, loy, toshdan yasalgan haykaltaroshlik namunalari hozirgi kunda ham ibtidoiy tuzum qonunlariga muvofiq yashayotgan qabila va elatlar — asosan Janubiy Afrika qabilalari, Shimoliy va Janubiy Amerika qit’asidagi ayrim elatlar, toskaniyaliklar, Okeaniya orollari aholisi, Avstraliya aborigenlari — hayotidagi madaniy jihatlari bilan qiyoslashda “moddiy” asos vazifasini o’taydi.

Qadimiy san’at va madaniyat tadqiqotchilari ta’kidlashicha, paleolit va neolit davri madaniyati hozirgi kunda zaminimizda yashab turgan qabila va elatlar madaniyatiga, garchi ular sivilizatsiyadan xoli yashasa ham, aynan o’xshash bo’lishi mumkin emas, ularni Yerda 40 ming yillar muqaddam mavjud bo’lgan madaniyatga qiyoslab bo’lmaydi.

Zamonaviy fan dalolat berishicha, yuqori paleolit, ya’ni insoniyat madaniyatining bizdan eng uzoq bo’lgan davrining o’zi 10 ming yildan ortiq davom etgan. O’rganilayotgan “qoloq” xalqlar hayoti mana shu 10 ming yilliklardan o’tib kelganligi aniq.

Hozirgi kunda bizga ma’lumki, inson odamga, ya’ni tabiatdan ajralib chiqqan odam — neotrop (homo sapiens)ga aylangunga qadar o’zining bevosita ajdodi — avstralopitekdan boshlab milliondan yildan ortiq yo’lni bosib o’tgan. Ingliz antropologi L.Likining yangi tadqiqotlari dalolat berishicha, hayvonot olamidagi bevosita ajdodgacha o’tgan davr million yildan kam emas. Ya’ni odam ikki milliondan ko’proq yillar mobaynida shakllangan, shu jumladan, faqat 40 ming yil ichida u tabiatda o’z individualligini anglagan Odam sifatida rivojlangan. Bu matematik amallar muayyan davr bizdan qanchalik uzoq bo’lsa, inson zotining rivojlanishi shunchalik sust kechganligini anglash imkonini beradi, zero, bu yo’l mehnat malakalarini egallashga, butun insoniyat evolyusiyasining sababi va asosi hisoblanmish mehnat qurollarining takomillashuviga bog’liq bo’lgan. Mehnat usullari va ishlab chiqarish qurollari qanchalik kam rivojlangan bo’lsa, odamning odam bilan aloqasi shunchalik zaif, ijtimoiy munosabatlar shunchalik kam rivojlangan, o’zgarishlar yo’li ham bunchalik uzoq bo’ladi. Tabiiyki, ikki million yil oldida 40 ming yil, so’nggi

10 ming yil unchalik katta tarixiy davr emas, desa ham bo’ladi. Ammo aynan mana shu 40 ming yil, ayniqsa so’nggi 10 ming yil ichida “ijtimoiy odam” ya’ni zamonaviy insonning paydo bo’ldi va rivojlandi. Buning uchun o’z taraqqiyotida to’siqlarga uchrab to’xtab qolgan jamiyat hayoti bizdan minglab yillar avvalgi jamiyat hayotiga aniq mos kelishi mumkin emas. Rivojlanishdagi sustlik shunday qadim zamonda yaralgan jamiyat hayoti tamoyillariga ta’sir ko’rsatishga, inson turmush faoliyatini o’zgartirishga ojizlik qilardi.

Lekin, nima bo’lganda ham, rivojlanmagan jamiyatlarning madaniy hayot insoniyat madaniyati rivojlanish yo’lini tushunishda yordam beradigan yagona material hisoblanadi.

A.Avdeyevning kitobi chiqqandan so’ng yigirma yildan ko’proq vaqt o’tib, Ye.A.Korolyovning “Raqsning ilk shakllari” asari yaratildi.¹⁴ Muallif A.Avdeyev uslubiyatidan, materialni tahlil qilish usullaridan, materialning o’zidan ham foydalanib, uning izlanishlarini davom ettirdi, qadimiy raqsning mazmuni va shakllarini bayon qilib, ularning “qoloq qabilalar” raqsidagi qoldiqlarini qayd etib, o’z taxminlarini bayon qildi.

G.Goyan ikki jildlik “Arman teatri tarixi” tadqiqotida¹⁵, keyinchalik M.Rahmonov “O’zbek teatri tarixi” asarida¹⁶ asosiy e’tiborni miloddan avvalgi I mingyillik va milodning dastlabki asrlariga oid materiallarga qaratib, raqs teatr san’ati paydo bo’lishi va rivojlanishining ilk bosqichlarini asl “ilmiy nigoj” bilan ta’riflaganlar. Ular Gretsiya va Rim antik madaniyati davridagi arman va o’zbek raqs-teatr san’atining tuzilishi, rivojlanishi to’g’risida qiziqararli taxminlar va dalillarni keltiradilar.

1. O’zbek xoreografiyasi va uni o’rganish

Mazkur kitob muallifi o’zbek xoreografiyasiga oid materiallarni to’plash 1954-yilda, dastlab o’ttizinchi-qirqinchi yillarda Qo’qon, Namangan va Toshkentda o’tkazilgan turli milliy bayramlar to’g’risidagi yoshlik va o’smirlik xotiralariga tayangan holda boshlagan.

Keyinchalik muallif o’ttizinchi yillarning boshlarida Iranda Baxta tomonidan yozib olingan, lekin chop etilmagan keksa o’zbek raqsi ustalari so’zlarini o’z tarkibiga olgan qimmatli materiallarni qidirib topishga muvaffaq bo’ldi. 1936–1941-yillar mobaynida u raqs shakllarini oldindan tahlil qilib, ushbu tahlil asosida “O’zbek (Farg’ona) raqsining asosiy shakllari” bo’limini yaratib, “Kato o’yin” Farg’ona raqs turkumini yozib oldi. Yozuvdagi har bir raqs jumla o’zbek musiqashunosi Yelena Romanovskaya tomonidan ma’nosi ochib berilgan.

¹⁴ Королева Э.А. Ранние формы танца. — Кишинев, 1977.

¹⁵ Гоян Г. Театр древней Армении. Т. I—II. — М., 1952.

¹⁶ Рахманов М. Узбекский театр (с древнейших времен до 1917 г.). — Ташкент, 1981.

va nota belgilari bilan yozilgan muvofiq keluvchi ritmik figura — usul bilan ta'minlangan. "Katta o'yin" o'zbek an'anaviy xoreografiyasining nufuzli bilimdonlari Yusufjon qiziq Shakarjonov va Usta Olim Komilovlar talqinida yozilgan¹⁷.

Tez orada materiallar zaxirasi hajmi kichik bo'lsa-da, sermazmun qo'lyozma bilan boyidi. Bu o'zbek shoiri va etnografi o'ulom Zafariyning qo'lyozmasi bo'lib, unda ayrim raqs figuralari va materiallarning ma'nosi Baxta rahbarligida bayon qilingan, farg'onacha xalq raqslarining plastik obrazlari syujeti ochib berilgan¹⁸.

O'sha davrda mavjud bo'lgan mumtoz aa xalq-sahna raqsi to'g'risidagi adabiyotni, shuningdek, Yevropa xalqlari madaniyatini aks ettirgan folklor san'atiga bag'ishlangan ocherklar, maqolalarni ishtiyiq bilan o'rganish natijasida qo'shimcha ma'lumotlar va asosiy xoreografik materiallar tadqiq qilinmaganligi, balki tekshirib chiqilganligi aniqlandi. Bu tekshiruvlar maqsadi xoreografik turkumlarning tarkiban murakkab qismlari "syujeti" va ayrim imo-ishoralardir. Ko'pincha qidiruvlar natijasida yagona raqs jumlasini, qo'l, gavda holati bilan bir qatorda tasviriy san'at materiallaridan, folklorchilar, tarixchilar, geograflar, shoirlar va boshqa ma'lumotlardan olingan umumlashmalar ko'payib ketishi oqibatida fikrlar oqimini vujudga keltirgan dalilning o'zi yo'qolib ketardi.

Biror moddiy yodgorlik mazmunini o'rganishning keng tarqalgan san'atshunoslik usuli — bu tadqiqotchini bir xalqdan ikkinchisiga, qit'adan-qit'aga, asrlar va mingyilliklar osha yetaklovchi erkin tafakkur usulidir. Bunday erkin tafakkur usuli bir turdagi materiallar asosida ko'pincha haqiqiy ilmiy kashfiyotga sabab bo'lishi va ba'zan muallif yaqin san'at turlari yoki fanlar bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lmasa yoki xalq hayotining o'ziga xos xususiyatlaridan bexabar bo'lsa, kutilmagan bema'niliklarga ham olib kelishi mumkin. Bunga O'zbekiston janubida olib borilgan qazilma ishlarida topilgan o'g'il bola sumagini arxeolog chekish trubkasi deb atagan holatni misol qilib keltirish mumkin.

Ikkita piyolasimon bo'rtib turgan shakl, biri ko'krakda, ekinchisi beldan pastroqda joylashgan, ko'rinishidan tayoqchalarga o'rnatilgan, hayvon quloqli va tuyoqli odam shaklidagi qandaydir afsonaviy mavjudot ushlab turgan narsa — buni ham o'zbek arxeologi hech bir ikkilanmay "qoshiq" deb atagan. Balki, u o'zbek-tojik xalqida "qoshiq o'yin" borligini eshitgan va noma'lum personaj raqsi zamonaviy folklor rus musiqiy guruhlarida bo'lganidek, qoshiqlarni bir-biriga urib ijro etiladi, deb taxmin qilgan bo'lishi mumkin.

¹⁷ Бакта И.Г., Романовская Е. Узбекский танец. Кatta o'yin. Архив И-та искусствознания им. Хамзы УзССР. Т(Б) Б-30, № 247, Т(Ф), № 398.

¹⁸ Зафари Г. Фольклорные элементы узбекского танца. Семантика эста. Архив И-та искусствознания им. Хамзы УзССР. Б № 122.

Ammo "qoshiq" so'zi biz uchun odatiy bo'lgan ma'noda ishlatilgan bo'lsa, boshlanganiga unchalik ko'p bo'lgani yo'q, u anglatadigan ibtidoiy ma'noda cho'mich va kagpir bo'lib, undan katta qozonda ovqat pishirish va suzishda foydalanilgan. Erkaklar kaftidek kattalikka ega bo'lgan cho'mich, shakli cho'ziqroq, ichi chuqurroq, kagpir esa yassi, har ikkalasining dastasi 40 dan 50—60 santimetr gacha bo'lgan.

Aynan mana shu narsalar kastanetalarga o'xshash, raqs davomida urilgan bo'lsa, chalinadigan birinchi zarbli asboblarga aylandi. Cho'mich va kagpir ikkalasini qo'l kaftida juft qilib ushlanadi, ularning dastasi esa barmoqlar orasida bo'ladi. Ispanlar dastalarni kesib, kagpir asosiga bilakka o'raladigan charm tasmlarni biriktirdilar va bu musiqa asbobini kastaneta deb atadilar.

Ammo yuqoridagi arxeolog afsonaviy mavjudot qo'llariga "qoshiq" tutqazish bilan cheklanmay, balki hech ikkilanmasdan uni "masxaraboz" — ya'ni o'zbek-tojik an'anaviy professional teatrining artisti deb ham ataydi. Bu yerda balki u "masxara" tushunchasi qadimiy Rimdagi teatrlashtirilgan tomosha — Omasxaradan kelib chiqqan deb taxmin qilgandir. A.Goyan va M.Rahmonovlar materiallariga asoslangan bo'lishi mumkin.

Ammo biz O'rta Osiyoda qoshiqning o'zi bo'lgan yoki bo'lmaganligini bilmaymiz-ku?

O'rta Osiyo xalqlari milodning dastlabki asrlarida ovqatlanishda qoshiqlarda foydalanganmi?! Shu kunlarda ham mamlakat ichkarisida yashovchi xalqlar taomlarni yuvilgan qo'llar bilan iste'mol qiladi. Buning ustiga arxeolog afsonaviy personaj qo'llarida tasvirlagan "qoshiq" yaqin o'tmishda paydo bo'lgan ruhiy yog'och qoshiqlariga juda o'xshab ketadi. Harholda milodning ilk asrlarida yashagan qadimiy slavyanlar turmushi haqidagi ma'lumotlar hozircha juda kam, shuning uchun ham ular taomni shunday madaniy gigiyenik usulda iste'mol qilganligini aniqlab beruvchi materialni topish mushkul.

Arxeologik taxmin-farazlar teatrshunoslik va san'atshunoslik tadqiqotlariga ko'chadi va ular kishini hayratga soladigan ma'lumotlarga duch kelish hech gap emas. Masalan, jiddiy san'atshunoslik asarida "Katta o'yin" xoreografi turkumi — "erotik raqs" deb atalgan. Kitobda bunday fikr qanday manbada olingani ko'rsatilmaganligi uchun ham san'atshunosning bunday qat'iy fikr bildirishiga ikkita keksa an'anaviy sozandaning tabiatdagi hayotni davom ettiruvchi kuchlariga bag'ishlangan "Anor bayrami" deb atalmish "xufiy bazmlar"da ishtirok etganliklari to'g'risida bergan guvohliklari sabab bo'lgan bo'lishi mumkin¹⁹. Bunday maxfiy to'dalar marosimlarida gulchambarlar bilan bezangan o'n ikki juft yalang'och erkak va ayollar qatnashgan. Ular g'amgiri cho'ziq qo'shiqlarni aytishgan va 12 ta sham yonib turgan xontaxtaga qo'yilgan.

¹⁹ Bu suhbat yozuvlari Hamza nomidagi San'atshunoslik instituti arxivida saqlanmoqda.

kosalarga anor suvini siqishgan. So'ngra ishtirokchilar anor suvini ichib, "Katta o'yin" usuli jo'rligida davra raqsiga tushishgan. Sozandalarni noma'lum uyga ko'zlarini bog'lab olib kelishgan. Ma'lumot beruvchilarning so'zlariga qaraganda, sozandalar eslariga nima tushsa shuni chalaverishgan. Bu san'atshunos mantiqiga rioya qilinsa, agar qandaydir bir guruh odamlar vals, marsh yoki mazurka jo'rligida erotik ermak bilan shug'ullanishni istab qolsa, har qanday musiqani ham erotik deb atash mumkin.

Muallif Farg'ona vodiysiga qilgan safarlaridan birida²⁰ o'zbek an'anaviy teatri va raqs san'atining otaxoni Yusufjon qiziq Shakarjonov qiziquvchan san'atshunos uchun qadimiy ssenariy bo'yicha maxsus raqs va ashula bayramini uyushtirgandi. Bu bayram kechqurunlari yonib turgan kunjara uyumi atrofida o'tkazilib, u "kunjara bazm" deb atalardi. Yaxshilab presslangan kunjara taxtalaridan turli fantastik va oddiy hayvonlar hamda ulkan gullar shakllari ishlanardi va yoqilardi.

Kunjara unchalik baland bo'lmagan sarg'ish alanga berib, biroz taxirroq, boshni aylantiruvchi hid taratib yonardi. Kunjaradan ishlangan shakllar ikkita hovuz o'rtasidagi maydongacha joylashtirilib, hovuzning qoramtir sathida miltiragan yulduzlar bilan aralash ko'rinardi. Marg'ilon va Farg'onadan kelgan keksa sozandalar, hofizlar va raqqoslar birin-ketin bu g'aroyib sahnaga chiqib, o'z san'atlarini namoyish qildilar. Bazm oxirida sahnaga o'tmishda mashhur raqqosa bo'lgan Qimmatxon Sultonova chiqdi. Unga Yusufjon qiziqning o'zi doirada jo'r bo'ldi.

Qimmatxon sahnaga chiqishidan sal oldin san'atshunos Yusufjon qiziq bilan bo'lgan suhbatda Siyovush haqidagi qadimiy afsonani eslab, uni "Katta o'yin" usulida raqsda ifodalash mumkinmi, deb so'radi. Yusufjon qiziq bosh silkidi va hozir Qimmatxon uning iltimosi bilan Farhod va Shirinning hayoti, muhabbati hamda halokatini raqsda ifodalab berishini ma'lum qildi. Qimmatxon shunday raqsni ijro etib berdi! Ertasiga xoreolog yordamida Yusufjon qiziq "Katta o'yin" raqs figuralaridan "Siyovushning hayoti, muhabbati va o'limi to'g'risida"gi afsona syujetini "sug'urib" oldi.

Tabiiyki, Qimmatxon raqsi ham, Yusufjon qiziq raqsi syujetlarning osongina tomosha qilinadigan quruq namoyishi bo'lmaydi, har ikkala ijro ham taxminiy personajlar obrazlari emotsional mohiyatini umumlashgan holda ochib beradi. Bu dalillar "Katta o'yin" usullarining aniq tanlanganligi va keng ifodaliligidan dalolat beradi.

1950-yillarda "O'zbek sovet teatri"ning I jildi materiallari San'atshunoslik institutida muhokama qilinganda bahs yuzaga keldi²¹. Jild mualliflari —

²⁰ 1956-yilning yozi.

²¹ Узбекский советский театр. Т. I. Глава I. Введение. Ташкент, 1966.

teatrshunoslar, shu jumladan, mazkur kitob muallifi ham Masxarabozlar va Qiziqchilar o'zbek an'anaviy teatrini professional san'at deb ta'rifladilar, musiqashunoslar va san'atshunoslar esa bu ta'rifga qarshi chiqib, unga o'zbek an'anaviy teatrini folklor teatri deb ta'rif berish fikrida qat'iy turdilar.

O'zbek va tojik xalqlari an'anaviy musiqa materialini chuqur o'rgangan musiqashunos F.M.Karomatov 1960-yillarda "xalq musiqasi"dan tashqari "xalq professional musiqasi" degan ta'rifii taklif qildi: bu "Yevropa tipiga oid bo'lmagan professional musiqa" degan ma'noni anglatadi.²² 1970-yillarda "xalq-professional" o'zbek musiqasi, shu jumladan, tuzilishi murakkab, sirtidan qaraganda Yevropa syuitasini eslatadigan, anchadan beri "noqonuniy ravishda" "Mumtoz musiqa" deb qarab kelingan "Maqom" "Sharq-G'arb" kulturologiya muammosini o'rganayotgan olimlar katta guruhining tadqiqot markazidan joy oldi.

"Katta o'yin"ni ham "noqonuniy ravishda" xoreografik klassika deb atagan xoreolog endi musiqashunoslarning "Sharq-g'arb" muammosida madaniyatning ikki turi — Sharq va G'arb madaniyatini qonuniylashtiruvchi ayrim asosiy xulosalariga tayanish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Raqs to'g'risidagi zamonaviy Yevropa fani, Yevropa xalq raqsi va Yevropa professional raqsining paydo bo'lish yo'lini o'rganar ekan, xoreografiyaning muayyan rivojlanish bosqichlarini qayd etib o'tdi. Shu kungacha raqs turlari, xillari va janrlarining mazkur bosqichlari hamda sifat belgilari butun jahon xoreografiyasi uchun o'zgarmas deb qarab kelinardi.

Faqat V.Krasovskaya asarida, "G'arbiy Yevropa baleti"²³ I jildi Kirish qismida muallif "o'tib ketgan sivilizatsiyalar" raqs madaniyati to'g'risida to'xtalib o'tadi. Ammo ayrim qadimiy sivilizatsiyalar "o'tib ketganlaridan" so'ng ham sirtidan zamonaviy Yevropa madaniyati yutuqlariga o'xshagan o'z madaniy hayotini davom ettiradi. Xitoy, Hindiston, Hindixitoy va Markaziy Osiyo madaniyatini shunday madaniyatlar sirasiga kiritish mumkin.

O'zbek-tojik teatr va musiqiy-raqs san'ati Yevropa madaniyatidan farqli o'zgacha *madaniyat turidir*. Bu haqda kitobning Kirish qismida *aytib o'tilgan*.

2. O'zbek millatining tarkib topishi to'g'risidagi materiallarning qisqa sharhi

Mashhur estetik Kogan fikricha, arxaiik madaniyatning, shu jumladan folklorning parchalanishi natural dehqon turmushining yo'q bo'lish davriga to'g'ri keladi. Yevropada folklori qo'msash XVIII asrdayoq boshlangan.

²² Кароматов Ф.М. Основные проблемы изучения макамов и мугамов в республиках Советского Востока. В кн.: Макамы, мугамы и современное композиторское творчество. — Ташкент, 1978.

²³ V.Krasovskayaning aytilgan asari.

Markaziy Osiyoda “badiiy ishlab chiqarish”, ya’ni professional ijod shaharlar turmushiga Yevropa folklorini qo‘msay boshlashidan ancha oldin kirib kelgan. Miloddan avvalgi davrga mansub mahalliy davlat birlashmalarida “badiiy ishlab chiqarish” mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumotlar bor va ular shu kungacha yashab kelmoqda. O‘sha qadimiy davrlarda professional san’at folkloridan “oziqlanib”, ayni vaqtda folkloriga ta’sir ham etgan.

Mazkur mavzuni mufassal ko‘rib chiqmasak-da, qadimiy Markaziy Osiyo madaniyati rivojlanishida muayyan *tarixiy “markazlar”, yangi madaniyat turlarining* ibtidolari mavjud bo‘lganligini aytib o‘tishimiz lozim.

Bu bosqichlar quyidagicha ifodalanadi:

— *birinchidan*, hududga turkiyzabon xalqlarning ko‘plab oqib kelishi aa mahalliy xalqlarga aralashib ketishi.

Tarixiy ma’lumotlar guvohlik berishicha, turkiyzabon xalqlar Markaziy Osiyo hududida qadimdan yashab kelgan, ular o‘troq va ko‘chmanchi turmush kechirgan. VI asrda turkiy xalqlarning katta guruhi O‘rta Osiyoga kirib keladi, ular mahalliy xalqlarga aralashib, o‘troqlashib ketadilar, hayot ko‘nikmalarini, qishloq xo‘jaligi va shaharga xos mehnat malakalarini o‘zlashtiradilar va o‘zlarini sartlar deb atay boshlaydilar. XIII asrda O‘rta Osiyoni tatar-mo‘g‘ul qo‘shinlari egallaydi, vaqt o‘tib, ularning ma’lum qismi o‘troqlashib, mahalliy aholiga aralashib ketadi; ularni tarixchilar Movarounnahr o‘zbeklari deb atashni taklif qiladilar.

Buni erkin nomlash deb atash joizdir. Umuman, o‘zbeklar hozirgi O‘zbekistonning vodiy-dasht yerlariga XVI asrda o‘zlari uch yuz yil yashagan Volganing chap qirg‘og‘idan ko‘chib kelganlar. Ularning ko‘plari malla, yuzlari keng, moviy ko‘zli bo‘lgan. Ayrimlari, yuzlari yevropacha bo‘lib, sochlari och jigarrang tusda bo‘lgan. Agar qizil yuzli, yonoq suyaklari turtib chiqqan, malla sochlar chingiziy xonlarning bevosita avlodi desak, och jigarrang sochlilarni mo‘g‘ul-tatar qo‘shinlari bilan birga Volga bo‘ylariga kelgan va uch asr mobaynida daryoning o‘ng qirg‘og‘ida yashovchi slavyan qabilalari bilan aralashib ketgan sibirlik turkiy xalqlar avlodi deyish mumkin.

XVI asrda O‘rta Osiyo dashtlarida yashagan turli turkiy xalqlar hamma yerda mahalliy aholini — qadimiy forsiyzabon xalqlarni va sartlarni tog‘ yonbag‘irlari va tog‘larga siqib chiqardi. Bu yangi xalq o‘ziga o‘zbek degan nomni tanladi. XIX asrga kelib sartlar, Movarounnahr o‘zbeklari va o‘zbeklar turli hududlarda bir-biriga aralashib ketdi. Shunday bo‘lsa-da, O‘zbekistonning janubida hozirgi kunda o‘rta asrlarga mansub xalqlar aa elatlar vakillarini aniq ajrata olish mumkin, ular nomlari, ro‘zg‘or ashyolari, mehnat xususiyatlari va xalq madaniyatining o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

— *ikkinchidan*, VII asrda Markaziy Osiyo Arab xalifaligi tarkibiga bo‘ysundirildi aa butun hududda yangi Islom dini joriy etila boshlandi.

Yangi din bilan birga arab yozuvi, yuksak rivojlangan ilmiy va adabiy til ham kirib keldi va tez orada u butun sharq “madaniyat tili”ga aylandi. Bu til orqali O‘rta Osiyo olim va shoirlari ijodi jahon ko‘lamida tarqaldi.

O‘zbek musiqashunos olimlari, asosan F.M.Karomatov keltirgan isbotli taxminlarga ko‘ra, IX—XI asrlardagi madaniy yutuqlar ayni gullagan davrda tojik-o‘zbek san’ati dindan “ajralib”, mustaqillikka ega bo‘ldi.

Aynan iana shu asrlarda ikki til — o‘zbek va tojik tillari o‘z o‘rmini aniq belgilab oldi.

O‘rta Osiyoda o‘troq xalqlarning an’anaviy bayramlari arablar kelgunga qadar ko‘chmanchi xalqlarning bayramlari bilan aralashib ketgan bo‘lib, yangi qaror topgan Islom davrida o‘z shaklini o‘zgartirishi kerak edi.

Turli qadimiy ilohlarga topinish bilan bog‘liq bayramlar o‘zining tom maqsadi va maxsus mazmunini yo‘qotdi, ammo hayotdan butunlay chiqib ketgani yo‘q. Xudolar va ilohiy bayramlar she’riylashib, mazmuniy mohiyatiga ko‘ra “mehnat” bayramlari va “san’at” bayramlariga aylandi. Jamiyat hayotida mehnat, bola tug‘ilishi, to‘y va dafn marosimlari bilan bog‘liq maishiy, zaruriy odatlar va udumlar saqlanib qoldi.

Ko‘rib chiqilgan ming yillik davr — miloddan avvalgi so‘nggi asrlar va milodiy ilk asrlarga oid moddiy madaniyat yodgorliklariga ko‘ra, sanamlar bilan “muloqot” musiqa, qo‘shiq va raqs yordamida amalga oshirilgan.

Qo‘shiqlar matnini o‘zgartirish oson, dahshatli xudoni afsonaviy devga, hayot davomchisi bo‘lgan ma’budani ajoyib ayol, o‘rmon ilohasi, afsonaviy pari timsolida tasvirlash va shu kabilar juda oson. Bunday hollarda musiqa ham, raqs ham majburiy *aniqligini* yo‘qotib, she’riy erkinlikni kasb etadi, zarur she’riy ohanglar bilan boyiydi.

O‘zbeklar va tojiklar san’ati qadimiy dindan ana shunday “oddiy” bo‘lmagan yo‘l bilan “ajralib chiqqani” ehtimoldan uzoq emas. Islom marosimlari doirasiga raqs kirmaganligi tufayli raqs musiqa bilan birgalikda yangi “dunyoviy” va “xalq” madaniyati doirasiga IX—XII asrlardan ancha oldin kirib borgan.

Shuni aytib o‘tish kerakki, musulmonlar hayotining ma’nosi va mazmunini belgilovchi eng qat’iy qonunlar “Odat” hamda “Shariat”da, shuningdek, og‘zaki da’vatlarda ham raqs bevosita taqiqlanmagan. Ammo bu janrga sunniylarning eng taqvodor qismi munosabati ijobiy bo‘lmagan.

Biroq, bunday salbiy munosabatni bo‘rttirib yubormaslik kerak. Rossiya nasroniylikni qabul qilgan ilk davrlarda nasroniylik peshvolari davra bo‘lib, qo‘shiq aytib ijro etiladigan ruscha o‘yinlarni shayton o‘yini, gunoh deb atab, faol qarshilik qilganlar.

Turli tarixiy materiallar dalolat berishicha, Markaziy Osiyoning o‘zlarini o‘zbeklar, tojiklar, sartlar deb atovchi xalqlarida dinning keskin o‘zgarishi ularning dunyoqarashiga ta’sir etmasligi mumkin bo‘lmasa-da, raqs hech qachon yo‘q bo‘lib ketmagan.

O'z qadimiy madaniyati hamda o'zlariga xos dinlariga ega bo'lgan xalqlarning o'zaro qo'shilib ketishi ham o'zbek milliy xoreografiyasi tarixiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Oldin Gulag qamoqlarida, keyin Sibir lagerlarida ko'p yillar tutqunlikda bo'lgan mashhur rus geografi, tarixchisi, etnografi L.Gumilyov o'zining olamshumul asarlarini Sibirning turkiyzabon xalqlariga bag'ishlagan²⁴. U o'zining birorta asarida turkiy xalqlar raqslarini qayd etmagan, ayni vaqtda VI—VIII asrlarga oid Oitoy sulolaviy solnomalarida Xitoyda tomosha ko'rsatgan "turkiy" raqqosalar to'g'risida yozilgan. Ular ruhoniylar bo'lmaganligi, aksincha, dunyoviy va nodunyoviy raqqosalar bo'lgani shubhasiz. Ular Samarqand, Buxoro va Toshkentdan kelgan ekanlar²⁵.

L.Gumilyovning o'ziga xos din haqida ta'rif beruvchi materiallari qiziqarlidir. Turkiylar "moviy osmon"ga e'tiqod qilganlar, ularning e'tiqodida Xudoga nisbatan mistik munosabat bo'lmagan. Turkiylar fikricha, odamlar ruhi Osmondan (fazodan?) tushadi, vafot etganning ruhi ham o'sha yoqqa ketadi.

Barcha jonli va jonsiz tabiat cheksiz samoga "singib ketadi" va "qayta tiklanadi". "Hech nima" bilan allaqanday "kosmik muloqot". Turkiylar bu "samoda" hech qanday dahshatli kuchni ko'rmaydilar. Ammo! — unga intilmaydilar ham.

XIII—XVI asrlarda Sibirdan, Volganing chap qirg'oqlaridan va Oq O'rdadan O'rta Osiyoga ko'chib kelgan xalqlarning asosiy qismini barloslar, kenagaslar, jaloyirlar, no'g'oylar, qo'ng'irotlar, naymanlar, qang'lar, mang'itlar, qatag'onlar, do'rmonlar, saroylar, qipchoqlar, xitoylar, quramalar va boshqa yigirmaga yaqin xalqlar tashkil qilgan.

Mang'itlar — qoramang'itlar va oqmang'itlar, qo'ng'irotlar, naymanlar, saroylar, xitoylar hozirgi kungacha ham turmushda moviy rangni qabul qilmaganlar.

Bu fakt keksa raqqosa sahnaga chiqishdan oldin moviy ko'ylakni kiyishdan bosh tortgan va barcha havaskor artistlar uni qo'llab-quvvatlaganda tasodifan ma'lum bo'lib qoldi.²⁶ Shunda tajriba tariqasida Farg'onadan kelgan raqqosa ana shu ko'ylakni kiyib, klub sahnasiga chiqdi. Tomoshabinlar avval allaqanday xijolatli istehzo bilan uni kuzatib turishdi, keyin esa birin-ketin zaldan chiqib keta boshlashdi. Ularning hammasi oqmang'itlar edi.

Moviy ko'ylak bilan "tajriba" boshqa qishloqlarda ham o'tkazildi, natija o'zgarmadi. Zangori gazlama, taroq, tog'oradan nima uchun foydalanish mumkin emasligini hech kim izohlab berolmadi, bergan javoblari oqat shu: mumkin

²⁴ Гумилев Л.Н. Древние тюрки. — М., 1967.

²⁵ Бичурин Н.Я. (Иоакимф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. — М. — Л., 1950.

²⁶ Qashqadaryo viloyati, Koson tumani, Orbon qishlog'i, 1978-yil.

emas, "bam", ya'ni "tabu". Qiziqarlisi, "moviy" degan tushuncha lug'atda ham yo'q, buni ishlatish juda zarur bo'lgan hollarda "ko'k" deyishadi, xolos.

Mang'itlar va saroylarning yaqin qarindoshlari, buyuk Temur davlatining asoschilari barloslar va kenagaslar ajoyib saroylar, madrasalar, masjidlar barpo etib, ularni osmon kabi moviy rangli naqshlar bilan bezagan bir vaqtda mang'itlar, qo'ng'irotlar, saroylar bu narsalarga hech narsani sezmagandek, beparvo nazar tashlaydilar. "Moviy tajriba" ishtirokchilarining bobo-buvilari ham musulmon bo'lgan bo'lsalar-da, "moviy" rang — "bam"! Qanday barqaror odat.

Hech qanday munozaraga boshlashga urinmay, hatto turkiyshunoslarning qadimiy turkiylarning qadimiy dinlari to'g'risidagi taxminlari ro'yxatini taklif qilishga tavakkal ham qilmay, bir narsani aytib o'tish lozimki, qadimiy turkiylar va ularning avlodlari hayot, uning bosqichlari, *hayotiy kuch* to'g'risida Yevropa va ko'pgina *Osiyo xalqlaridan farq qiluvchi* tasavvurga ega bo'lganlar va bu ulardan bayramlar va tantana kunlarida qo'l ushlab, davra yoki qator bo'lib ashula aytishni, raqs tushishni talab etmagan. Hayotiy tasavvurlarni musiqiy-plastik obrazlarda ifodalash hamda aks ettirish uchun qadimiy turkiylarga "o'z-o'zini ifodalash" kifoya qilgan. Shuning uchun ham cheksiz dashtlarda "uzoq irodali kishilar" qadrlanganligi va tarbiyalanganligi bejiz bo'lmasa kerak. O'ylab ko'rishga arziydi: "kuchli irodali" emas, balki "uzoq", ya'ni sabotli, chidamli, behad. Kezi kelganda, o'zbek xalqining nomi "o'ziga o'zi bek", ya'ni "mustaqil inson" ma'nosini anglatishini eslash o'rindir.

Yana bir qiziq joyi shundaki, yuqorida nomlari qayd etilgan Sibirdan kelgan xalqlar hozirgi Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston hududlariga o'nashganlar, lekin rivojlangan milliy xoreografiyaga ega emaslar. Ayni paytda O'zbekiston hududidagi turkiy xalqlar raqs tushadilar! Xorazmning Mang'it tumanida yashovchi mang'itlar rivojlangan xalq va havaskorlik yarim professional raqslarga ega, ayni bir vaqtda Amudaryoning narigi qirg'og'i — Qoraqalpog'istonda yashovchi mang'itlar raqs tushmaydilar!

Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston olimlari bu holatni turkiylar O'zbekistonda o'troqlashgan va qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi mahalliy aholiga aralashib ketganligi va, tabiiyki, madaniyat va raqs ham qo'shilib ketganligi bilan izohlaydilar. Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmanistonda esa turkiylar qadimiy yirik qabilalardan ko'chmanchilarga, mayda oilaviy urug'larga aylangan, bu esa raqsning rivojlanishigagina emas, balki saqlanib qolishiga ham yo'l bermagan. Shunday bo'lsa-da, sinchkovlik bilan olib borilgan qidiruvlarda raqs reliktlari baribir topelgan.

Xoreografiya tushunchasi raqsning barcha shakllari, sinflari, turlari va janrlarini qamrab oladi. Balet, Sharq mumtoz raqsi, xalq raqslari, sahna raqslari, maishiy, bal raqslari va hatto muz ustidagi raqsnini ham bitta tushuncha —

xoreografiya birlashtiradi. Bu tushunchani yevropalik professional balet va raqs yaratuvchilar miloddan avvalgi VI asrga oid qadimiy grek teatr terminologiyasidan o'zlashtirganlar. VI asr qadimiy grek tragediya tomoshalarida, Sofokl asarlarida barcha rollarni bitta aktyor ijro etgan, keyinchalik esa tomoshalarda ikkita, uchta aktyor qatnasha boshlagan.

Shuning uchun tomoshalarda tragediya qahramonlari bilan muloqotga kirishib, hodisalarni sharhlovchi matnni ritmik ohangda talaffuz qiluvchi kishilar guruhi — Xor muhim rol o'ynagan. Xor tomosha yanada ifodalibroq bo'lishi uchun matnni sinxron gavda harakatlari va imo-ishoralar bilan to'ldirgan. Yevropalik raqs ijodkorlari "xor" va "arafika" tushunchalarini airiktirib, butun raqs san'atini xoreografiya deb ataganlar.

XX asrda xoreograf (xoreografiya ijodkorlari) va xoreolog (xoreografiya tadqiqotchisi) tushunchalari paydo bo'ldi.

Ammo "xor" tushunchasini qadimiy Sibirda ham uchratish mumkin. Ammo bu asosan turkiyzabon xalqlarda emas, balki O'rta Osiyoga ko'chib boriagan xalqlarda uchraydi.

Ulan-Udelik olim D.S.Dungarov o'z asarlaridan birida shunday yozadi: "Buryatlar mo'g'ul tilida so'zlashuvchi xalqlar orasida *Yooxor davra raqsini* saqlab qolgan yagona xalq hisoblanadi. Qadimda bu raqs urug'-qabila ilohlari va ruhlarga bag'ishlangan yozgi aa kuzgi-bahorgi qurbonlik marosimlarida ijro etilgan". "Buryatlar, evenklar va dolganlar bu raqsni odatda biror predmet yoki tabiat obyekti: xoda, ustun, daraxt, gulxan, tepalik atrofida ijro etganlar. O'sh qizlar va yigitlar bir-birlarining qo'llaridan ushlab, davra hosil qilganlar va sekin qadam tashlaganacha o'ngdan chapga qarab (quyosh yo'nalishida) harakat qilganlar hamda raqs ritmida qo'shiq aytganlar. Harakat asta-sekin tezlashgan va, nihoyat, keskin tez yuqoriga sakrashlar boshlangan. Shunda raqs tushayotganlar baland ovozda "*yooxor, yooxor, yoo-xoro-yoo!*" deb qichqirganlar. Hozirgi kunda davra raqslari oltoy tillari oilasiga mansub uchta asosiy xalqda: turkiylar (yoqutlar), mo'g'ullar (buryatlar) va tungus-manjurlar (evenklar)da saqlanib qolgan²⁷.

Dungarov o'z fikrini davom ettirib, yooxor davra raqsi barcha oltoy xalqlarining emas, balki faqat yuqorida aytib o'tilganlarning raqsi ekanligini eslatib o'tadi. Bunda davra raqsining taomilda bo'lganligi to'g'risida Baykalorti va Baykaloldi bronza va ilk temir davriga mansub qoyalarga ishlangan tasvirlar ham dalolat beradi, ularni *yevropeoidlarga mansub bo'lgan* dinlin qabilalari, so'ngra ularning bevosita avlodlari hamda yoqutlar va buryatlar ajdodlari hisoblanmish uurikanlar qoldirgan. *Xitoy sulola solnomalarida dinlinlarning*

²⁷ Дугаров Д.С. Происхождение кругового хороводного танца у некоторых народов Сибири (к проблеме культурно-исторических контактов народов Алтайской языковой общности). (Тезисы докладов Алтайской конференции XIX). Ташкент, IX, 1986, — М., 1986.

ularning hozirgi avlodlari raqslariga aynan o'xshash raqslari bo'lganligida xabar beradi.

Olim xalqlarning bir-biriga qo'shib ketishiga oid murakkab o'zaro munosabatlarini ta'riflab, quyidagi to'xtanga keldi:

"Shunday qilib, yooxor davra raqsi oltoy xalqlarining sof ijodi emas, balki bronza asrida Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirga g'arbdan ko'chib kelgan *qadimiy hind-yevropa qabilalariga mansub madaniy aholi reliktidir*".

Tarixchilarning so'nggi tadqiqotlari hozirgi Rossiya va Ukrainaning janubiy hududlarida hind-yevropa qabilalariga mansub aholi yashaganligi hamda ular shu yerdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Sibir hududlariga tarqalganligini tasdiqlaydi. Bu nazariyaning isboti sifatida olimlar yuqoridagi aytib o'tilgan barcha xalqlar lug'at zaxirasiga, shuningdek, sharqiy xalqlar lug'atiga kirgan talaffuzi bir xil yoki bir o'zakli so'zlarni keltiradilar. Barcha so'zlarni keltirish o'rinsiz bo'lganligi uchun misol tariqasida ulardan to'rttasini keltiramiz:

1) du — tojikcha, dva — ruscha, tu — inglizcha.

Ikki raqamiga mahalliy aholi qadimdan sehrli raqam sifatida qarab keladigan bu insoniyat ajdodi Odam Ato aa Momo Havoga borib taqalsa ajab emas.

2) chor — tojikcha, chetire — ruscha.

To'rt raqami "xavfli" hisoblangan!

3) tan — tojikcha, o'zbekcha, stan — ruscha. "Tan" va "stan"ni asos del olish mumkin. Ammo so'zning ma'nosi insonning boshidan tovonigacha yurak, miya, hatto organizmning eng mayda tarkibiy qismlarini ham o'z ichiga olgan butun "tana"ni anglatadi.

O'zbek musiqiy lug'atidagi "Tantana" tushunchasi ruscha "Torjestvo" del izohlanadi.

Hind musiqa-raqs lug'atida "Tana-tana" ritmik figuralar majmuini anglatadi.

O'zbek musiqiy-raqs san'atida Farg'ona mintaqasi ayollar ijodiyoti janrlaridan biri hisoblanmish "Tanovar" ashulasi va raqsi keng tarqalgan. Agar bu tushunchani izohlashga urinib ko'rilsa (uning ma'nosi tub aholiga hech qanday izohlarsiz ham tushunarli), "Tanovar" so'zi insonning turmushning barcha ikir-chikirlari — Muhabbat, Nafosat hamda Mehr orqali Xoinlik va ruhiy O'limgacha bo'lgan tuyg'ularni anglashga intilishini ifodalaydi.

O'zbek millatining shakllanish tarixiga shunchalik kirib borish zarurmikin?

Mahalliy qadimiy xalqlar miloddan avvalgi IV mingyillikda sirlil hindi-yevropaliklar, keyinchalik eramizdan oldingi I mingyillikda Old Osiyodan kelgan forsiyzabon xalqlar, so'ngra Aleksandr Makedonskiy qo'shini qoldiqlari bilan; undan keyin — endi bizning davrda sibirlik turkiylar, qisman arablar, mo'g'ul-tatarlar va yana Oq O'rda turkiylari bilan aralashib ketgan.

Dunyodagi deyarli barcha xalqlar shunday shakllangan desak xato bo'lmaydi — Hindistonda kishilar 586 tilda gaplashadi, shuning uchun ingliz tili ikkinchi davlat tili sifatida qabul qilingan. Xitoyda ham millat va elatlar bundan kam emas. Yevropadagi millat va elatlar ham aralash-murakkablikda bundan farq qilmaydi.

O'zbek xalqining yuksak madaniyati, shu jumladan, rivojlangan og'zaki nutq va adabiy til, fan, musiqa, xoreografiya, teatr, tasviriy san'at — turli rakurs hamda xususiyatlarda ifodalangan hayot va madaniyat borasidagi keng ko'lamli bilimlar asosidagina shakllanishi mumkin edi.

Faqat bir urug', qabila, hatto kichik elatdan iborat yopiq jamiyat o'zga xalqlar bilan keng muloqotda bo'lmay, odamlari va madaniyati bir-biriga qo'shilmay turib, uzoq o'n ming yillardan to bugungi kunga kelib ham "tabiatdan endigina ajralib chiqqan ibtidoiy odam" darajasida qolgan.

Xalq san'atining, kengroq olinganda, milliy san'atning ma'nosi va mohiyati qadimdan boshlab hayotning o'zi, barcha tabaqalarga mansub odamlar hayotidan iborat bo'lgan, san'atning oliy g'oyasi esa doimo yaxshi hayot to'g'risidagi orzu bo'lib kelgan; aytilganlarni hayotga badiiy obrazlarda tatbiq etishga badiiy Tasavvur yordam bergan.

Olimlarning ta'kidlashicha, varvarlikning eng quyi bosqichlari davridayoq insonda oliy xususiyatlar rivojlana boshlagan. Ular insoniyatning rivojlanishiga yordam beradigan asotirlar, afsonalar va rivoyatlarning og'zaki adabiyotini yaratuvchi va shular orqali inson zotiga qudratli ta'sir ko'rsatuvchi *Tasavvur* eng muhim oliy xususiyatlardan biri deb hisoblaydilar.

Ammo xalq va millatning estetik Ideali ham, xuddi Go'zallik singari, "tarix mahsuli"dir. Garchi "go'zallik — ijobiy umuminsoniy qadriyat" bo'lsa-da, "predmetni go'zallik sifatida idrok qilish xalq turmushining xarakteri va turiga bog'liq bo'ladi".

Raqs — san'atning eng umumlashgan va eng emotsional Turlaridan biri bo'lib, unda estetik Idealni ko'z bilan ko'rish mumkin. Ideal mohiyatini tushunish — bu xalqning badiiy tafakkurini, uning dunyoni his etishini, dunyoqarashini, uning Orzusini tushunish demakdir.

O'zbek xalq san'atidagi estetik ideal — qiziquvchan, dunyoni bilishga intiluvchan, shijoatli, g'ayratli shaxsdir.

Musulmon ideali — butun hayot davomida tabiat hodisalaridan, tabiatning o'zidan, inson turmushining hatto eng ko'rimsiz hodisalaridan ham Go'zallikni izlash bilan yoritilgan itoatkorlik, sabr-bardoshdir. Haqiqiy musulmon butun hayotdan Go'zallikni izlaydi, oni Ideal qilib ko'taradi.

O'zbek xalq xoreografiyasining lirik qahramoni musulmon idealiga zid emas, zero, o'zbek xalq raqslari go'yo insonning o'zidan, uning ijodiy g'ayratidan

"ajablanish" va "zavqlanish" hissiyotidan hamda "ajoyib tabiati"dan payd bo'ladi²⁸.

O'zbek raqsi mehnat harakatlaridan, iqlim, geografik joylashuv xususiyatlaridan odatdagi turmush ikir-chikirlari va butun inson hayotining yuksak shodligi bilan yoritilgan ramziy marosimlardan yetilib chiqadi.

O'zbek raqs san'ati ming yillar mobaynida insonning jamiyatdagi hayotini va umuman ijtimoiy hayotni aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgu bo'lib kelgan.

O'zbek raqsi eng kam miqdordagi ifoda vositalari ko'magida, juda qisq vaqt davomida (lahzada) ko'plab hayotiy hodisalar mohiyatini ifodalashga qodirdir.

Hayotiy hodisalarni ifodalalar va aks ettirar ekan, o'zbek raqsi asosan hayotdan olingan rang-barang taassurotlar natijasi bo'lmish inson hissiyotini ifodalaydi.

Mazkur kitobning ilk bo'limlarida o'zbek raqsi raqsning xoreografiya mavjud bo'lgan barcha Sinflari, Turlari, Xillari va Janrlarini eng oddiy ibtidoiy ritmik taqlidiy va illyustrativ pantomimadan Klassik raqsgacha o'z ichiga olishini aytib o'tgan edik.

Klassik raqsning o'zi nimaq

Mavhum atamalarni amaliy idrok etish uchun oddiy nazariy tushunchalarni idrok etish lozim bo'ladi.

3. Nazariyadan bir shingil

Raqs san'atidagi sinflar, turlar xillar va janrlar

San'at falsafasi ishlab chiqqan qonunlarga ko'ra, barcha Turlar, Xillar va Janrlar ikki Sinfga ajratiladi:

1. *Xalq san'ati* (folklor).

2. *Professional san'at*.

Biz bunga o'zbek raqs san'ati tarixi va hayotidagi muhim ikkita Sinflar ham qo'shamiz.

3. *Yarim professional san'at* — bunga turli dinlar va diniy e'tiqodlar san'atini kiritamiz.

4. *Havaskorlik san'ati* — noprofessional havaskorlar ijro etadigan professional san'at.

Xalq raqs san'ati ham, professional raqs san'ati ham asosiy Tur va Xillarga hamda son-sanoqsiz Janrlarga ajratiladi.

²⁸ Tengsiz iste'dod egasi sozanda, raqqos, qiziqchi Yusufjon Qiziq so'zlari.

Bu torlarning har birini farqlovchi sifat belgilari Raqsning xilma-xil mazmuniy shakllarini tahlil qilish imkonini beradigan vosita, qurol hisoblanadi. Ayni mana shu “vositalar” raqsning tug‘ilishiga sababchi, amaliyotchilar tomonidan yangi raqs asarlarini yaratish quroli hisoblanadi.

Tur tushunchasining sifat belgilaridan kelib chiqqan holda, Raqs san’ati tushunchasi ikki Turga bo‘linadi:

- a) Sport-gimnastik raqsi;
- b) Badiiy raqs.

Ammo raqs shakllarining sifat xususiyatlarini anglab yetmay turib, raqs yaratish tamoyilini tushunish mumkin emas.

Xoreografiya san’ati shakllarini yaratuvchi sifat xususiyatlari quyidagi atamalar bilan ta’riflanadi:

1. *Tasviriy vositalar;*
2. *Ifodali vositalar;*

1. Tasvirlash vositalari:

a) “jonli” hayotdan nusxa ko‘chiruvchi taqlidiy harakatlar va tovushlar (hayvonlar, qushlar, baliqlar, sudralib yuruvchilar xatti-harakatlari);

b) faqat insonga xos hayotiy harakatlarni (mehnat, turmush, harbiy jarayonlarni) takrorlovchi hamda ularning ritmik shakllarini birlashtiruvchi **tasviriy harakatlar.**

Birorta hayotiy hodisani ko‘rish va eshitish orqali bevosita qayd etish kishida tasviriy vositalarni keltirib chiqaradi.

2. Ifodali vositalarni insonda kechayotgan ma’naviy jarayon keltirib chiqaradi. Hayot hodisalarini bevosita ko‘rib va eshitib idrok qilish Inson qalbi orqali sodir bo‘ladi va u Noaniq, Umumlashgan tovush hamda harakatlarni keltirib chiqaradi, yaratadi. Bu harakatlar konsentratsiyalangan **insoniy hissiyotlar:** oodlik, g‘am, sarosima, qo‘rquv, dahshat, tantana va shu kabilarni aks ettiradi; hissiyotlar, kechinmalar Obrazini yaratib, musiqiy ovozlar, inson tanasining harakatlari orqali ko‘rsatib beriladi. (Tabiiyki, bilish-baholash va o‘zgartiruvchi-belgili jarayonni ham qamrab oluvchi san’at asarini yaratish jarayoni yuqorida aytilgandan ko‘ra ancha murakkab. Mazkur asar kontekstida jarayonning “umumiy” kechishi aks ettirilgan xolos).

Yuqorida aytilganlar asosida biz **“tasviriy vositalar”ni shartsiz, “ifodali” vositalarni esa shartli deb atashimiz mumkin.**

Tasviriy vositalar raqs shakllarida hayotiy hodisalarini ko‘ra bilishga yordam beradi, ifodalash vositalari san’at shakllarida ijrochi-yaratuvchini ham, tomoshabinni ham kuyinishga, achinishga, zavqlanishga, nafratlanishga va **shu kabilarga majbur qiladi.**

Ammo tasviriy va ifodali vositalar badiiy Obraz yaratishda deyarli hech qachon sof shaklda namoyon bo‘lmaydi. **Tasviriylik va ifodalilik (emosional ifoda) raqsda uyg‘un yoki almashinuvchan holatda bo‘ladi.**

Badiiy raqsda **“assosiativ tasviriylik”** muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan ijrochi biror jonivorning hatti-harakatini tasvirlar ekan, insoniy sifatlarini nazarda tutadi. Aytaylik, yo‘lbarsning hamlasi jasurlikni, qushning qanot qoqishi ruhiy hayajonni eslatishi mumkin. Ko‘tarilgan qo‘llarning keskin titrashi “shamolda silkinayotgan daraxt shakllari” timsolida shamolni ifodalagandek bo‘ladi. Bunday o‘xshatishni raqsning muayyan kontekstida “sarosimali hissiyotlar”ni ifodalagan holda ynada chuqurlashtirish mumkin.

Bu umumestetik tushuncha va ta’riflar shuni ta’kidlaydiki, raqs — so‘z jismoniy, gimnastik harakatlar yig‘indisi emas, balki kishi fikri, hissiyoti va tasavvuri, Plastika, Ritmika va Ohangning garmonik birligi bilan ifodalangan umumiy natijasidir.

Sport-gimnastika raqsi na tasviriy va na ifodali shakllarda inson tanasining obrazli harakatlardan foydalanmagan, ritmik uyushgan, garmonik harakatlarning sof “harakat” usuli hisoblanadi. Bunday raqsning maqsadi — kuch, chaqqonlik, g‘ayratni aks ettiruvchi harakatning o‘zginasi bo‘lib, u uyg‘unlikni, plastikaning batartibligini his qilishdan zavqlanish tuyg‘usini uyg‘otib, ijrochilik zavqini vujudga keltiradi. Harakatning turli texnik shakllari: turgan joyda oddiy yurishdan tortib g‘ayrioddiy sur‘atda yugurishgacha, gir aylanishdan tortib sof akrobatik harakatlaraacha zo‘r mahorat bilan ijro etilishi tomoshabinlarda zavq-shavq uyg‘otadi.

Badiiy raqs — inson tanasining musiqa orqali tartibga solingan, fikr, hissiyot, tasavvur birgalikda tasviriy, assosiativ-tasviriy va ifodali badiiy vositalar yordamida keltirib chiqargan hamda natijada badiiy Obrazni paydo qiluvchi harakatidir.

Biroq, raqs aniq chegaralangan ikki turga ajratilar ekan, shuni aytib o‘tish lozim bo‘ladiki, **badiiy raqs sport-gimnastika raqsi elementlarini o‘z ichiga olmaydi, bu ayniqsa raqsning zarur “bog‘lovchi” bo‘limlarida, raqsning virtuoz bo‘limlarini ijro etishda, asosiysi, raqqos mushaklari, paylari va harakat apparatining elastikligi va nafas olish uyg‘unligini shakllantiruvchi sport-gimnastika elementlari asosiga qurilgan o‘qitish jarayonida** o‘z aksini topadi.

Sport-gimnastika raqsi ham badiiy raqs elementlaridan foydalandi.

San’atda **Xil** tushunchasi san’atning o‘ziga yaqin boshqa turlaridagi qandaydir sifatlarini o‘ziga singdirgan muayyan san’at turi tizimi xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Ritm va plastikaning ajralmas birligi hisoblanmish raqs harakatlarida Musiqa — bevosita hissiyotlar oqimi, ya’ni lirika, musiqiy mavzular, musiqiy dramaturgiya xususiyatlari va shu kabilar mujassamlashgan; raqs Tasviriy san’at elementlari — harakatlar va siljishlar suratidan foydalanadi, haykallarga xos statuar holatlarni shakllantiradi va h.k.; Adabiyotdan, nazm va she’riyatdan — syujet, fabula,

xarakter, assosiativ obraz va shu kabilarni, dramaturgiyadan tashkiliy tuzilish, muammo, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim va shu kabilarni o'zlashtiradi.

Agar faqat mana shu uchta sifat belgilari hisobga olinadigan bo'lsa, Raqsda uch Xil mavjud: Syujetli raqs (Adabiyotdan), Lirik raqs (Musiqadan), Statuar yoki Naqshinkor (butun tasviriy san'atdan, zero, statuarlik va naqshinkorlik fazoda harakatlanuvchi plastikani uyushtirishda eng muhim badiiy elementlar hisoblanadi).

Biroq, xoreografiya amaliyotchilari xoreologlar bilan birgalikda Raqs tushunchasi umumlashgan, mavhum tushuncha ekanligidan kelib chiqib, Raqs san'atining sifat belgilarini tasniflashda uning quyidagi xillarini farqlaydilar:

1. **Taqlidiy raqs**lar — hayvon, qush, baliq, o'simlik, inson hatti-harakatlaridan, ya'ni jonli tabiatdan (tasviriy, assosiativ-tasviriy va ifodali vositalardan foydalangan holda) badiiy nusxa ko'chirish.

2. **Tasviriy (illyustrativ) raqs**lar — tasviriy, assosiativ-tasviriy va ifodali vositalardan foydalangan holda mehnat jarayonlarini — ovchi, baliqchi, terimchi, ishchi, hunarmand faoliyati jarayonlarini yoki biror urush janglarni aks ettiruvchi raqslar.

3. **Lirik raqs**lar — inson tuyg'ulari, hissiyotlari, kechinmalarini bevosita yoki obrazli ifodalovchi raqslar.

4. **Estetik raqs**lar — ruhshunoslar "jazava" deb ataydigan, jamlangan asab tuyg'ulari hamda kuchli hissiyotlarni ifodalovchi raqs (ekstatik raqs kishining tabiiy va "mo'jizaviy" kuchlardan olgan taassurotlarini aks ettiradi).

Raqs san'atining navbatdagi ikki xili ishlov berilgan ssenariyning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi:

5. **Udum raqslari** so'z san'ati, aktyorlik, sirk, musiqiy va raqs san'atidan tuziladigan ko'p qismli tomoshalar syujetlarining tarkibiy qismidir. Udumlar Inson va Tabiatning o'zaro munosabatlarini aks ettiradi; tabiatning "jonli" kuchlarini namoyish qiladi; taqvimiy davrlar (bahor, yoz, kuz, qish), inson hayotidagi asosiy hodisalar — Tug'ilish, To'y, O'limni qayd etadi.

Maxsus udum raqslari muayyan syujet va musiqiy-qo'shiq materiali bilan uyg'unlashgan taqlidiy, tasviriy, lirik, ekstatik raqs to'plami hisoblanib, bu **ijro uslubi hamda xarakterini** belgilaydi.

6. **Marosim raqslari** ham ishlab chiqilgan syujetli tomoshaning tarkibiy qismi sanaladi. Ularni Inson va Jamiyatning o'zaro munosabatlari: balog'at yoshiga yetish, jangchilar yoki ovchilar safiga qabul qilish, qabila boshlig'i yoki oqsoqol etib saylashga bag'ishlangan marosim mavzulari farqlab turadi.

Ijro uslubi va xarakterini belgilaydigan Maxsus marosim raqslari syujet bilan ishlov berilgan, musiqiy material bilan boyitilgan xilma-xil raqslardan tarkib topadi.

Shomonlar, jodugarlar, tabiblarning ekstatik raqslari, keyinchalik esa diniy raqs ham ishlov berilgan, diniy syujetli tomosha-marosimning maxsus qismi hisoblanadi.

Professional raqs san'ati ham ikki asosiy raqs turidan tarkib topadi. Butun xalq ijodiyoti va professional san'atning boshqa Turlari negizida boshqa Xillar vujudga keladi, ularning har biri turli mintaqalarda turlicha sifat belgilariga ega bo'ladi. "Professional raqs" bo'limida aynan shu haqda so'z yuritiladi.

4. Xalq raqs san'ati janrlari

Agar san'atda Xilning sifat belgilari san'atning boshqa turlari sifatleri bilan birikkan holda o'z sifatlarini shakllantirsa, **Janrning** sifat belgilari va badiiy vositalari san'at turining "ichidan" aniqlanadi.

Tomoshabinlarga faol ta'sir ko'rsatishning badiiy usullarini tanlaydigan raqs yaratuvchi yoki ijrochining badiiy maqsadi muayyan janrdagi raqsni yaratishda asosiy kuchga aylanadi.

Muallif ijobiy shodiyona hissiyotlarni paydo qilishni istaydi va namunalidir ibratli xarakterlarni, shodiyona voqealarni, baxtli hissiyotlarni, tabiatning yoqimli hodisalarini namoyish qilishga harakat qiladi. Agar muallif turmushdagi salbiy kuchlarni aniqlash va aks ettirishni, kishilarda ularga nisbatan qiziqish uyg'otishni istasa, u hissiyotlar, tuyg'ular, voqea-hodisalarning dramasi, to'fojiali intihos — o'lingacha ko'rsatib beradi.

Estetik M.Kogan shunday yozadi: "Bir qutbda hayot hodisalarini ijobiy baholashning eng yuqori darajasini mujassamlashtirgan janrlar, sharafluvchi janrlar: madhiya, oda, difiramb, qahramonlik poemasi yotsa, qarshi qutbda esa eng keskin inkor janrlari, satira janrlari yotadi. Bu ikki qutb orasida oraliq janr seriyalari: yo'qotish natijasidagi g'am-g'ussani ifodalovchi janrlar — fojia, rekviyem, dafn marshi, elegiya mavjud. Diapazonning boshqa tomonida xor qilib yoki butunlay yo'q qilib yuboradigan emas, balki iltifotli, muloyim, hatto do'stona, quvnoq tusdagi janrlar — fars, vodevil, do'stona sharj, lapar va shu kabi yumoristik janrlar yotadi"²⁹.

Drama nazariyasi ko'p sonli janrlarni to'rtta asosiy guruhga birlashtiradi:

1. Komediya — yumoristik (do'stona kulgi), satirik (kulgi bilan "chaqib oladigan"), maishiy (hayotning ikir-chikirlarini ko'rsatish).

2. Drama — maishiy sahnalar, bunda hayotdagi ijobiy va salbiy kuchlarning keskin to'qnashuvi sodir bo'ladi.

3. Tragediya — kuchli salbiy kuchlar yorqin ijobiy kuchlarni azoblaydigan, ustidan g'olib keladigan, halok qiladigan hayot sahnalari.

4. Grotesk — komik yoki tragik shaklda namoyon bo'luvchi salbiy kuchlarning haddan ortiq konsentratsiyalanishi.

²⁹ Коган М. Морфология искусств. — Л., 1972.

Hayotiy mavzularning turilligi janrlarning xilma-xilligini ta'minlab turadi, bu muallif Maqsadiga — o'oyaga bog'liq. Ayni bir mavzuning o'zi dramatik, tragik, komik yoki grotesk usulda ochib berilishi mumkin.

Har qanday xalqning folklor raqsida ko'p sonli janrlar jamlangan bo'ladi. Zero, *raqsni muayyan Janrda yaratishning badiiy tamoyillarida cheksizlik yashiringandir*. Kunning bir lahzalik mavzusini va "tarixiy" raqs hikoyasining epik davomiyligini aks ettirishda aynan "janr" yordam beradi.

Raqsning Tur va Janr sifatlarini aniq aks ettirish xususiyatlari ijrochilik san'atida raqs tushish Uslubi va Xarakterida mujassamlashgan.

Raqs uslubini raqsni tarkib toptirgan san'at turlarining sifatleri shakllantiradi va yo'naltiradi, bular — asar syujeti, tematikasi (adabiyotdan), kiyim, uning rangi, bichimi, gazlama fakturasi, zargarlik bezaklari; oyoq kiyim shakli; harakatlar tasviri, gavdani ma'lum holatda tutish (tasviriy san'atdan) va h.k.

Bu barcha elementlarning amaliyotda uyg'un "birikuvi" Stilistika deb yuritiladi. Xuddi mana shu narsa ijro Uslubini belgilaydi.

Plastika gavda maxsus holatda qo'yilganda, mushaklar kuchining alohida yo'nalishlari belgilanib, raqs-obrazning ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi nozik ijro harakatlari almashinib turganda o'zgaradi (erkin, keng, keskin, ravon; davomli, titroqli, tezlashgan va h.k. harakatlar).

O'z materiali hamda maqsadiga ega bo'lgan raqqos janr sifatlarini aks ettirib, hayotning komik-yumoristik, satirik, dramatik, tragik hodisalarini, inson xarakteri xususiyatlarini aniqlab, aniq badiiy obrazni yaratib, gavda plastikasini o'zgartirib boradi.

Janr belgilari raqs shakllarini o'zi o'zgartirgandek bo'ladi, har bir plastik shtrixni muayyan xususiyatlar bilan boyitib, raqs, mimika, libosning deyarli har bir detalini idrok qilib, harakatlarni "uyushtiradi" va "mufassal" rejalab chiqadi.

Gavdaning muayyan "qo'yilgan" holatiga (taranglik, "bo'shanglik", siqilganlik va h.k.): a) mushaklar kuchining yo'nalishlari (gavda ichiga, eniga, yuqoriga; yelkadan belgacha, belda "konflikt" chiziq hosil qilib, tovondan yuqoriga belgacha va h.k.); b) yelka qismining holati va shakllari (elka bo'g'imlarining biroz ko'tarilgan, keskin pastga tushgan holati; assimetrik joylashgan: bir bo'g'im ko'tarilgan, ikkinchisi tushgan, bo'g'implardan biri oldinga chiqqan, ikkinchisi — orqada va h.k.) tufayli erishiladi.

Qo'l harakatlarining "uyushgan" shakllari (tirsakdan bukilgan, barmoqlar to'g'ri yoki bilakdan bukilgan va h.k.) qo'l barmoqlari holatini (barmoqlar to'g'riga uzatilgan, bir-biriga yopishgan yoki orasi ochilgan, yarim bukilgan, musht qilib tugilgan va h.k.) shakllantiradi. Oyoqlarning uyushgan harakati (yengil yuzaki pliyе — yarim o'tirgan yoki keskin o'tirgan holat; tabiiy holatda oyoqlarni ohista, keskin yonga, chetga, yuqoriga, orqaga, oldinga siltash)

tovonning "ish" shaklini belgilaydi (barmoq uchlarida yurish, oyoqlarni to'la bosib yurish va h.k.).

Gavdaning o'ziga xos harakatlari ham tashkil etiladi (gavdaning beldan yuqori qismini o'ngga, chapga keskin yoki ohista burish, orqaga, oldinga tashlash, bel atrofida aylantirish va h.k.).

Xarakteri bo'yicha turli bo'lgan harakatlardan juda ta'sirchan rolni chiqarish mumkin: bir harakat mayin bo'lsa, boshqasi — keskin, o'tkir bo'ladi, bu esa konfliktni, komik va dramatik effektini aks ettirish imkonini beradi.

Harakatlarning muayyan xususiyatlariga alohida urg'u berilgan shakllarning mimika bilan uyg'unlashganligi — dramatik, tragik, komik yoki grotesk siymolarni istalgancha aks ettira oladi.

Ijodkor-ijrochi ruhiy plastikani bir nuqtaga jamlab, ijobiy yoki salbiy, ideal yoki umuman "hech qanday obrazsiz" obrazni, kulgili yoki jirkanch obrazni yarata olishi, hissiy rang berilgan va maxsus ishlangan harakatlar orqali fojiali chorasizlik, ruhiy bo'shliq va yo'qlikka intilish kabi holatlarni ko'rsatib bera olishi mumkin.

Xoreografik amaliyotda janrning sifat belgilaridan kelib chiquvchi plastikaning o'zgarish olish xususiyati raqs xarakteri deb ataladi.

Shuni alohida ko'rsatmoq lozimki, janr sifatleri o'zida turli xil muayyan asarlarni yaratish uchun deyarli cheksiz badiiy imkoniyatlarni mujassamlashtiradi.

5. O'zbek professional mumtoz va xalq lirik raqsining hissiy obrazlari

O'zbek professional raqsi quyidagilarda aks etadi:

— birinchidan, an'anaviy o'zbek-tojik masxarabozlar teatri tomoshalarida. Bular plastika va mimika yordamida umumlashtirilgan Obraz-tiplar, Obraz-niqoblar yaratadi;

— ikkinchidan, an'anaviy sirk artistlari san'atida. Bunday tomoshalarda u yordamchi rolni o'ynaydi;

— uchinchidan, professional raqs san'atida.

Mumtoz o'zbek raqslari odatda ko'plab xalq va havaskor raqslari — Solo singari ijro etilgan. Raqsda yakkaxonlik butun O'rta Osiyo musiqa san'ati rivojining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

O'zbek va tojik xalqlari ko'p asrlik musiqa san'atining eng muhim va jiddiy yutuqlaridan biri — bu chuqur mazmunli, ko'p qismli va murakkab shakldagi vokal-cholg'u asarlari bo'lmish Maqomlardir (shakl jihatidan ular yevropacha syuitalarni eslatadi).

Hindcha Ragalar, ozarbayjoncha va armancha Mug'amlar, eroncha va arabcha Maqamlar o'zbekcha-tojikcha Maqomlarga o'z shakli va mazmuni jihatidan juda yaqindir.

Maqomlarni o'rganish o'tgan asrdayoq yevropalik musiqashunos olimlar tomonidan boshlab berilgan edi. XX asrning 70-yillarida dunyo musiqa jamoatchiligi tomonidan Maqomlar "sharq xalqlari musiqa madaniyatining oliy shakli" deb tan olingan bo'lib, ular o'z tarixiy-madaniy ahamiyati bo'yicha Yevropa professional musiqasi, simfonik musiqa va opera bilan tengdir.

Musiqiy-obrazli umumlashmalarning falsafiy chuqurligi, inson his-tuyg'ularining ruhiy chegaralari va nozik chiziqlar bilan to'yinganlik, shakllarning yuqori professional ishlanganligi, ijrochilikning texnik tomonlari musiqa san'atining bu qatlamini umumbashariy madaniyatning eng qiziqarli va ahamiyatli yutuqlaridan biri deb tan olinishiga asos bo'ladi.

Vokal-cholg'u maqomlarning o'ziga xos shakllari, unison tovushlar asl musiqiy vositalar yordamida keng badiiy obrazlar yaratishga, inson qalbi dialektikasini garmonik ravishda ishlov berilgan ko'p ovozli simfonik musiqa singari ochib berishga qodirdir.

Maqomning ijrochilik yo'llari XVIII asrda ko'p ovozli musiqa shakllarini yaratgan "uyg'onish davridan keyingi" Yevropa uchun tushunarsiz edi. Natijada Sharq professional musiqasiga folklorning yaxshi rivojlanmagan shakli deb qarash vujudga keldi.

Notalarga bo'ysunmas maqomlar to'la hajmda faqat o'ziga xos xususiyatlari sababligina saqlanib qolgan.

Maqomlar avloddan avlodga, Ustozdan Shogirdga og'zaki ravishda o'tib kelgan.

Maqom faqat ijro etilayotgan paytdagina obyektiv voqelikka aylangan, shu sababli maqomlarning ustoz-shogird zanjiri bilan avloddan avlodga o'tib kelishiga jiddiy e'tibor berilgan.

Muhimi shundaki, ijro etish jarayoni ko'p hollarda asar yaratish jarayoniga ham aylanib ketgan: avloddan avlodga o'tib, sayqallanib kelgan muayyan musiqiy vaznlar materialida o'ziga xos improvizatsiyalar qilingan. Musiqiy pardalar quyidagilar bilan mustahkamlangan: birinchidan, ijrochi-bastakorlarning eshitish xotirasi bilan; ikkinchidan, o'ziga xos musiqashunoslik asarlari bilan. O'rta asrlar musiqashunoslik fani matematika bilan bir qatorga qo'yilgan. Bu asarlarda muayyan davr musiqa san'ati yutuqlari, musiqa pardalari va maqomlarning murakkab shakllari to'g'risidagi ma'lumotlar mustahkamlab qo'yilgan.

Maqomlarda biror aniq syujetni ifodalovchi konkret badiiy tasvir vositalari mavjud emas. Maqomlardagi musiqiy obrazlarning umumlashgan ta'siri yagona she'riy "Programmali syuita"ga yoki bo'lmasa "Programmasiz syuita"ga aylanib borishi mumkin. Maqomlarning "programmasi" so'zli-vokal she'riyatga joylangan.

Farg'ona vodiysi, Xorazm va Buxoro professional raqslari, cholg'u-vokal "Shashmaqom" va farg'onacha "Chormaqom" singari "tarixiy xotira" bilan muayyan murakkab ritm-ohangli raqs syuitalarida bitilgan. Farg'onada bu "Katta o'yin", Buxoroda — "Maqom raqsi" (Ufori), Xorazmda ham "Maqom raqsi" (Ufori) deb yuritiladi.

Keksa ustozlar bu syuitalarni "Maqom o'yini" deb yuritadilar, lekin "Shashmaqom" va "Chormaqom"ni "Maqom o'yini" bilan adashtirmaslik kerak deb uqtiradilar, chunki bular butunlay boshqa-boshqa asarlardir³⁰. Lekin professional raqqoslar "ufori"ni (ritmik qismni) "Shashmaqom"dan ham, "Chormaqom"dan ham olganlar.

Musiqiy Maqom: birinchidan, musiqiy pardalarning tarixiy yig'indisidir; ikkinchidan, muayyan musiqiy pardalar chegarasida yaratilgan eng buyuk asarlar yig'indisidir (ular asrlar davomida sayqal topgan); uchinchidan, professional qo'shiqchilar, cholg'uchilar va bastakorlar uchun bir maktabdir.

Raqslar Maqomlar:

— birinchidan, muayyan ritmik, ritm-ohangli qismlar — usullar va ularga xos kompleks tana harakatlarining tarixiy yig'indisidir;

— ikkinchidan, muayyan ritmik usullar va ritm-ohangli qismlar asosida yaratilgan eng buyuk raqs asarlari yig'indisidir;

— uchinchidan, ijrochilar va bastakorlar uchun bir maktabdir.

Ritm-raqs usuli, xuddi ritm-ohang-raqs qismlari kabi, muayyan musiqiy shakl, aniqroq qilib aytganda — *formula. Matematikada bo'lgani kabi, musiqiy formula ham o'z isbotiga ega bo'lgan xulosadir. Usullarning (ritm-raqs va ritm-ohang usullarining) ijrosi faqat formal, ya'ni formulani shundayligicha takrorlovchi bo'lishi, yoki ijodiy, ya'ni musiqachi musiqiy figurani "isbotlashi", rivojlantirishi ham mumkin edi.*

Bu yerda shuni alohida qayd etish lozimki, raqs Maqomlarida usul faqat tovush ifodasi emas, balki uning plastik ifodasi hamdir. Shuning uchun ham "usul" tushunchasi raqsda ritm-raqs formulasi degan so'zni anglatadi.

Ijrochi-raqqoslar tovush usulini plastikada ifoda etgan holda musiqachilarning ketidan borgan. Ilg'or raqqoslar esa musiqachilarni plastik figuralarni ifoda etishga da'vat qilganlar.

Turmushda va fanda "Maqom qo'shiqchiligi" degan tushuncha bor, endi "Maqom raqsi" va "Usul raqsi" degan tushunchalarni ham kiritish vaqti kelgan ko'rinadi.

Taniqli musiqachilarni, jo'r bo'luvchilarni nega "Usulchi" deb ataganlari endi tushunarli — ular Usullarning bilimdonlari va posbonlari bo'lganlar.

³⁰ Xabarchi raqqoslar haqidagi qisqacha ma'lumotlar kitob oxirida keltirilgan.

Odatda, doirada “yetakchi partiya”ni ijro etayotgan musiqachi raqqoslarga jo‘r bo‘layotgan cholg‘uchilar guruhining o‘ziga xos dirijyori, rahbari sanaladi. Doirachi barcha usullarni bilishi kerak va ijro davomida ularni rivojlantirib boradi. Buni amalga oshirish uchun esa doirachi doira chalishning virtuoz ko‘rinishlari va maqomlarning barcha qismlariga xos raqs shakllarini yaxshi bilishi lozim.

Mohiyatga ko‘ra usulchilar an’anaviy pedagoglar va baletmeysterlar bo‘lganlar.

Raqs musiqasi tuzilishining xususiyatlari, “Katta o‘yin”, “Maqom raqsi” qismlarining tizimi o‘zbek raqslari ijrochilari oldiga yevropacha xoreografiya uchun g‘ayrioddiy bo‘lgan badiiy vazifalarni qo‘yadi.

Yevropada deyilarki: **“Raqs — jon bag‘ishlangan musiqa, ko‘zga ko‘rinadigan ohangdir”**. O‘zbek raqs kompozitsiyalarida ohang bo‘lmasligi ham mumkin, lekin raqsdan ritm tug‘iladi: “Tana harakatlarida jonlangan ritm — bu o‘zbek raqsidir”.

Buyuk rus kompozitori R.M.Glier, o‘zbek musiqasida ritmning ahamiyati haqida shunday degan edi: “U xuddi ohang kabi mustaqil, va, bir tomondan, faqat ohang ustiga pyesani qurish mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, musiqiy pyesani faqat ritmning o‘ziga asoslanib ham yaratish mumkin”³¹.

Kam uchraydigan ritmik boyluk va, B.Asafev aytganidek, cholg‘u va vokal musiqada “sinkopa, ya‘ni urg‘uning ritmning kuchli qismidan kuchsiz qismiga o‘tishi texnikasi” butun o‘zbek musiqasini raqsga moyil qiladi³².

Raqs kompozitsiyalari — usullar — alohida boyligi va ritmik tasvirning xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Farg‘ona maktabiga mansub o‘zbek maqom raqslari faqat urib chalinadigan musiqa asboblari — doira, nog‘ora, qo‘shnog‘ora, qayroq jo‘rligida ijro etiladi. Bu holda musiqiy kompozitsiya ko‘plab usullardan tashkil topgan zanjir shaklida bo‘ladi. Bunday raqs ijrosining murakkabligi shundaki, ijrochi, aniq va cheksiz o‘zgaruvchan ritmga bo‘ysungan holda, barcha tana harakatlari kompleksi bilan ohangni “ayta olishi”, ya‘ni raqsning ruhiy mazmunini tana plastikasi orqali ifodalay olishi kerak.

Doiraning markaziy qismi yoki halqa qismiga urib chalinganda hosil bo‘ladigan tovushlar raqqosga usul ohangini “ayta olish”ga yordam beradi. Dinamik va ovoz-tembr effektlarini vujudga keltiruvchi turli balandlikdagi tovushlar kombinatsiyasi bir cholg‘u asbobi jo‘rligini polifonik, ya‘ni ko‘p ovozli jo‘rlikka aylantiradi.

Farg‘ona, Xorazm, Buxoro ohangli raqs pyesalari ham ishlab chiqilgan usullar birikmasi asosida tuziladi, bunda ritmik qadamlar urib chalinadigan

³¹ Романовская Е.Е. Статьи и доклады. — Т., 1957. (Глиэр).

³² O‘sha joyda. Asafyev.

asboblardan yordamida bo‘rttirib ko‘rsatiladi yoki torii asboblardan — dutor, tanbur, rubob yoki chang jo‘rligi bilan ajratiladi.

Ulug‘ olim Forobiy o‘zining “Fanlar tasnifi” kitobida harakatni musiqa fanining muhim qismi deb aytadi. Uning yozishicha: **“Musiqaning uchta ildizi bor: metr, ohang va harakat”**.

“Metr ongli tushunchalarni kerakli o‘lchovlarga tushirish uchun o‘ylab topilgan; ohang baland va past tovushlarni kerakli o‘lchovlarga tushirish uchun o‘ylab topilgan; bu ikki ildiz eshitish qobiliyatiga bog‘liqdir. Harakat esa **ko‘rish qobiliyati bilan bog‘lig‘**, u bir-biriga o‘xshash va o‘zaro taqqoslanishi kerak joiz harakatlarni metr va tovush bilan hamohang bo‘lishi uchun o‘ylab topilgan. Harakat fani shu ikki asosiy tuyg‘uga, ya‘ni eshitish va ko‘rish qobiliyatiga bo‘ysunadi”³³.

“Harakat fani” “Maqom o‘yin” — “Katta o‘yin” raqs ekzersislarida Stanislavskiy sistemasining temp-ritm to‘g‘risidagi qismlari bilan hamohang sistema bo‘yicha ishlab chiqilgan.

Yevropaning taniqli musiqashunosi R.I.Gruber shuni alohida qayd etadiki, arablar, eroniylar va O‘rta Osiyo xalqlarining musiqiy madaniyati o‘rta asrlar davomida hayotga mustahkam o‘rnashib borgan. “Bu shunday buyuk ehtiroski, u ba‘zan beixtiyor tarzda hissiyotga aylanib ham ketadi, bu oshiq, g‘amgin, jafokash va zavqli shaxsni ifodalashga intilishdir. **Bu — ichki tuyg‘ular dunyosiga nisbatan benihoya qiziqishdir**”³⁴. Bu qiziqish raqs sistemasida, o‘zbek mumtoz raqs maktabida yaqqol namoyon bo‘ldi.

O‘zbek va tojik raqsalarining obrazlilik shartli-emosional, ya‘ni ifodalidir (o‘zbek raqsalarining obrazlilik Yevropa mumtoz raqsalarining obrazlilikiga mos keladi). Biroq inson tanasining bevosita, tasviriy harakatlarini umumlashtirishga yordam beruvchi, inson ruhini aks ettira oluvchi badiiy usullar birmuncha she‘riylashtirilgan. Bu xususiyat o‘zbek maqom raqsini ispan mumtoz raqsiga o‘xshatadi. **Shuning uchun o‘zbek maqom raqsi shakllarini, xuddi ispan mumtoz raqsalaridagi kabi, qo‘llar, oyoqlar va butun inson tanasining bir maromdagi harakatlari birlashtiriladi**.

O‘zbek maqom raqsalarini qo‘llar, oyoqlar, tana, umurtqa pog‘onasining bo‘yin qismi holatlarining juda ko‘p sonli kombinatsiyalaridan, qadamlar va siljishlardan, bir joyda yoki siljigan holda turli aylanma harakatlardan tashkil topadi.

Tana qismlarining alohida harakatlari emas, **balki aynan shu harakatlarning ko‘plab kombinatsiyalari cheksiz sonli raqsalarini yaratish uchun material bo‘ladi. Chunki raqs elementlari qat‘iy chegaralangan bo‘ladi**.

³³ Джумаев А.Б. Трактат о музыке Мухаммада Нашапура. — Т., 1985.

³⁴ Грубер Р.И. История музыкальной культуры. — Т. I. — М. — Л. 1941.

Raqs shakllari aniq belgilangan.

Tananing turishi va ijro uslubi — majburiy.

Ya'ni shakllarga birlashtirilgan va elementlarga taqsimlangan o'zbek maqom raqsi — bu erkin improvizatsiya emas, balki sistemadir.

Taniqli rus xoreografi Fedor Lopuxovning Yevropa mumtoz xoreografiyasi ahamiyatini ochib beruvchi formulasi bilan aytganda, o'zbek maqom raqsi harakatlari to'g'risida shunday deyish mumkin: *“harakatlar o'z ahamiyati va o'z fikriga ega”*, ular ijrochining individual kayfiyatini uning milliy xarakteri orqali ochib berish bilan kifoyalanmaydi, bu esa o'z navbatida folklor raqsining asosiy belgisidir.

Bunda shuni tushunish muhimki, raqs shakllarini bundan bir necha asr ilgari ilmi, yuqori malakali raqs ustalari umumlashtirib ketganlar, ular qonunlar yaratib, butun bir boshli sistemani tuzganlar, bu esa hech qayerda qog'ozga tushirilmagan Raqsning asosiy shakllari, Asosiy ritmlar, formulalar va ohanglarni hozirgi kungacha saqlab kelishga yordam bergan. Bular faqat saqlanib qolmay, balki rivojlanib ham kelgan, chunki raqs biror tarixiy davrdagi hayotiy manfaatlarni aks ettirmasa, u allaqachon yo'q bo'lib ketgan bo'lar edi. Demak, raqs asta-sekin o'zgarib borgan, unda yangi mazmun paydo bo'lgan, sistema va qonunlar esa uning eng asosiy, muhim qismini saqlab qolishga va yangilab turishga imkon bergan.

O'zbek maqom raqsining g'oyaviy mazmuni — ijobiy va insonparvardir; raqs mavzulari esa xilma-xil bo'lib, ularda intim-insoniy va umumbashariy mavzular teng muhim o'rinlarni egallaydi.

Aniq ishlangan va aniq shakllarga birlashtirilgan harakatlar zaxirasi ko'plab insoniy tuyg'ularni ifodalay oladi va turli konstruktiv kombinatsiyalar orqali raqs obrazlarini yaratish imkonini beradi, ya'ni inson tanasining garmonik harakatlari orqali fikr va tuyg'ularni aks ettira oladi.

a) Asosiy shakllar.

Yevropa mumtoz raqsi va o'zbek maqom raqsi harakat sistemalari turlichadir.

Yevropa mumtoz raqsi shakllari quyidagicha ta'riflanadi:

1) oyoqlarning to'la ochilish qobiliyati; 2) oyoqlarning to'la rostlanib, tekis turishi; 3) tananing orqa qismi tekis, muskullarda kuch zaxirasi sezilib turadi; muskullardagi kuch oyoqlarning pastki qismidan belga qarab va yelkadan orqa bo'ylab belga qarab yo'nalgan bo'ladi; 4) kerilgan oyoqlar pozitsiyalari (majburiy); 5) qo'llarning holatlari (majburiy 4 yoki 6 ta), muskullar kuchi muayyan zaxirasi bilan; 6) gavdaning holatlari (majburiy); 7) joyida turgan holda va siljib aylanish; 8) oldinga va yuqoriga sakrash harakatlari; 9) havoda aylanib sakrash harakatlari; 10) puantda (ayollarning raqs poyabzali uchidagi qattiq qismi) yurishlar, aylanishlar; 11) ushlab qolish — kavalier va raqqosaning birgalikdagi harakatlari, akrobatik shakllari bilan.

O'zbek maqom raqsining harakat tamoyillari boshqacha:

Oyoqlarning holati: farg'onacha raqsda — oyoq uchlarining deyarli tabiiy chegaragacha ochilishi bilan, xorazmcha va buxorocha raqsda — tabiiy chegaragacha, yarim va to'la ochilish bilan.

Oyoqlarning ochilishi qobiliyati, ya'ni tizzalarning qarama-qarshi tomonlarga burilishi va oyoqlar uchlarining ikki tomonga ochilishi mumtoz (balet) raqsida oyoq harakatlarining asosiy xususiyati bo'lib, bu qobiliyat ko'plab murakkab raqs kombinatsiyalarini bajarishga yordam beradi. Har bir inson, agar uning oyoqlari to'g'ri bo'lsa, tabiiy ochilishni bajara oladi, lekin turli millat vakillarida bu qobiliyat turlicha bo'ladi, chunki oyoq uchlarining ochilish qobiliyati insonning jismoniy tarbiyasiga, uning qanday mehnat bilan bandligiga, yashayotgan yerining relefiga bog'liqdir.

O'zbek xalqi vakillarida oyoq uchlarining tabiiy ochilish qobiliyati ruslar, ukrainlar, beloruslar, Boltiqbo'yi aholisiga nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Bu qobiliyat butun umr davomida shakllanib kelgan. Mebellar yo'qligi kishiga faqat yerda, chordona qurib o'tirishga imkon beradi, bunda oyoqlar tizzadan bukilib, tizzalar ikki tomonga keriladi, tizzadan pastki qismi esa chalishtirilib o'tiriladi. Shu taxlit har kuni o'tirganda o'ziga xos trenaj vujudga kelgan va oyoqlarning tabiiy ochilishi ancha aniq bo'lib borgan. Bu, albatta, raqsda ham aks etgan, ayniqsa o'ziga xos qadamlar, pozalar va aylanma harakatlarda ko'zga tashlanadi.

Keyingi yillarda xalqning, ayniqsa, shaharliklar turmushi keskin o'zgardi, yoshlarning yurishlarida ham oyoq uchlarining tabiiy ochilishi juda kam seziladi. Demak, raqsni sahnalashtirishda shuni esda tutmoq kerakki, o'zbek xoreografik merosiga xos bo'lgan tabiiy ochilish muhim xususiyat bo'lib, buni chetlab o'tib bo'lmaydi, chunki milliy raqsning o'ziga xosligi ko'pincha aynan shunga bo'liq.

Yuqorida qayd etilganidek, o'zbek mumtoz professional raqsida harakatlar ifodalidir. Bu esa o'zbek xalq lirik raqsini tushunishda juda muhim. Raqsni o'zlariga ikkinchi kasb qilib olgan xalq raqqoslari va havaskor raqqoslar professional raqqoslarga taqlid qilganlar va ularning harakatlari ifodali, shartli, biroq faol va tuyg'ularga to'la bo'lgan.

O'zbek raqsi ustalari — virtuoz ijrochilar, usullarni yig'uvchilar farg'onacha professional va havaskor raqslarni ochilayotgan yoki so'lib borayotgan gul bilan qiyoslaydilar. Ochilayotgan g'uncha, lola, boychechak, gulsafsar, so'layotgan atirgul, shamolda to'kilayotgan bodom gullari obrazlari raqsning ma'nosini ochib beruvchi she'rlar va qo'shiqlarda ko'p uchraydi. Bu lirik ma'no silliq harakatlarda, joyida va davra bo'ylab gir aylanishlarda, yer uzra suzib boruvchi yurishlarda ham bor.

Iste'dodli rus baletshunosi Golubov-Potapov Tamaraxonim farg'onacha raqslari ijrosiga bag'ishlangan maqolalaridan birida shunday yozgan edi: "O'zbek raqslari ijrochidan tashqarida emas, balki uning ichki dunyosidan joy topadi. Ular dilkash, haqqoniy, ochiq. Bu raqslarni men vazmin emas, balki uyatchan deb ta'riflagan bo'lar edim. Bu Sharq odatlari va an'analaridir. Sharq ayoli qaynoq tuyg'ularga ega, lekin muhabbat izhorida juda uyatchan. U o'zini har yoqqa urmaydi, balki o'zini bosib turadi. Ba'zan taqqa to'xtaydi, mukammal ishlangan haykaldek tosh qotadi, intihosiga yetmagan drama kabi to'xtab qoladi... Uyog'iga nima bo'ladi... hozircha esa, chala qolgan gapdek, jozibakor va ma'nodor taassurot..." "To'xtab qolishlar aniq va ritmik. Bu o'ziga xos statika, osoyishtalik. Oddiy tanaffus yoki pauza emas, balki harakatlar jamlanmasi. Istasangiz, uning potensial shakli deb atang. Muskullarni bo'shashtiring, tanaga erkinlik bering, u tramplinsiz, uyg'ongan energiya quvvati bilan ilgari ketadi va sahnani to'ldiradi..."

Sharq raqslarida oyoqlar yerdan kam uziladi. Ularning go'zalligi parvozda emas, qadamda. Qo'llar qush bo'lib ko'kka ko'tariladi, parvoz qiladi, nafas olgandek bo'ladi, kaft-qanotlar havoni kesadi, quchadi. Raqsda to'xtab qolishlar juda katta ma'noni anglatishi mumkin. Bunday holatlar harakatga ma'no baxsh etadi, lekin unsiz so'zlaydi, tana holati, bilinar-bilinmas burilish yoki yelkalarining uchishi bilan so'zlaydi, qo'lning yengil silkinishi, sezilar-sezilmas bosh irg'ash va, eng avvalo, nigoh bilan so'zlaydi. Oyoqlar xuddi gilamda yurgandek, yengil tashlanadi, yerni bosmasdan, balki unga faqat tegib turadi. Raqs sahna uzra sekin yastangandek bo'ladi. Hatto sho'x, harakatchan raqslarda ham, kishi o'zini unutilib, keskin harakatlar qilayotgan paytda ham, oyoqlarning tovushi deyarli eshitilmaydi. Oyoqlar harakatchan tanani avaylab, lekin mahkam tutib turadi va bu yuk ularni charchatmaydi... Oyoqlarda allaqanday ajabtovur yumshoqlik bor.

Bu raqslarda ayolning fidokorligiga qoyil qolgan kishi: u ayollarga xos irodasizlikka nisbatan befarq, shaddodlikni yoqtiradi va surbetlikka toqat qila olmaydi...

Raqsda eng asosiysi — qo'llar, sezgir va ehtirosli qo'llar, barmoqlarning ustomonligidir. Bunaqasi g'arbdagi hech qaysi plastika madaniyatida yo'q..."³⁵

Agar farg'onacha raqsni ochilayotgan gulg'unchaga qiyoslab, uni Bahor raqsi deb atalsa, xorazmcha raqslarni esa Kuz raqsi deb atalgan ma'qul. Lekin kuz deganda tabiatning so'nib borishi payti emas, balki yetilib pishgan saxiy tabiat, olovdek ranglar, oltindek barglar ko'z oldiga keladi. Professional raqqosalarning kostyumlarini o'ziga xos bosh kiyimlari, gulbarglar shaklidagi

³⁵ *Голубов-Потанов. Тамара Ханум. Журн. «Театр», 1946.*

ko'krak taqinchoqlari bezab turishi bejiz emas. Alvon rang yoqutlar bilan aralash, yengilgina zanjirchalarning uchlariga taqilgan, jimjiloqning tirnog'iday keladigan yuzlab gulbarglar shildirab, jiringlab, raqsning kuzni ifodalashiga ko'maklashib turadi.

(Shunisi maroqliki, zargarlik buyumlari yasaladigan metall, garchi u sarg'aygan barglarning rangida bo'lib, tarkibida 30% oltin, 50% kumush va 20% mis bo'lsa-da, uni "oq metall" deb ataydilar.)

Biroq tana turishi, qiliqlar ochiq-oydin, lekin juda nozik ravishda jonivorlar va qushlar dunyosiga taqlidni anglatib turadi.

Xorazm raqslarining asosiy shakllari, xuddi Farg'ona raqslaridagi kabi, tasviriy-she'riy obrazlarni vujudga keltiruvchi ritm-plastik usullarda "berkingan". Kaptarlarning qanot qoqishi, qirg'iylar va burgutlarning keng yozilgan qanotlari, qirg'ovul patlarining ola-bula ranglari, qarqaraning vazmin qadamlari, qarmoqdan chiqib ketgan cho'rtanning bilanglashi, ko'rsichqonning yumshoq yurishlari, qip-qizil lolalarning tik qaddi-basti, saksovlarning baquvvat, yashil shoxlarini ko'rgandek; echkilarning tuyuqchalari jarangi, chopqir otlarning dupuri, turnalarning qur-qurlari, ovni bo'lashib olayotgan chorloqlarning qichqiriqlari va barxandan-barxanga ko'chib yurgan qumlarining tovushini ham eshitgandek bo'lamiz; Amudaryo to'lqinlarining shovullashi qulog'imizga chalingandek bo'ladi...

Shu bilan birga, xorazmcha maqom raqslarining plastik obrazlari tirik tabiatdan olingan taassurotlarning bevosita ifodasi bo'libgina qolmaydi. Ibtidoiy obrazlar inson tuygulari, ehtiroslarini — nafasat, nafrat, o'ynoqi aldov, qo'rquv va umidni aks ettiradi.

Xorazm maqom raqsi sistemasida asl milliy xarakter xususiyatlari aks etadi. Unda xalqning tarixini, shafqatsiz tabiat va uni bo'ysundirgan Insonni: dadil, chapdast, kuch-quvvatli, sho'xchan, yumorni ham, inson lirikasini ham nozik tushunadigan, miyig'ida kulib turuvchi yoki mazax qiluvchi, kuldiruvchi va hayron qiluvchi, qo'rqituvchi va qoyil qoldiruvchi Insonni ifodalaydigan badiiy shakllar mujassamlashgan.

Xorazmcha raqsda oyoq harakatlari qo'l harakatlari kabi muhim: yengil sakrashlar, flik-flyak, tizzalarning yengil bukilishi va hokazo. Korpusni qo'yishda ham oyoqlar muhim rol o'ynaydi, bunda oyoqlar uchlari doimo bir oz yoki o'rtacha ochilgan va doimo tizzalar bir oz bukilgan bo'ladi — go'yo yuqoriga, uzoq-uzoqqa sakrab ketishga tayyorlanib turgandek. Lekin xorazmcha raqslarda aylanma harakatlar umuman bo'lmaydi.

Buxorocha maqom raqslari — shiddatli, ehtirosli, intiluvchan; qadamlar dadil, tana harakatlari egiluvchan va cho'ziq; qo'l harakatlari biri aniq, keskin bo'lsa, keyingisi mayin, nozik; oyoqlar tizzadan bir oz bukilgan holatda, uchlari o'rtacha ochilgan; bosh yuqoriga qaragan, yelkalar orqaga tashlangan

xuddi raqqos yuz-qo'llari, yelkalari, ko'kragi bilan quyosh nurlaridan quvvat olayotgandek. Buxorocho raqs ijrochilari butun tanasi bilan, har bir muskuli bilan tananing har bir harakatini his etgan holda, qo'l va oyoqlarning harakatlari bilan murakkab chiziqlar tortib ijro etadilar. Buxoro raqslari — yangi-yangi harakatlar, nozik pozalar, joyida turgan holda sekin, cho'ziq burilishlar va doira bo'ylab, to'g'ri chiziq bo'ylab va diagonal bo'ylab gir aylanishlar oqimidir.

Buxorocho raqs xalq o'yinlari mazmuni bilan to'yinib, uzoq vaqt davomida saroy a'yonlari bo'lmish rassomlar davralarida rivojlanib, sayqallanib borgan. Ular matematik jihatdan aniq ishlangan naqshli bezaklar orqali nozik obrazlarni yaratdilar.

Ko'pincha buxorocho maqom raqsini til nuqtai nazaridan kelib chiqib "tojikcha" deb ham ataydilar. Haqiqatan, Buxoro va Samarqand viloyatlarida fors va dariy-fors tilida gaplashuvchilar ko'p. Lekin ularning ko'pchiligi o'zbek tilini ona tili deb biladilar.

Yuqorida aytilganidek, hozirgi O'zbekistonning ko'hna davrlardagi aholisi forsiy tilda so'zlashuvchilar bo'lgan, lekin miloddan avvalgi birinchi asrlarda dashtlar va cho'llarda turkiy tillarda so'zlashuvchi qabilalar va allaqanday hindi-yevropaliklar yashaganlar va ular o'zbek va tojik tillariga anchayin keng hajmli lug'atlarini meros qoldirib ketganlar.

Buxoro va Samarqand maqom raqslari shahar madaniyatining bir qismi bo'lsa-da, Farg'ona va Xiva maqom raqslari singari xalq ijodiyotiga suyanadi.

Shubhasiz, Tojikiston vodiylari xalq raqslari buxorocho professional raqsga juda o'xshashib ketadi, lekin vodiylar tojiklari raqslari — murakkab ishlangan xoreografik sistema emas, balki ishlov berilmagan jo'shqin o'yinga ko'proq o'xshaydi, tog'lik tojiklarning raqslari esa vodiylarnikidan, Buxoro professional raqsidan keskin farq qiladi.

Shuni aytib o'tish zarurki, ko'plab asrlar davomida Buxoro tojiklari emas, balki Buxoro yahudiylari buxorocho maqom raqsi ijrochilari bo'lib kelganlar. O'zlari ijro etgan raqslarning shakliga o'zlari biror hissalarini qo'shmagan bo'lishlari mumkin emas...

* * *

Biz tag'in shu savolga qaytamiz: odamlar nega va nima uchun raqsga tushadilar? Bu savolga javob berish uchun yana boshidan boshlash kerak. o'orlarning devorlarida, katta xarsang toshlarda chizib qoldirilgan raqqoslarning ko'hna suratlaridan boshlash kerak. Qirq ming, yigirma ming, va nihoyat, to'rt ming yil avvalgi davrlardagi tasvirlardan boshlash kerak. Keyinchalik esa ish osonroq ko'chadi: yozma ma'lumotlar paydo bo'ladi. Lekin, ibtidoiy suratlar,

haykallar sirini o'rganishga harakat qilib ko'rgan va bu borada o'z taxminlarini aytdan san'atshunoslarning yozgan materiallari, afsuski, hozirgi hayot bilan mos kelmagancha, arosatda muallaq osilib yotibdi...

Biroq, o'zbek xalqining hozirgi zamon an'anaviy xoreografiyasi o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmagan-ku...

O'zbekiston hududidagi barcha yirik va kichik shaharlar, katta va mayda qishloqlar raqslarini sinchiklab o'rganish natijasida o'ziga xos jug'rofiy xarita, keyinroq esa turli viloyatlarning turli raqslari ro'yxati ham tuzildi. O'z-o'zidan jadval ham paydo bo'ldi, unda yaqin o'tmishdagi va hozirgi zamon raqslari joy olgan. Mana shu jadval yaratilgandan keyingina, o'sha ko'hna suratlarini o'rganishga, eski "Xronika"larni o'qishga kirishish va ularni zamonaviy, ifodali, tasviriy o'zbek xoreografiyasi bilan qiyoslashga kirishish imkoniyati vujudga keldi.

II. O'ZBEK MILLIY XOREOGRAFIYASI

1. Taqlidiy, illyustrativ raqslar, predmetli raqslar va ularning tarixiy ildizlari

Yuqori paleolit davriga oid eng qiziq ko'hna tasviriy san'at namunasi deb Curxondaryo viloyatining Zarautsoy darasida joylashgan Zarautkamar g'ori devorlaridagi tasvirlarni olish mumkin.

Ibtidoiy rassomlar chizgan syujetlar raqsning kelib chiqishi haqida hikoya qiluvchi ba'zi udumlar to'g'risida hikoya qiladi. Devorlar va shiftlarda aks ettirilgan syujetlarda ibtidoiy odamlarning yovvoyi buqa ovlayotgani aks etgan. Ovchilarning bir qismi g'alati, kapyushonli yopinchiqlar yopingan, qolganlari yopinchiqsiz, lekin uzun dumlari bor. Bu kapyushonlar va kalta, etagi keng yopinchiqlar odamni ilgari shu yerlarda yashagan tuvaloqqa o'xshatib qo'ygan. Dumli figuralar esa jonivorlarga o'xshab niqoblanib olgan odamlar bo'lsa kerak.

O'yinga tushayotgan dumli odam shakli keyinchalik yaratilgan yodgorliklarda, masalan, O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasidagi Kugarat dovonidagi qoyalar ustiga chizilgan suratlarda ham uchraydi. Bu suratlar odamlarning jonivorga o'xshab niqoblanishi, ularning mehnat faoliyati sharoitlari va atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni kuzatishlari haqida guvohlik beradi.

Figuralarning fantastik ravishda o'zgarishi o'ynalayotgan sahnaning voqeyi mazmuni bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, ibtidoiy ovchilar (xuddi ba'zi hozirgi ovchi qabilalar singari) ov paytida jonivorlarga o'xshab niqoblanib olish usulini qo'llaganlar, bu esa ularga podaga yaqin emaklab borib, jonivorni o'ldirish imkonini bergan.

Biroq, niqoblanib olgan o'yinchilarning suratlari bizga nafaqat ovning o'ziga xos usullari, balki ibtidoiy odamlarning tabiat olamiga nisbatan munosabatlari to'g'risida ham hikoya qiladi. Ibtidoiy odam o'zini tabiatdan ajratmagan, u o'zi bilan tabiat olami, jonivorlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqani e'tirof etgan. Odamni ovqat va kiyim bilan ta'minlovchi jonivorlar odamning qardoni va posboni bo'lgan.

Do'st jonivor va dushman jonivorga taqliddan ritmik pantomimalar kelib chiqqan. San'atning kelib chiqishi haqidagi ko'plab asarlarda bu haqda batafsil hikoya qilinadi. Bizni esa ilk paleolit davrida yerlik aholi jonivorlarning harakatlari, yurishlarini takrorlab, jonli plastika san'atida ularning tipik xususiyatlarini ko'rsatib berganligi qiziqtiradi.

Avval Turkmanistonning janubida (Anau), keyinchalik esa O'zbekistonning qator hududlarida topilgan, neolit davri (20 ming yil avval!) va bronza davri (3 ming yil ilgari!)ga oid bezakli kulolchilik buyumlari bizga real va fantastik jonivorlar dunyosini ochib beradi. Bu tasvirlar ichida kostyumli ovchilar ham, kostyumli raqqoslar ham bor.

Shunisi maroqliki, vaqt o'tgan sayin tasvirlar uslubi o'zgarib, Zaraut realistik rangtasviri va boshqa realistik suratlar o'rniga shartli suratlar tobora ko'payib borgan. Inson umumlashtirish qobiliyatiga ega bo'la boshlagan. Bu davrda ko'hna mafkura deb sanalmish dinlar shakllanib boradi. Dinlar insonning tabiat bilan bog'liqligiga, biror jonivorning insonga homiyligiga, insonning g'ayritabiyy kuchiga, tanadan tanaga ko'chib yuruvchi ruhga bo'lgan ishonchdan kelib chiqqan.

Masalan:

Totemizizm — biror jonivorning insonga homiylik qilishi;

Animizm — jonli va jonsiz tabiatga ruh baxsh etish;

Magiya — insonga biror ilohiy kuch yordamida ta'sir ko'rsatish.

Bu e'tiqodlar minglab yillar davomida insonga uning borlig'ini o'ziga xos ravishda izohlab kelgan. Keyinchalik bu oddiy e'tiqodlardan esa murakkabroq, muayyan falsafaga asoslangan dinlar kelib chiqqan boshlagan.

Ilk e'tiqodlar va dinlar paydo bo'lgan ilk davrlarda ularning tarkibida mistika, ya'ni insonni dahshatga soladigan noma'lum Oliy Kuch bo'lmagan.

Inson quturgan jonivordan qo'rqqan, lekin uning saxiylikiga ishongan, oziq-ovqat va kiyim-bosh bilan ta'minlagani uchun undan minnatdor bo'lgan. Shuning uchun inson jonivorni o'ziga qardosh, tabiatning noma'lum kuchlaridan saqlovchi tumor deb bilgan. Inson o'limni ko'rgan, lekin uning mazmuni nimada ekanligini bilmagan, bilishga harakat ham qilmagan, faqat marhumni kiyim-kechak, oziq-ovqat, qurol bilan ta'minlab, uning narigi dunyoga o'tib ketishiga o'zicha yordam qilgan. Insonlar tabiatdan ko'pincha qo'rqsam ham, taslim bo'lmasdan, o'z xayolida yaxshi va yomon farishtalarni o'ylab topib, ularni bir-birlariga xayolan gijgijlab, yaxshi farishta baribir g'olib bo'ladi deb ishonganlar.

Ibtidoiy dinlarga asos bo'lgan, dunyo, hayot to'g'risidagi fantastik to'qimalar ibtidoiy odamning dunyoni, borliqni izohlashga bo'lgan urinishlari edi. Hayotdagi har qanday o'zgarishlar, keyinchalik turli butparastlik dinlariga asos bo'lgan tabiatni ilohiylashtirish odati kabi, inson mehnati va tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Tabiatni ilohiylashtirish dehqonchilik mehnati asosida kelib chiqadi, chunki faqat shundagina inson tabiatga e'tibor bilan qaraydi, uning qonunlarini tushuna boradi. Tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, dastlabki oddiy dehqonchilik hozirgi O'zbekiston hududida, bundan ancha uzoq davrlar oldin rivojlangan.

Bronza davridayoq, harqalay, ishlov beriladigan yerlar mavjud edi. Dehqonchilikning o'troq rivojlanishi davrida inson o'zining qardoshiga — Insonga e'tibor bera boshlagan.

Hozirgi O'zbekiston hududida joylashgan qadimiy qo'nalg'alar va qishloqlarda yashagan aholi vakillari badiiy sohada juda ko'p "esdaliklar" qoldirib ketishgan.

Neolit davrida qoyalar ustiga chizilgan suratlarning birida davra bo'lib harakat qilayotgan uch kishidan iborat guruh tasvirlangan bo'lsa, keyinroq, bronza davriga (miloddan avvalgi III—II asrlar) oid tasvirda esa bir guruh juft-juft bo'lib o'ynayotgan kishilar va ularga zamonaviy doirani eslatuvchi predmet ushlagan "akkompaniator" jo'r bo'layotgani aks etgan.

Taxmin qilish mumkinki, astral mavzular bilan bog'liq allaqanday qadimiy e'tiqod bo'yicha, davra shakli osmon yoritqichlarining aylana bo'ylab harakatini, dumaloq cholg'u asbobi esa eng mehribon va eng jahldor iloh — Quyoshni anglatgan. Bunday izohni ko'pincha dinlar tarixlarida ham uchratish mumkin. Shunaqangi o'yinlar va pantomimalarning paydo bo'lishiga, ularning ijro etilishiga qandaydir tarbiyaviy vazifalar bilan sug'orilgan sirli maqsadlar sabab bo'lgan.

Qadimiy o'yinlar turmushdagi va mehnatdagi biror harakatlarning o'ziga xos repetitsiyasi, chaqqonlik va chidamlilikka o'rgatuvchi jismoniy mashg'ulot bo'lgan. Raqsning bu xususiyati qadimiy xalqlarda uzoq vaqt davomida saqlanib kelgan.

Qadimiy Rimda yashab ijod qilgan Lukian II asrda yaratgan "O'yin haqida suhbat" asarida shunday fikr bor: "O'yinda chaqqonlikka o'rgangan kishi, menimcha, unga qarab uchgan nayzaga chap bera oladi". "Davrani jo'shqin o'yin harakatlari bilan bir yigit olib borayotir, keyinchalik bu harakatlar unga urushda qo'l keladi"³⁶.

Lekin shuni esdan chiqarmaslik kerakki, qadimiy ovchilar va jangchilarning o'yin-pantomimalari faqat jismoniy mashg'ulot yoki jodugarlik bo'libgina qolmay, balki ular ijrochilarda ham, tomoshabinlarda ham tetiklik uyg'otib, estetik zavq bag'ishlab, shu bilan san'atning tug'ilishini namoyon qilganlar.

Risolaning kirish qismida qayd etilgan va "Teatning kelib chiqishi" mavzusi tadqiqotchisi A.D.Avdeyev tomonidan keng yoritilgan juda qiziq gipoteza shundan iboratki, teatr elementlari kelib chiqishining birinchi bosqichi — insonning jonivorlarga taqlid qilishi, ikkinchisi — insonning insonga taqlid qilib, niqoblanishidir. Masalan, vafot etgan kishini so'nggi yo'lga, "narigi dunyo"ga kuzatar ekanlar, kishilar qator marosimlarni o'tkazganlar, bularning orasida vafot etgan kishining kiyimini kiyib olish yoki unga o'xshash niqob taqib olish kabilar mavjud bo'lgan.

³⁶ Лукан. Собр. сочин., том II, изд. Академия. — М. — Л., 1939.

Bu udum keyinchalik Ajdodlarga sig'inish odatining bir qismi bo'lib qoldi. Bunda Ajdod deganda muayyan bir shaxs emas, balki umumlashtirilgan obraz sifatida ko'rilgan.

Bora-bora, rivojlangan ijtimoiy jamoa tuzumi davrida Ajdodlar kasbiga qarab — kulollar ajdodi, jangchilar ajdodi va h.k. deb ajratilgan. Undan ham keyinroq ajdodni o'zbeklar Pir deb ataydigan bo'ldilar.

Ma'lumki, feodal jamoa tuzumi davrida ajdodlarga sig'inish odati turli dinlar tarkibiga ham kirib bordi. Shuningdek, Old Osiyo va mahalliy xalqlar bundan ikki ming yil avval Ajdodga sig'inishni ko'p sonli ibodatxonalarda amalga oshirganlari ham ma'lum. "Kir o'z omadini ilohlardan deb bildi, shu kunni ajdodlar xudosiga bag'ishladi va uni Sakey deb atadi. Bu iloha ibodatxonasi qayerda mavjud bo'lsa, shu yerda katta bayram bo'lgan. Sakey kunu-turu davom etgan, bayram ishtirokchilari skiflar kiyimini kiyib olib, ayollar bilan birga may ichib, o'zaro mushtlashib ham ketishadi"³⁷. Sakeyning asosiy qahramoni — jangchilar ajdodi bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Mahalliy xalqlarning tarixini varaqlar ekanmiz, Ajdodga sig'inish odati haqida ko'p ma'lumotlarni uchratamiz. Bu odat borgan sari o'zgarib, asosiy dinlar murakkab marosimlarining tarkibiy qismiga aylanib borgan. Xitoy tarixchilarining yozishicha, VI—VII asrlarda Toshkentda ajdodga sig'inish odati juda go'zal, shoirona tarzda o'tkazilar — hokimning taxti atrofida gullar va mevalar sochib qo'yilar ekan. Bu feodalizm davrida ajdodga sig'inish odatining bir varianti bo'lib, hokim Pir o'rnida bo'lishi tabiiydir.

Shuning uchun o'rta asrlarning boshlarida tosh maqbaralar — ossuariylarda³⁸ (ossuvari — loydan yasab, olovda pishirilgan kichikroq hajmdagi tobut bo'lib unda faqat marhumning suyaklarigina saqlangan) qoldirilgan tasvirlar juda katta qiziqish uyg'otadi.

Moskva tarix muzeyidagi Samarqand ossuariylaridan birida (VII—VIII asrlar) o'ng qo'lida, pastda niqobga o'xshash predmet ushlab turgan erkak kishi tasvirlangan. Ba'zi tadqiqotchilar bu suratni Mars sayyorasi timsoli, yoki Bar-Siyovush yulduzi timsoli deb biladilar (unda qo'lida niqob emas, kalla tutib turgan bo'ladi), boshqalari esa biror noma'lum marosim ishtirokchisi deb qaraydilar (u holda esa niqob bo'ladi). Lekin, agar bu personaj Mars xudos bo'lganida, u ikkinchi qo'lida qilich ushlab turgan bo'lishi kerak edi, lekin chap qo'lida qamchi tutib turibdi-da! Mahalliy tasviriy san'atni yaxshi o'rgangan san'atshunos L.I.Rempel bu figurani Marv terrakota plitalarida tasvirlangan qo'lida qamchi va belida hamyoni bo'lgan darbadar savdogarlar suratlariga

³⁷ Лукан. Собр. сочин., том II, изд. Академия. — М. — Л., 1939.

³⁸ Pishiq g'ishtdan qurilgan ixcham dahmaga faqat marhumlar so'ngaklari qo'yilgan.

qiyoslaydi. Ossuariy personaji qo'lidagi predmetni tadqiqotchi niqob deb ta'kidlaydi³⁹.

Bunday qiziqarli qiyoslash shunday taxminni keltirib chiqaradiki, ossuariyda savdogarning ajdodi, to'g'rirog'i, ajdod rolini ijro etayotgan artist tasvirlangan, axir uning qo'lidagi niqob-ku!

Ossuariylarda real va timsoliy dafn marosimlari bilan bog'liq qandaydir teatrlashtirilgan tomosha ijrochilari tasvirlanganligini ossuariylardagi boshqa tasvirlardan bilish mumkin.

Shu davrga oid (VI—VIII asrlar) Biya-Naymandagi bir guruh ossuariylarda qo'llarida turli timsoliy predmetlarni tutgan bir qator ishtirokchilar tasvirlangan. Mahalliy tasviriy san'at tadqiqotchisi G.A.Pugachenkovaning fikricha, bular o'layotgan va qayta tirilayotgan tabiat timsoli bo'lgan Siyovush xudosi dafn etilishi marosimining ishtirokchilaridir⁴⁰. Samarqandda topilgan o'rta asrlarning boshlariga oid uncha katta bo'lmagan loy haykalchalar orasida yuzini yulib yig'layotgan ayollar shakllari bor. Dafinalarda topilgan tirjaygan iblis shaklidagi niqoblar juda qiziq. Dafn etish bilan bog'liq yana bir tafsilot — Afrosiyobdagi (qadimiy Samarqand) dafinalarda inson niqobidagi va maymun niqobidagi musiqachilar juda ko'p haykalchalar topilgan. Qadimiy Samarqand mayda haykalchalarini o'rgangan Kamilla Trever fikricha, bu haykalchalar dafn marosimlari ishtirokchilarini aks ettiradi⁴¹. Musiqachi maymunlar shakllarini VII—VIII asrlarga oid kumush idishda ham ko'rish mumkin, unda ilohiy to'y marosimi tasvirlangan. Maymun niqobidagi o'vnayotgan odam figurasi o'rta asrlar fors miniatyurasida va ko'p sonli qadimiy va zamonaviy hind suratlarida ham uchraydi.

Qadimgi sharq xalqlari tasavvurida maymun telbalik va jazava timsoli deb hisoblangan. Musiqachi-maymun timsolida qadimgi yerlik xalq Oliy musiqachi — Ajdodni ko'rganlar. Aynan shuning uchun o'rta asrlarda arablarda Iblis — ilohiy musiqachi to'g'risidagi afsonaning ikki xil varianti keng tarqalgan bo'lsa kerak: xalq ichida u ijobiy qahramon sifatida tan olinsa, hokimlar va diniy arboblardan ichida esa u iblisligicha qolgan. Xalq afsonasida hikoya qilinishicha, xudo inson tanasini yaratgandan so'ng, unga hech ruh baxshida eta olmagan, "ilohiy musiqachilar"ni chaqiribdi, ular esa o'zlarining jozibador kuylari orqali ruh va tanani birlashtiribdilar...

Maymun obrazi hozir ham masxarabozlarning o'yinlarida bor. Mahalliy madaniyat tadqiqotchilarini bu personaj juda hayron qoldirsa kerak — axir

³⁹ Ремпель Л.И. Терракоты Мевра и глиняные скульптуры Нисы. Труды ЮТАКЭ, т. I, АН Туркменской ССР. Ашхабад, 1949. Новые материалы к изучению древней скульптуры южной Туркменской ССР. Ашхабад, 1953.

⁴⁰ Пугаченкова Г.А. Сосуд из Термеза с вакхической сценой. Вестник древней истории, 1951, № 1.

⁴¹ Тревер К.В. Памятники греко-бактрийского искусства. Гос. Эрмитаж АН СССР. — М. — Л., 1940.

O'rta Osiyo hududida umuman hech qachon maymunlar yashamagan-da! Balki, qadimgi mahalliy xalqning qo'shni hududlar bilan keng madaniy aloqalari ko'rinishi odamga o'xshab ketadigan bu personajni o'z qahramonlari qatoriga qabul qilib olishlariga sabab bo'lgan bo'lsa kerak. O'rta Osiyo olimlarining fikricha, mahalliy dekorativ san'atda keng o'rin olgan nilufar gul tasviri ham Hindistondan kirib kelgan, chunki O'rta Osiyo hududida nilufar o'smagan, uning tasviri mahalliy xalqni o'zining g'aroyib, notanish go'zalligi bilan maftun qilgan...

Shunisi qiziqki, maymun, to'g'rirog'i, maymun ko'rinishidagi jazava ilohi ellinlardagi tok xudosi Dionisni eslatuvchi mastlik ilohi, may xudosi bag'ishlangan marosimlarda o'z o'rnini topgan. Ma'lumki, Dionisga atalgan udumlarda Taka bo'lib kiyingan kishilar asosiy rolni o'ynashgan.

Mahalliy Dionis bizga ma'lum emas, lekin turli faktlarning guvohlik berishicha, mahalliy xalq greklarning ilohlari bilan tanish bo'lmasdan avval o'zlariga shunday iloh tanlab olgan. Biz bu ilohning nomini bilmaymiz, biroq qadimiy rassomlar chizib ketgan suratlarida uning o'zgaruvchan siyosini ko'ramiz.

Termiz yaqinida topilgan milodning ilk asrlariga oid vazasimon idish yuzasidagi surat mahalliy uzum terish bayramlari greklarning dionisiylariga juda o'xshash kechganligi haqida guvohlik beradi. Bu vaza ustidagi suratda vakxlar marosimi tasvirlangan bo'lib, unda o'yinga tushayotgan menadalar, satirlar, sirenalar va maychilik ilohining o'zi ishtirok etadi. Termiz vazasi suratlarini grek vazalarining biridagi suratlarini aynan takrorlaydi, ularning orasida faqat bitta farqi bor. Termiz vazasi ustida lablari qalin, ko'zlari qisq, burni keng, boshiga tok barglaridan qilingan chambarak taqqan, sarxush jilmaygan siymo tasvirlangan. O'zbek san'atshunoslari uni mahalliy xalqning may xudosi deb taxmin qilmoqdalar. Ularning fikricha, vazani yaratgan usta bitta suratda ikki xalqning ilohlarini tasvirlashdan hech tortinmagan — bittasi mahalliy, varvarlarga xos ko'rinishda, ikkinchisi o'yinga tushayotganlarning o'rtasida gerdayib turgan yosh ellin. Bunga sabab — mahalliy xalqning tok va uzum bilan bog'liq marosimlari grek vazasida tasvirlangan marosimlardan uncha farq qilmagan⁴².

Greklarning may xudosi yugurdaklari — satirlar taka bo'lib kiyinib olishgan. Dionisga sig'inish odati biror jonivorlarni ilohiylashtirish bilan bog'liq allaqanday udumlar asosida shakllangani tufayli bo'lsa kerak, "tirik" takalar, echki yungilari va shoxlaridan iborat atributlar shunday marosimlarda katta rol o'ynagan ko'rinadi.

Yuqorida aytib o'tilgan qadimiy raqqoslar suratlariga qaytsak, ulardan juda qiziq faktlar topishimiz mumkin. Zarafshon daryosi bo'ylaridagi qoyalarda

⁴² Пугаченкова Г.А. Сосуд из Термеза с вакхической сценой. Вестник древней истории, 1951 № 1

chizib qoldirilgan (neolit) o'yinchilar yonida yelkasiga taka ortib olgan erkak figurasi bor, yana bittasi qo'llarini oldinga uzatgancha qornini takaning tumshug'iga tirab turibdi. Qoyalardagi suratlar tadqiqotchisi A.Dalskiy fikricha, bu suratlar eng qadimiydir. Balki, takaga bo'lgan turli e'tiqodlar keyinchalik tabiatning yaratuvchanlik kuchiga e'tiqod shaklida Dionisga sig'inish odatiga qo'shilib ketgan bo'lsa kerak⁴³. Taka niqobini taqqan raqqoslar suratlarini o'rta asrlarning boshlariga oid (III—VI asrlar) Xorazmshoh saroyi zallaridan birining devorlarida ham uchramiz. Bunday suratlar juda kam bo'lsa-da, taka niqobida o'yinga tushish an'anasi keyinchalik ham kuzatiladi. Amir Temur hukmronlik qilgan davrda (XIV asrning oxiri — XV asrning boshlari) buyuk g'alaba kunlarida, bayramlarda niqobli sayllar uyushtirilgan va ularning orasida taka terisini yopingan personajlar ham bo'lgan. Shunday sayllarning birini o'sha davr shoiri Sharafiddin (Ali Yazdiy bo'lsa kerak — tarj.) shunday yozgan:

“San'at ila inson aylanibdi qo'chqorga,
Teriga o'rangan u bexato.
Inson kabi so'ylaguvchi, oltin shoxli takalar
Bir-birining ortidan yo'rg'alab borar”.

XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida ham bayram sayllarida taka bo'lib kiyingan raqqoslar uchrab turgan. Butun O'rta Osiyo hududida keng tarqalgan xalq o'yinlaridan biri uloq sanalgan. Bu o'ziga xos musobaqa ishtirokchilari shiddatli poyga vaqtida echkining jonsiz jasadini talashib boradilar...

Shunday qilib, O'rta Osiyoning qadimiy aholisi, qisman, hozirgi O'zbekiston hududida yashagan xalqlar turli jonivorlarning terilariga, shu jumladan, taka terisiga o'ranib o'yinga tushganlar. Shunday kiyingan ovchilar jonivorga taqlid qilib o'ynaganlar. Keyinchalik tabiatni ilohiylashtirib, alohida jonivorga ajratib, o'shalarga e'tiqod qilganlar. Jonivorlar va tabiatning ilohiylashtirilishi, tabiatning yaratuvchanlik kuchiga e'tiqod qilish keyinchalik dinlarga aylanib borgan. Bu e'tiqodlar ham, dinlar ham o'zlariga xos marosimlari mavjud bo'lib, ularda butun aholi ishtirok etgan, lekin asosiy ilohlar rollarini eng iqtidorli ijrochilar o'ynagan. Shunday marosimlardan ba'zilar, shu jumladan, jonivorlar ko'rinishidagi ilohlar bilan bog'liq marosimlar eng quvnoq odat — Tok ilohiga sig'inish odati tarkibiga kirgan. Bu iloh a'yonlari qatorida jazava timsoli, musiqachi va raqqoslar piri — maymun paydo bo'lgan.

Musiqachilar piridan tashqari, bunday tomoshalarda boshqa pirlar, ezgulik va yomonlik farishtalari ham ishtirok etgan bo'lishi kerak. Bu farishtalar

⁴³ Дальский А.Н. Наскальные изображения в бассейне реки Зеравшан. Материалы исследования по археологии СССР, № 15, том I. — М. — Л., 1958.

albatta o'yinchi shaklida tasvirlanadi, yomon farishta kiyimiga taqib qo'yilgan qo'ng'iroqcha esa uning doimiy atributi hisoblanadi. Qadimgi Samarqand yaqinidagi o'rta asrlar boshlariga oid Panjikent saroyida va shu davrga oid Farg'ona buddaparastlar ibodatxonasida chizib qoldirilgan suratlarida Raq'os devosi tasvirlangan. Shunga o'xshash figuralar Farg'onaga qo'shni qadimiy davlat (Sharqiy Turkiston) hududidagi suratlarida ham bor. Bu esa yovuz ruhlar ishtirokidagi tomoshalar jug'rofiyasi ancha keng bo'lganligidan guvohlik beradi.

Raq's devining tanasi ko'm-ko'k rangda bo'lib, hamma yog'ig'ini qo'ng'iroqchalar taqilgan, shuning uchun ham uni “Raq's ko'k devosi” deyidilar. Aytgancha, yovuz ruhlar bilan bevosita bog'liq shamanlar hozirgi kungacha ham qo'ng'iroqchalarini esdan chiqarmaydilar. Yovuz ruh atributi bo'lgan qo'ng'iroqcha bir vaqtning o'zida yovuz ruhdan saqlovchi tumor vazifasini xam o'tagan — kiyimiga qo'ng'iroqcha taqilgan kishi yovuz ruhni aldab o'zini ham yovuz ruh deb ko'rsatib, shu bilan salbiy ta'sirdan o'zini himoya qilgan...⁴⁴

Ko'p sonli madaniy yodgorliklarda — miloddan avvalgi birinchi mingyillikdan tortib to milodiy VIII asrgacha bo'lgan davr ichida turli e'tiqod marosimlarida sahnalar chizib qoldirilgan bo'lib, ularning orasida qurbonlik qilish sahnasi “ilohiy ichimlik” solingan piyolaga o'xshash idish tutgan raqqos va raqqosalar muqaddas olov yoqilishi va hokazolar ayniqsa e'tiborni jalb qiladi.

Yuqorida bayon etilgan materiallarga asoslanib, shunday xulosaga kelishim mumkin: eng qadimgi mahalliy aholi o'yinga tushishni bilgan, jonivorga taqlid qilish, ov sahnalari va ovchilarning xursandchiligini aks ettiradigan o'yinlar — bu ilk pantomimalar bo'lgan.

Masxarabozlar san'atida hozirgi zamongacha yetib kelgan ritmi pantomimalar va taqlid o'yinlari ibtidoiy zamondan beri mavjud bo'lgan o'yin-pantomimalarning davomchisidir. Agar hozirgi kunda masxarabozlar tomoshalaridan joy olgan pantomimalar ancha keyinroq zamonlarda paydo bo'lib, rivojlangan deb taxmin qilinadigan bo'lsa, unda tarixiy yodgorliklard qolgan mantiqiy zanjir uzilgan bo'ladi. Fikr yuritish uchun ozuqa bo'ladigan bunday materiallarni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi, chunki ular ibtidoiy odamning mehnat obyektlariga nisbatan manfaatlarini haqqoniy aks ettiradigan Hayotdan olingan sahnalarni tasviriy san'at vositalari bilan aks ettiradigan hozirgi O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari jonli plastika san'atining tug'ilishini

⁴⁴ Альбаум Л.И. Балалык-тепе. АН УзССР. — Т., 1960.

ham ko'rsatib bergan ekanlar. Haqiqatparvarligi bilan o'ziga jalb etuvchi masxarabozlar realistlik san'ati qadimgi tasviriy san'at bilan o'zaro qarama-qarshi emas.

Masxarabozlar — an'anaviy professional teatr artistlari tomoshalariga murojaat qilaylik. Tomoshalarning eng yaxshi saqlangan shakllari sharqiy xorazmliklarga xos bo'lsa-da, spektakllarning tuzilishi, majburiy atributlar butun O'zbekiston va Tojikistondagi boshqa masxarabozlarniki bilan o'xshashdir.

Zarur atributlardan biri echki terisidan yasalgan niqob va echki yungidan qilingan, ikki shoxli, konus shakldagi yoki oddiy pahmoq, xo'roz tojiga o'xshagan qalpoqdir. Qadimgi qoidalarga binoan, masxaraboz faqat niqob emas, balki kostyum ham, ya'ni jonivor terisidan qilingan yopinchiqni ham kiyishi kerak. Masxarabozdan biror sahnani ijro etib berishni so'ralsa-yu, uning niqobi va kostyumi bo'lmasa, u o'zini yo'qotib qo'yadi. Xonqalik⁴⁵ bir masxaraboz ikkitagina sahnani o'ynab berish uchun o'zida bor niqobini taqqan, kostyumi bo'lmaganligi uchun biroz o'ylanib turib, shartta plashini yechib, teskarisini kiyib olgan ekan — shu bilan kostyum kiygan bo'ladi-da!

Ba'zan keksa masxarabozlar niqobning burniga qo'ng'iroqcha taqib qo'yadilar. Bittasidan nega bunday qildingiz deb so'ralganda, u tajanglik bilan: "Mening ustam ham, ustamning ustasi ham shunday qilgan"⁴⁶, deb javob bergan ekan. Lekin ustasi nega qo'ng'iroq taqqanini, afsuski, masxaraboz bilmas edi...

Kirish so'zini aytib bo'lgandan so'ng masxaraboz Xorazmda "Go'l ufori" deb nomlanadigan va boshqa yerlarda alohida nomi bo'lmagan o'yinni ijro etadi. Biroq, eng keksa masxarabozlarning aytishlariga qaraganda, bu o'yin ilgari "Maymun ufori" deb atalgan ekan. Undan keyin masxarabozlar turli hangoma sahnalarni ijro etadilar, sahnalar orasida ma'no jihatidan pyesa matni bilan bog'liq bo'lmagan taqlid pantomimalar o'ynaladi. Masxarabozlar sho'x o'yinlar tushib, pantomimalar ko'rsatadilar — echki, taka, sassiqpopishak, yumronqoziq bo'lib, yoki pichoq, piyola, mash'al o'yinlarini ijro etadilar.

Raq va teatr san'atining paydo bo'lishini aks ettiruvchi o'tmishga oid materiallar bilan o'xshash joylarini izlaydigan bo'lsak, XX asr masxarabozlari tomoshalarini jonli muzey deb atash mumkin.

Taka terisi va ikki shoxli qalpoqlar — takaga e'tiqod belgisi; bosh kiyimining konussimon shakli — astral mavzu bilan bog'liq belgi; xo'roz toji — yorug'lik ilohi timsoli (axir tong otganini xo'roz o'z qichqirig'i bilan bildirib turadi-da!);

⁴⁵ Qurumbay Yoqubov. Xorazm viloyati, Oxunboboyev nomli jamoa xo'jaligi. San'atshunoslik instituti folklor ensiklopediyasi.

⁴⁶ Hayitboy Avazniyozov. Qoraqalpog'iston, Amudaryo tumani, Qipchoq qishloq kengashi. San'atshunoslik instituti folklor ensiklopediyasi, 1960. Usta — ustoz, usta, murabbiy.

yovuz ruhning qo'rqinchli, qo'ng'iroq taqilgan niqobi; nihoyat, maymun — ilohiy musiqachi! Xorazm va Buxoro masxarabozlarining Otash-o'yin, Olovboz kabi raqslari ham albatta qadimiy marosimlar bilan bog'liqdir. Pichoq o'yinni jonivorni qurbon qilish marosimi bilan, Piyola o'yinni "ilohiy daraxti" sharbatiga taalluqli an'analar bilan, Tog'ora o'yin va Ko'zabozni kulolchilik mahsulotlarini olovda pishirish bilan bog'lash mumkin.

Agar asrlar davomida pantomimalarning ma'no jihatdan maqsadi va ijrochilarning ijodiy vazifasi faqat utilitar bo'lib qolganda, yoki faqat mistik-realistik bo'lganda, ularning davomchilari minglab yillar yashamagan va XX asr san'atigacha yetib kelmagan bo'lar edi. Hozirgi zamon olimlariga o'zbek xalqi san'atining paydo bo'lishi va shakllanishi haqida xulosalar chiqarishga yordam bergan madaniy yodgorliklar yuqori paleolitdan tortib (miloddan 40 ming ilgari!) to milodiy VII—VIII asrlargacha bo'lgan juda katta davrni o'zida mujassamlashtirgan. Bu o'tgan ming yillar davomida qanchadan-qancha e'tiqodlar paydo bo'ldi, eng oddiy — tabiatga topinishdan nechta dinlar vujudga keldi! Dunyoni o'rganish hayotga dialektik materializm nuqtai nazaridan qarash kabi murakkab falsafalarga asos bo'ldi. Fanlar paydo bo'lib, rivojlanib bordi... Lekin hamma vaqt o'yin o'ynalib, raqslar tushilib keldi, chunki ularni inson mehnati va turmushi vujudga keltirgan. Yer, suv, olov, jonivorlar — haqiqatan ham abadiy mavzular. Asrlar davomida inson tananing biror ma'noli, tushunarli va chiroyli harakatiga e'tibor bersa, uni yo'q qilib yubormay, balki saqlab, avloddan avlodga yetkazib kelgan.

Biroq, xalq raqsi o'zining mazmuni va vazifalari jihatidan masxarabozlar raqsidan farq qiladi, chunki xalq "o'zi uchun" o'ynasa, masxaraboz qiyofasini o'zgartirib, obraz yaratadi va "tomoshabin uchun" o'ynaydi. Bu esa Masxarabozlar teatri pantomimalari, o'yinlari va raqslari xalq ichida paydo bo'lib, keyin diniy marosimlarda shakllanib borgan, lekin ular professional san'atning mustaqil turi sifatida ajralib chiqqaniga ham ancha vaqt bo'ldi.

Teatrshunos M.Rahmonovning Masxarabozlar teatri shakllanishi muammolariga bag'ishlangan isbotli gipotezasi ishonchli materiallarga tayangan holda shunday fikrni ilgari suradiki, bu o'ziga xos teatr miloddan avvalgi II asrda "ellinistik" teatr shaklida paydo bo'lgan va o'zida mahalliy teatrning panteistik tomoshalari, qadimiy grek "o maskara" teatri, qiziqchilar va ko'zboylog'ichlar chiqishlarini birlashtirgan. Tarixiy materiallar asosida tug'ilgan bu gipotezani teatrning nomi — "o maskara" degan so'z ham tasdiqlaydi, faqat bizda "masxara" so'ziga forscha "boz" qo'shimchasi qo'shilgan; lekin tomoshalarning shakli, pantomimalar va o'yinlar, raqslar va sirk nomerlarining professional ijro etilishi ham aynan shundan darak beradi.

Biroq professional teatr ham qadim zamonlardayoq yo'q bo'lib ketishi, tomoshaning tarkibiy qismlari bo'lgan pantomima va o'yinlar minglab yillar

osha bizlargacha yetib kela olmasligi mumkin edi. O'sha davrlarda professional artistlarning tomoshalarida ancha yuqori rivojlangan xoreografiya, ishlov berilgan raqs bor edi, buni milodning ilk asrlariga oid tasviriy materiallar ham tasdiqlaydi. Raqs pantomimasi faqatgina saqlanib qolmasdan, balki hozirgi zamonda yangi tug'ilgandek, xalq raqslari va professional raqs san'atini to'ldirib kelmoqda.

Bu masxarabozlar san'ati abadiyligining siri uning oliy vazifasida: raqs pantomimasi — allegoriya, raqs — masal. qadimlardan beri allegoriya o'zbek xalqining eng sevimli badiiy vositalaridan sanalib kelgan. Chunki u doimo samarali, o'tkir, harakatchan va rasman bezavol bo'lgan. Raqs-masal hozirgi kungacha ham juda o'tkir qurol deb hisoblanadi. XX asrning boshlarida shafqatsiz hokim, befarosat mulla, ochko'z savdogar, xotinboz boy eng ommaviy personajlar bo'lib, biror jonivor shaklida ham darrov tanilib turishgan bo'lsa, hozirgi kunlarda ham dangasa, isqirt oshpaz, haddan ortiq noz-karashmali xotin yoki qariganini bilmaydigan kampir ustidan hamma birdek kuladi. Lekin hozir masxarabozlar faqat insonlarning salbiy xislatlarini emas, balki ijtimoiy voqea-hodisalarni ham nishonga oladilar. Shuning uchun ham ba'zi zamonaviy raqs janrlari qadimiy o'zbek raqs janridan — allegorik raqs san'ati va raqs-masaldan namuna olsa arziydi.

2. Tasviriy-ifodali va taqlidiy xalq raqslari

Bu raqslar hayvonot olamini aks ettiradi va ularni faqat erkaklar ijro etadi (juda kam istisno hollarda ayollar ijro etishi mumkin). Hayotdan olingan tana harakatlarini umumlashtirish bilan professional va xalq raqslari o'rtasida prinsipial farq bo'lmaganligi uchun biz hayvonot olamining vatanimizda yashaydigan va raqslardan joy olgan vakillari haqida hikoya qilamiz.

Xorazm xalq raqslarida ajoyib, kam uchraydigan nusxalar bor: bular qo'rqqoq, sal narsaga cho'chib tushadigan, g'ujanak bo'lib oladigan quyonlar; titrab turadigan, old oyoqchalarini ko'tarib olgan qumpishaklar (sahro mushugi); xavfli yirtqich, o'zini uy mushugiga soladigan qamishzorlar mushugi; urishqoq xo'rozlar (xo'roz o'yini), ularni raqqoslar cho'kka tushib o'tirgan holda, boshlarini chapga-o'ngga siltab tasvirlaydilar; kekkaygan tustovuq (tustovuq o'yini), u birdan ko'tarilib, qo'l-qanotlari bilan yonlariga shapatilaydi; o'jar takalar, tor yo'lda to'qnashib qolib, bir-birini o'tkazmaydi — raqqoslar peshonalarini bir-biriga tirab, yer tepinib, oyoqlari bilan yarim aylana harakatlar qiladilar; semirib, yog' bosgan qo'ylar u yonboshdan bu yonboshga ag'anab yotadilar.

Xorazmda qadim-qadimdan keng tarqalgan raqslardan biri "Chorloq" bo'lgan. Tomoshabinlar davrasining markaziga cho'girma deb ataladigan bosh kiyimi tashlanadi, keyin raqqoslardan biri o'rtaga sakrab chiqib, gavdasini

qoq belidan oldinga qarab egib, tizzalarini ham sal bukkan holda, qo'llari orqaga cho'zib, o'ziga xos xorazmcha yurishni boshlaydi: oyoqlarini baland ko'tarib qadam bosadi va qo'l panjalarini yozgancha titratib boradi. Chorloqning maqsadi — baliq rolidagi qalpoqni tumshug'i bilan ilib olish. Shuning uchun ov harakatlari orasida raqqos birdan qaddini rostlab, qo'llarini oldinga uzatib bilagidan chalishtirib, baliqning dumiga o'xshatadi. Keyin yana chorloq aylanadi. Birdan kutilmaganda raqqos tiz cho'kib, engashib, qalpoqni tishlab bilan tutib oladi, ya'ni Amudaryo suvlaridan baliq tutib olgandek bo'ladi. E'tibor o'yin sho'xchan, jonli, quvnoq bo'lib, bir raqqosning o'rniga ikkinchisi, keyin uchinchisi o'yinni davom ettirib ketaveradi, shunday qilib ancha uzoq, jonga tegmaguncha davom etadi.

Shunisini ham aytish joizki, xorazmcha chorloq slavyanlar xalq og'zaki ijodi va adabiyotidagi kabi lirik personaj emas. Chorloq — baqiroq, urishqoq mayda yirtqich qushdir.

Farg'ona vodiysida burgutlarga taqlid qilganlar — qo'llar keng yozilib yuqoriga ko'tarib, pastga tushiriladi, qo'l uchlari harakati bilan havoga uchgandek bo'ladi; bedanaga taqlid qilganda oyoqlarning uchida, mayda qadamlar bilan yuriladi, qo'llar tana bo'ylab yonga tushirilgan bo'ladi va qo'l uchlari silkinib turadi.

Buxoroda sevimli model laylak bo'lgan. U goh u, goh bu tizzasini yuqoriga ko'tarib, sekin qadam tashlaydi, bo'yni mag'rur ko'tarilgan, ko'zlari yari yumuq bo'ladi.

Qarshi cho'llarida ijro etilgan uforida tez-tez qadam tashlab, qo'llarni bo'lib uzra ko'tarib, tirsaklari aylana hosil qilgan holda qo'l uchlari birlashtirilgan kiyik obrazi hosil bo'lgan. Cho'l hududlarida qo'llarini oldinda ko'tarib o'ynaladigan qumpishak o'yini ham shunday keng tarqalgan. Raqqos tiz cho'kib, tizzalarini birlashtirib, qo'llarining tirsakdan yuqori qismini baliq jipslashtirib, bilaklarini oldinga cho'zgan holda qo'l uchlari pastga qaratiq butun tanasi bilan titrab, alanglab, sakrab-sakrab harakat qiladi. Mag'rur burgut raqsida raqqos oyoqlari uchiga sal ko'tarilib, tizzalarini sal bukib, qo'llari keng yozgancha silkitib qadam bosadi. Yirtqich qirg'iylar ham xuddi burgut kabi tasvirlanadi, faqat bunda raqqos butun tana muskullarini qattiq siqib, tana yuradi va yuguradi, qoshlari chimirilib, ko'zlari yovuz boqadi.

Aytishlaricha, Boysun tog'lari etaklaridagi qishloqlarda "Tog' qoplon" raqsi bo'lgan ekan: unda raqqos go'yo "sakrashga tayyorlanib", yarim o'tirgan holatda butun muskullarini "yig'ishtirib", keyin birdaniga oldinga sakraydi. Hozirgi kunda bu raqslar unutilib ketgan... Qachonlardir bu yerlarda "Ay ufuri" degan raqs ham bo'lgan ekan...

Farg'ona viloyatida raqqoslar "Kichkinajon" raqsini ijro etadilar. (Yusufjon) qiziq hikoya qilishicha, asrimizning boshlarida bu raqsni Maymun ufuri de

atashgan ekan.) “Kichkinajon” raqsida tana harakatlari va giperbola ko‘rinishidagi mimikalarda obyekt yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Lekin ijrochilar aynan maymunga taqlid qilayotganliklarini bilmagan bo‘lsalar kerak. “Kichkinajon” endilikda oddiy hazil, kulgili, sho‘xchan xalq raqsiga aylanib ketgan, hech qanday xalq bayramlari uningsiz o‘tmaydi. O‘zbekistonning markaziy va janubiy qismidagi qishloqlarda “Jon burga, jonim burga” degan lapar raqs ham mavjud bo‘lib, ijro uslublari xuddi “Kichkinajon”ni eslatib yuboradi.

Yana bir guruh raqslar borki, ular ma‘lum bir jismoniy yoki ma‘naviy xislatlari tufayli tanlab olingan biror insonga taqlid qiladi. Masalan, ochko‘z katta qornini oldinga qappaytirib oladi; qurumsoq xuddi pullarni nuqul o‘zi tomonga surib olayotgandek ko‘rinadi; haddan tashqari noz-karashmali xonimcha yelkalarini uchirib, ko‘zlarini suzgancha mag‘rur qadam tashlaydi; urishqoq o‘zini har yonga tashlab, raqibini yelkasi bilan turtayotgandek harakatlar qiladi.

Bunday taqlid raqslarni erkaklar ham, ayollar ham ijro etadi va ko‘pincha bunday raqslarga lapar yoki hazil qo‘shiqlar jo‘r bo‘ladi.

Biroq, taqlid qilinayotgan obyekt qanday bo‘lishidan qat‘i nazar — hoh u beozor uy hayvoni yoki cho‘lda yashaydigan biror jonivor bo‘lsin, hoh u biror yirtqich yoki inson bo‘lsin — **Taqlidiy raqs doimo Hazil raqs bo‘ladi** va turli jonli harakatlar bilan ijrochilarni ham, tomoshabinlarni ham birdek zavqlantiradi. Bunday raqslarning maqsadi muayyan jonivorning harakatlariga oddiy taqlid bo‘libgina qolmay, balki shu jonivorning harakatlarini ba‘zi insonlardagi yoqimsiz xislatlari bilan qiyoslashdan iborat.

Hazil raqs xalq orasida ham allegorik raqs-masal hisoblanadi, u ba‘zi satira xususiyatlariga ham ega, lekin u **“eng oliy umumlashirma” — Grotesk bo‘la olmaydi**, chunki groteskda kulgi **dahshatga** aylanadi. **Faqat katta Raqs Ustalari grotesk ijro etishlari mumkin bo‘lgan.**

Bevosita kishilar xarakteriga bag‘ishlangan laparlar yumoristik janr chegaralaridan chiqmaydi: yengil kulgidan tortib to gulduros kulgiga sabab bo‘ladigan o‘tkir hazilgacha. Bu raqslar va qo‘shiqlarga qo‘shib ijro etiladigan o‘yinlarni qisqacha va oddiygina qilib **“Maishiy raqslar”** deb atash mumkin.

Taqlidiy va taqlidiy-maishiy raqslar xalq orasida ko‘pincha faqat childirma — doira jo‘rligida, cho‘l joylarda qamishdan yasalgan nay jo‘rligida va boshqa hududlarda esa loydan yasali, tog‘ora va boshqa idishlar bilan birga olovda pishirib olingan oddiy naychalar jo‘rligida ijro etilgan. Janubda bu asboblarni hushpo‘lak, shimolda esa hushtak deb ataydilar. Ba‘zi tumanlarda hushpo‘laklar turli balandlikdagi va turli tembrli ovozlarni paydo qiluvchi butun boshli orkestrni tashkil qilishi mumkin. Orkestr ham o‘ziga xos koloritga ega, chunki hushpo‘laklar har xil jonivorlar va qushchalar shaklida ishlangan bo‘ladi.

Urrib chalinadigan musiqa asbobini yuqorida doira emas, childirma deb atab, muallif hech xato qilmagan. Doira yog‘ochdan yasalgan halqa bo‘lib, uning o‘rtasi ot terisi bilan qoplangan bo‘ladi, atrofiga ichkari tarafdin gir aylana temir halqachalar taqiladi — bir qaraganda oddiygina cholg‘u asbobi. Lekin halqa uchun yog‘och alohida tanlab olinib, bafurja ishlov beriladi, ichkarisiga taqiladigan temir halqachalar har bir doira uchun alohida yasali, o‘ziga xos jarang beradigan qilinadi. Teri ham uzoq ishlanib, har bir usta teriga ishlov berishning o‘ziga xos siri bo‘lgan. Teri halqaga yaqin joydan bir ovoz chiqarsa, doiraning markazidan boshqacha ovoz chiqaradi, shuning uchun terini halqaning yuziga tortish ham o‘ziga xos murakkab jarayondir. Doiraning ovozi yaxshi chiqishi uchun uni chalishdan oldin yaxshilab qizdirib olingan.

Childirma ham yuziga teri qoplangan yog‘och halqa bo‘lib, faqat bu halqa va terini tayyorlashda ijodiy energiya sarflanmagan, shuning uchun childirmadan doimo bir xil, bo‘g‘iq tovushlar chiqaradi. Xalq orasida aynan shu eng oddiy asbobdan foydalanishgan.

Ko‘pincha bayramlar paytida tomoshabinlar ham “orkestr”ga ochiq yoki yarim ochiq og‘zilariga kaftlari bilan shapatilagancha jo‘r bo‘lib turishgan. Albatta, qo‘shig‘ini ham qo‘shilib aytishgan.

Unison ovozli xor ko‘pgina xalq raqslariga musiqiy jo‘rlik vazifasini o‘tagan. Ayniqsa, bu jo‘rlik illyustrativ raqslarda o‘z aksini topgan.

Illyustrativ raqslar XIX—XX asrlarda xalq orasida “Qani-qani” deb nomlangan illyustrativ-raqsli o‘yin keng tarqalgan edi. Unda raqs partiyasining ijrochisi tomoshabinlarning “Qani-qani” degan chaqiriqlariga o‘ziga xos harakatlarni ritmik ravishda bajarib, masalan, paxta qanday teriladi, belboq qanday tikiladi, nonni qanday yopadi, taka qanday yuradi, kapalak qanday qanot qoqadi, uzum qanaqa o‘sadi degan savollarga shu harakatlari bilan javob beradi. Xor-davra yakkaxon ijrochiga shunday savollarni beradi va qarsak bilan ritm beradi. Ijrochi esa shu qarsaklar jo‘rligida turli mehnat va maishiy harakatlarni bajaradi yoki plastik vositalar yordamida biror tabiiy hodisa yoki jonivorni ifodalab beradi.

Bunday improvizatsiyalar davomida ajoyib qo‘l harakatlari, yurishlar, korpus holatlari paydo bo‘ladi, lekin, umuman olganda, tabiiyki, bular o‘sha an’anaviy raqs yurishlari va aylanishlarni takrorlaydi, faqat qo‘llar yoki mimika nimalarnidir ifodalaydi, “chizadi”. Iqtidorli havaskor raqqoslarda bu harakatlar san’atga ancha yaqin keladi, iqtidori unchalik emaslari esa maishiy darajada qolaveradi.

Raqs-o‘yinlardan yana biri — **Ot o‘yindir**. Yakkaxon raqqos yoki bir necha ijrochilar, bir uchiga quritilgan qovoq ilingan uzun yog‘ochni ot qilib, tomoshabinlar qarsaklari jo‘rligida “ot”ni qo‘lga o‘rgatadilar va minadilar. **Ot o‘yin** asosan Xorazmda, cho‘l va tog‘ hududlarida keng tarqalgan.

Samarqand viloyatidagi Qo's qishlog'ida qariyalar xotirlashicha, qadimda Yakqarsak o'yini mavjud bo'lib, unda raqqoslar pantomima shaklida kelin o'g'irlash marosimi ifodalanadi...

Shu bilan taqlid va illyustrativ raqslar ro'yxati tugaydi, lekin raqslarning o'zi son-sanoqsiz.

Predmetli raqslar O'zbek xalqi raqs san'ati merosining muhim qismlaridan biri — predmetli raqslardir. Ularni alohida ajratib tasvirlamasak ham bo'lar edi, chunki bunday raqslar oddiy ritmik gimnastika yurishining bir turi yoki ruhiy holatni ifoda etuvchi, ya'ni lirik raqsdir.

Lekin o'zbeklarning eng yaqin qo'shnisi bo'lgan tojiklarda esa qadimdan hozirgi kunga qadar predmetli raqslar *xalq illyustrativ-ifodali syujetli raqsning* muhim bir bo'limi hisoblanadi. Masalan, qizlarning "Ko'za raqsi" tog' daryosi bo'yiga suvga chiqqan qizlarning sarguzashtlarini ifodalovchi syujetli raqsdir.

O'zbek raqslarida predmetlar syujet atributi deb hisoblanmaydi, chunki ular o'ziga xos cholg'u asbobi o'rnida ishlatiladi. Tomoshabinlar davrasi, jo'r bo'luvchilar syujetli qo'shiq yoki lapar aytib tursalar ham, o'rta chiqqan yakkaxon raqqos qo'lidagi predmet bilan biror ritmik suratni yoki ohangning umumiy ruhiy mazmunini ifodalaydi.

a) **Choynak o'yini** (choynak ufori). Raqqos katta barmog'ini choynakning dastasiga o'tkazib oladi, ko'rsatkich va o'rta barmog'i bilan qopqoqini ushlab turadi va choynak raqs ritmlarini bo'rttirib turuvchi shaqildoqqa aylanadi.

Bu raqs Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida, Shahrisabz va uning atroflarida, Farg'ona vodiysining ba'zi qishloqlarida va qadimgi Samarqand tevaragida keng tarqalgan. Uni Movarounnahr o'zbeklarining va O'rta Osiyoga keyinroq kelib joylashgan xalqlarning tipik raqsi desa bo'ladi.

b) **Qoshiq o'yini** (qoshiq ufori). Ancha keng tarqalgan raqs. Bo'yalmagan va ilgari cho'mich vazifasini ham o'tagan qoshiqlar ancha katta, dastalari uzun (20 dan 40 sm gacha) bo'lib, maxsus bo'ktirilgan yog'ochdan yasaladi va bir-biriga urilganda tovushi jaranglab chiqadi.

c) **Pichoq o'yini** (pichoq ufori). Avvalgilaridan ancha farq qiladi. Raqqoslar (faqat erkaklar) pichoqlarning tig'larini bir-biriga urishtirib, ritm chiqaradilar va bir vaqtning o'zida oddiy va murakkab tryuklarni ham bajaradilar: ikkita pichoqni yerga sanchib, ularning o'rtasidan bir oyoq uchida shunday o'tish kerakki, pichoqlar qimir etmasin. Pichoqlarni o'ynab turib, raqqos pichoq tig'ini o'ziga qaratib ushlaydi va kutilmaganda biror angrayib turgan tomoshabinning mo'ylabi uchini qirqib oladi.

d) **Tayoq o'yini**, Ducho'ba — ikki tayoq. Bu ehtirosli, ekspressiv raqs ayniqsa O'zbekistonning janubida keng tarqalgan. Bu raqs alohida bo'rttirib ko'rsatiladigan virtuoz harakatlardan tarkib topadi: har qo'lga ikkitadan to'rta

tayoq ushlagan raqqos tayoqlarni barmoqlari o'rtasida shunday o'ynatadiki ular bir-biriga urilib, ajoyib jaranglagan tovushlar paydo bo'ladi.

Shunisi qiziqki, Xorazmda pichoq o'yinini "eroniy raqs", tayoq o'yinini esa "afg'oniy raqs" deb ataydilar.

e) **Piyola o'yini**. Ichiga suv to'ldirilgan piyolalar bilan ijro etiladigan raqs. Uni Farg'ona vodiysi qishloqlarida turli tryuklar bilan qo'shib o'ynaydilar. Masalan, keskin harakatlar, aylanishlar paytida ham raqqos yerga biror tomch suvni to'kib yubormasligi kerak.

j) **Markaziy va Janubiy** O'zbekistonda piyolalar raqsda bo'sh holda cholg'u asbobi sifatida ham qo'llanadi. Piyolalarni og'zini yuqoriga qaratib ushlab chetlarini bir-biriga sekin-sekin urishtirilsa, jaranglagan tovushlar chiqadi. Piyolalarning og'zini bir-biriga tekkizilsa, tovushlar bo'g'iqroq, lekin quyuqroq bo'lib chiqadi.

i) **Shimol va janubdagi** ko'p qishloqlarda qizlar va ayollar patnis bilan o'ynaydilar. Patnis ufori — ustiga gullar chizilgan temir patnislar yoki yog'ochdan yasalganlar childirma rolini bajaradi, uni raqqosalar kaftlari yoki barmoqlari bilan chalib o'ynaydilar.

Farg'ona va Xorazm yigitlari lagan bilan ijro etadigan o'ziga xos raqs —

n) **Tog'ora o'yin va Bayda ufori**. Farg'onada raqqos laganni boshiga qo'yib oladi va joyida sekin aylana boshlaydi, korpusning yuqori qismi oldinga qarab egila boshlaydi. Aylanish tezlasha borgan sayin korpus to'g'ri burchak shaklida egiladi va lagan, markazdan qochish kuchiga bo'ysungan holda raqqosning beligacha etib boradi. Keyin esa, korpus ko'tarila borgan sayin lagan ham bosh tomonga siljib boradi. Bu raqs kulol dastgohini eslatib yuboradi lekin raqqosning maqsadi dastgohni ifodalash emas, balki tomoshabinga o'zining naqadar ustamonligini namoyish etishdan iborat.

Xorazmda Bayda ufori ko'proq taqlid o'yin bo'lib, uni ba'zan "Yu-pu-pu" deb ham ataydilar — chunki bu raqsda bosh sal egilgan holda bo'lib, lagan bo'yiga qo'yiladi va uyog'i tog'ora o'yindagi kabi davom etadi: lagan umurtqa pog'onasi bo'ylab pastga-tepaga yurib, qushning tojini eslatib yuboradi...

3. Ekstatik raqslar

Mahalliy xalqlarda, barcha boshqa xalqlardagi kabi, raqs ovchilar pantomimalari va g'olibning tantanasini ifodalovchi ekstatik o'yinlardan shakllana borgan degan taxmin to'g'ri bo'lsa kerak. Keyinroq esa, ko'tarinki ruhiyatni kishilar sirli kuchlar bilan bog'liq deb tushunganlari uchun, ular shu sirli kuchlarga tenglashish maqsadida quvvatni sun'iy ravishda oshirishga harakat qila boshlaganlar.

Avvalroq tilga olingan Zarafshon daryosi bo'ylaridagi qoyalarda qolgan neolit davriga oid suratlarda davra bo'lib o'ynayotgan raqqoslar va takalar bilan bir qatorda ikki erkak va bir ayol figurasi tasvirlangan suratda aynan ekstaz, ya'ni kuchli jazava payti aks etgan.

Qadimgi grek tarixchisi Gerodot qoldirgan ma'lumotga ko'ra, Araks orollari (Amudaryo va Sirdaryoning qadimgi nomi) aholisi "...yana boshqacha daraxtlarni ham topganlarki, ularning mevalarini bir yerga to'playdilar, keyin gulxan yoqib, unga o'sha mevalarni tashlaydilar. Gulxan atrofiga o'tirib olib, yonayotgan mevalardan taralayotgan tutundan xuddi ellinlar maydan mast bo'lgandek mast bo'lalilar. Mevalardan qanchalik ko'proq olovga tashlasalar, shunchalik ko'proq mast bo'laveradilar. Oxirida o'yinga tushib, qo'shiq aytishni boshlaydilar"⁴⁷.

Bizga ma'lumki, ekstatik ko'rinishdagi e'tiqodlardan biri — Buyuk Ona, Bunyodkor Erga e'tiqod bo'lgan. Bu iloha ko'plab asrlar davomida bir necha vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan va ular davrlar mobaynida o'zgarib, murakkablashib borgan. U yer xudosi, suv, hosildorlik, muhabbat, keyinchalik nikoh va oila xudosi sifatida ma'lum bo'lgan. U tasvirlangan suratlarni mistosh asridan tortib to milodiy VIII asrgacha bo'lgan davrga oid madaniy yodgorliklarda uchratish mumkin. Buyuk Marg'iyonaga sig'inish belgilarini nisbatan yaqinroq o'tmishdan ham topiladi.

Ilgari hech qanday kiyimlarsiz tasvirlangan Ona iloha keyinchalik chorvachilik-dehqonchilik davrida ancha o'zgaradi va uning egnida dabdabali libos paydo bo'ladi. Lekin bir vaqtning o'zida ham pokizalik, ham bunyodkorlikning yagona ilohasi bo'lgan bu ayol yonida kiyimsiz Ona tasviri ham saqlanib qolgan va uning qo'lida hosildorlik timsoli bo'lmish anor mevasini ko'rish mumkin.

Ana shunday qadimiy e'tiqodlardan biri bir necha bosqichdan o'tgan erkak ilohga nisbatan bo'lib, u eng asosiy iloh — quyosh xudosi, keyinchalik olov xudosi, otlar, cho'ponlar, jangchilar piri, undan ham keyinroq esa savdogarlarning ham piri bo'lgan.

Turli tabiat kuchlariga — quyoshga, oyga, suvga, yerga va hokazolarga, jonivorlardan takaga, otga va boshqalarga e'tiqod keyinchalik Anaxita va Mitra deb nomlanuvchi Ota iloh va Ona ilohaga sig'inish odatiga birlashib ketgan. Bu ilohlar yer va quyosh, suv va havo, osmon yoritgichlari va olov timsoli, hosildorlik, cho'ponlar va dehqonlar piri deb ham hisoblangan. Ona ilohaning bu qadar keng "majburiyatlari" uning asosiy vazifasini bajarishga — yer yuzida insonlar avlodini davom ettirishni qat'iy nazorat qilishga xalqaqit bermagan.

⁴⁷ Древние авторы о Средней Азии. Хрестоматия. Под редакцией Баженова Л.В. — Т., 1940.

Taxmin qilinishicha, Ona ilohaga e'tiqod marosimlarida maxsus e'tiqod raqsi muhim o'rin tutgan.

Madaniy yodgorliklarda ko'plab yarim yalang'och va umuman kiyimsiz o'yinchilar tasvirlari saqlanib qolgan. Qadimgi greklar Old Osiyo muhabbat ehromlari o'yinchilari to'g'risida hikoya qilar ekanlar, tomoshalarining daryolar va ko'llar bo'ylarida, musiqa va o'yinlar bilan, shovqinli, orgiyali bo'lib o'tishini qayd etganlar. Taxminlarga qaraganda, O'rta Osiyoda ham muhabbat ehromlaridagi tomoshalar aynan shunday o'tgan ekan.

Bu taxminlar zardushtiylardan qolgan bir qo'lyozma ma'lumotlarini tasdiqlaydi. Unda yozilishicha, o'rta asrlarning boshlarida Samarqandda olov ehromlarida "yengiltak" ayollar yashagan ekan. Balki, Ona iloha o'zining muqaddas marosimlari bilan birgalikda, ilk feodalizm davrida O'rta Osiyoda hukmron bo'lgan davlat dinlaridan birining, olimlar taxminlariga ko'ra, zardushtiylikning bir ko'rinishi marosimlari tarkibiga kirgan bo'lsa kerak.

Tabiiyki, bu marosimlarning xoreograf uchun qiziqarli joyi ularning tarkibida raqs mavjudligidir, raqs esa o'z navbatida marosimning xarakteridan kelib chiqqan holda ekstatik bo'lishi kerak.

Qadimda Buyuk Ona va tabiatning boshqa yaratuvchan kuchlariga, pirlarga sig'inish marosimlari o'rta asrlar boshlaridagi diniy marosimlarga nisbatan ancha sodda bo'lgan. Shuningdek, raqs ham o'z vaqtida kuchli jazava ifodasi sanalgan.

Aholi orasida keng tarqalgan va tabiiy kuchlarni madh etuvchi bu o'yin yo'q bo'lib ketmagan, balki, aksincha, Buyuk Marg'iyona va Onaga e'tiqod kabi, asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan.

Asabiy zo'riqishni anglatuvchi ko'p sonli ekstatik o'yinlar qatorida bir necha erotik raqslarni ham kuzatish mumkin. Xiva tumanining Yusuf So'fi qishlog'ida raqs kinoga ham, fotoga ham olinmaydi deb zo'rg'a ishontirganimizdan keyin, juda uzoq iltimoslardan so'ng mahalliy aholi, ya'ni bir taniqli professional raqqosa va havaskor raqqos mana shunday erotik raqslardan birini ijro etib berdi⁴⁸. Bartovul professional raqslari turkumiga mansub sho'xchan raqs orasida hech qanday tortinishlarsiz muhabbat sahnasi ifodalab berildi. Taniqli xorazmlik raqqos ham mana shunday uzoq iltimoslar natijasida Yupupu ohangida ijro etib bergan raqs ham aynan shu mavzuga bag'ishlanadi. XX asrning 20-yillaridayoq ayollar Lippa o'yin, Chilton bazm o'yin deb nomlangan va erkaklik belgisi shakli bilan ijro etiladigan raqslar mavjud bo'lgan va ularni asosan Marg'ilon, Qo'qon, Buxoro va Xorazm professional raqqosalari ijro etganlar.

⁴⁸ Bu turkumlar haqida keyingi bo'limlarda o'qiysiz.

Lippa o'yin — erkaklik belgisi shakli bilan yakka ijro etiladigan hazil raqs. Chilton bazm o'yin — ko'pchilik bo'lib ijro etiladigan xuddi shunday mavzudagi raqs, faqat unda ayollar yarim yalang'och holda, juft-juft bo'lib o'ynaydilar. Bunday marosimlarni "Qirq avliyo" deb nomlanadigan xufiya mazhab a'zolari o'tkazganlar va bu marosimlar erotik maishatlar bilan tugallangan. Shunisi qiziqki, shu maqsadda erkaklik belgisi shaklida maxsus kadi — qovoqlar o'stirilgan. Kadi g'o'rlik paytida kerakli shakldagi sopol idishga solib qo'yilsa, u xuddi shu shaklda o'sib katta bo'lar ekan...

Shuni ham aytib o'tish zarurki, XX asrda shunga o'xshash o'yinlar g'irt masxarabozlik, buffonada deb qabul qilina boshlagan.

XX asrgacha yetib kelgan e'tiqod o'yinlarining bir ko'rinishi — *yig'i o'yinlar* va *afsun o'yinlar* bo'lib, ularni professional raqqoslar ijro etganlar. Lekin bu raqqoslar artistlar emas, balki XIX asrning oxiri — XX asrning boshlarida eskilik sarqiti bo'lib qolgan eng oddiy e'tiqodlarning vakillari bo'lganlar. Shuning uchun ular keyinchalik marosimlarning mazmunini unutib yuborib, oddiy yig'i beruvchilar, folbinlar va parixonlar bo'lib qolgan.

Kasal kishining tanasidan yovuz ruhni quvib chiqarayotgan *folbinning afsungarlik harakatlari* va ajdodlar ruhini chaqirib, ular bilan muloqot qiluvchi *parixonning* sirli harakatlari — hammasi bo'lib kam sonli tana harakatlarini tashkil etadi. Bular oyoqlar bukilmagan holda, bir oyoqni oldinga tashlab sakrash, bir joyda tez aylanish, past tushib o'tirish, ezgu ruhlarni chaqirayotgan va yovuz ruhlarni haydayotganda qo'llarni silkitish kabilardir.

Parixonlar yarim kechada gulxan atrofida o'ynab, bir joyda aylanib yoki birdan o'tirib, o'zini yerga tashlab, tanasining yuqori qismini jazava ichida aylantirib, yelkalarini bukri qilganicha baland-balandga sakrab, gulxan atrofida yugurib, "alas-alas!" degan bema'ni afsunlarni baqirib o'qib o'ynaganlar. Lekin mana shu hech qanaqangi qoidalar bilan cheklanmagan harakatlar ham aniq va muayyan ritmik asosga qurilgan bo'lib, u sirli so'zlar va ijrochilarning qo'rqinchli ko'rinishlari bilan qo'shilib, badiiy jihatdan mazmunan va shaklan tugal sahnaga aylangan.

Yig'i raqsi — *Sadr (Farg'ona), Jar (Buxoro)* — muayyan raqs elementlaridan tashkil topgan raqsli sahna. Unda yig'i beruvchi ayollar davra bo'ylab katta-katta qadamlar bilan sekin aylanib yuradilar, ora-sira pauzalar qilib, qo'llarini ikki yonga tashlab, qo'llaridagi tayoqni yerga urib turadilar. Bu raqs 40 yoshga to'lmay vafot etgan kishilar jasadi ustida ijro etilib, unda faqat yig'i beruvchilar emas, balki marhumning qarindoshlari ham ishtirok etadi.

Yig'i raqsining boshqa bir ko'rinishida ham yig'i beruvchilar davra bo'ylab sekin yurib boradi, orada bir-bir aylanib qo'yadi, qo'llar faqat bir harakatni takrorlaydi — yondan bosh uzra tepaga ko'tarilib, keyin kaftlar boshning orqa qismidan oldinga qarab xuddi yopinchiqni yuziga tushirayotgandek surilib

boradi, qo'l harakatlari qanchalik yumshoq, raqsning o'zi ham qanchalik og'ir, vazmin bo'lmasin, u ruhiy va mazmun jihatidan mistikaga, ekstatikaga to'la. Ijrochilar raqsga qo'shib marsiya ham aytishgan.

Professional yig'i beruvchilar uzun, keng oq yoki ko'k chit ko'ylak kiyganlar; ko'ylakning yenglari juda uzun bo'lib, qo'llardan ham ancha pastga tushib turgan; yoqalar tik va yopiq bo'lgan; sochlar yoyiq bo'lib, belga yirik arqon bog'lab olingan.

Musulmonlarning turli tariqatlariga mansub *darvishlar o'yinlari* "Zikr" deb nomlangan. Bu o'yinlarning ishtirokchilari — ashulani boshlab beruvchilar va shu tariqatga e'tiqod qiluvchilar bo'lgan. Zikr o'yinlari asabiy zo'riqishni, yaqqol seziluvchi jazavani ifodalagan bo'lsa-da, o'yin konstruksiyasi aniq belgilangan rejaga javob bergan. Sahna joyida asta chayqalishdan boshlangan, keyin ishtirokchilar davra hosil qilib, goho juft-juft bo'lib, goho yakka-yakka bo'lib unchalik murakkab bo'lmasa ham, ritm bo'yicha keskin raqs harakatlarini bajarishgan va raqs tinmay aylanish bilan yakunlangan. Finalda ijrochilardan ko'pchiligi hushdan ketgan.

So'fiylar tariqatining izdoshlari sanalmish muridlar raqslari ekstatik o'yinlar va qo'shiqlar vositasida yovuz ruhlardan xalos bo'lishni ifodalagan. Bu tariqat izdoshlari ikki guruhga — jahriya (Ollohning ismini ovozi boricha aytish) va xufiya (sekin hamd aytish)ga bo'lingan.

Jahriya guruhlarining marosimlarida *zikr tushish* odat bo'lgan. Zikr baland ovozda duolar aytib, ekstatik raqs tushishdan iborat edi. Toshkentda jahriya-qadriya guruhi ayollari zikr tushishini kuzatgan etnograf olim A.L.Troiskaya⁴⁹ hikoya qilishicha, bu marosimda ijrochilarning ovozi arraning daraxt tanasi ustidagi harakati tovushlarini eslatib yuborar ekan. "Ayollar davraning markazida, — deb yozadi u, — chiqayotgan ovozlarga mos ravishda qadam tashlab, bir o'ngga, bir chapga burilib, burilish paytida qo'llarni silkitib (qo'llar ba'zan pastga tushirilgan, ba'zan bukilgan bo'ladi) boradilar. Harakat juda oddiy — chap oyoq oldinga tashlanib, o'ng oyoq ham tez uning yoniga qo'yiladi va h.k. Temp borgan sayin tezlashib boradi, yangi kelganlar tajribaliroqlariga ergashadi, ular ranglari oqargan holda, uyqusida aljiragan kishidek, ba'zan ko'zlari yumuq, qo'llari majolsiz osilgan holda harakat qiladilar. Raqs tushayotganlar holdan toyib, terga botib, nafasleri bo'g'ilib ketadi". "Tanaffusdan so'ng davra zichlashadi va hazrat Sulton hoji hayqirig'i boshlanadi..." "Bu hayqiriq ba'zan oddiy raqs bilan birga davom etsa, ba'zan unga alohida raqs ijro etiladi: davra markaziga ikki ayol chiqib, bir-biriga ro'para bo'lib turadi. Ular aylanmaydi, balki u yoqdan bu yoqqa o'tadi. Bir-

⁴⁹ Троицкая А.Л. Женский зикр в старом Ташкенте. Сб.: Музей антропологии и этнографии. Том VII. Изд. АН СССР. — Л., 1928.

biriga yuzma-yuz bo'lib, bir u, bir bu oyog'iga tashlab turadi. Ulardan biri chap oyog'ini o'ng oyog'ining orqasiga o'tkazib, tizzadan bukadi va chap qo'lini oldinga uzatib, aylanma harakatlarni bajaradi. Ro'paradagi ayol ham xuddi shu harakatlarni bajaradi, lekin u harakatni o'ng oyoqdan va o'ng qo'lidan boshlaydi.

Chekka qishloqlar yashovchi bir necha qariyalar jonivorlarni qurbon qilish sahnasini, ona tabiat kuchlari oldida tiz cho'kishni aks ettiruvchi qator ekstatik raqslarni yaxshi eslaydilar.

Lekin ekstatik o'yinlar qanchalik turfa bo'lmasin, baribir ruhiy jihatdan va harakatlari jihatidan bir-biriga o'xshaydi. Buning ustiga, agar Buxoro, Xorazm va Farg'onada yig'i-o'yinlar professional raqs turkumiga mansub ba'zi harakatlarning soddalashtirilgan shakli bo'lsa, turli viloyatlarda qariyalar xotiralarida saqlanib qolgan zikr, parixon o'yini, folbin o'yini va ekstatik raqslar o'zaro deyarli bir xil. Ularning o'xshash tomonlari — muskullarning siqiligi, oyoq uchlarining ochilish qobiliyati, tizzalarning oxirigacha bukilishi, tizzalar bukilmagan holda joyida sakrash; yelka-bel qismining qotib turishi va bunda qo'llarning hech qanday murakkab xarakatlarni bajara olmasdan, quruq silkinib turishlaridan iborat.

Ekstatik o'yinlar fiziologik tuyg'ular, asablarning ko'tarinki holatining stixiyali tarzda, lekin bevosita aks etishidir. Shuning uchun turli qit'alarda yashovchi turli xalqlar ekstatik o'yinlarining soddasi tili o'zaro bir-biriga o'xshaydi. Afrikaning ko'plab qabilalaridagi bag'ishlov o'yinlari, Hindistonning ba'zi janubiy qabilalari o'yinlari, Amerika hindulari o'yinlari, shimol xalqlari shomonlarining o'yinlari, Xorazm, Farg'ona vodiysi, Buxoro qishloqlari, Boysun qishlog'i va Qashqadaryo dashtlari qishloqlari o'yinlari hammasi bir-birini eslatadi.

Bir qaraganda — yarim uyqu holatda tananing ikki tomonga chayqalishi, kuchli titrashlar, refleksli sakrashlar va aylanishlar keng qamrovli insoniy tuyg'ularni aks ettira olmaydigandek ko'rinadi, lekin bu harakatlar asablarning taranglashuvi va jismoniy kuchni aniq ko'rsatib bera oladi.

Ayniqsa, xorazmliklar, Boysun va Mochay qishlog'i (Surxondaryo viloyati) aholisining ekstatik o'yinlari alohida qiziqish uyg'otadi. Shunisi qiziqarliki, tog'liklar va xorazmliklarning ekstatik o'yinlari o'zining xoreografik tili va raqslarning tuzilishi bilan professional va havaskor xalq raqslarining alohida guruhlariga yaqin turadi. Farg'ona vodiysi va Buxoro ekstatik o'yinlari esa raqs shakllari jihatidan tog'liklar va xorazmliklar ekstatik o'yinlariga yaqin bo'lsa-da, shakl jihatidan professional va xalq raqslaridan ancha yiroqdir.

Farg'ona vodiysi va Buxoro professional va havaskor raqslarida sakrash harakatlari bo'lmaydi (zamonaviy andijoncha yigitlar o'yini va uyg'urcha o'yinlarda bir oz uchrashi mumkin). Shu viloyatlarning ekstatik o'yinlari esa, tog'liklar va xorazmliklarniki kabi, sakrash harakatlariga boy. Aynan mana

shu o'xshashlik bu o'yinlarning o'xshash holatlar ta'siri ostida shakllanganligi va ularning vazifasi bir xil voqealar va ruhiy holatlarni aks ettirishdan iboratligini tasdiqlaydi.

Ijro etish tashqi improvizatsiyasi, ekstatik o'yinlarning ma'nosi ko'pincha tushunarsizligiga, fiziologik jihatdan zamonaviy emasligiga, harakatlar va ularning ijrosi boshqa xalqlarnikiga o'xshashligiga qaramay, afsun o'yinlarning ruhiy ta'siri juda kuchli bo'ladi. O'z vaqtida shu o'yinlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan asablar taranglashuvi, ba'zi harakatlarning, ba'zan butun o'yinning o'ziga xos ta'sirchanligi insonning eng qadimiy tuyg'usi — jazava holatini, qo'rquvni, jonivorlarga xos quvonch va shahvoniy qoniqishni o'ta ifodali qilib tasvirlay oladi. Aynan shuning uchun ham mana shu qadimiy o'yinni professional baletmeyster va pedagoglar yaxshi bilishi shart.

III. PROFESSIONAL RAQS, XALQ LIRIK RAQSI VA XALQ BAYRAM RAQSINING SHAKLLANISHI VA OMMALASHUVI

1. Raqsning shakllanishi va ommalashuvi

Mehnat jarayoni inson uchun g'ayrioddiy bo'lmay qolgan tarixiy davrga qaytaylik. Aynan shu davrda inson insonga yanada kuchliroq qiziqish bilan qaray boshladi, fazoviy jarayonlarni tushunishga intildi, insonni koinot, tiriklik va o'lim masalalari qiziqitira boshladi. Ushbu jumboqlar, yuqorida qayd etilganidek, keyinchalik diniy qarashlar va dinning shakllanishiga olib kelgan fantastik taxminlarni paydo qildi... Shunda raqs dunyoni anglash, hayotga bo'lgan falsafiy munosabatni ifodalash vositalaridan biriga aylandi. Tabiiyki, ushbu raqslarning dastlabki mualliflari borliqni anglashga, hayotni tushuntirishga intilganlar, ya'ni ibtidoiy koinonlar bo'lgan.

San'atshunos olimlar qadimgi ustalar tomonidan Yunon-Baqtriya podsholigi (miloddan avvalgi IV—III asrlar) davridan milodiy VII—VIII asrlargacha O'rta Osiyo moddiy yodgorliklarida ifodalangan raqs tushayotgan barcha figuralarni o'rganib chiqish jarayonida ularning O'rta Osiyoning son-sanoqsiz panteonlarida (sag'analarida) mavjud bo'lgan diniy marosimlar ishtirokchilari bo'lmish koinon yoki qohinalar ekanligini aniqlashgan. Antik davr yoki ilk o'rta asrlar davriga (VII—VIII asrlar) murojaat qilar ekanmiz, O'rta Osiyoning qadimgi xudolari panteoni turli-tumanligi hamda O'rta Osiyo, Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Sharqiy Turkiston, Kavkaz, Sibir, Volgabo'yi, Vizantiya xalqlari madaniy aloqalari keng rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Mahalliy ilohlar ellinizm davrida yunon xudolari bilan qo'shilib, ellinizmga xos belgilar O'rta Osiyoga kirib kela boshladi. Masalan, xudolarning birida dengiz va ummonlar hukmdori bo'lmish Neptunning uch ayrili hassasi paydo bo'ldi, osiyolik Ona Anaxita shaharlar homiysiga aylanib, yunonlar nazarida shaharlar "bekasi" bo'lgan g'alaba xudosi Nika va baxt xudosi Tixeyga o'xshab qoldi. Sharqona libosdagi mahalliy soqolli Dionisning tasvirlaridan birida yelkasiga sher terisini yopinib olib, raqs tushayotgan yalang'och Gerakl unga hamroh qilib tasvirlangan. Yunon-Baqtriya davlatining ko'p hukmdorlari tangalarda Dionisga o'xshatib tasvirlangan, ayni paytda shu davrga oid tangalarda Dionisga bag'ishlab raqsga tushayotgan koinon ayollarni ko'rishimiz mumkin, ular sharqona libos — "uzun shalvar kiygan va osilchoq ziraklar taqib olgan" va h.k.

Barcha Sharq xalqlariga tanish bo'lgan Ulug' Ona zardushtiylik dinida (miloddan avvalgi birinchi mingyillikning birinchi yarmida O'rta Osiyoda paydo bo'lgan) — boshqa xalqlardagidek, jimo'siz homilador bo'lgan ona sifatida tasvirlanadi. O'rta Osiyoning qadimgi Quyosh xudosi — eroniy Hrmuzd xudosi o'zginasidir; er-xotin xudolar Mitra va Ona hindlarning oy va quyosh xudolari Some va Surega, shuningdek, Merkuriy va Veneraga o'xshaydi; hind xudosi Shivaning zulmkor jahli ramzi bo'lgan qo'rqinchli Kirtimukxa obrazi O'rta Osiyoda yomon ko'zdan asrovchi ramzga aylandi va h.k.

Eramizning birinchi mingyilligida ellinizm davrining insoniy lashtirilgan ilohlari yarim xudoga va keyinchalik afsonaviy qahramonlarga aylanadi. Mitra o'z xususiyatlarini qahramon Rustamga o'tkazgan bo'lsa, Ona Anaxita eposlar qahramonlari — Sindot va Rudobaga, Dionis Sabaziy — yosh, o'lib-tirilayotgan yarim xudo Siyovushga o'z xususiyatlarini bergan va h.k. X asrda buyuk shoir Firdavsiy xalq tomonidan qadimiy rivoyatlarga aylantirilgan qadimiy dinlar ko'rinishlari asosida "Shohnoma" asarini yaratdi. Unda tarixiy shaxslar bilan bir qatorda qadimda yarim xudolardan afsonaviy qahramonlarga aylantirilgan tarixiy shaxslar obrazlari yaratilgan.

Mahalliy xalqlar bir necha asrlar davomida qadimiy afsonalarni xalq rivoyatlariga aylantirishiga misol tariqasida har doim o'lib-tiriluvchi barhayot tabiat haqidagi afsonalarni, o'rta asrlarning dastlabki davrida O'rta Osiyoning asosiy dinlaridan biri bo'lgan zardushtiylikning tarkibiy qismiga aylangan Siyovush haqidagi rivoyatni keltirish mumkin.

Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda bu e'tiqod shahar va qishloqlarning butun aholisi ishtirok etadigan ko'p kunlik bayramga aylandi. Rivoyatlarga ko'ra, Siyovush Eronning mashhur shohi Kaykovus topib olgan go'zal qizdan tug'ilgan farzanddir. Taxmin qilishinicha, qiz dastlab o'rmon ilohasi qilib tasvirlangan. Kaykovusdan o'g'il ko'rgach, u vafot etadi. Siyovush afsonaviy bahodirlar kabi kun sayin emas, soat sayin o'sib, atrofdagilarni o'z chiroyi va olijanoblighi bilan hayratga soladi. Qadimgi rimliklarning afsonaviy qahramoni Ippolit kabi, Siyovush o'gay onasi Sudobaning qabih maylini rad etadi va uning tuhmatiga uchraydi. Yigit o'zining haqligini olovdan tirik chiqish orqali isbotlaydi. So'ngra u Turon shohi Afrosiyobning qiziga uylanadi, biroq bu yerda ham tuhmatga uchrab, Afrosiyob yo'llagan qotillarning qo'lida halok bo'ladi. Siyovushning o'chini uning o'g'li oladi va bunda unga o'rmon xudosi bo'lgan ayolning o'g'li halokati uchun qasos olinishini istagan o'simliklar xudosi Xaoma yordam beradi. Siyovush haqidagi afsona Old Osiyo hududidagi qadimgi davlatlar va Yunoniston xalqlaridagi afsona o'lib tiriladigan o'simliklar xudolari — Oziris, Attis, Adonis, Ippolit haqidagi afsonalarni eslatadi. Shubhasiz, Siyovush haqidagi afsonada olovbardor Mitra, tabiat kuchlari homiysi Buyuk Ona va shu kabilar singib ketgan.

Taxmin qilish mumkinki, afsonalar va qadimgi tasavvurlarning birikib ketishi natijasida raqs, musiqa, ashula, sport o'yinlaridan iborat teatrlashgan tomoshalar vujudga keldi.

VII asrdagi Xitoy tarixida ma'lum bo'lishicha, qadimgi Samarqand ahli bahorgi tengkunlik — Navro'z bayramini etti kun nishonlashgan. Fikrimizcha, marosimning dastlabki turkumi Siyovushning tug'ilishi, hayoti va kurashini ifodalovchi ko'rinishlardan iborat. Ikkinchi turkum Siyovushning o'limi, dafn marosimi va yo'qolgan ustixonlarini qidirishdan iborat. Va, nihoyat, uchinchi Siyovushning qayta tirilishiga bag'ishlangan tantanali bayramdan iborat.

Ayrim olimlarning taxmin qilishicha, So'g'diyonaning Panjkent shahridagi ibodatxonalardan birida (VII—VIII asrlarga oid) navqiron xudoning dafn marosimi tasvirlangan.

Shu bilan bog'liq ravishda X asrdagi buxorolik tarixchi Narshaxiyning quyidagi kuzatishlari qiziqish uyg'otadi: "Buxoro ahli Kayxisravning o'g'li Siyovushga bag'ishlab ajoyib ashulalar yaratishgan: musiqachilar ularni Kin-i-Siyovush deb atashadi. Ja'far o'g'li Muhammadning aytishicha, o'shandan buyon uch yuz yil o'tdi"⁵⁰. "Buxoro ahli Siyovushning o'ldirilishi haqida ashulalar yozgan. Barcha viloyatlarda mashhur bo'lgan musiqachilar ularga musiqa yozib, kuylab yuradilar; ijrochilar ularni "sehrgarlar nolasi" deb ataydilar. Bu uch yuz yil ilgari bo'lgan".

Siyovushning dafn marosimi yig'i qo'shiqlar va raqslar katta ahamiyatga ega bo'lgan haqiqiy dafn marosimlariga o'xshagan bo'lsa kerak. Ularning ayrimlari hozirgi davrgacha yetib kelgan.

..Aza marosimidan so'ng Buxoro qo'rg'oni darvozasi yaqiniga ko'milgan Siyovush suyaklarini maxfiy dafn etish marosimi bo'lgan. Siyovushning ustixonlarini qidirishga shaharlar va qishloqlarning butun ahli chiqadi: kohinlar va kohinalar marosimni kerakli manzilga boshlab, rahbarlik qilishgan. VII asrda yashagan xitoylik sayyoh Bey Sze shunday deb yozgan: "Ular (Samarqand ahli) osmondagi xudoga sig'inadilar va uni nihoyatda hurmat qiladilar. Ularning aytishicha, xudoning o'g'li yettinchi oyda vafot etgan va uning suyaklari yo'qolib ketgan emish. Ruhoniyar ana shu yettinchi oyda keng qora kiyim kiyib, yalangoyoq yurishadi, ko'kraklariga mushtlab, faryod chekishadi, ko'z yosh to'kishadi. Erkaklar va ayollar xudoning o'g'li suyaklarini topish uchun bo'linib ketishadi. Yettinchi kuni marosim o'z nihoyasiga yetadi".

Nihoyat, Navro'z bayramining so'nggi bosqichi Siyovushning tirilishiga bag'ishlangan bayram zayofatidan iborat. Siyovush bahorgi gullar va o'to'lanlar shaklida qayta tiriladi. Qadimgi Panjkent saroyidagi zallardan birida ana shunday marosim tasvirlangan bo'lsa ajab emas. Zal devorlarida bayramona

⁵⁰ Narshaxiyning ko'rsatishicha, afsonaviy shoh Kaykovus endilikda Kayxusrav deb atalgan

kiyingan, bosh kiyimlari gullar bilan bezalgan, qo'llarida idishlar va daraxtlarning gullagan shoxlarini ko'tarib olgan odamlar tasvirlangan; yirik mevalar qo'yilgan qurbonlik joyi oldidagi kohinlar; qo'lida musiqa asbobi ko'tarib olgan yarim yalang'och o'yinchi yigitlar tasvirlangan.

Tabiatning uyg'onishi bilan bog'liq marosimlar turkumi raqs va ashulalarga boy bayramning muhim qismini tashkil etishi kerak bo'lgan.

San'atshunoslarning fikricha, Siyovushga sig'inishga doir ilk o'rta asrlar marosimi ramziy ma'noga ega bo'lgan qator harakatlardan iborat bo'lib, ular jumlasida raqsga o'xshashlari ham bo'lgan. Bunga Siyovushga bag'ishlangan marosimlar tasvirlangan suratlardagi ramziy predmetlarni ko'tarib olgan raqsga tushayotgan figuralar tasviri misol bo'la oladi. So'g'd kumush ko'zalarida, Biya-Nayman ossuariylari devorlarda, Ohangaronda topilgan bronza plastinkada (barcha yodgorliklar VI—VII asrlarga oid) tasvirlangan kohinlar bir-biriga nihoyatda o'xshash. Ularning qo'lida uzun bandli lola — Siyovushning tirilishi ramzi bor; ko'plab asrlar davomida hosildorlik ramzi bo'lgan anorlar; yorug'lik ramzi bo'lgan xo'rozlar; olov ramzi bo'lgan tustovuqlar va boshqa ramziy figuralar bor.

XX asrning boshida Siyovush marosimlariga oid ko'rinishlarni bahor sayllarida⁵¹ kuzatish mumkin. Sayl kunlari shaharlar va qishloqlarning ahli shahar tashqarisiga chiqib, guruhlarga bo'linib, erkaklar va ayollar gullar terishgan, ashulalar aytib raqs tushishgan. Bunday bayramlar Buxoroda Guli surx — Qizil gul, Toshkentda Qizil gul, Farg'ona vodiysida Lola bayrami deb atalgan.

Asrimiz boshida ayrim tumanlarda bahor bayrami biroz eskicha, lekin qadimgi davrlardagi kabi shoirona ruhda o'tkazilgan. Ularda tabiatning o'lishi va tirilishi mavzusiga bag'ishlangan asosiy marosimlar saqlanib qolgan. Xorazmda Navro'z kunlari qizlar yigitlar bilan birga dalalarga chiqib, arg'imchoq uchishgan, ashula va raqslar bilan lola terishgan, gulchambar to'qib, arg'imchoqlarni bezashgan. So'ngra ularning atrofida ashula aytishgan. Ashula, raqs, kurash, poygalar bo'lib o'tgach, Oltin qovoq (daraxtning uchiga o'rnatilgan oltin idishga o'q otish musobaqasi) marosimi bilan tugagan. Ko'p asrlar ilgari eng yaxshi mergan bir kun davomida mamlakatda hukmdorlik qilgan bo'lsa, XX asrda unga oltin idish, tuya va otlar sovg'a qilingan.

Etnograf Ye.M.Peshcherova⁵², Isfara qishlog'ida lola saylini kuzatar ekan, uch kunlik bayramni batafsil tasvirlaydi. Birinchi kuni navqiron yigitlar ashula va raqslar bilan dalalarga chiqqan, ikkinchi kuni terak barglarini qoqib, "ho, ho!" qiyiqiriqlari bilan terakni lolalar bilan bezashgan. O'sha kuni kechqurun

⁵¹ Sayil — xalq bayrami.

⁵² Peshcherova Ye.M. Prazdnik tyulpana. Sb. V.V. Bartoldu.— T., 1927.

terak bezalغان joydan olov ko'tarib yurish boshlangan. Ashulalar aytib, raqs tushgan holda, bezatilgan terakni qishloqqa olib kirishgan va maydon o'rtasiga o'rnatishgan. Daraxt atrofida o'yin-kulgi boshlanib, alohida guruhlar qo'shiq aytishda musobaqalashgan, birgalikda jo'r bo'lib kuylashgan, ularning ashulasiga ko'chalar, choyxonalar va maydonlarda odamlar raqs tushishgan. Bayram ashulalari mavzusi bo'yicha rang-barangdir. Ularning ayrimlari lola terishga ketayotganda aytilsa, ayrimlari terakni maydonga olib kirishda, uni bezash paytida va raqs tushish paytida aytiladi. Uchinchi kuni kechqurun bayram ahli qarindosh-urug'larining qabrlariga borib, turli belgilarga qarab fol ochishgan va daryoda cho'milishgan. Bu yerda g'amgin va lirik qo'shiqlar ijro etilgan, qishloqqa qaytishda esa ular qizg'in va sho'x tus olgan. Musulmon dini bo'yicha erkaklardan ajratib qo'yilgan ayollar ham Lola bayramida qatnashgan. Ular erkaklar bilan ro'para kelmasdan lola terishgan, daraxt bezashgan, mozorga borishgan va daraxt oldida umumiy xursandchilik paytidagina hamma birga yig'ilishgan.

Isfarada bo'lib o'tgan xalq sayli marosimlarida qadimgi bayramning uchta bosqichi bir-biriga ulanib ketgan. Biroq, murakkab bayram tantanalarida o'lib-tirilayotgan tabiat haqidagi afsona belgilari kuzatiladi. Sabaziy-Dionis ramzlaridan biri bo'lgan kumush tanli terakni kesganda bayram ishtirokchilari zo'ravonlik bilan o'ldirishni ko'rsatishgan, barglardan tozalangan daraxtni lolalar bilan bezashda Siyovushning tirilishi ko'zda tutiladi. Zero, lola faqat uning qoni to'kilgan joydagina unadi; qarindosh-urug'lar mozorida tilovat qilayotganda bayram ishtirokchilari halok bo'lgan iloh xotirasini yodga oladilar.

Biroq, bayram ishtirokchilarining o'zlari, barcha marosimlar baxt keltirishiga ishongani holda, ularni na qadimiy afsona bilan va na o'rta asrlarga oid udumlar bilan bog'liq deb hisoblamaganlar. Shunisi qiziqki, terakni chiroyli daraxt sifatida e'zozlab, ashulalarida uni go'zal qizning qaddi-qomatiga qiyoslagan xalq odamlar ekan emas, daraxt tomirlaridan o'sib chakalakka aylangan terakzorni ajinalar makoni deb hisoblagan. Ajinalar yovuz ruh — jinning qizlari bo'lib, xalq ularni kichkina, chaqqon, sochlari to'zigan ayollar deb tasavvur qilgan, ko'p ko'ngilsizliklar keltiradi, uy-ro'zg'or buyumlarini o'g'irlyaydi, kasalliklar chaqiradi, deb hisoblagan. Ajinalar xalq tasavvurida Sabaziy-Dionis xudosi bilan bog'liq bo'lmasa-da, ularning borligi afsonalarning naqadar yashovchan ekanligidan dalolat beradi.

Bahorgi bayramlar orasida undirilgan bug'doydan sumalak tayyorlash odati ham kiradi. Sumalak pishiriladigan oqshom musulmon odati bo'yicha nomahramlardan yuzini yashirishi lozim bo'lgan xotin-qizlar sumalak olishga chiqqan yigitlardan yuzini berkitmagan. Sumalak pishirish davomida odamlar ashula aytib, raqs tushishgan.

Shunisi qiziqki, XIX asrning oxiri — XX asrning boshida Farg'ona vodiysida Navro'z kunlari — yangi yil bayramida Xufiya bazm uyushtiruvchi mazhablar mavjud bo'lgan. Ushbu bayramlar haqida o'zbek xoreografiyasining ustalari xabar beradilar. Xufiya bazmlarda mazhab ishtirokchilari "sirli marosimlar" o'tkazishgan, ko'p qismli "Katta o'yin" raqs syuitasi ohanglariga o'yinga tushish ham shu marosimlar qatoriga kirgan.

Ustalarining xabarlaridagi tafsilotlar ham yuqoridagiga deyarli mos keladi. Chunonchi, ular quyidagicha hikoya qilishadi: marosimda teng sonli yosh ayol va erkaklar qatnashgan (ayrim ma'lumotlarga ko'ra, ishtirokchilar soni 10 nafar bo'lib, hammasi yoshi 30 gacha, boshqa ma'lumotlarga ko'ra 12 nafar ishtirokchi, yoshi 40 gacha). To'rtala devoriga gilamlar tutilganligi uchun "na derazasi, na eshigi bo'lmagan", yerga ham gilam to'shalgan xona markaziga dumaloq xontaxta qo'yilgan. Uning ustiga anor suvi bilan to'ldirilgan idish qo'yilib, idishning atrofiga kalta yo'g'on shamlar o'rnatilgan (ba'zi ma'lumotlarga ko'ra 10 ta, ba'zilariga ko'ra 12 ta). Marosim ishtirokchilari yechingan, ayollar sochlari yoygan: qo'llari, oyoqlari, sochlari va bo'yinlariga taqinchoqlar va gullar taqishgan.

Mazhabchilar stol atrofida tiz cho'kib, ma'lumot beruvchilarga no'malum bo'lgan fors tilida ashula aytishgan, so'ngra o'rinlaridan turib davra bo'ylab harakatni boshlashgan. Marosimning avji yarim kechaga to'g'ri kelishi kerak bo'lib, ohang kuchaya borgan, raqs ham jo'shqinroq tus olgan. So'ngra ular jazavaga tushishgan... va shundan so'ng bizga ma'lumot beruvchilar — doirachilarimiz tashqariga chiqarib yuborilgan. Bunday bazmlarga doirachilarni taklif qilishganda, bozordanoq ularning ko'zini bog'lab olib ketishgan, bazm bo'lib o'tgan joydan ham ko'zlarini bog'lab olib chiqib quyishgan.

Raqsning avji va keyingi harakatlar faqat mazhab ishtirokchilari doirasida o'tkazilgan. Biroq davra bo'lib raqs tushish haqida xalq orasida gapiriladi-yu, biroq hech qachon ijro etilmaydi; bu hol tabiiydir, chunki bunday raqslar ko'pincha yashirincha ijro etilgan.

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan syujetsiz sof raqslarni kuzatar ekansiz, ularning zamirida mavjud voqeiylikni sezmay bo'lmaydi. Ma'lumot beruvchilar tomonidan raqs deb izohlangan raqslar alohida qiziqish uyg'otadi. Chunonchi, ayrim an'anaviy kompozitsiyalar nomiga "o'yin" so'zi qo'shib aytiladi. O'zbek raqs lug'atida raqs tushunchasini uchta so'z anglatadi: raqs, ufor — raqs ritmlarini anglatuvchi raqs, o'yin — raqs.

Farg'ona professional raqs turkumini boshlab beruvchi murakkab ritmik-plastik syuita o'zbek xoreografiyasi tarixida alohida o'rin tutadi.

"Katta o'yin"da syujet yo'q, u o'nlab ritmik figuralar -usullardan iborat, ularning har biri alohida ma'noga va muayyan harakatlar majmuiga ega. Ko'p hollarda ular muayyan usulning hissiy mohiyatini va kayfiyatini ifodalaydi.

Usullarning nomlanishi va emotsional obrazliligi shundan dalolat beradiki, bugungi kunda biz katta tarixga ega bo'lgan, harakatning shoirona ifodasi bilan hayot haqida mulohaza yuritayotgan raqsni ko'rib turibmiz. Ko'p asrlik umr kechirgan raqs san'ati bir paytlar madhiyalar va motam qo'shiqlari, romanlar va qissalar to'plami bo'lganligi sezilib turadi. Bugungi kunda ko'p qismli Katta o'yin syuitasini har biri murakkab harakatlar vositasida ifodalanadigan o'ziga xos tuyg'ular dunyosini anglatuvchi ruboiylar yoki nafis g'azallar to'plamiga qiyoslash mumkin. Raqsning murakkab tuzilishi, ko'p harakatlarning mutanosibligi, raqs mahoratining yuksakligi ularning ijodkorlari o'zbek xoreografiyasining yirik namoyandalari, xalq raqs madaniyatining eng yorqin vakillari bo'lganligini ko'rsatadi.

O'zbek xoreografiyasining eng keksa vakili Yusufjon qiziq va boshqa ustalarining qayd etishicha, "Katta o'yin" Iskandar (Aleksandr Makedonskiy — millodan avvalgi III asr) davridayoq mavjud bo'lib, u paytlarda u 280 usuldan tarkib topgan, "yaqin-yaqinlarda, yuz yilcha avval" — Katta o'yin muayyan mazmunga ega bo'lgan... O'zbek xoreografik merosining bilimdoni bo'lgan shoir Xislat "Katta o'yin"ni "hech narsasini o'zgartirib bo'lmaydigan, hech narsani qo'shib yoki olib bo'lmaydigan" yagona asar sifatida ta'riflaydi. XIX asrning ikkinchi yarmida raqs san'ati ustalarining bergan ma'lumotlariga qaraganda, Katta o'yinni taniqli raqqoslar ijro etishgan. "Katta-o'yinning har bir usulini ijro etish uchun muayyan rangdagi liboslar bo'lib, raqs maydoni yaqinida raqqoslar kiyimini tez o'zgartirib olishlariga imkon bo'lishi uchun yordamchilar libos ko'tarib turar edi", deydi raqs ustasi Mullo Shobarat. Maqaylik va Hamadon kabi badavlat bachchalarning doimiy kiyim tikadigan ustalari bo'lgan. Sahna yoritilishi ham turlicha bo'lgan, faqat yorug'lik darajasigina emas, balki rangli laganlar yordamida yorug'lik rangi ham o'zgarib turgan. Bunda yorug'lik hech joyda kamaymagan. Men ularning doimiy kuchayib borishini kuzatganman. Masalan, avval shamlarning bir qismi yonib tursa, keyin birdan hammasi yondirilgan, yorug'likni yanada kuchaytirish lozim bo'lganda esa mash'alalar yoki kunjarali gulxanlar yondirilgan. Qadimda ushbu o'zgarishlarning barchasi musiqa bilan bog'liq ravishda aniq belgilab qo'yilgan, ya'ni quvnoq ohang paytida g'amgin kuylarga qaraganda sahna kuchliroq yoritilgan, liboslar rangi ham yorqinroq bo'lgan"⁵³.

Raqs turkumiga murojaat qilsak. Ular nimalarni hikoya qilishi mumkin? Katta o'yin Rez usuli bilan ochiladi. Bu usulni Dildir, ya'ni Tomchilar⁵⁴ deb ham atashadi... Doira ohanglari sachrab turgan minglab tomchi donalarini eslatadi — raqqos ohangga mutanosib ravishda mayda qadamlar bilan yo'rg'alab ketadi... Navbatdagi usul Titratma — raqqosning har bir mushagi xuddi irmoqchalardek tovlanib titrab ketadi. Qo'shqarsda raqqos qo'llarini birlashtirib, go'yo suvni sepib

⁵³ O'sha asar, Baxta, Romanovskaya.

⁵⁴ Shabnam.

yuboradi va qaddini rostlaydi, yana qo'llarini go'yo tomchilar yaltirayotgan joyga uzatadi... Bu harakatlar Shox deb ataladi. Agar ushbu harakatni ijro etayotgan raqqos harakatlarini qog'ozga tushirsak, rasm haqiqatdan ham buta shoxlari yoki kiyik shoxlarini eslatadi... Shunday muqaddimadan so'ng gullarga bag'ishlangan Gul o'yinga navbat keladi. Raqqosning qo'llari tepaga ko'tariladi. tirsak yengil bukiladi, so'ngra, go'yo gul ochilayotgandek, ikki tomonga ochilib, qaytib pastga tushadi. Yo'rg'a usuli yo'rg'a ot yurishini eslatadi. Sarbozi usulining ohangi esa harb shijoatidan dalolat beradi, Ducharx. Yakkacharx usullari esa charxning bir joyda turib aylanishi sonini ko'rsatadi.

Bigacha yetib kelgan 48 usuldan ayrimlarigina taqlid ma'nosini anglatadi. aksariyat usullar inson ruhiyatining holatini ifodalashga, turli xil tuyg'ularni ko'rsatishga yo'naltirilgan. Haqqoniy usuli — or-nomus, sadoqat, haqqoniylikdan dalolat bersa, Orom usuli — Dam olish ma'nosini bildiradi, Jilvoni usuli — o'ynoqilikni, Soxta usuli soxta taqlidni bildiradi... Sadr usulining bir nechta ritmik figurasi dafn marosimiga bag'ishlangan — raqqos boshini eggancha, asta qadam tashlaydi, qo'llari ixtiyorsiz yonga tashlanadi...

Bu harakatlar go'yo yakunlanmagandek, go'yo qo'llarni kerakli holatga keltirish uchun kuch etmayotgandek tuyuladi, qo'llar og'irlik bilan pastga tushadi, so'ng yana ko'tariladi va yana tushadi. Nafas olish tezlashadi, chuqur tin olinadi... Bularning barchasi benihoya hasratni, oldindagi quvonchga nisbatan ishonchsizlikni emas, balki chuqur qayg'u, yo'qotilgan baxt haqidagi falsafiy mushohadalarni ifodalaydi. Ohang tobora taranglashib, intiluvchan bo'lib boradi. raqqosning tanasi tobora ko'proq oldinga egiladi, qadami tezlashadi, u go'yoki oldinga intilib chiqishga, qayg'u, g'am-alamni yengishga intiladi.

Usullar orasida nomi bugungi avlodga tushunarsiz bo'lganlari ham bor. ayrimlari o'zbekcha lug'atda ham joy topmagan. Masalan, Qora zang — Qora qo'ng'iroq yoki Duchoba — Ikki tayoqcha. Bu ohanglarning mazmunini qanday ifodalash mumkin? Shox, Katta Soma, Yallama — bu so'zlarning ma'nosini no'malum... Qaytarma ohanglari — Qaytish, Ilon, Mozor, Dupoya, Oqsatma usullarining hissiy tizimini aniqlash mushkul. Ushbu usullarning barchasi betakror, go'zal harakatlarni ifodalaydi, biroq har bir raqqosda aynan unga yaqin, aynan unda usul ohanglari vujudga keltirgan tuyg'ular ifodasini kuzatishingiz mumkin.

Ohanglar nomlanishi — Jilvoni, Dafn, Askar va Gullar — ketma-ket va yagona syujet chizig'iga ega bo'lishi ehtimoldan yiroq. Usullarning nomlanishi ularning dastlabki nomi bo'lib, harakatlarning obrazli tuzilishini ifodalaydi hamda ritmik va plastik figuraning obrazli va qulay belgilanishini bildiradi.

Taxmin qilinishicha, Jilvoni usuli Siyovushning onasi tomonidan uni yo'ldan ozdirishga urinishi haqida, Sadr va Mozor usullari Siyovushni ko'mish marosimi haqida, Gullar o'yini va Lolalar esa Siyovushning bahorgi o't-o'lanlarda qayta

tirilishi haqida hikoya qiladi. Katta o'yinda askarlar va otliqlar bor — ular Siyovush uchun kurashganmi yoki Afrosiyob tarafida jang qilganmi? Burch va Nomus usullari ham Siyovush ta'rifiga bag'ishlanganmi? Qaytarma usuli-chi, "yarim ilohning qaytishi" haqida hikoya qiladimi? O'sma-surma usuli nimani anglatadi? Balki o'zini tuhmatdan tozalash uchun ulkan olovdan otda o'tib ketgan Siyovush xotirasi uchun ushbu olov kuli bilan qosh va kipriklarni bo'yash Siyovushni xotirlashga bag'ishlanmaganmikin? Balki shu sababdan erta bahorda o'sma suvi bilan erkaklar va ayollar qoshlarini bo'yashlari uning yosh va barhayot ilohning "qaytishi" haqida xabar berishi tufaylidir? Balki Oqsatma usulining nomi Siyovush otining uzoq masofalarni bosib charchaganligidan dalolat berar? Balki Siyovushning otiga osilgan qo'ng'iroqning olovdan qorayib ketgani sababli usullardan biri Qora zang deb atalgandir... Ufori soxta usuli nima bildiradi — taqlidnimi, ko'zbo'yamachiliknimi? Balki u ayyor o'gay ona Sudoba yoki jahldor Afrosiyob haqida bayon qilar? Balki o'simliklar xudosi Xaoma turli hayvonlar va parrandalar (xo'roz, baliq) qiyofasiga kirib Siyovushni quvib kelayotganlarni chalg'itmoqchi bo'lar? Orom usuli o'ldirilgan va yana qayta tiriladigan ulug' ilohning dam olishi haqida bayon qilmasmikan? Dupoya deb atalgan ritmik usulni ikki buta va ikki oyoq deb tushunish mumkin. Ikki buta to'g'riroq bo'lar, chunki katta o'yinda Duchoba — ikki tayoq deb ataladigan usul bor. Bu nom zardushtiy kohinlar qo'llaydigan muqaddas o'simlikka ishora emasmikan?

Keksa o'zbek musiqachisi Ahmadjon Umrzoqov hikoya qilganidek, Katta Soma usuli bugungi kunda tarjimasi bo'lmasa ham, qadimda "Oyning buyuk tantanasi" degan ma'noni anglatgan. Bizga ma'lumki, o'rta asrlardagi diniy marosimlarning biron-tasi forscha transkripsiyada Xaoma, hindchasida Soma deb o'qiladigan, Oy — Somani ifodalovchi iloha sharafiga bag'ishlangan muqaddas ichimliksiz o'tmas edi. Keyinchalik Anaxitaga aylangan O'rta Osiyoga xos Ona, zardushtiylik dini ilohlari qatoriga qo'shilib, hindcha Somaga o'xshab ketdi.

Mahalliy antik tasviriy san'atda Meduza Gorgona obrazi ma'lum. Biroq bu ayol shaklidagi, ko'zlari ilonnikiga o'xshash, nigohi odamlarni toshga aylantiruvchi maxluq emas, balki axloqsiz Poseydon tufayli sharmanda bo'lgan va buning uchun Afinadan adolatsiz jazo olgan "suluv sochli" go'zal qiz shaklida tasvirlangan. Katta o'yinning raqs figuralari orasida bir necha bor Ilon deb ataluvchi harakatlar uchraydi. Raqqosa ikki qo'lining ikki barmog'i bilan mayda o'rilgan sochning bir necha kokilini ushlab turgan holda turli harakatlarni bajaradi, qoida bo'yicha ular qirqdan kam bo'lmasligi kerak (40 raqami — muqaddas).

Biz bundan keyin ham ko'plab afsona va asotirlar harakat va pozalarning tug'ilishiga sabab bo'lgan, deb dadil taxmin qilishimiz mumkin.

Shu nuqtai nazardan Katta o'yinning muhim bo'lagi bo'lmish ko'p qismli, kengaytirilgan qo'qonlik ayollarning Gul o'yini qiziqarlidir. Bu o'yin bugungi kunda, barcha professional o'zbek raqslaridagidek, inson his-tuyg'ularining umumlashmasini ifodalovchi syujetsiz xoreografik asardir. O'yinning nomi ham, Mozor deb ataluvchi dastlabki raqs harakatlari ham Gul-o'yin syuitasi o'lib, qayta tiriluvchi ilohga bag'ishlangan syujetga qurilganligini anglatadi.

Xorazmcha raqslarning "oliy", saylanma shakllarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab Maqom ufori musiqiy-raqs syuitasini ko'rib chiqar ekanmiz, raqslarning nomlarida ham qadimgi diniy e'tiqodlarga ishorani ko'rishimiz mumkin.

Ko'p qismli syuita raqslarida Xo'rozni ifodalovchi qo'l harakatlarini kuzatish mumkin (uning yorug'lik timsoli, shuningdek, Siyovush haqidagi ertaklarning qahramonlaridan biri ekanligini eslaylik). "Suv" yo'rg'a raqs ohangi suv oqimini ifodalaydi. Qoidaga ko'ra bu raqs figurasini ayollar ijro etishi kerak: raqqosa o'ng qo'lini keskin harakat bilan yuqoriga ko'taradi va badani mushaklarini asta-sekin titratadi, avval faqat qo'l titraydi, so'ngra tananing yuqori qismi va keyinchalik butun badanni titroq bosadi. Buyuk Ona suv ramzi bo'lganini eslaylik, ayrim qadimgi rvoyatlarda esa Anaxita Tanais obrazida namoyon bo'ladi, ilgari Amudaryo uning nomi bilan atalgan. Qush parvozi harakati qiziq bir belgi bilan to'ldiriladi. "Maqom ufori" ijrochilari odatda qalpoqlarini kaklik patlari bilan bezashgan. Kaklik ham Anaxitaning ramzlaridan biri hisoblangan.

Olma-anor raqs frazasi ham tabiatning yaratuvchan qudratiga bag'ishlanmaganmikan? Axir anor hosildorlik ramzi sifatida shu ilohaning ramziy belgisi bo'lgan. Mushuk-pishak raqs frazasi ham sevgi ilohasiga bag'ishlangan harakatni ifodalagan bo'lishi mumkin. O'zbek raqs lug'atida bu harakatga o'xshashi uchramaydi. (Raqqosa bir joyda turadi, ohangga mos ravishda tana og'irligini goh o'ng, goh chap oyog'iga soladi, bunda og'irlik tushmagan oyoqning faqat tovonigina yerdan uziladi, harakat bo'ksaning o'ng va chapga harakatlanishi bilan davom etadi; qo'llar tirsakdan bukilgan, tirsaklar ikki yonga qaragan, qo'l uchlari yarim musht kabi bukilib, bo'ksa yonida, ichki tomoni bir-biriga qaratilgan; Pishak ijrosi vaqtida qo'l kaftlari bo'ksa bo'yab aylanalar chizadi). Musulmon aqidalariga ko'ra, mushuk "xavfli" maxluq hisoblangan⁵⁵. Shu ham ma'lumki, Anaxitaga mushuklar turkumiga kiruvchi jonvorlar baxshida etilgan. Ehtimol, Mushuk harakati — qoplon, yo'lbars, silovsinning sevgi ilohasiga bag'ishlangan harakatlarini bildirishi

⁵⁵ Xalq rivoyatiga ko'ra, musulmon dinining asoschisi Muhammad payg'ambar mushuklardan xavfsiragan, ularni bezovta qilmaslikka intilgan. Bir gal mushuk uning choponining etagiga uxlab qolibdi, shoshib turgan Muhammad payg'ambar mushukni bezovta qilgisi kelmasdan pichoq bilan choponining barini kesib tashlagan ekan.

mumkin. Shu taxminni asos qilib oladigan bo'lsak, yuqorida tasvirlangan raqs usuli faqat tasviriy ma'noga ega bo'lib qoladi (qo'l kafti inson yonida turgan hayvonning boshini, aylanma harakatlar esa uning "erkalanishini" anglatadi). Agar Pishak harakati — Mushukning erkalanishini bildirs, u ma'nosini yo'qotadi, chunki Mushuk inson tik turgan holda faqat uning oyog'iga suyakalishi mumkin...

Hid harakatini hosildorlik xudosi va uning vazifalari bilan bog'liq ravishda ko'rib chiqish mumkin. Hidni ijro etishda raqqos kaftlarini yuqoriga ko'taradi va go'yo nimanidir puflab yuboradi; raqs ma'nosini izohlar ekanlar, ustalar aytishadiki, bu bilan go'yo "qalbim uforini qabul et" degan ma'no tushuniladi va kaftdan urug'lanish ramzi bo'lmish gul changi puflab yuborilgandek bo'ladi...

Maqom syuitasining xorazmlik va buxorolik ijrochilariga xos bo'lgan doimiy atributlar — kiyimlariga qadalgan qo'ng'iroqchalar, qo'l va oyoqlarga taqiladigan bilakuzuklar, keng belbog'lar va bosh kiyimlarni alohida qayd etish o'rinlidir. Buxorocho raqs Maqomida ko'plab harakatlar, raqs figuralari va hatto uning butun bir bo'limi Zang — Qo'ng'iroq deb ataladi. Yuqorida qayd etilganidek, qo'ng'iroq, ayrim qadimshunos olimlarning fikricha, "Raqsning ko'k devlari" ramzi bo'lgan, ayni paytda ko'zdan saqlagan. Shu sababdan bo'lsa kerak, Maqomning uchinchi qismi — Zang yaqin o'tmishda ham albatta to'ylarda, buning ustiga ayni zayofat qizigan paytda mehmonlarni xursand qilish uchun emas, balki yosh kelin-kuyovning derazasi ostida, "tahlikali" birinchi tunda, uzluksiz tong otguncha ijro etilgan...

Buxorocho Maqomning ko'p raqslari sevgi ilohasi bag'ishlangan ko'rinadi, chunki bu raqslar tizimi to'laligicha ayol qaddi-qomatining go'zalligini ko'rsatishga yo'naltirilgan. Egiluvchan harakatlar, bel xipchaligi, tana yuqori qismining titrab turishlari — bularning bari chuqur ehtiros va mag'rur noz-karashmaga to'la. Keng tarqalgan raqs usullaridan birini ijro etish paytida raqqosa bir zum qotib qoladi va qo'llarining nozik harakatlari bilan lo'ppi siynalariga ishora qiladi, ehtirosli nafas oladi, bu usul "ayol ko'ksi" deb ataladi. Shuni qayd etish mumkinki, Ona ko'p hollarda bir qo'li bilan qo'yniga, ikkinchisi bilan ko'ksiga ishora qilgan holda tasvirlangan, bunda qo'yniga ishora qilayotgan qo'lida anor, ko'ksiga ishora qiluvchi qo'lida esa bodom bor...

O'zbek xalqi an'anaviy xoreografik san'atining hozirgi kundagi syujetsiz asarlarida qadimgi rivoyatlarga bo'lgan ishorani izlashimizning sababi, qator o'zbekistonlik san'atshunoslarning tadqiqotlari qadimgi O'rta Osiyo diniy marosimlari kohinlar va kohinalar tomonidan ijro etilgan syujetlar bilan boyitilgan, degan fikrga asoslanadi.

Yuqorida qayd etilgan, So'g'd ko'zalarida, Biya-Nayman ossuariyalarida va boshqa uy-ro'zg'or buyumlarida ifodalangan Siyovush haqidagi afsona syujetidan tashqari Parfiya ritonlarida va Tohariston idishlaridagi tasvirlar ham

katta qiziqish uyg'otadi. Parfiya⁵⁶ hukmdorlariga tegishli bo'lgan, miloddan avvalgi II asrga oid ritonlarda (shox shaklidagi marosim idishlarida) Evripidning "Vakx ayollari" asariga asos qilib olingan Panfey haqidagi rivoyat sahnalari, marosimlar, qurbonlik keltirish sahnalari va oliy ilohlarning mistik to'ylari tasvirlangan bo'lib, kohinlar va kohinalar ilohlar rolini ijro etgan. Ellinlarga xos syujetlar va ajnabiy qahramonlar belgilari mahalliy kiyimlar va etnik xususiyatlar bilan boyitilgan.

Turli sahnalarda ishtirok etuvchi libosli va libossiz, qo'lida doira ushlagan kohina-raqqosalarning tasviri alohida qiziqish uyg'otadi. Miloddan avvalgi II—III asrlarga oid bo'lgan Tohariston kumush lagani⁵⁷ ham Evripiddan olingan syujetlar bilan bezalgan. Unda, deb yozadi A.Pugachenkova, "janr sahnalari emas, oliy tragediya san'ati darajasiga ko'tarilgan inson hissiyotlarining sintezi ifodalangan".⁵⁸

Bugungi an'anaviy lirik raqslarni ko'rib chiqar ekanmiz, ularni adabiy barhayot san'at sifatida tushunamiz, uning mazmuni odamlarning umumlashgan tuyg'ulari, xalqning batakror tafakkurini aks ettiruvchi umuminsoniy ideallar tarzida tushuniladi. Qadim syujetlardan voz kechgan "jiddiy" xoreografiya yo'q bo'lib ketmasligiga nima sababchi? — Albatta, insonning hayotiy kuzatishlari asosida qadim raqs ustalari tomonidan bunyod etilgan mustahkam zamin. Qadim zamonlardan beri tabiat, mehnat va turmush ijodkorlar tafakkurini boyitgan. Diniy raqs asarlarini yaratayotganda, ilohlar hayotidan sahnalarni namoyish etayotganda, ularning his-tuyg'ularini ifodalayotganda xoreograflar aynan shu manbaga asoslangan, buning zamirida esa "inson ehtirosi va kechinmalarining sintezi" yotadi.

Raqqosa ko'rsatkich barmog'ini labiga tekkizib, "sukut ishorasi"ni qilganda, yoki boshini u yoqdan buyoqqa tebratib, xayolan o'sma-surma qo'yishlari bugungi kunda nimalarni anglatadi? Qiz bola mayda o'rilgan sochlarini namoyish etuvchi Ilon kichik raqs pantomimasida nimalar yashiringan? "Mushuk erkalanmoqda" raqs frazasi nimani ifodalaydi? — Qizlarga xos o'yinqaroqlikni, sho'x noz-karashmalarni, erkalikni, albatta.

Tog'liklar raqsida muhim o'rin tutuvchi Sabaziyning ikki barmoq usuli endilikda ishora sifatida tushuniladi; "olma-anor" raqs harakati raqqosning tomoshabinlarga anor irg'itib hazillashishi sifatida tushuniladi; "Sadr" — yuqori darajada jiddiyat va qayg'uni bildiradi; "Bo'ron" — kuchli iztirobni; "Xo'roz" — xo'rozni; "Mozor" harakati esa bugungi tomoshabinga hech narsani anglatmaydi, u raqsning avji deb qabul qilinadi — raqqosa qo'llarini boshi uzra baland ko'tarib, barmoqlarini bir-biriga tekkizadi va chapak chalib, yo'rg'alab ketadi...

⁵⁶ Afsonaviy Parfins shahri hozirgi Turkmaniston hududida, Bagir qishlog'i o'rnida joylashgan.

⁵⁷ Hozirgi O'zbekiston janubi.

⁵⁸ Pugachenkova, Rempelning yuqorida ko'rsatilgan asari.

Buxorocha Maqom raqslarining nafis jilvalari inson tanasining go'zalligi va qudratini tarannum etadi... Zang-qo'ng'iroqlar musiqaga bezak beradi, ijrochining qotib turgan holda ayrim qo'ng'iroqchalarni jiringlatib tura olishi uning yuksak mahoratini namoyish etadi... "Oqsatma" — "oqsab turib" raqsga tushish demak; "Yo'rg'a" — mayda qadam tashlash; "Jilva" — noz-karashma; "Sarbozi" — harbiy ruh; "Gullar" o'yini — yengil, nafis, shoirona; "Ufori soxta" usuli — ayyorlik — o'zgaruvchan, sirg'aluvchan harakatlarni bildiradi; "Haqqoniy" raqs figurasi — Nomusni; oyoq uchlari bilan daryo to'loqini ifodalash usuli (raqqos yon tomonga yurib, goh oyoq uchlarni birlashtirib, tovonlarini ikki tarafga, goh tovonlarini birlashtirib, oyoq uchlarni ikki tomonga ochadi) bugungi kunda "Qaychi" deb ataladi...

Ma'nosi tushunarsiz bo'lgan raqslarni ijro etar ekan, raqqos ularning nomida yashiringan ma'no haqida o'ylab o'tirmaydi, balki raqs ritmlarining ruhiy mazmunini ifodalashga intiladi. O'zbek xoreografiyasining ko'p tushunchalari aksariyati ijroning texnik xususiyatlarini belgilaydi: "Aylanish", "Qars", "Titrama", "Charx-do'zona" tizzada turib aylanish; Mayda qadam va h.k. Biroq bular raqsdagi har bir harakatning asosidagi hissiy mazmunni tushunishga xalal bermaydi, chunki raqsdagi har bir harakat muayyan hissiy mohiyatga ega bo'lib, yagona kompozitsiyaga — muayyan fikrni bildiruvchi aniq hissiy qatorga uyushadi.

2. Dunyoviy raqs san'ati

Shuni qat'iy ta'kidlash mumkinki, dunyoviy raqsning shakllanishi, uning diniy marosimlardan ajralib chiqishi ellinizm davrida masxarabozlar teatri ajralib chiqqan paytga, bundan ikki ming avvalgi davrga to'g'ri keladi.

O'rta asrlarning dastlabki davriga kelib dunyoviy professional san'at yuksak darajada rivojlangan edi: VI—VIII asrlardagi Xitoy she'riyati va Xitoy tarixiy xronikasi materiallarida Xitoyda Samarqand, Buxoro va Toshkentdan borgan gastrofchil raqqoslar va ko'chib borgan raqqoslarning keng shuhrati bir necha bor ta'kidlangan edi. Tabiiyki, kohinlar va qohinalar "gastrofchi" bo'lishi mumkin emas edi. Chunki ular diniy marosimlarni boshqa ilohlarga e'tiqod qiluvchi xalqlarga namoyish qilib "toptashi" emas, asrab-avaylashi kerak edi. Xitoy tarixchilari, sayohatchilari va shoirlarining bergan ma'lumotlari orasida VI—VIII asrga oid buxorolik, samarqandlik va toshkentlik raqqoslar san'ati batafsil tasvirlangan sahifalar alohida qiymatga ega.

Xitoycha transkripsiyada Xuten'u deb belgilangan toshkentcha erkaklar raqsi atributlariga belgilariga ko'ra Dionisiy harakatlari bilan bog'liq, biroq xitoycha ro'yxatda bu raqs harbiy va akrobatik raqs qatoridan o'rin olgan.

"Toshkentlik yigitlarni (shigo) odamlar kam ko'rishadi, ular may solingan qadah oldida cho'kkalab raqsga tushadilar va qushlar kabi pildirab yuradilar", deydi Xuten'u ijrosi haqida shoir Lyu-yan-shi. "Oyog'i bilan turli hunarlar ko'rsatadi — naqshinkor etiklari yumshoqqina. Davra qurib o'tirganlar gaplashmaydilar, tikilib qoladilar. Di va pina cholg'uchilari boshlari egik, uni olqishlaydilar. Qorday oppoq va qizil jundan to'qilgan yangi gilam ustida zo'r berib sakraydi". Shoir Li Duan toshkentlik mohir raqqosni ta'riflar ekan, "rangli namatda sakraydi", "g'arb tomonga egiladi", "davra bo'ylab yurib, musiqaga hamohang sakraydi va yana egiladi — qo'llari egilgan, beli buralgan — o'zi ham misoli oy o'rog'i" deb ta'kidlaydi.

Xitoylar Xusyuanu deb atagan samarqandcha ayollar raqsi tasviri juda qiziqarli tasvirlangan. Bu raqs koptok ustida ijro etilgan. "Xusyuanu raqsiga kelsak, — deb yozadi xitoylik tarixchi, — raqqosa koptok ustida turib, shamoldek tez aylanadi". "Guluu (darvoza) raqsi ham, xusyuanu ham kichkina koptok ustida ijro etiladi; koptokni istagancha tepadilar, ustida sakraydilar, biroq raqqos chaqqonligi tufayli hech qachon koptok ustidan sirpanib tushib ketmaydi".

VIII asrning birinchi yarmida shoirlar Bo Szyuy va Yuan Chjen samarqandlik raqqosalarga atab ko'p she'rlar yozganlar. "Raqqosa, raqqosa, — deb yozadi Bo Szyuy. — Go'yo bo'ronda uchgan qordek aylanib uchadi, tinmay aylanadi. Tinim bilmay chappa aylanadi, o'ngga aylanadi. Ming davra, o'ng ming jilva va buning oxiri yo'q. Odamlar yoki jonivorlar orasida uni hech kim bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Yelib ketayotgan arava g'ildiraklari unga tenglasha olmaydi, shamollar ham ortda qolib ketadi".

Ta'rifiga ko'ra, toshkentcha ayollar raqslari — Chjehchi teatrlashtirilgan sahnalardan iborat bo'lgan. Unda nilufar guli ichidan chiqib kelayotgan ikki raqqosa parilar yoki ilohalarni ifodalagan. Shunisi qiziqarlilik, Chjehchi ijrochilari libosiga xos bo'lgan xususiyat — "uchli, atroflari qayrilgan bosh kiyimi" tilla qo'ng'iroqchalar bilan bezalgan. Shoir Bo Szyuy Chjehchi ijrochilariga bag'ishlangan she'rlarida raqqosalarning binafsha rangli, marvaridlar taqilgan libosini batafsil tasvirlaydi, lekin raqqosaning aylanishga o'xshash harakatini faqat bir qator jumla bilan tilga olib o'tadi.

Samarqandlik yoki buxorolik raqqosalarning ommaviy o'yini tasviri ham e'tiborga sazovor. Raqsning faqat qisman tasvirlangani tufayli bu ma'lumotlar bo'yicha harakatlar xarakterini ham, raqsning umumiy manzarasini ham tasavvur etib bo'lmaydi. Biroq "sher-yigitlar" raqsi haqidagi uzuq-yuluq ma'lumotlar ham murakkab bir tomosha haqida dalolat beradi. Mana, shu raqs tasviriga bag'ishlangan satrlar: "Raqqoslar to'rt nafar. Besh tomonda (sharq, g'arb, janub, shimol, markazda) balandligi bir chjandan yuqori bo'lgan (1 chjan — 3,2 m) beshta sher o'rnatiladi, liboslarining rangi o'tirgan tomoniga

mos (sharq — ko'k, g'arb — oq, janub — qizil, shimol — qora, markaz — sariq). Har bir sher — 12 kishi. Ularning kiyimi naqshlar bilan bezalgan, qo'llarida qizil lentalar, boshlarida qizil bog'ich, ularni sher-yigitlar deb ataydilar".⁵⁹

Ushbu yozma va tasviriy ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, o'rta asrlarning dastlabki davridagi professional xoreografik san'at jonli raqs xarakteriga zid emas. Umumlashtirilgan barcha ma'lumotlar qanday aniq xulosalar, taxminlar va qiyoslarni vujudga keltiradi? Milodning VI—VIII asrlarigacha bo'lgan davrda Yunon-Baqtriyaning qadim ijodkorlari yaratgan kumush idishlarda, toshlar ustidagi o'yama suratlarda, devorlardagi nafis tasvirlarda, bronza buyumlardagi o'yama naqshlarda, terrakota idishlarda raqqosakohinalar tasvirini kuzatar ekanmiz, bir-biriga o'xshash badiiy jihatlarni ilg'ab olishimiz mumkin, eng muhimi, barcha tasvirlardagi obrazlar bir-biriga o'xshash. Barcha figuralar yalang'och, yarim yalang'och, ba'zan esa shohona liboslarda, yuzi old tomonga qaragan bo'lsa-da, oyoqlaridan uning yon tarafga yurayotganini ko'rish mumkin. Ba'zan raqqosa tabiiy holatda, og'irligini bir oyog'iga solib, bo'ksasini bir tomonga chiqarib turgan holda tasvirlangan. Raqqosaning tanasi mutanosib, sarvqomat, bellari xipcha. Deyarli barcha raqqosalarning nafis matodan sharfi bor. Ularning tana holatlari, harakatlari nihoyatda tabiiy, oddiy, mushaklari yengil, bular esa raqs harakatlarining oddiyligi va ijroning tabiiyligidan dalolat beradi. Taxminimizcha, bunday raqslardagi asosiy ma'noni qo'llar ifodalagan, ko'pincha ularda ramziy ishoralar va syujetni ifodalovchi harakatlarni ochishga yordam beruvchi ashyolar bor.

Biroq, yuqorida ta'riflangan guruhdan keskin farq qiluvchi tasvirlar ham bor. VII—VIII asrlarga oid tasvirlardan birida qo'lida cholg'u asboblarni ko'tarib olgan yarim yalang'och yigitlar tasviri ham bor. Raqqoslar jo'shqin raqs ijro etayotgan holda tasvirlangan va surat bo'yicha taxmin qilish mumkinki, raqs paytida ular sakragan, aylangan, oyoqlarni tepaga ko'targan bo'lsa kerak. Bunday tasvir milodiy ilk asrlarga oid bo'lgan Badaxshon vazasida tasvirlangan "soqolli" Dionisning hamrohi bo'lmish raqqos erkak tasvirini eslatadi.

Xitoy manbalari ham ana shunday raqs haqida ma'lumot beradi, ular bo'yicha asosiy harakatlar ro'yxatini tuzishimiz ham mumkin: 1) jo'shqin raqs qadami — "qushdek uchadi"; 2) sakrashlar — "to'xtovsiz sakraydi", "tizzalab yuradi"; 3) o'tirib turish — "tizzalab o'ynaydi"; 4) aylanish — "shamoldek tez aylanadi"; 5) tananing yonga va orqaga egilishi — "o'zi oydek egilgan"; 6) raqs asosan davra bo'ylab harakat qilishga asoslanadi.

An'anaviy lirik raqs davra bo'ylab harakat qilishga asoslanadi. Katta o'yin, Maqom ufori kabi barcha yirik raqslarga jo'shqinlik xos. Davra bo'ylab va bir joyda aylanish farg'onacha va buxorocho raqslarda markaziy o'rinni

egallaydi. Tananing ikki yonga va orqaga egilishi Avj deb ataladi va an'anaviy raqsning barcha lokal guruhlarida qo'llaniladi. Xorazmcha Maqom uforida ko'pincha o'tirib o'ynash elementi qo'llaniladi.

Hozirgi kunda Farg'ona va Buxoroda mavjud bo'lgan o'ziga xos an'anaviy bir detalni qayd etish kerak — bu kamzul va ko'ylaklarning qalin yengllari ustida tushib turadigan yengil uzun shoyi matosi. Ushbu mato qalin shoyidan tikilgan ko'ylak va kamzulga uncha mos tushmaydi. Shunisi qiziqki, tog'li hududlarda, masalan, Boysun qishlog'ida (Surxondaryo viloyati) "Ko'k salla raqsi" deb ataluvchi dehqonlar raqsi ijrochilari qo'llar va yelkalariga havo rang ro'mol yopinib, ustidan chopon kiyishgan; raqs jarayonida ular asta-sekin yengllaridan ro'mollarni tortib chiqargan. Buxorolik va farg'onalik raqqosalarning qo'llaridagi matolar — qadimgi raqqosalarning sharfiga ishoradir.

Maqomning ko'p qismlaridan raqs va mehmonxonalarda ijro etiladigan "kichik" raqs ijrochilari bo'lmish buxorolik raqqosalar albatta bosh kiyimiga katta yengil sharf taqib oladilar, chunki raqs figuralarining ko'pchiligi sharf "o'yiniga" bog'liq. Kaftlar harakatlari ham yengil mato bo'lishini taqozo etadi. Erkaklar bu harakatlarni ijro etishda chopon yengllarini qo'ldan uzun qilib tushirib qo'yadilar.

Yuqorida qator ta'riflar hozirgi "sof" xoreografiya qadimgi diniy xoreografiya va o'rta asrlar dunyoviy raqs san'atining sintezidan iborat, deb xulosa chiqarishimizga yordam beradi. Bunda dunyoviy raqs ijodkorlari diniy tasviriy raqs, namoyish raqs, marosim raqs va jo'shqin ekstatik o'yinlar usullaridan va xalq raqs-o'yinlaridan ham foydalanganlar. Ularda mehnat jarayonlari va xalqning asosiy fazilatlarini yorqin ifodalangan.

Zamonaviy an'anaviy raqs guruhini tasvirlashda shu hol qayd etildiki, "sof" professional xoreografiya yagona raqs madaniyatiga xos bo'lib, o'ziga xos raqs uslublariga ega bo'lgan bir necha lokal guruhlariga — farg'onacha, xorazmcha, buxorocho raqslarga bo'linadi.

Farg'onacha raqs yengil, aylanma qo'l harakatlari bilan ajralib turadi. Ular go'yoki paxta teruvchining qo'l harakatini eslatuvchi ushbu harakatning dastlabki davrini tiklayotgandek bo'ladi. Bunda qo'l keskin harakat bilan ko'sakdan paxtani sug'urib oladi. Tana harakatlarining tabiiyligi, tananing erkin turishi, tana yuqori qismining yengil harakatlanishi, oyoq uchlarida yengil yugurishlar — Farg'ona vodiysining boy tabiatiga nihoyatda mos tushadi. Farg'onacha "katta" raqs qahramonona harakatlarga boy bo'lib, dramatik ehtirolarni ifodalasa-da, xorazmliklar, shimolliklarning mag'rur raqslariga xos bo'lgan sovuq keskinlik ularda yo'q.

Xorazmning o'jar, noqulay ob-havosi, — miloddan avvalgi VI asrda fors bosqinchilari — ahmoniylarning birortasiga bo'yin egmagan, miloddan avvalgi III asrda Iskandar Zulqarnaynga (Aleksandr Makedonskiyga), dastlabki milodiy

⁵⁹ Yuqorida ko'rsatilgan "Xrestomatiya".

asrlarda Xitoy qabilalariga, milodiy IV asrda oq xunlarga, VIII asrda arablarga bo'ysunmagan qadimgi erksevar davlatning tarixiy taqdiri xalq tabiatiga xos xususiyatdir. Xorazmlilar faqat vassal qaramligiga uchragan. Aynan xorazmlilarning tarixiy xususiyatlari raqsnı oshkora xıssıyotchanelık, mardlık bilan boyıtıshga yordam bergan. Bugungi kunda Maqom uforınıng ayırım raqslarını mashhur raqqosalar ijrosıda kuzatar ekanmız, ularning xattı-harakatlarıda mard ot minuvchı ayollar haqıdaga hikoyanı kuzatıshımız mumkın. Shunda qadimgı xorazmlık massaget-harbiy ayollar va massaget-suvoriy ayollar haqıdaga afsonalar esga tushadı. An'anaviy o'zbek raqsları ro'yxatıda harbiy raqslarını faqat xorazmlılarda kuzatısh mumkın. Ma'lumkı, asrimız boshıda xon qo'shını qoshıda raqqoslar guruhi bo'lgan. Ular jang boshlashdan oldin jangchılarning ruhını ko'targan. Uning nomi Xorazmdagi eng ommaviy raqs va professional raqs guruhi nomlanganidek, Lazgi deb ataladı. Jo'shqinlık, olovli ehtiros mustaqil, mag'rur xalqning xarakterini aniq ifodalaydı.

Buxoroča raqsda tananing nozık egilishları, raqs harakatlarining murakkab tuzilishi shundan dalolat beradiki, bu raqs xalq o'yınlaridan oziqlanib, katta ijodkorlar davrasida rivojlanib kelgan. Ularda jonli tabiat va inson tuyg'ulari aniq matematik ornamentda o'z ifodasini topgan.

3. O'zbek mumtoz xoreografiyasi

Qanday qilib "sof" xoreografiya mumtoz raqsga aylandi? Taxmin qilinishicha, bu somoniylar va qoraxoniylar davrida (IX—XII asrlar) mahalliy feodal davlatlar madaniyati yuqori darajada rivojlangan davrda yuz berishi mumkin. Bu asrlarni buyuk umumiy xulosalar asri deb atash mumkin.

Buyuk shoirlar Rudakiy va Firdavsiy xalq asotirlari, ertaklari va afsonalarini ajoyib dostonlar shaklida xalqqa yetkazgan. Xorazmlık buyuk alloma Beruniy nomi jahonga mashhur. O'rta asrlarda yashab o'tgan xorazmlık olim Al-Xorazmiy nomi bilan algebra fanidagi ko'p kashfiyotlar bog'liq⁶⁰. Sharq falsafasining ulkan yutuqlari Abu Nasr al-Forobiy nomi bilan, Sharq tibbiyoti yutuqlari Ibn Sino nomi bilan bog'liqdir (Ibn Sinoning "Tib qonunlari" XV asrda 16 marotaba, XVI asrda 20 martadan ortiq nashr qilingan).

Yuqorida nomlari sanab o'tilgan olimlarning ilmiy asarlari orasida Al-Forobiyning matematik asarlari qatoriga mansub musiqaga bag'ishlangan asari alohida ahamiyatga ega. Uning alohida katta bobi ritmlar xususiyatiga va ularning musiqadagi ahamiyatiga bag'ishlangan.

Hayotining ko'p yillarini an'anaviy o'zbek musiqasini o'rganishga bag'ishlagan o'zbekistonlik musiqashunoslar taxmin qilishicha, aynan XII asrda cholg'u va vokal asarlar yagona turkumga jamlangan bo'lib, maqom deb atalgan ekan.

⁶⁰ "Algoritm" termini Al-Xorazmiy ismining yevropacha talaffuz bilan aytilishi natijasida vujudga kelgan, algebra fanining nomlanishi ham shundan.

Tasviriy san'atda shu davrda geometrik arabeska va o'simliklar dunyosi xususiyatlariga asoslangan naqshlar tobora takomillasha bordi; she'riyatda kichik majoziy she'r shakli ustunlik qila boshladi, bu esa bevosita fanlar rivoji, ayniqsa matematika taraqqiyoti bilan, ya'ni mavhum ong rivojlanishi bilan bog'liq.

Fikrimizcha, xoreografiya san'ati mavhum ong rivojlanishidan chetda qolgan bo'lishi mumkin emas — raqslarda alohida elementlar rivojlana boshladi; harakatlar umumlashib, yagona uslubga birlasha bordi, o'zining tasviriy, fotografik aniqligini yo'qota boshladi. Biroq, o'rta asrlar xoreografiya san'ati ustalarining maqsadi mavhum virtuoz harakat emas, balki hayotni, tabiat olamini, inson tuyg'ularini badiiy obrazda ifodalovchi xoreografik Isti'ora va Ramzdir.

Agar XIV—XVII asrlarga oid miniatyuralarda tasvirlangan raqqoslar holatiga diqqat qiladigan bo'lsak, ularda uzoq o'tmish, ya'ni ilk o'rta asrlar davriga oid tasvirlar bilan, XX asrning ikkinchi yarmida mavjud bo'lgan an'anaviy raqs bilan uyg'unlikni ko'rish mumkin. Shuni qayd etish kerakki, o'rta asrlar raqsida yangi, O'rta Osiyo Uyg'onish davri raqsining (XIV—XVI asrlar) yangi xususiyatlari o'n to'qqizinchi asr bilan o'zaro aloqadorligi namoyon bo'ladi. Bunga ishonch hosil qilish uchun XVI asr miniatyurasidagi raqqosa holatini tahlil qilishning o'zi kifoya⁶¹. Raqqosa tomoshabinga yuzlangan holda yon tomonga harakatlanayotgan paytda (ilk o'rta asrlar o'yinchilariga xos bo'lgan holat!) tasvirlangan. Tana holati tabiiy, mushaklar tarang emas, raqs "kichik" farg'onacha raqsga o'xshash, juda oddiy bo'lsa kerak. Tana o'ngga biroz egilgan, bosh o'ng yelka tomon tushgan, chap bilak biroz ko'tarilgan va o'ng bilak pastroq. Holat shunday dinamik tasvirlanganiki, uning davomini ko'rayotganday bo'lasiz, "kichik" farg'onacha raqsda ommalashgan harakatlardan biri ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Temurning shaharga tantanali kirib kelishiga bag'ishlangan raqqos harakatlari XVII asr miniatyurasida ifodalangan. U an'anaviy Ufor raqsidagi harakat — jo'shqin o'zgaruvchan qadamlarni eslatadi⁶².

Ushbu faktlar biz uchun shunisi bilan qimmatliki, ko'p asrlar davomida miniatyurachilar raqsnı kamdan-kam tasvirlaganlar. Ming yillar davomida (VIII asrdan boshlab) XIV—XVII asrlarga oid bo'lgan raqqos va raqqosalar figuralarini tasvirlovchi ozroq miniatyuralar ma'lum. Hozirgi kungacha so'nggi mingyillik davrida mahalliy xoreografiya san'ati rivojlanish yo'lini tasvirlovchi yozma manbalar ma'lum emas. Biroq, tasvirlar va tarixiy manbalar shundan dalolat beradiki, raqs san'ati yo'q bo'lib ketmadi, an'analar barhayot. Xalq ilgaridek raqslarını yaxshi ko'rgan, bayramlarda professional artistlar o'z mahoratini namoyish etgan, saroylarda esa yuksak mahoratli raqqoslar xizmat qilgan.

⁶¹ Денике В.П., Вейнмарн Б.В. Искусство Средней Азии. — М. — Л., 1950.

⁶² O'sha asar.

Ulardan biri Sayid Badr nomi O'rtasiy Osiyo Uyg'onish davri xalq madaniyati tarixida shu davrning buyuk allomalari shoir Alisher Navoiy va rassom Behzod nomi bilan bir qatorda turadi.

Buyuk shoirlar va hatto ilohiyotshunos olimlar ham musiqa haqida tadqiqot yozishda davom etishdi: mashhur ilohshunos Darvesh Ali (XVII asr) ritmlar kelib chiqishi haqida qiziqarli musiqashunoslik asarini yozdi va unda keng tarqalgan ritmik figuralarni tasvirladi.

Bir necha asrlar mobaynida maishiy raqs xalq orasida mahoratini namoyish etadigan professional raqqoslar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan — shu sababli hozirgi kunda ba'zan professional xoreografiya guruhi raqslari va maishiy havaskorlik raqs kompozitsiyalarini bir-biridan ajratish qiyin bo'ladi. Havaskor raqqoslar professional raqsning butun majmuasidan foydalangan holda har qanday ruhiy mavzuda improvizatsiyalar yaratadilar, lekin bunda harakatlar miqdorini kamaytirib, raqsning texnikasini keskin soddalashtiradilar.

Xalq ichida paydo bo'lgan ayrim harakatlar va butun kompozitsiyalar professional raqqoslar tomonidan sayqallanib, yana xalq ichiga qaytadi. Xalq san'atining professional san'at bilan bunday aloqasi nafaqat o'zbek xoreografiyasiga, balki butun O'rtasiy Osiyo madaniyatining o'ziga xos jihati. Xalq ashulalarining aksariyati ko'p qismli "Shashmaqom" va "Chormaqom" vokal-cholg'u syuitalari she'rlari bilan aytiladi, xalq ertaklari va afsonalari mashhur ijodkorlar dostonlarini eslatadi, dostonlar esa professional ijrochilar tufayli xalq orasida mashhur.

Taqdiri ziddiyatlar va turli tarixiy halokatlarga to'la, etnogenezi murakkab xalq ko'p asrlar davomida ijod qilishdan tolmay, badiiy asarlarda hayotni shoirona, badiiy obrazlar vositasida aks ettiravergan. Shu sababli, an'anaviy professional an'anaviy o'zbek raqs san'ati kelib chiqishiga ko'ra, mohiyatiga ko'ra, shakliga ko'ra xalqchildir. Biroq, xalqchilikni folklor degan ma'noda tushunish kerak emas. O'zbek xalqining professional raqs merosi xoreografiya san'atining yuksak shaklidir; raqs — inson ruhiyatini, yuksak tuyg'ular va umumiy falsafiy mushohadalarni Mumtoz uyg'un shaklda aks ettiruvchi Obrazdir.

4. Lirik xalq raqslari va professional raqs

Xalq ashulalari, turmush shodliklari va tashvishlariga to'la xalq termalari doimo bo'lgan va saqlanib qoladi. Ular xalq shodligi, uning tabiat in'omlaridan zavqlanishi, tabiat hodisalariga hayratini ifodalab, kundalik og'ir mehnat ritmini aks ettiradi. Biroq, mehnat insonni bunyod etgan ekan, ko'plab ritmik ohanglar va musiqiy kompozitsiyalar, turli xil raqs shakllarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi, insonda faraz qilish qobiliyatini uyg'otdi, badiiy ijodiyot shakllarini yuzaga keltirdi.

O'zbek xalq lirik raqsi voqelikni ijodiy aks ettirib, uni musiqiy-plastik shakllarga aylantiruvchi san'at turlaridan biri bo'lib qoldi. Raqs — inson ichki dunyosi aks ettiruvchi vositadir.

O'zbek xalq lirik raqsi o'zbek professional raqsining barcha shakllarini o'zida mujassamlashtirgan va aksariyat hollarda ularni mahalliy harakatlar va shakllar bilan to'ldirib boradi.

Lirik xalq raqsi professional raqs singari quyidagilarga bo'linadi:

1. Farg'ona, Xorazm, Buxoro mahalliy ijodiy maktablari.

2. "Katta" va "kichik" o'yinlarni yaratuvchi ikkita asosiy ijro usuli.

Biroq, xalqda "Katta o'yin" ko'pincha aniqroq qilib "Mardon o'yini" deb ataladi. Ya'ni bu raqsni erkaklar yoki ayollar ijro etishidan qat'i nazar mardona raqs sifatida tushuniladi. "Kichik o'yin" ham xalqda shunday deb yuritiladi, biroq bu nom ko'pincha ashula jo'rligida ijro etiladigan raqslarga xosdir. Xalq "Kichik o'yini" ko'pincha lirik xarakterdagi ashula yoki lapar jo'rligida vujudga keladi.

Shu tariqa, o'zbek xalq lirik raqsida uchta janr bor: mardonavor-qahramonlik janri, lirik-dramatik janr va yumoristik-komik janr. Oliy darajadagi drama, tragediya va groteskning umumlashma shakllari fao'at professional raqqos va raqqosalar qo'lidan keladi.

Raqs ijro etish uchun oddiy xalq maxsus liboslar tayyorlamagan va kishilar o'zining kundalik kiyimida raqs tushganlar; bayramlarda esa shu kunga atab tozalab, yuvib qo'yilgan kiyimlarda yoki kundalik kiyimiga o'xshash rang va bichimdagi yangi kiyimlarda o'ynaganlar.

Farg'ona viloyati erkaklar va ayollar liboslarining bichimi bir xil bo'ladi. Ayollar uzun (to'pig'igacha), to'g'ri tikilgan, yeng bichimi yaxlit, qo'lidan uzunroq tushib turadigan ko'ylak kiyishgan. Qizlar ko'ylagining yoqasi biroz ochiq bo'lsa, ayollar tik yoqali va yoqasi toqiga ulanib ketadigan ko'ylak kiyishgan. Ko'ylak yoqasi tugmali yoki munchoq bilan bezatilgan. Yoqa va toqi jimjimalar ham bo'lishi mumkin. Ko'ylak ostidan yoqasi ochiq ichki ko'ylak va lozim kiyilgan. Lozim ikki bo'lak matodan tikilgan bo'lib, yuqori qismi kengroq, pasti torroq, beliga tasma o'tkazilgan.

Qizlar ko'ylagining yoqasi naqshli jiyak bilan bezatilgan. Qizlarning ham, ayollarning ham lozimi xuddi shunday jiyak bilan bezatilgan. Boshlariga ikkita yoki bitta ro'mol o'raganlar. Agar ro'mol bitta bo'lsa, u orqaga tugun qilib o'ralgan. Agar ro'mol ikkita bo'lsa, birinchi ro'molga qattiq peshonabog' qo'yilgan yoki do'ppi kiyishgan. Ikkinchisini esa ikki uchini oldi tomonga tushirgan holda boshga tashlab olishgan.

Buxoro viloyatida to'g'ri bichimli ko'ylakning yoqasi chuqur o'yilgan bo'lgani uchun, uning ostidan ko'tarma yoqali maxsus manishka kiyilgan.

Birinchi ro'mol ostiga kichkina do'ppi shaklidagi bosh kiyim kiyganlar. U ko'pincha xashakdan to'qilgan.

Erkaklar to'g'ri bichimli uzun ko'ylak kiyishgan. Farg'ona viloyatida ko'ylakning oldi ochiq, boshqa viloyatlarda esa ko'ylakning oldi yopiq, yoqasi ochiq bo'lgan. Ikkala holda ham ko'ylak yengllari yaxlit bichilgan. Erkaklar ishtoni ikki bo'lak matodan tikilib, yuqorisi arg'amchi bilan bog'lanadigan, tepasi keng va pasti torroq bo'lgan.

Etik kiyish boylarga xos hashamat sanalgan, shu sababli erkaklar ham, ayollar ham mahsi va past poshnali kovushlar kiyganlar.

Erkaklar va ayollarning ustki kiyimi bir xil — yengi butun bichimli, pastki qismi tor chakmon kiyganlar. Ayollar chakmoni bel qismida tugma bilan qadalsa, Farg'ona viloyati erkaklari chakmon ustidan belboq bog'laganlar; Xorazmda uzun qo'shoq, cho'l va dasht hududlarda esa chakmon oldida bitta tugma bilan qadalgan yoki umuman oldi ochiq yurganlar

Erkaklar va ayollar do'ppi yoki kallapo'sh kiyganlar.

Biroq, turli viloyatlarda turli matolar ishlatilgan. Bu haqda keyinroq to'xtalamiz.

Lirik raqslar musiqasi avval tilga olingan xalq raqslariga qaraganda birmuncha soddalashtirilgan bo'lgan. Barcha viloyatlarda aholi orasida iste'dodli doirachilar va nog'orachilar bo'lgan. Shuningdek, dutor ham keng tarqalgan.

Xorazm va Buxoroda qayroq tosh va zang bilan raqs tushganlar. Farg'onada esa ularning o'rniga son-sanoqsiz va turli balandlikdagi qarsaklar ishlatilgan.

Biroq, xalq va professional o'zbek lirik raqsi o'rtasidagi keskin farq hashamatli kiyimlar yoki mukammal musiqi jo'rligida emas, asosiy farq raqs ijro uslubidadir, aynan uslubda, chunki bu ijro sifatini Manera yoki Xarakter deb bo'lmaydi.

O'zbek tilida va boshqa sharq tillarida yevropa tillaridagi kabi xalq va professional ijrochilik mahorati belgilarini ifodalovchi maxsus tushunchalar yo'q.

Xalq raqs ijrochilik mahoratini so'z bilan tasvirlash oson emas, chunki ularni ilg'ab olishning o'zi qiyin. Rus tilidagi ikkita tushuncha — "plyaska" va "tanes" so'zlarini tahlil qilish yordamida bunga urinib ko'ramiz. "Plyaska" deganda bolalikdan tanish bo'lib kolgan tana harakatlari yordamida kishining ruhiy holatini aks ettiruvchi xalq o'yinlari tushuniladi. "Tanes" — olmoncha dans so'zidan olingan bo'lib, XVIII asrdan boshlab bu so'z, birinchidan: ilmiy asoslangan raqsni, ya'ni aniq belgilangan va harakatlar ketma-ketligiga izchil rioya qilingan raqsni anglatgan, ikkinchidan: bu raqslarni o'rganish uchun maxsus o'qish lozim bo'lgan⁶³.

O'zbek lirik xalq raqsini "plyaska" deb ataylik, shunda nima uchun raqs maqomlarining murakkab ritmik-plastik usullarini alohida o'rganish talab qilinmaganligi

tushunarli bo'ladi. Raqsning alohida shakllarini qo'llagan holda xalq o'zi uchun tushunarli va ruhiy holatni aks ettirish uchun qulay bo'lgan usullarni tanlab olgan.

Lekin shu yerda biz raqs san'atining yana bir qiziqarli xususiyati bilan yuzma-yuz kelamiz. Xalq orasida barcha raqslar va ijrochilik quyidagilarga bo'lingan: "Poybozi" (oyoq o'yini) va "Qo'lbozi" (qo'l o'yini).

Bunday tasnif Marg'ilon, Farg'ona, Buxoro, qisman Qo'qon kabi madaniy markazlarning shahar raqslarida aniq ko'zga tashlanmaydi. Vujudga kelgan o'ziga xos shahar madaniyatini bu hududlarda Ustalar qattiq saqlaganlar. Qolgan hududlarda lirik raqslarning ikki turga bo'linishi so'z bilan belgilanibgina qolmay, balki ijro paytida yaqqol ko'zga ham tashlanadi.

Jug'rofiya, tabiatning alohida belgilari, mehnat usullari Professional lirik raqsda unchalik muhim emas, chunki qadimda raqsni yaratgan inson xayolida paydo bo'lgan tasviriy harakatlar aniq ishlov berilgan, obrazli umumlashtirilgan ritmik-plastik usullarga birlashib ketdi.

Xalq lirik raqsida tasviriy-ifodali usullar o'zining qadimiy ko'rinishida jonlangandek bo'ladi.

"Katta o'yin" materiallaridan tuzilgan Farg'ona-Marg'ilon ayollar raqslari ayollarga xos nazokatni alohida bo'rttirib ko'rsatadi. Raqqosaga qo'lni nigohdan balandga ko'tarishga yo'l qo'ymaydigan "Nigoh qonuni" aynan shu hududda paydo bo'lgan bo'lsa kerak. Buning ustiga, erkaklar boshini mag'rur ko'tarib tursa, ayollar boshlarini biroz solintirib, nigohlarini qo'l uchi bilan to'sib turgan.

Qo'qon ayollar va erkaklar raqslari ancha jo'shqin, ochiq, har bir raqs frazasi yakunida qo'l va yelka harakatlari ancha keskin bo'ladi.

Andijoncha ayollar raqsi Qo'qon ayollar raqsiga o'xshashdir.

"Andijon polkasi" deb nom olgan andijoncha yigitlar o'yini butun Farg'ona vodiysi bo'ylab tarqalgan. Farg'ona xoreografiyasi ustalari bo'lmish Yusufjon qiziq va Usta Olim Komilov "Andijon somasi" yigitlar o'yini qadimdan shu viloyatda o'zbeklar va tojiklar bilan hamjihatlikda yashab kelgan uyg'urlar raqslari jo'shqinligi bilan sug'orilgan deb hisoblaganlar. Ustalarining aytishicha, bu o'yinni XIX asrning 80-yillaridan boshlab Andijon shahri hayotiga kirib kelgan rus ishchilari "polka" deb atay boshlagan ekanlar. Ma'lumki, Turkiston Rossiya imperiyasiga qo'shib olingandan so'ng ochilgan zavod va fabrikalarda o'zbeklar kam ishlagan. Lekin aynan Gorchakovo (Marg'ilon yaqinidagi temir yo'l shaxobchasi), Qo'qon, Andijonda temir yo'l ustaxonalari, paxta tozalash va yog' zavodlari ishchilari orasida o'zbeklar ko'p bo'lgan. Yusufjon qiziq va boshqa ustalar hikoya qilishlaricha, ishchilarning bayramlarida bu jo'shqin o'yinni ruslar o'zbeklar bilan birgalikda o'ynagan ekanlar. Shakarjonovning bu o'yinga aynan ruslar nom bergani to'g'risidagi taxminini so'zsiz qabul qilish mumkin, deb o'ylaymiz.

⁶³ Krasovskayaning yuqorida tilga olingan asari, 1-jild.

“Andijon polkasi” — chapani, jo’shqin, kuchli, irodali, turmushdan zavq oluvchi kishilar raqsidir. Sakrashlar, oyoqlarni orqaga va tepaga tashlash kabi harakatlar mushaklar kuchini aks ettiradi; raqqos mushtlarini tugib, raqs maydonchasining markaziga qarab, tanasining yuqori qismini biroz pastga egadi va mushtlarini ko’p martalab pastdan yuqoriga qarab buradi — mushaklari va kuchini ko’rsatib ochiqcha maqtanadi.

“Ho-ho-yalla” qo’shiqi jo’rligida ijro etiladigan raqs sof namanganchadir. Ayollar bu qo’shiqni avj bilan aytganlar. Erkaklar orasida “Ho-ho-yalla”ni diskant (bolalarga xos ingichka ovoz sohibi — tarj.) ijro etgan. Ular ham qo’shiq avjida ovozlarni o’rta registrdan eng baland nuqtagacha olib chiqqanlar.

“Ho-ho-yalla” raqsi Farg’ona va Qo’qon raqslaridagi kabi harakatlar majmuasidan tashkil topgan, ijro uslubi bo’yicha esa u farg’onacha nozik-tortinchoq va qo’qoncha jo’shqin — qo’pol raqslar o’rtasida turadi.

Raqqos va raqqosalar vokal avjni o’rtada davra bo’ylab gir aylanish bilan yoki “Katta o’yin”da ham xuddi vokaldagi singari avj deb ataluvchi tana holatidagi harakatlar ifodalaganlar. Plastik avj quyidagi ko’rinishda bo’ladi: tizzalar ikki tomonga keng ochilib, tiz cho’kiladi va tana orqaga sekin egiladi; vokal avj o’sha egilish bilan tenglashgach, ijrochi shu holatda bel qismini tebrata boshlaydi va harakatlar amplitudasi imkon qadar kengayib boradi.

Kosonsoyda ayollar ham, erkaklar ham “Katta o’yin” ritmik usulida bastalangan qo’shiqlar jo’rligida “Qo’l raqsi”ni o’ynaganlar. Farg’ona vodiysining barcha qishloqlaridagi kabi ayollarning “ichkari” janridagi Tanovar qo’shiq-raqsi bu yerda ham keng tarqalgan va u “Bir ishva” deb atalgan. “Katta o’yin” qo’shiq-raqsi ham “Bir ishva” kabi necha raqqosa ijro etsa, shuncha turi bor desa bo’ladi, chunki bizga ma’lumot beruvchilardan To’tixon Qoraboyeva aytganidek, “Har kuni yangi raqs dunyoga keladi”⁶⁴.

Toshkent viloyatining Bo’stonliq tumanida ayollar va erkaklar raqs tushayotganda qo’llarini yengil musht tugib, bosh barmoqlarini tepaga chiqarib qo’yadilar. Qo’lning bunday holati faqat uyg’urcha raqslarda kuzatiladi. Lekin asosiy tana harakatlari majmuasi va ijro uslubi Farg’ona raqsilariga xos.

Umuman olganda, Toshkent raqslari Farg’ona maktabiga kiradi, lekin ijro uslubi, harakatlarning keskinligi, qomatning tik turishi bilan Farg’ona raqsidan farq qiladi.

Deyarli butun Farg’ona vodiysi hududida erkaklar va ayollarning lirik raqslari qo’l o’yin turiga mansub, ya’ni raqs asosan qo’l harakatlariga quriladi, oyoqlar harakati esa sodda bo’ladi.

Farg’ona xoreografiya maktabi professional va xalq ijro uslublarida butun O’rta Osiyo bo’yicha noyob sanaladigan, aniq ishlov berilgan va sayqallangan o’ziga xos qo’l harakatlari mavjud.

⁶⁴ 1904-yilda tug’ilgan.

Farg’ona raqsi o’ziga xos uslubda, Tanovarning ko’p sonli ashula variantlaridan birortasini aytayotgan ayol qo’shiqi jo’rligida ijro etilgan.

Shu nom bilan atalgan qo’shiq-raqslarni ichkarida, ayollar bo’lmāsida dunyoga kelgan alohida janr deb hisoblash kerak.

Qalb iztiroblarini aks ettiruvchi, chuqur lirik ohang, qo’shiqning kishi yuragiga kirib boruvchi majoziy matnlari qo’shiqni ohista, yarim ovozda va harakatlarni ham beozor ijro etilishini taqozo etadi. Abadiy sog’inch, erk va baxtli muhabbat haqidagi orzular butun dunyo ayollari lirik qo’shiqlarining mazmunidir.

Farg’onacha Tanovar qo’shiq-raqsi — juda noyob intim janr: har bir qishloqda har bir raqqosa o’zining ro’yobga chiqmagan orzularini qo’shiq qilib aytib, raqs tushgan. Bitmas-tuganmas qayg’uni umid nurlari yoritadi va u xasta dil orzusiga aylanib boradi. Ayol o’zining qalbi to’ridagi sirlarini raqsdā ifodalagan. Tana, yelkalar, biroz egilgan bosh bir nuqtaga yig’ilgandek, qadamlar yengil, tizzalar biroz bukilgan, faqat qo’llar ba’zan sekin, cho’ziq, ba’zan ma’yus harakatlari bilan yurak dardini ifodalaydi; qo’l uchlari esa kutilmaganda yengil parpirab, umid uchqunlari kabi ko’zga tashlanadi.

Biroq Farg’ona shahar va qishloqlarida Poy o’yin — oyoq o’yini ham keng tarqalgan.

Bularning orasida eng soddasi — childirma bilan, shuningdek, ikkala qo’lda ro’molcha bilan ijro etiladigan raqs bo’lgan. Raqqos yoki raqqosa childirma bilan o’ziga o’zi jo’r bo’lgan, yoki ritmi ro’molcha bilan belgilab borgan. Bunday raqsdā eng oddiy ritmik harakatlar — mayda qadamlar, oyoqlar birlashtirilgan holda yerda surilib, daryo to’lqinlarini ifodalovchi harakatlar alohida ko’zga tashlanib turgan va raqsning asosiy ifodali shakliga aylanib borgan.

Namanganda erkaklar “Katta o’yin”dagi murakkab ritmik usullardan foydalangan holda raqs improvizatsiya qilganlar — etiklarining maxsus ishlangan baland poshnalari bilan misgarning misga zarb bilan naqsh solishini ifodalovchi o’ziga xos “chechyotka”ni ijro etganlar. “Misgar raqsi”da qo’llar e’tiborni jalb etmaslik uchun faqat asosiy holatini o’zgartirib turgan, xolos.

Farg’onacha “oyoq o’yini” guruhida ilgari katta qishloq bo’lgan, hozirgi paytda katta shaharga aylangan, Namangan yaqinida joylashgan Kosonsoy raqsilarini alohida ko’rsatish lozim. Bu raqslar “Katta o’yin” ritmlari ostiga vokal jo’rligisiz ijro etilgan.

Qo’llar tinimsiz shiqirlab turib, ikki yoki uch marta holatini o’zgartirgan: ikki yonga, yuqoriga, oldinga uzatilgan, asosiy harakatlar esa oyoqlar zimmasiga tushgan. Faqat farg’onacha raqsga emas, balki O’zbekistonning boshqa tumanlari raqsilariga ham xos bo’lmagan baland sakrash bilan raqs frazasi bir oyoqda

to'xtash bilan yakunlangan. Bir oyoq tizzadan bukilib, tizza yuqoriga ko'tarilgan, ijrochi yerdagi oyog'ida keskin yarim aylana harakatni bajargan.

Buxorocho professional raqsning aniq ishlov berilgan, mohirona, murakkab shakllari xalq lirik raqslarida o'ziga xos ravishda aks etgan: qadamlar o'sha-o'sha bo'lsa ham, qo'llar murakkab harakatning bir yoki ikki elementini takrorlagan. Turli qishloqlarda ayollar raqslarida turlicha elementlar qo'llanilgan.

Samarqandcha raqsalarda ayollarda va erkaklarda qo'llar barmoqlari murakkab naqshlarni chizmagan, chunki raqsning asosiy mazmuni tananing sekin, cho'ziq yoki keskin, belning yengil burama harakatlarida mujassam bo'lgan.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tog' va vodiylaridagi qishloqlari ayollarning raqsleri shakli bo'yicha buxorocho va tojikcha raqslarga o'xshab ketadi. Biroq, ularning ijro uslubi butunlay boshqacha — yengilligi bilan farg'onacha ijro uslubiga o'xshab ketadi. Bu raqsalarda dekorativ holatlar, tananing keskin egilishlari, umuman, tananing maxsus harakatlari yo'q.

Qarshi vohasidagi Koson tumani qishloqlarida ayollar va erkaklarning lirik raqsleri Buxoro raqslaridan qadamlari bilan farq qiladi: qadamlar yengil, bamisoli raqqos yoki raqqosaning oyoqlari va yer o'rtasida allaqanday yostiqchalar bordek. Tananing yuqori qismi va qo'llar tarang tortilgan, lekin zo'raki emas. Asosiy holatlar almashuvidan tashkil topgan qadamlar va harakatlar to'plami ham Farg'ona raqs maktabiga xos. Lekin qo'l uchlari maxsus harakatlarni bajarmaydi, shuning uchun ham hech qanday ma'noni anglatmaydi.

Shu tumanda raqslar hisob bilan belgilanadi: "Beshqarsak", "Yaqarsak", "Dukka-dukka" ("Duqarsak"), "Chorqarsak" va h.k.

Hozirgi Navoiy shahri o'rnida qadimda mavjud bo'lgan qishloqlarning erkaklar raqsi ayniqsa qiziq: bu raqs aynan to'qqiz marotaba qarsak chalinadigan qarsak jo'riligida ijro etiladi. Raqqos qanday raqs figuralarini bajarayotgan bo'lmasin, u qo'llarini oldin chap yoniga, keyin o'ng yoniga tushirgan holda uch martadan qarsak chaladi, keyin qo'llar keskin yuqoriga ko'tarilib, yana uch marta qarsak chaladi. Qarsaklar chalinayotgan paytda bir oyoq yerga to'la bosib turgan bo'lsa, ikkinchisi yarim bosib turgan holda qarsakka jo'r bo'ladi. Davra bo'lib turgan tomoshabinlar qarsakka "ha-ha-ha" deb jo'r bo'lib turadilar.

Raqsning yumshoq, keng qadamlari tovondan boshlanadi. Qadam esa katta-katta olingan, yumshoqqina, bamisoli hiylakor bo'ladi. Raqs oddiygina Ufori deb ataladi.

Shahrisabzdan Miroqi orqali yuqoriga chiqaverishda joylashgan Qizil Emchak, Ko'l va G'ilon qishloqlari raqslerini alohida qayd etib o'tish darkor.

Qizil Emchak va Ko'lda (tog'ning eng yuqori nuqtasi) yaqqol buxorocho, lekin birmuncha soddalashtirilgan raqslar ijro etadilar. Bittasida u o'ng qo'lning chap yelkaga yengilgina urib qo'yilishi bilan boshlansa, ikkinchisida raqsning birinchi harakati aynan buxorocho raqsidagi kabi bo'ladi: bir qo'l keskin

oldinga uzatiladi, ikkinchi qo'l uchi esa birinchisining uchidan boshlab yuqoriga qarab yelkagacha urib chiqadi.

Erkaklarda ham, ayollarda ham bunday raqs muqaddimasi Buxoro raqs maktabining o'tkir ritimli, birmuncha og'ir, tantanavor raqsiga aylanib boradi va raqsning saroylardan kelib chiqqanligini beixtiyor eslatib yuboradi.

G'ilon da erkaklar ham, ayollar ham, qo'l uchlari bilan yengil harakatlar qilgan holda, ko'proq farg'onacha uslubga yaqin raqslerini ijro etadilar. Lekin tana holatlari, ayniqsa, qadamlar butun O'rta Osiyo bo'yicha noyob sanaladi. Erkin yelkalar va bel xuddi ixtiyorsizdek. Raqsni qo'llar va oyoqlar baravar boshlaydi: qo'llar tirsakdan bukilib, barmoqlar ko'krak oldida birlashtirilgan holatdan yengilgina ikki tomonga uzatib yuboriladi; shu paytning o'zida ijrochi tanasining yuqori qismini orqaga tashlab, bir oyog'i bilan oldinga qadam qo'yadi, ya'ni tana og'irligi joyida turgan oyoqqa tushadi, qadam qo'yayotgan oyoq esa uchi bilan yer bo'ylab sirpanib boradi va to'xtagan joyida uchi bilan yerga urib qo'yadi, so'ngra to'voni ham yerga tegadi. Tananing yuqori qismi esa hali ham orqaga tashlangan holda bo'ladi. Butun kompozitsiya ana shu taxlit ijro etiladi.

Boshqa guruh raqslerinde qizlar sekin-sekin qadam tashlab, qadamlarini yengilgina taqillatib bosib, xayolini bir yerga jamlagan holda harakat qiladilar. Raqsda uchlari biroz egilgan qo'llar asosiy o'rinni egallaydi.

Mazkur raqslar ohanglari "Shashmaqom" vokal-cholg'u asari qismlarini aynan takrorlaydi.

Koson tumani, Ko'l, Shahrisabz, Qizil Emchak raqslerini qo'l raqsleri deb atash mumkin. G'ilon raqsi esa — yorqin ifodali, biroq Osiyo uchun xos bo'lmagan "oyoq raqsi"dir.

"Dashtliklar" raqslerinde, ya'ni Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari xalqining hozirgi zamongacha yetib kelgan qadimiy raqslerinde harakatlar turfa xil emas. Butun raqs ikki tomonga uzatilgan qo'llar, tananing "yassi" holati, titrab turgan mushaklar, qo'llar holatining keskin o'zgarib turishidan iborat. Lekin bu harakatlarda juda ko'p quvvat mujassamlashganligi tufayli tana mushaklariga bekingan, jilovlangan kuch Timsoli vujudga keladi. "Dashtliklar" raqsida qadimiy o'yinlar kuchi hali ham yashab kelmoqda.

Bu raqs texnikasi oddiy emas. Qo'llar, barmoqlar, oyoqlar, cyoq uchlari, bo'ksalar, tananing har bir mushagi raqsda faol ishtirok etadi, yashaydi, kurashadi, quvvat tashqariga intiladi, lekin allaqanday ko'rinmas kuch uni tutib turgandek bo'ladi. Biroq "kuch" eng ibtidoiy shakllarga joylangan. Lekin baribir dashtlar o'yini o'zining sof "lirik" kuchi bilan, yurak-mushaklar uyg'unligi bilan ifodalidir.

Xorazmda Xalq raqsi va Professional lirik raqs o'rtasida o'yinni raqsdan farqlovchi umumiy xususiyatlardan tashqari keskin farq yo'q.

...Xorazmda kattayu-kichik, yoshu-qari, kampirlaru-qizlar "Lazgi"ga o'ynaydilar. Xalq "Lazgi"si — quvonch raqsidir. Raqs ohista qo'shiq bilan boshlanadi va raqqoslar uni asosiy raqs figurasi bilan ifodalaydilar. Go'yo sekinlashtirib olingan kino tasmasidagi kabi raqqoslar o'yin shakllarini namoyish etib boradilar, har bir harakat alohida bo'rttirib ko'rsatiladi; tomoshabinlar ham, raqqoslar ham shu paytda sport musobaqasidagi kabi, bir alomat natijani kutayotgandek qizg'in kayfiyatga tushadilar. Birdan ritm sho'xchan tempga o'tib ketadi, raqqos ohangning bitmas-tuganmas parvozigga qo'shilib boradi, mana shu yerga kelganda haqiqiy mo'jiza ro'y beradi — bu inson zavq-shavqining betakror ifodasidir. Harakatlar ketma-ket, misoli kamalakning ranglari kabi, bir-birining o'rniga kelaveradi, raqqosning har bir mushagida qon gupurib turadi. Haqiqatan, Lazgi — insonning benihoya kuch-g'ayrati ifodasidir. U kishi ko'z o'ngida paydo bo'ladi, yashaydi, isyon ko'taradi, u to'xtashi yoki yo'q bo'lib ketishi mumkin emas, chunki u cheksiz. Raqsning intihosi ham xuddi shunday, keskin yuz beradi, raqqos tugallanmagan harakat holatida qotib qoladi.

Xorazm raqslarini qo'l raqsi va oyoq raqsi deb ajratish mumkin emas. Tizzalarni ikki tomonga burib, pastroq cho'kib ijro etiladigan raqslar xorazmliklarda yo'q.

Shunisi maroqliki, xorazmcha "isyonkor" kuch-g'ayratni ifodalovchi raqslarga o'xshash Boysuntov qishloqlari raqsalarini, ayniqsa, Boysun shaharchasi raqsalarini "Poybozi" va "Qo'lbozi" raqsalariga aniq ajratish mumkin.

Qo'l raqsarlari guruhini Boysunda "Ufori kuff" deb ataydilar. Bu raqsarlarni ijro etayotganda raqqoslar qo'llarini yengil musht tugib, ko'rsatkich barmog'ini yoki ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini to'g'ri tutadilar, turli harakatlar qilayotganda qo'llar xuddi bir narsaga ishora qilayotgandek bo'ladi. Ba'zan raqqos bir holatda to'xtab qoladi va tanasining yuqori qismi, ayniqsa, barmoqlari bilan ishora qilishda davom etadi. Keyin u qo'llarini ko'kragida chalishtiradi va boshini ikki tomonga tebratib turgan holda barmoqlarini ko'tarib-tushirishda davom etadi.

Avvalgi bo'limda ta'riflangan predmetli raqsarlarda asosiy diqqat-e'tibor oyoqlarning maxsus harakatlariga qaratiladi.

Biroq, "Oyoq raqsarlari" faqat qo'llar band bo'ladigan raqsalar guruhidagina mavjud emas. Qo'llar bo'sh bo'lishi ham mumkin, lekin qo'l harakatlari ifodasiz, hatto ba'zan qo'llar beixtiyor ko'tarilib-tushib turgandek tuyuladi, chunki butun e'tibor tananing pastki qismiga qaratilgan bo'ladi. Oyoqlar tos va son bo'g'imlari bilan birga harakat qiladi.

Oyoqlar bukilgan holatda sakrashlar oyoqlarni galma-galdan yuqoriga tashlash bilan almashib turadi, bunda yuqoriga ko'tarilgan oyoq uchlari yerdagi oyoqning tizzasiga tegadi. Xuddi shu holatda, faqat yerdagi oyoq tizzadan bukiladi, keyin sakrab-sakrab, oyoqlar galma-galdan oldinga tashlab turiladi. Keyin raqqos oyoqlarini birlashtirgan holda joyida sakrab turadi.

Boysunning "Poybozi" raqsalarida tog'lik yigit — chidamli, chaqqon ovchi, cho'ponning barcha chayir mushaklari harakatda bo'ladi.

Boysunliklar yuqorida ta'riflangan raqsning yana bir turi — "Poyi mashq"ni ham tilga oladilar. Bu guruh raqsalarida raqqos qaddini keskin tiklaydi, yelkalarini pastroq tushiradi, qo'llar o'tkir burchak hosil qiladi, bilaklar yuqoriga ko'tarilib, kaftlar oldinga qarab turadi, tizzalar ikki tomonga to'liq ochilib, raqqos ancha past o'tiradi: uning tanasi yassi tekislik ustiga uzala tushib olgandek bo'ladi. Keyin hech qanday harakatlarsiz, bir joyda "butun tana mushaklari" raqsi boshlanadi, bunda faqat mushaklar "ishlaydi": bo'yin pog'onalari qimirlaydi, qoshlar uchadi, yelkalar bilinar-bilinmas titraydi, qo'l mushaklari titrab, tovlanib turadi, qo'l uchlari aks-sado kabi shu titroqni takrorlaydi. Keyin mushaklar titrog'i butun korpusga — ko'krakka, qorin va oyoqlarga ham o'tadi.

"Poyi mashq"ni qo'l raqsi yoki oyoq raqsi deb bo'lmaydi, bu mushaklar raqsidir. Raqsning ijro texnikasi raqqosning har bir mushagini ishga sola bilish qobiliyatiga bog'liqdir. Bu harakatsiz raqs texnikasi mushaklar kuchini to'g'ri yo'naltirishni va shunga yarasha nafas olishni talab etadi. Katta yoshli kishiga bu raqsni o'rganish mushkul, chunki mushaklar va nafas oqimini boshqara olish qobiliyati bolalikdan tarbiyalab boriladi.

O'rta Osiyo hududida, qisman hozirgi O'zbekiston va Tojikiston hududida qadimdan xalqlar bir-biriga aralash yashaydi, ba'zan bir millatga mansub aholi ikkinchi mamlakat hududida butun-butun qishloqlarga birlashib istiqomat qiladi.

Hozirgi kunda Eron, Arabiston cho'llari, Qadimgi Isroil va tog'li Sin-Dzyandan kelib chiqqan aholi avlodlarini o'zbek xalqi orasida ajratib olish qiyin, chunki ular iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatlardan birlashib ketganlar. Shunday bo'lsa-da, ba'zi etnik belgilar, musiqa va raqsning ba'zi xususiyatlari eroniy, arabiy, uyg'ur san'ati xususiyatlarini ifoda etadi.

Buxoroda va uning atrofidagi qishloqlarda chaq-chaq bilan ijro etiladigan original o'yinlar guruhi "Eroniy raqs" deb ataladi. Bu o'yinlar Buxoroning boshqa o'yinlaridan deyarli farq qilmaydi, biroq ularning ohanglari o'zi kelib chiqqan mamlakat to'g'risida so'zlaydi. Bu ohanglar cho'ziq, hazin boshlanadi va qandaydir kutilmaganda buxorocha raqs ohanglariga unchalik xos bo'lmagan birmuncha yengil va sho'xchan musiqaga aylanib ketadi.

Erondan kelib qolgan ko'chmanchilar yoki Markaziy Osiyo hududida yashagan qullarning hanuzgacha Xorazmda Axtarvang qishlog'ida va Qashqadaryoning ba'zi qishloqlarida saqlanib qolgan avlodlari raqsarlari shu hududlar raqsalaridan farq qilmaydi, ular xorazmcha yoki o'zbekcha-tojikcha raqsalar bilan qo'shilib ketgan.

Arabcha raqsni Buxoro yaqinidagi Arabxona qishlog'idagina ko'rish nasib etdi, u faqat juda keksa chollarning xotirasida saqlangan ekan. Raqsni yuzga

kirgan bir otaxon “ijro” qilib berdi, u ham bo‘lsa birgina raqs figurasidan iborat edi. Oldin u boshiga oq choyshab tashlab, ustidan belbog‘ini burama qilib bog‘lab oldi, keyin childirma chalib, davrani bir aylanib chiqdi. Ikkinchi aylanishda u bir oyoqda gir aylanishlarni ham qo‘shdi. Boshqa harakatlarni u bilmas ekan, lekin so‘zlariga qaraganda, ko‘pchilik erkaklar yig‘ilib, davrada bir-birlarining ketlaridan yurib aylangan ekanlar. Agar nog‘orachi bo‘lsa, raqqoslar raqsni childirmasiz, qo‘llarini ikki tomonga yozib ijro etar ekanlar.

XIX asrdan boshlab Buxoro yahudiylari deb atalgan, dari-forsiy, ya‘ni eron tilida so‘zlashuvchi yahudiylar o‘zlarining qadimiy yahudiy dinlarini saqlab qolganlar, madaniyatlarini esa tojik xalqiga to‘la yuqtirganlar. Buxoro va Shahrisabzda vokal-cholg‘u va raqs Maqomlari professional ijrochiligi yahudiylar muhitida “oilaviy”, ya‘ni bobo va buvilardan nabiralarga o‘tib boruvchi sanaladi. Buxoro amiri saroyida so‘nggi ikki asr davomida ayol aktrisalar odatda buxoro yahudiylaridan bo‘lgan.

Raqs san‘atida o‘ziga xos xususiyatlarini qadimdan Andijon atroflarida yashovchi uyg‘urlariga saqlab qolgan.

Mahalliy uyg‘urlarning xalq o‘yinida erkaklar ham, ayollar ham ishtirok etadilar, buning ustiga ular juft-juft bo‘lib o‘ynaydilar. Erkaklar o‘ziga xos cholg‘u asbobi — safoil bilan raqsqa jo‘r bo‘ladilar. Safoil — temir xalqachalar taqilgan tayoqcha bo‘lib, u yelkaga urilganda jaranglaydi yoki silkitilganda shildiragan ovozlar chiqaradi. Ayollar davra bo‘ylab tez qadamlar bilan aylanadilar, ritmning kuchli qismida qo‘llarini bosh kiyimlarining chekkasiga yengilgina tekkizish bilan belgilab boradilar, yoki tiz cho‘kib o‘tirgan holda “xamir qorish”, “lag‘mon cho‘zish”, “barmoqlarni yalash” kabi harakatlarni bajaradilar. Keyin yana juft-juft bo‘lib o‘ynash davom etadi, erkaklar, xuddi biroz charchagandek, chap tizzasiga cho‘kadi, o‘ng tizzasini esa raqqosaga o‘rindiqlik sifatida taklif etadi. Raqqosa ham bir zumgina shu tizzaga o‘tirgandek bo‘ladi... va raqs davra bo‘ylab davom etadi. Uyg‘ur raqslari — alohida mavzu⁶⁵.

O‘rta Osiyo hududidagi bir nechta lo‘li qabilalari hayotini alohida qayd etish lozim. Bular — o‘zbekcha so‘zlashuvchi lo‘lilar, tojikcha so‘zlashuvchi jo‘gilar va mazenglardir. Ular asosan ko‘chmanchi hayot kechirganlar, ayollar o‘ziga xos lo‘licha yubkalar va bluzalar, erkaklar esa yarqiroq ranglardagi ko‘ylaklar kiyganlar va o‘zlarining lo‘licha diniy marosimlarini ehtiyotlab, ularga qat‘iy rioya qilib kelganlar. Lekin butun dunyo lo‘lilaridan farqli ravishda mahalliy lo‘lilar o‘z ona tilini, qo‘shiq va raqslarini bilmaydilar. Balki, ular ham yaxudiyarlarga o‘xshab o‘z san‘atini mahalliy madaniyatga “tortiq” qilib yuborgandir?! Harholda qadimdan lo‘lilar o‘troq yashab kelayotgan qishloqlar

ham ko‘pgina. Ularni “tovoq tarat” deb ataydilar. O‘zbek tadqiqotchisi Sh.Inog‘omov yozganidek, “turushda ularning o‘zbeklardan farqi katta emas”⁶⁶.

5. Liboslar

Mazkur bo‘limning boshida xalq liboslari bichimi to‘g‘risida gap ochilgan edi. Chunki tipik kiyimlar to‘g‘risidagi umumiy bilimlarsiz raqsni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday qilib, ayollarning ko‘ylaklari to‘g‘ri bichimli, uzun, to‘piqqacha tushadi, tagidan shalvar — lozim kiyiladi. Qizlarning ko‘ylagi tomog‘igacha berk, qayiqcha shaklida, Buxoro viloyatidan tashqari hamma viloyatlar ayollari tik yoqali, old tomoni belgacha kesik va shu joyi yoqa qalinligidagi tasma bilan to‘silgan ko‘ylak kiyganlar. Buxorocho ko‘ylakning oldi uchburchak bo‘lib, oddiy ayollar uni keng jimjimalar bilan bezatsalar, boylarning xotinlari oppoq ohorli, par-par jimjimali va tik yoqali manishka taqib yurganlar. Farg‘ona vodiysi erkaklari oppoq yoki sarg‘ishroq bo‘zdan tikilgan, oldi ochiq ko‘ylak (yaktak) kiyganlar; boshqa viloyatlarda esa ko‘ylak rangli bo‘zdan tikilgan va uzun, deyarli tizzagacha tushib turgan, oldi tomog‘igacha berk, qayiqcha shaklida bo‘lgan. Farg‘onada yaktak ustidan belboq bog‘lansa, Xorazm, Buxoro va janubiy hududlarda belga uzun qo‘shoq bog‘langan.

Biroq, kiyimlarning bichimi bir xil bo‘lsa-da, matolarning originalligi, ranglarning turfaligi, turli kashtalar va applikatsiyalar hisobiga ko‘p xil bo‘lib ko‘ringan.

Farg‘ona vodiysi noyob avrli gazlamalari bilan mashhur bo‘lgan: shoyidan xonatlas to‘qilsa, aralash iplardan olacha mato to‘qilgan. O‘ziga xos chaplashganga o‘xshash ranglar va muayyan tartibda takrorlanuvchi shakllar yuqoridan pastga qarab yo‘l-yo‘l suratni hosil qiladi. Ochiq, ko‘zga tashlanuvchan ranglar bir-biriga uyg‘un. Eng oddiy — oq va qora ranglar orasida onda-sonda chaqmoqdek yashil rang uchraydi yoki oq va to‘q qizil ranglar ketma-ket keladi. Eng rang-baranglari — sariq, to‘q sariq, qizil, to‘q qizil, binafsha rang, turli tusdagi yashil: yirik va o‘rtacha hajmdagi shakllar qora yoki yashil chiziqlar orasida paydo bo‘ladi. Xonatlas kamalak kabi tovlanadi; olacha mato esa yuzasi yaltirab turmaydi, ranglari biroz chaplashgandek ko‘rinadi. Bu matoni “bulutning suvdagi aksi” deb atalishi ham bejiz emas.

Biroq, qimmatbaho atlas matolar, barqut, parcha va marvarid rangli yapon shoyilariga oddiy xalq yetisha olmas edi. Bunday matolardan tikilgan

⁶⁶ Иногамов Ш. Этнографический состав населения и этнографическая карта Ферганской долины, в пределах УзССР. Автореферат диссертации на соискание кандидата исторических наук. — Т. 1955.

⁶⁵ Qarang: *Исраилов М.* Уйгурские танцы. Архив И.И.

ko'ylaklarni qizlar o'zining to'yi kuni, u ham bo'lsa, kuyov tomondan kattaroq qalin berilgan bo'lsa, kiyar edilar.

O'rta hol va kambag'allarning kundalik kiyimi ip gazlamadan tikilgan sidirg'a ko'ylak va beqasam chopondan iborat bo'lgan.

Namangan va Qo'qon ayollari oq, moviy va och ko'k bo'z ko'ylaklar kiyganlar. Qizlar aksariyat ola-bula va mayda gulli chit ko'ylaklarda yurganlar.

Lekin eng kambag'al ayollar ham arzon zargarlik buyumlarini taqqanlar. Bular kumushdan yasalgan, moviy ko'zli uzuklar, oddiygina, savatcha shaklidagi xalqalar, bir qavatli munchoqlar yoki ko'p qavatli qatlama marjonlar bo'lgan. O'ziga to'q oilalarda ayollar zebigardan taqqanlar.

Ba'zi oilalarda shisha, marvarid yoki feruza ko'zlar bilan bezatilgan tillaqosh deb ataluvchi ziynat avloddan avlodga o'tib kelgan.

Oq, moviy yoki och yashil ko'ylaklar va beqasam chakmonlar, oq yoki ko'ylak rangiga mos rangdagi ro'mollar, ko'krakka taqiladigan taqinchoqlar juda go'zal ranglar gammasini vujudga keltirgan.

Farg'ona vodiysi, Toshkent va uning atrofidagi qishloqlarda sovuq ranglar — moviy, to'q moviy va och ko'k ranglardagi kiyimlarni unchalik kiyishmagan. Ba'zi tumanlarda moviy rangli kiyimlar faqat motam libosi sifatida kiyilgan.

Buxoroning sap-sariq, to'q sariq, zarg'aldoq, qizil, to'q qizil, to'q va och yashil rangli ip matolari o'zicha chiroyli bo'lgan. Yirik gulli matolar ustidan o'sha rangli nozik chiziqlar tortilgan.

Buxoro beqasami naqshi yirik-yirik, 15 sm li sariq, zarg'aldoq, qizil-binafsha va ingichka oqish tusdagi yo'llardan iborat.

Xorazmda erkaklarning yaktagi ham, ayollarning ko'ylagi ham qizil-binafsha yoki yashil-sariq rang mayda yo'lli matolardan tikilgan.

Qashqadaryo qishloqlari va shaharlarida qip-qizil, sap-sariq ko'ylaklar urf bo'lgan. Erkaklar ham yarqiroq rangli kiyimlar kiyganlar.

O'zbeklar va tojiklar qadimdan yonma-yon yashab kelgan Koson tumanida ikkala millat ham "o'zicha" kiyingan.

Mang'itlik ayollarning ko'ylaklari qizilning barcha tuslarida bo'lib, toqisi turli rangdagi tasmalar va jimjimalar bilan bezatilgan. Ko'ylakning etaklari va yengi qora rang bilan tugab, o'sha qismiga turli rangdagi applikatsiyalar berilgan. Oq yoki ko'ylak rangidagi ro'mol ustidan yana bitta katta, gulli, popukli shoyi yoki jun ro'mol tashlangan; kichik ro'mol tagidan kallapo'sh kiyilgan va unga yeng ustidagi katta ro'mol uchida sanchig'i bor maxsus to'g'nog'ichlar bilan qadab qo'yilgan.

Shunisi qiziqarliki, janubiy hududlardagi kabi bu hududda ham keksa otaxonlar va kampir-otinlarning kiyimlari o'rta yoshlilarnikiga nisbatan yorqinroq ranglarda bo'lgan. Chollar yorqin rangdagi yirik gulli chit yoki satin choponlar kiyganlar. Ayollar va erkaklarning paxtali choponlari o'ziga xos ilon izi chok bilan qavilgan,

natijada chopon qorako'l teriga o'xshab qolgan. Bunday qaviq qora yoki to'q jigarrang satinda yaxshi ko'rinadi.

Samarqand va uning atroflaridagi qishloqlarda ayollar yirik gulli chit ko'ylaklar kiyganlar. Boshlariga o'ziga xos uzun yopinchiq — sarandoz tashlab yurganlar. Sarandozni boshga kiyish juda qulay bo'lib, u sochlar ostidan ingichka tasmalar bilan bog'langan. Chekkalari dumaloq qilib qir qilgan bo'lib, taxminan sakkiz santimetrli naqshinkor yoki bir xil tusdagi tasma bilan bezatilgan. Sarandozning asosiy matosi oq va harir bo'lgan, bezakli tasmasi esa qalinroq matodan qilingan va etaklarning dumaloq shaklini saqlab turgan.

Urgut ayollari kiygan sarandoz qip-qizil va naqshlari juda jimjimali bo'lgan. Lekin qizil sarandoz tagidan kiygan ko'ylaklari sidirg'a, etaklari va yeng qaytarmalari sernaqsh bo'lgan.

Yosh ayollar va kelinlar metallardan emas, matodan qilingan tillaqosh taqqanlar. An'anaviy tillaqosh poxoldan to'qilib, uning ustiga sidirg'a mato qoplangan, pistonchalar va munchoqlar bilan gullar yoki biror shartli shakllarda naqshlar tikilgan. Tillaqoshning uchiga yorqin rangli patlar taqilgan. Oddiyroq oilalarning qizlari bo'yniga turli yarqiroq ranglar berilgan jiyda, xandon pista yoki bodomdan yasalgan marjonlar taqqanlar. Boy kelinlar noyob oltin zebziynatlar — ko'p qavatli, ko'p shaklli, yoqut, marvarid, feruza ko'zlar qadalgan "tavqi guli" deb ataluvchi marjonlar taqsalar, kambag'al kelinlar aksariyat tabiatga yaqinlikni anglatuvchi nozik didlari bilan ajralib turganlar. Ular tepasiga patlar qadalgan tillaqoshlari, ajib ranglarga bo'yalgan pista-bodom marjonlari bilan ko'zga tashlanib turganlar. Urgutlik ayollarning sochpopuklari uchlariga temirdan yasalgan dumaloq yoki yarim shar shaklidagi osmalari doimo shildirab turgani uchun "shaqalak-shaqalak" deb atalgan.

Urgut beqasami kengligi 3—4 santimetrli sariq va qizil hamda ingichka qora va oq yo'llardan iborat. Urgutda keng urf bo'lgan olacha "mushki za'far" deb atalgan va unda yorqin sap-sariq ranglar orasida ingichka qora yo'llar o'tgan.

Naqshinkor tasma — jiyaklar keskin kontrast ranglari bilan ajralib turadi, ularda oq, qora, ko'k, qizil, yashil, binafsha, sariq iplar xuddi shu rangdagi shoyi iplar bilan qo'shib ishlatiladi va shoyi iplar marvarid tusda tovlanib turadi.

Urgut do'ppilari ham ertaklardagi kabi ajoyib gullarni ifodalovchi yorqin ranglari bilan kishi ko'zini quvontiradi. Urgut do'ppilarida gullar va barglardan tashqari musicha shakli ham keng qo'llanilgan.

Kosonsoyda ko'ylaklar etaklari, yeng qaytarmalari, ko'krak ustidagi bezakli tasmalariga lolalar, boychechaklar va nilufarlar imkon qadar jonli shaklda naqsh qilib tikilgan. Lekin, mavzu mana shunday cheklangan bo'lishiga qaramay, hech qaysi naqsh na shakllari va na ranglari bilan bir-birini takrorlamagan. Ko'ylakning

yon tomonidagi bezakli tasmalar jiringlab turadigan temir zanglar bilan bezatilgan. Ayollar ham, qizlar ham boshlariga ikki yoki uchta turli rangdagi ro‘mollar bog‘lab yurganlar. Bunday ro‘mollar qoshlarning qoraligi va ko‘zlarning ravshanligini alohida ajratib ko‘rsatgan. Kosonsoy ayollari butun Namangan viloyati bo‘yicha eng quvnoq, dadil va sho‘x sanalgan.

Janubda, Boysun shahri atroflarida joylashgan qishloqlarning matolari ham juda ajoyib.

“Boysun olachasida qizil, sariq, oq, yashil yo‘llar uyg‘unlashib ketgan. Ola deganda oq va qora ranglar kontrast birikmasi tushuniladi. Bu ikkala rang o‘ziga xos qutblar bo‘lib, qolgan ranglar shu ikkala rang orasidan joy topadi”.

“Nimshohi — yarim shoyi va chit o‘rtasidagi mato bo‘lib, unda paxta iplar bilan birga turli hajmda shoyi iplar ham qo‘llanilgan”...

“... Boysun jandasi ayniqsa ajoyib bo‘ladi. Matoning ingichka, turli rangdagi yo‘l-yo‘l naqshlari mayda kataklar bilan uyg‘un keladi”.

“Boysun matolari yorqin rangda, o‘ziga xos naqshinkor bo‘ladi. Bolalar, qizlar, ayollar, o‘rta yoshli erkaklar, cholu kampirlar hammasi bir xil — yorqin rangli yo‘l-yo‘l matolardan kiyim kiyadilar. Boysun do‘ppilari o‘zining oddiy gullari, quvnoq ranglari bilan Urgut do‘ppilarini eslatib yuboradi”⁶⁷.

6. Havaskorlik raqs san‘ati

O‘rta Osiyoning o‘zbeklar va tojiklar istiqomat qiladigan hududlari san‘atida havaskorlar muhim o‘rin tutganlar. Professional bo‘lmagan, lekin pulga san‘atini namoyish qiladigan raqqoslar, qo‘shiqchilar va cholg‘uchilar faoliyatini “yarim professional” deb atash mumkin.

Havaskor raqqoslar professional raqqoslarning raqslarini ijro etganlar va taniqli yoki unchalik taniqli bo‘lmagan professional artistlar turli sabablarga ko‘ra kela olmagan joylarda ularning o‘rnini bosishga harakat qilganlar.

Keksalar va tarixiy-maishiy materiallar guvohlik berishicha, XIX asrda “erkin” raqqoslar va qo‘shiqchilar juda kam bo‘lgan. Erkaklar uchun ayollar libosida raqs tushadigan Bachchalar, qo‘shiq aytib, raqs tushadigan Yallachilar, ichkarilarda ayollar davrasida raqs tushadigan Raqqosalar deyarli barchasi shahar, hatto qishloq boylari yoki ustozlarning mulki hisoblangan. Bunday artistlarni biror tadbirga taklif qilish uchun ularning “xo‘jayini”dan iltimos qilish va ikki baravar — artistning o‘ziga va xo‘jayiniga — pul to‘lash kerak bo‘lgan. Ma‘lum bo‘lishicha, XIX asrning 80-yillarida Buxoro amiri barcha professional raqqoslarni hisobga oldirib qo‘ygan ekan. Saroy qoshida “bachchalar polki” tashkil etilgan. Arkda ro‘yxatga olingan artistlar ishlab topgan pulining katta qismini amirlik xazinasiga topshirishlari lozim bo‘lgan.

⁶⁷ Mahkamova S. Tkani Baysuna. Toqlik xalqlar raqslari VII umumjahon festivaliga bag‘ishlangan buklet. “Shalola” xalq raqs dastasi. — T., 1975.

Raqqoslarni faqat amaldorlar orqali taklif qilish mumkin bo‘lib, ularga ham haq to‘lash kerak bo‘lgan.

O‘zbek havaskor raqslari — syujetsiz, yakkaxon, “toza” raqslardir. Ular “toza” tuyg‘ularni aks ettirib, hoh u to‘laqonli asar bo‘lsin, hoh u birgina doirada chalingan ritmik pyesa bo‘lsin, musiqaning mazmunini ifodalagan. Havaskor raqslarning mazmuni tuyg‘ular, ehtirosalar, kechinmalar bo‘lib, ular oyna kabi professional raqqoslar repertuarini aks ettirgan.

Turli hunarmandlar, mayda savdogarlar, hatto dehqonlar va ichkari hovli ayollari ham havaskor bo‘laverganlar. Buning ustiga, yetuk yoshda yangi kasb o‘rgangan erkaklar o‘zlarining asosiy kasblarini tashlamay, faqat to‘ylar mavsumida san‘atkorlik qilar edilar; ayollar ham shunday, “mavsumiy” ishdan bo‘sh paytlarida o‘zlarining asosiy hunarlari bilan shug‘ullanganlar. Aksariyat hollarda havaskorlar ko‘pchilikning ko‘ziga ko‘rinishdan oldin o‘z holicha, biror taniqli bachcha yoki yallachiga taqlid qilib yurganlar. Tomoshabin uchun raqs tushib, qo‘shiq aytishni boshlagan havaskorlarni ko‘pchilikka tanilib qolgan boshqa havaskor yoki hatto professional artist ham otaliqqa olganlar. Afsuski, otaliq ham beg‘araz, xolis bo‘lmagan.

Farg‘ona, Buxoro, Xorazmda havaskorlarni o‘rgatish usuli muayyan raqs harakatlarini ko‘p marotaba qaytarish qonuni asosiga qurilgan. Bunday o‘qitish usuli faol, sabotli kishilarga ayniqsa yordam bergan. Agar mushaklar, ovoz pardalari, eshitish qobiliyati yordamida raqs va ritmlar xotirada qolsa, yangi raqqos dunyoga keldi deyavering. Kishida shu xususiyatlar mavjud bo‘lsa-yu, ko‘rinmagan bo‘lsa, harakatlarni qaytarish tizimi ularni yuzaga chiqarib, rivojlantirib yuborishi mumkin. Mana shu qaytarish usulida xotira muhim o‘rin tutadi, bunda faqat aqliy xotira emas, balki raqqos artistlarga xos “mushaklar xotirasi” nazarda tutiladi.

Havaskorlik raqs san‘atining badiiy tamoyillari nimalardan iborat? **Soddalashtirilgan texnika bilan ijro etilgan professional raqs — havaskor raqslardir.**

XIX asrda o‘zbek havaskorlik san‘ati keng tarqalganligi tufayli, 80-yillarda Turkistonga kelib o‘rnasha boshlagan ilg‘or fikrli rus fuqarolari gazeta va jurnallarda o‘zbek raqsiga bag‘ishlab yozgan ilk maqolalarida ko‘plab chalkashliklar vujudga keldi. Bu materiallarda professional raqqoslar va xalq o‘yinchilari va havaskorlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar adashtirib yuborilganligi kelgusida san‘atshunoslar yo‘l qo‘ygan qator xatoliklarga sabab bo‘ldi.

7. Tarixiy raqs

Ma‘lumki, o‘zbek xalqining turmushi qadimda ham, feodalizm davrida ham, so‘nggi asrlarda ham juda og‘ir bo‘lgan. O‘tgan davrlar me‘morchilik san‘ati yodgorliklari nafaqat xalqning boy tasavvuri va iqtidorini, balki uning sabr-toqatini ham aks ettiradi.

Matni, ayniqsa, ohangi insonning abadiy sog'inchlarini, pinhona umidsizligini, qalb dog'ini ifodalovchi qo'shiqlar hozirgi kunda deyarli unutib yuborilgan, lekin ular hanuzgacha mavjud.

Bir qaraganda raqs faqat xursandchilikni ifoda etadigandek tuyuladi, chunki raqs — inson tanasining quvonchdan harakatlanishidir, deydilar. Raqs ritmining o'zi kishilarga shodlik va g'ayrat baxsh etadi.

Lekin aynan raqslarda, mavhum harakatlar yoki mimik sahnalarda bir "tarixiy" sir yashiringan bo'ladi. Mana shu sirni ocha bilsangiz, xalq turmushidan biror ma'lum yoki noma'lum voqea-hodisani tiklay olasiz.

"Halima esavoy"⁶⁸ qishlog'i nomining o'zi bir doston. Bu nomni aynan tarjima qilish qiyin: Halima — muloyim, yaxshi degani, Esa — qonun, tartib degan ma'noni anglatar ekan, Voy — bu qalb nidosi. Qishloqning nomi xuddi: "Yaxshi qonunlar, qaydasiz?" deb so'rayotgandek.

Aynan mana shu qishloq ahli qadimiy mardikorlar raqsi — "Oyoqyalang"ni hanuzgacha eslaydilar. Bu raqsni o'z tomorqasida ishlarni tugatib, mablag' topish niyatida har mavsum Buxoroga qatnagan shu qishloq mardikorlari ijro etgan ekanlar. Mardikorlar yalangoyoq ishlab, yo'llarda ham yalangoyoq yurganlar. Oilasi bilan xayrlashayotganda ham yalangoyoq raqsga tushganlar. Egnilariga oq bo'zdan yaktak va shalvar kiyganlar.

Raqs ham, "yalangoyoqlar" hayoti kabi, juda oddiy bo'lgan — mardikorlar davra qurib, bir-birlarining yelkalariga qo'llarini qo'yib, aylana bo'ylab oddiy qadamlar bilan, yoki oyoqlarni galma-gal baland ko'targan holda raqs tushganlar.

O'rganilgan tarixiy manbalar Buxoro viloyati aholisining uzoq davom etgan isyonlari haqida ma'lumot beradi. Asosan qashqadaryoliklar — kosonliklar va shahrisabzliklar VIII asrda bosqinchilarga bo'ysunishni istamaganlar. 776-yildan boshlab qariyb 15 yil davomida "oq ko'ylakliklar" xalq orasida Muqanna nomi bilan mashhur bo'lgan Hoshim ibn Hakim boshchiligida qator qishloqlarni o'z qo'llarida tutib turganlar.

Afsonalarda hikoya qilinishicha, ko'ngilli askarlar o'z qishlog'ini tark etib, ozodlik uchun navbatdagi jangga jo'nash oldidan oppoq kiyimlar kiyib, yalangoyoq holda hamjihatlik raqsini, insonlar va fuqarolar birligi raqsini ijro etgan ekanlar. Oq ko'ylakli yalangoyoq bu insonlar o'z erki uchun, o'z vatani va turmush tarzi uchun jonlarini ham ayamaganlar. Shunisi qiziqarliki, Al-Yaqubiy degan kishi boshchiligidagi xalq isyoni to'g'risidagi tarixiy manbalardan birida Muqanna Hakim al-A'var, ya'ni Hakim Birko'z deb tilga olinadi. Koson tumani qishloqlarida hozirgi kungacha "Birko'z" raqsi ijro etiladi.

Bu raqs insonning jismoniy kamchiligi ustidan kulish emas, balki sho'xchan, quvnoq o'yindir. Raqqos bu raqsni ijro etayotganda mushaklari kuchini, chaqqonligini namoyish etib, tomoshabinlarni zavqlantiradi.

Hozirgi kungacha yetib kelgan bu raqslarda o'sha uzoq, lekin xalq uchun unutilmas sakkizinchi asr voqealari berkinmaganmikan?!

"Qarg'alar" — andijoncha erkaklar ommaviy raqsi bo'lib, hozirgi kunda u hazil ma'noga ega. Bir ko'cha yoki bir mahalla yigitlari qator ketma-ket bo'lib turib oladilar, chakmonning etagining bir uchini qayirib, belboqlariga qistiradilar, keyin bir-birlarining tirsaklaridan tutib, tovonlari ko'tarilgan holda cho'kkalab oladilar. Ko'cha bo'yiga to'plangan tomoshabinlar qo'shiq aytib, qarsak chala boshlaydilar. Ularning qo'shiqlari muayyan insonlarning tanqidga loyiq qiliqlari ustidan kuluvchi mashhur laparlardan iborat bo'ladi. Shu yerning o'zidayoq yangi-yangi laparlar ham tug'ilaveradi va lapar aytuvchilar shu zahoti uni ilib olaveradilar.

Raqqoslar ilon izi hosil qilgan holda bir mayda, bir yirik qadam tashlab, zanjirni uzmay harakat qiladilar.

Taniqli o'zbek folklorchisi Muzayyana Alaviya qadimiy xalq laparlari to'plamida yozishicha, bu laparlarda XVI asr bosqinchilari va ularning boshchisi Shayboniyxon kulgi tig'i ostiga olingan. Balki undan ham qadimiy bosqinchilar shu laparlar qahramoni bo'lishi mumkin, chunki X asrda ham bosqinchilar to'dalari boshchilari orasida Shayboniyxon degani bo'lgan!

Afsonalarda aytilishicha, "Qarg'alar" lapari juda zaharxandali bo'lib, uning ko'p misralari lapar qahramonlariga misoli tamg'a bo'lib bosilgan. Raqqoslar ham, qo'shiqchi tomoshabinlar ham, agar tomosha paytida hokimiyat vakillari tomonidan qo'lga tushgudek bo'lsa, qattiq jazolangan va hatto qatl qilingan! "Qarg'alar" esa og'izdan-og'izga o'tib yashab kelavergan.

Koson dashtlarida XX asrning 20-yillarida erkaklar qip-qizil, qavilgan choponlar va qip-qizil, baland poshnali etiklar kiyib "Chapandoz" raqsini ijro etganlar. "Chapandoz" ommaviy raqs emas, balki ommalashgan raqs bo'lgan, ya'ni uni ko'pchilik bir bo'lib ijro etgan va har bir ijrochi o'zining xohish-istagini, kuchini, epcilligini namoyish qilgan. Bu raqs jangga kirishdan avval ijro etilgan...

⁶⁸ Qarshi viloyati, Koson tumani.

IV. IJROCHI XABARCHILAR

Qadimiy o'zbek san'ati tarixida maqom raqsi ijodkorlari uzoq muddat davomida raqs shakllarini to'plash, saralash va sayqal berish shug'ullangan, ularni tizimlashtirgan kishilarning nomi saqlanib qolmagan. Biroq, bizga ushbu bebaho merosni o'zlaridan oldingi avlodlardan qabul qilib, uni o'nlab yillar va asrlar mobaynida ko'z qorachig'idek saqlab kelgan ko'pgina ijrochilarning nomlari ma'lum. Mashhur ustalar, an'anaviy raqs ijrochilari va musiqachi-akkompaniatorlar — Yusufjon qiziq, Ahmadjon Umurzoqov, Lutfixonim Sarimsoqova, Raim Olloberganov, Aka Buxor, Xodiyatxon Hamdamova, Qimmatxon Sultonova, Sharofat To'rayeva, Matlatif Sa'diyev, Xudoybergan Abdurahmonov, Mixal xonim Xaimova, Boqojon Saydullayev, *Tamaraxonim* va boshqalar XIX asr oxiri — XX boshlarida yashab o'tgan o'nlab taniqli raqs ustalarining nomlarini aytishgan. Biroq, birinchi manbalardan olingan ushbu ma'lumotlar ham afsonaviy tusga ega.

Raqs san'atini qadrlab, uning ahamiyatini tushungan, raqs ustalarini hurmat qilgan xalqning san'atga munosabatidan afsonalar dalolat beradi. Bunday rivoyatlar raqsnı ijro etish usullari, mashhur raqqoslarning kiyimlari to'g'risida ma'lumot beradi. Shu sababli afsona-rivoyatlarni to'laligicha, barcha tafsilotlari bilan berishga harakat qilamiz.

O'zbek raqs san'atining birinchi tadqiqotchisi I.G.Baxta XIX asr oxiri — XX boshlaridagi raqs san'ati to'g'risida muayyan miqdordagi ma'lumotlarni shoir Xislatdan olgan. Shoir Toshkent va Farg'ona vodiysi mashhur raqqoslari to'g'risidagi ma'lumotlarni maxsus to'plagan. 30-yillarda ish boshlagan Baxtaning o'zi Farg'ona va Toshkent qadimgi raqqoslarining biografialari va raqs usullari to'g'risida ma'lumot to'plagan⁶⁹.

1953-yildan boshlab mazkur asar muallifi XX asr boshlari va 20-yillarda Farg'ona vodiysi, Xorazm va Buxoroda faoliyat boshlagan taniqli raqqoslar bilan uchrashib, muloqot qilgan.

1. Farg'ona vodiysi

Maqaylik (Usta Muhammadjon; 1845-yilda Qo'qon yaqinidagi Makki qishlog'ida tug'ilgan, 1935-yilda vafot etgan) — XIX asr oxiri — XX boshlaridagi mashhur raqqos. Aytishlaricha, 60-yillarda uning mashhurligi shu darajada

⁶⁹ Baxtaning ko'rsatilgan asarlari

bo'lgan ekanki, shahar va tumanlardagi mahalla-qo'rg'onlar raqqosni xalq bayramlariga taklif etish huquqini olish uchun o'zaro mushtlashishgacha borishgan ekan. Uning shuhrati oradan yigirma yillar o'tib ham so'nmagani, 80-yillarda Maqaylikning san'atini tomosha qilish uchun ulug' o'zbek demokrat shoiri Muqimiy ham raqqos ishtirokidagi yig'inlarga kelar ekan. Shoir qo'qonlik raqqosning san'atiga bag'ishlab she'rlar ham yozgan.

Bir necha o'nlab yillar davomida u bilan birga taniqli musiqachilar Ro'zivoynog'orachi va Shodmon doirachilar ishlashgan. Ushbu fakt juda ham muhim, chunki raqs san'ati bilimdonlarining aytishlaricha, Maqaylik o'zining xoreografik kompozitsiyalariga o'zi musiqa bastalagan, ularni "Katta o'yin" usuli ritmik asoslariga moslashtirgan. U tomoshaning raqs qismlariga refren sifatida kirgan qo'shiqlar uchun she'rlar ham to'qigan. U har bir dasturiga o'z she'rlaridan tashqari Muqimiy she'rlarini ham kiritgan.

Maqaylik "Katta o'yin" usulida raqslar ijro etgan. Chunki uning tomoshalari umumxalq bayramlarida, keng shahar maydonlarida yoki shahardan tashqaridagi dalalarda o'tgan. Uning "lirik" qahramoni irodali, mag'rur, jur'atli, faol bo'lgan, ya'ni u Personajni emas, haqiqiy Qahramonni ifodalagan. Maqaylikning raqs texnikasi yuksak mahoratli aniqlik, raqs vositalarini tanlashdagi nozik didi bilan ajralib turadi.

Aytishlaricha, Maqaylikni saroy a'yonlari va Qo'qon xonlari yoqtirmaganlar, chunki u xonlar saroyida tomoshalar ko'rsatishni butunlay rad etgan. Har safar, "saroy" bilan navbatdagi mojarodan so'ng Maqaylik qadrdon qishlog'iga bosh olib ketar va xalq uni u yerdan qo'lga ko'tarib olib kelar ekan...

Hamdam (XIX asrning 80-yillarida Toshkentda tug'ilgan, inqilob arafasida vafot etgan).

Aytishlaricha, Hamdam juda erta shuhrat qozongan, u shaxsiy takliflarga ko'ra oilaviy to'ylarda ishtirok etishni istasa ham, shunchalik ko'p odam to'planganki, baribir keng maydonga chiqishga to'g'ri kelgan. Bir necha yil o'tgach, muvaffaqiyatli chiqishlardan so'ng katta mablag' to'plagan Hamdam Toshkent hokimining istagiga qarshi ravishda o'z teatrini ochgan va u Shapito sirkida joylashgan.

Raqqosning tomoshalarida doimiy akkompaniatorlar guruhi: to'rt doirachi, ikkita nog'orachi va sakkizta vokalchi ishtirok etgan, muayyan paytlarda surnay va karnay qo'shilgan. Ba'zida raqqosning o'zi ham qo'shiq aytgan va qo'l, bosh, yelkalari bilan oddiy harakatlarni bajargan. Hikoya qilishlaricha, Hamdam turli usullarda: Katta va Kichik raqs shakllarida raqslar ijro etib, o'ziga xos raqs-vokal spektakllarini yaratgan.

Hamdamning har bir dasturidagi barcha nomerlar turli kostyumlarda ijro etilgan, kiyimlar gazlamasi, rangi, ranglar mutanosibligi, zargarlik buyumlarining

aniq tanlanishi raqs obrazini yaratishga xizmat qilgan. Xislatning so'zlariga qaraganda, kostyum raqs hissiyotini ifodalagan.

Hamdam raqs dasturini ijro etayotganda, qo'shiqchilar yarim doira hosil qilishgan, vokalchilar o'rtasida odam bo'yi baravar patnislar ko'targan artistlar ijrochi uchun fon yaratganlar. Har bir usul muayyan rangdagi yoki turdagi me'aldan tayyorlangan (oltin, kumush, mis; qora, alvon, yashil, sidirg'a yoki gulli naqshli) qalqonlar bilan bezatilgan. Ushbu dekoratsiya juda yaxshi yoritib turilgan. Raqsning mazmunidan kelib chiqqan holda muayyan rangdagi patnislar ishlatilgan va shamlar, kichik va katta moychiroqlar, mash'alalar bilan yorug'lik berilgan.

Tomosha bir necha soat davom etgan.

Hamdam lirik-epik mavzu doirasida kompozitsiyalar yaratgan. Uning Katta raqslarni ijro etish usuli e'tiborning bir narsaga qaratilganligi, keng, ritmik jihatdan aniq qadamlar, imo-ishoralar, lo'nda tasvirlangan gavda holatlari, bir joyda turib yoki harakatlangan holda, lekin sekin aylanishlar bilan ajralib turgan. Lirik "Kichik" raqsaralari dalkashligi, barmoqlar, qosh, kipriklarning nozik harakatlari, yengil va jo'shqin qo'l harakatlari, oyoq uchidagi o'ziga xos mayda qadamli yugurishlar ajralib turgan.

Tomoshabinlar Hamdamning tomoshalari to'g'risida dostonlarni eslatuvchi go'zal ertak va rivoyatlarni so'zlayotgandek hikoya qilganlar.

Aytishlaricha, Hamdam barcha ishlab topgan pullarini qimmatbaho gazlamalardan tikilgan liboslar va taniqli zargarlar ishlagan ajoyib zeb-ziynatlarga sarflagan ekan.

Xislatning hikoya qilishicha, Hamdamning sof oltindan tayyorlangan "Zar kokili" juda og'ir bo'lgan; raqqosning oltindan ishlangan va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan libosi shunchalik qimmat bo'lganki, politsiya unga qurolli soqchilar berishga majbur bo'lgan, uning o'ziga ham "miltiq ajratishgan". Bu fakt o'zbek san'atkorining ijodiga hurmat emas, balki amaldorlarning boylikka sajda qilishi to'g'risida guvohlik beradi, albatta.

Hamdam juda yosh, iqtidori ayni kamolotga etgan davrda vafot etgan. Xislat: "Hamdam raqslari o't-alangaga to'la edi, u shu alangada kuyib kul bo'ldi", deb yozgan edi.

Baratov Solih Xon Xo'ja (1982-yil Toshkentda tug'ilgan, 1943-yilda vafot etgan) — "Xona bazm" Kichik raqsaralarning ajoyib ijrochisi bo'lgan.

Suvuqchining o'g'lidagi qobiliyatni o'z mahallasidagi musiqachilarga homiylik qiluvchi davladmand Saidazimboy kashf etgan. U Solihni ota-onasidan sotib olib, ajoyib pedagoglar — doirachi Tosh Usta va raqqos Ma'munjonga shogirdlikka bergan. Solih Baratov 13 yoshidan shaharning boy xonadonlari mehmonxonlarida tomoshalar ko'rsata boshlagan va Saidazimboyning mulki hisoblangan. Asr boshida Baratov raqs faoliyatini to'xtatib, boyni homiyligidan chiqadi va erkin musiqachi-doirachiga aylanadi. U uzoq vaqt davomida taniqli

qo'shiqchi Ashur A'lam Mahramov (undan ko'p narsani o'rganadi) va Qo'qondan kelgan doirachi Karimbekov bilan birga ishlaydi. XIX asrning 90-yillarida Solih Xon Baratov Saidazimboyning xususiy raqs maktabida juda ko'p sonli shogirdlar bilan ishlaydi. Uning shogirdlari orasida chimkentlik Qurbon Hakimov va toshkentlik Ismat Ismatov mashhur bo'lgan.

Solih Xon Baratovning shoh dasturi "Katta o'yin" usullari va o'zining musiqiy-ritmik asarlaridan tuzilgan kompozitsiya bo'lgan. U quyidagi tartibda tuzilgan: "Katta o'yin"dan I Gul o'yin (6 ta usul), Furqat so'zlaridan tuzilgan vokal naqoratli; II Shox (6 usul); III mashhur Dilxiroj musiqasi va nihoyat so'ngi IV qism "Sharaf" deb nomlangan 2 ta original usuldan iborat bo'lgan.

I.G.Baxta shunday yozadi: "XIX asrlardagi Xona bazmning yorqin vakili Solih Xon Baratov bizga Toshkentda 1936—1937 va 1941—1943-yillarda nafis ijro namunasini ko'rsatdi. Biz uning ijrosida "Gul o'yin", "Doromand", "Qashqarcha" raqsaralarni tomosha qildik. Uning raqs novellalari yengil va hissiyot bilan ijro etilar, og'ir mukammallikdan, uslubchilikdan xoli edi. O'sha davrdagi ko'pchilik Xona bazm ijrochilari detallarni mukamallashtirish raqsning mazmun va maqsadini tashkil qiladi deb hisoblashar edi.

Solih Xonning ijrosi nazokat va harakatlarning qandaydir "beparvo" jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, uning raqsi nazokatli va tantanali edi. Baratovning san'ati Xona bazmning barcha yaxshi ijrochilari va ularning xar biri uchun alohida san'at namunasidir.

1936-yilda Toshkentda Yusufjon qiziq Shakarjonov bilan Kichik raqsaralarning bir taniqli ijrochisi raqsini tomosha qildik. Yusufjon qiziq unga xos bo'lgan zukkolik bilan "Uning raqsi — yaxshi palov, biroq u oshga shakar sepib chiqibdi..." degan edi.

Satnak

Tamaraxonim hikoya qiladi (1916-yil)⁷⁰.

"Men Xo'ja Mag'iz va Satnak Mozor ziyoratgohlariga ko'p borar edim. U yerlarda shifobaxsh buloqlar bo'lib, katta sayillar uyushtirilardi.

Satnak Mozordagi iyun oqshomlarining birida men birinchi bor Usta Olim Komilovni ko'rdim va tingladim.

Biz daraxtzorga yaqinlashib kelganimizda qulog'imga ajoyib tovush eshitildi, bu bolalikdan menga tanish doira tovushi ekanligini darhol anglamadim. Sayil bo'layotgan joyga chopib etib borgunimcha usul-ritmlar o'zgarishi ta'sirida tasavvurimda tug'ilayotgan manzaralar o'zgarib bordi. Men suvloqqa borayotgan tog' kiyiklarini, ularning ortidan tushayotgan mag'rur ona kiyikni ko'rdim; birdan tog'dan daryoga tosh yumalab tushdi, atrofga millionlab tomchilar

⁷⁰ Tamaraxonimning hikoyalari chop etishga tayyorlangan "Tamaraxonim" kitobiga kiritilgan "Esdaliklar"ning bir qismi hisoblanadi.

sochildi va ipakdek o'tlarda yaltiray boshladi; kichkina ko'lining yuzida yengil mavj ko'tarildi; shamol esa boshladi va daraxtlarning shoxlari yerga tegdi... nihoyat doira chalayotgan kishini ko'rib qoldim. Uning yuzidan nur taralar, qo'lidagi doira qushdek tepaga-pastga uchardi.

Usta Olimning qiyofasi uzoq, bir necha o'n yillar davomida saqlanib qolgan. U o'rtadan balandroq bo'yli, qotmadan kelgan; kelishgan, istarasi issiq, kulrang-moviy ko'zli, ko'pincha nigohi istehzoli; soqol-mo'ylovi sarishta, doimo yangi oppoq yaxtak, yangi chust do'ppisini kiyar, teridan tikilgan jigarrang etigini yaltiratib yuradigan kishi edi. Uning beqasam choponi bichimi boshqacha, tor, yopishib turadigan yengli edi. Uning uyida doimo ozodalik hukm surardi.

Lekin eng asosiysi, Ustozning so'zlovchi qo'llari bor edi. Uzun kaftlar va barmoqlar ohanglar mo'jizasini yaratardi. Doira uning qo'lida tashvishli pichirlar, jaranglar, momaqaldiroqdek gumburlardi. Jahonning ko'plab taniqli musiqachilari uning san'atidan lol qolishgan, ot terisi qoplangan yog'och aylanadan "ohanglar simfoniyasi" yaralishidan chindan hayratga tushishardi...

O'sha unutilmas iyun kuni men doirachilar va ularning bachchalari musobaqasiga borib qolgan ekanman. Unda albatta Usta Olim va uning bachchasi Ota Xo'ja (Saidazimov) g'olib chiqdi. Ota Xo'ja baland poshnali etikda, qavilgan va belidan qattiq bog'langan choponda raqs tushardi. Uning raqsidagi bironta harakat men ilgari ko'rgan raqslardagiga o'xshamas edi. To'g'rirog'i, harakatlar o'sha-o'sha, biroq raqs tushish uslubi mardonavor, shiddatli bo'lib, ayollarcha harakatlar, qo'l qimirlatishlar, nozu-karashma bilan bosh burishlar, bachchalarning boylarni zavqlantiruvchi ataylab uyali qarashlari yo'q edi. Mening ham xuddi Ota Xo'jaga o'xshab raqs tushgim keldi. Men bu erkaklar raqsi ekanligini tushunardim, biroq xuddi shunday: shiddat bilan, erkin, mushaklarim ohanglar kuchi bilan to'lib borayotganligini his etib, osmonda yulduzlar charaqlab turganidan, daraxtlar shoxlaridagi yashil barglar yaltirayotganidan, dalalarda alvon lolalar ochilganidan quvonib raqs tushgim keldi.

Ota Xo'ja va Usta Olim raqs san'atini mukammal egallagan yuksak mahoratli san'atkorlar edi. Ota Xo'ja maydonda charx yasab, katta masofani dam olmasdan uch-to'rt marta aylanib chiqqanda yuzi ko'rinmas, maydon markaziga egilgan gavdasi inson tanasiga emas, quyunga o'xshab ketar edi. Uning raqsiga qarab nima uchun o'zbeklar bu murakkab aylanishlarni charx — sahodagi quyun deb atashganini tushunasiz.

Uning erkakona, mardona raqsi va Usta Olimning mahorati meni birinchi bor va bir umrga maftun etdi".

Usta Olim Komilov (1875-yilda Marg'ilonda tug'ilgan, 1953-yilda Toshkentda vafot etgan) — atoqli musiqachi doirachi, usulchi — "Katta o'yin"ning ritmik-

plastik usullari posboni, raqs va doira chalish pedagogi. Usta Olim Komilov maqom raqslarining Farg'ona maktabini davom ettirganlardan biri bo'lib; inqilobdan keyingi yillardagi o'zbek sahna raqsi yaratuvchilaridan biri hisoblanadi.

Yusufjon qiziq Shakarjonov (1869-yilda Marg'ilonda tug'ilgan, 1959-yilda shu yerda vafot etgan) — atoqli o'zbek an'anaviy Qiziqchi teatri va qo'g'irchoq teatri artisti, askiyaboz, doirachi, usulchi va raqqos.

Katta klassik raqsning "Katta o'yin" turkumi, Xona bazm Kichik raqlari Farg'ona maktabi va teatr tomoshalaridagi satirik plastik raqs-sahnalar ustasi. Uning "Katta o'yin" Maqom usullaridan tuzilgan Katta raqsni ijro etish uslubi mardona olijanoblik, noyob temperament va barcha harakat shakllarining mohirona ijro etilishi bilan ajralib turadi. Yusufjon qiziq ko'pgina raqsni nafis ijro etgan, raqs liniyalarini salobati, to'xtovsiz bir-biriga o'tib turuvchi raqs frazalari hammani xayratga solgan.

I.Baxtaning materiallaridan: "Yusufjon qiziq barcha o'zbek musiqa asboblarini egallagan, biroq doira va nog'ora chalishda alohida mahoratga erishgan. Agar uning mahorati Usta Olimniki bilan solishtirilsa, shuni aytish kerakki, Komilov ijrosining aniq va nafis ekanligiga qaramasdan, uning ijrosidagi ohanglar Yusufjon qiziqning ehtirosli ijrosidagiga nisbatan quruqroq chiqadi.

Yusufjon qiziq — ulkan temperament sohibi edi. Uning doira chalishi, harakatlari va raqqosona imo-ishoralari haqiqatdan ham ulug'vor, "ritmik irodasi" ning kuchi tomoshabinni butunlay lol etib, buyuk iste'dod ne'matidan bahramand etar edi.

(L.Avdeyeva)

Ma'lumki, o'tgan asr oxirlarida Yusufjon qiziq Shakarjonov O'rta Osiyo, Eron, Afg'oniston va Turkiyada ko'plab tomoshalar ko'rsatgan. 1909-yilda Petergof yozgi teatri Peterburglik xoreograflarni o'z san'ati bilan lol qoldirgan.

Usta Olim Komilov va Yusufjon qiziq Shakarjonov "Katta o'yin" farg'onacha raqs Maqomini bizning davrimizgacha yetkazib kelganlar va ular 30-yillarning oxirida I.Baxta va Ye.Romanovskaya tomonidan yozib olingan. Ular yangi raqqoslar avlodiga Farg'ona vodiysidagi barcha raqs usullarini "topshirganlar".

Mahkam Hofiz (1868-yilda Qo'qonda tug'ilgan, 20-yillarning oxirlarida katta inqilobiy xalq bayramida doirada "Katta o'yin"ni ijro etayotgan paytda jon bergan). Mahkam hofiz qo'qonlik mashhur raqqos va qo'shiqchi Madumar Hofizning shogirdi bo'lgan. Madumar Hofiz o'z navbatida afsonaviy o'zbek artisti va raqqosi Zebo Parining shogirdi va davomchisi edi.

Mahkam Hofiz uzun bo'yli, alp qomatli kishi bo'lgan: jismoniy baquvvatligi sababli keng maydonlarda Katta o'yinlarni ijro etishda o'ziga xos o'ringa ega. Uning raqslarini Yusufjon qiziq o'z yo'lida "ruh va iroda" zaifligini chirpirak qilib uchirib yuboruvchi quyunlarga o'xshatgan. Mahkam hofizning barcha raqs qahramonlari haqiqatdan ham Botiru Bahodirlar bo'lgan.

Asrimiz boshlarida raqqoslik faoliyatini to'xtatib, doirachilik qila boshlagan Mahkam o'ziga diametri 1 metrga yaqin bo'lgan doiralar yasab olgan. Uning Qo'qonning markazida turib chalgan doira tovushi yaqin atrofdagi qishloqlargacha yetib borgan, tog'larda aks-sado bergan.

Kamolxon Muhammadjonova (1873-yilda Qo'qonda tug'ilgan, 40-yillarning oxirlarida vafot etgan) — Ota Xo'ja Saidalimovning shoirdi, 11 yoshidan mustaqil tomoshalar ko'rsata boshlagan.

I.G.Baxta yozadi:

“U mohir yallachi bo'lgan, turmushga chiqib, beva qolgan. Erining vafotidan so'ng Ota Xo'ja rahbarligida ishlay boshlagan. Farg'ona vodiysida yallachilar erkak ustozlar qo'lida ishlagan va o'qigan, va hatto ular bilan birgalikda va jo'rlikda to'ylarda erkaklar davrasida ochiq yuz bilan tomosha ko'rsatgan. Biroq yallachi raqsni tugatishi bilan yuzini yopgan va pulni yig'ib olgach, davradan chiqib ketgan”.

Avdeyeva yozadi:

Kamolxon Xona bazm va Katta o'yin shakllarining iqtidorli ijrochisi bo'lgan. Bu raqslar ichkari hovlilarda katta gulxanlar yorug'ida ijro etilgan. Raqqosalar asosan “Katta o'yin”ning “ayollar varianti”ni, ya'ni tuzilishiga ko'ra Gul o'yin bo'limi usullariga yaqin bo'lgan maxsus tanlangan usullarda raqslar ijro etishgan.

Hikoya qilishlaricha, asrimiz boshlarida **Farg'onada Nazirxon degan** go'zal yashagan ekan. Balki uning haqiqiy ismi boshqacha bo'lgandir, biroq u yashagan uyning xo'jayini, uning qo'shiqlarini tinglagan va raqslarini tomosha qilgan barcha kishilar uni shu nom bilan atashgan. Nazirxonni sotib olgan xo'jayini juda boy kishi bo'lgan, biroq raqqosani sotib olguncha boy bo'lgan-bo'lmaganligi noma'lum. Uning raqslari hech kimning esida qolmagan, bu to'g'risida keksa kishilar o'z otalaridan eshitganlarini hikoya qiladilar. Nazirxonning qo'shiqlarini tinglagani butun Turkistondan muxlislar to'plangan, xo'jayin Nazirxon raqs tushishini e'lon qilgan maxsus kunlarda Farg'onaga Iroq, Afg'oniston, Kavkaz, Hindiston va Xitoydan boy savdogarlar yetib kelishgan.

Aytishlaricha, Nazirxon ipak parda ortida qo'shiq aytgan, uning yuzini raqs kechalari uyushtirilgan maxsus oqshomlardagina juda kam kishilar ko'rgan. Shunday kunlarda raqqosa gilam va gullar bilan bezatilgan, “boylarning boylari”dan iborat tomoshabinlardan yigirma metrlar uzoqlikdagi sahnaga chiqqan.

Aktrisasi yaxshi tanigan Yusufjon qiziq shunday hikoya qiladi: “Nazirxon kuylaganda yuraklar uvishib ketar, u tinglovchining barcha g'am-alamlaridan xabardordek tuyular edi; uning tovushi goh faryod urar, goh g'am to'g'risida yonib kuylar, gohida sekin shivirlashgacha pasayar va bu shivirlashda baxt

to'g'risidagi shunchalik o'tli orzu, shunchalik og'riq bor ediki, tinglovchilar qalbi yorilib ketishga tayyor turar edi. U ayniqsa Tanovarni juda yaxshi ijro etar, aytishlaricha, uning o'zi so'z yozib, musiqa bastalagan ekan. Nazirxon sochlarini yozib, qomatiga yopishib turadigan qora baxmal kamzulda raqs tushar edi... U taqinchoqlarni yoqtirmas, uning zeb-ziynati gavhardek yonib turgan ko'zlari edi... Bir kuni juda boy bir savdogar Nazirxonning san'atidan ta'sirlanib, unga qimmatbaho toshlar va oltin bilan to'la chinni tovoq sovg'a qilgan ekan. Biroq Nazirxon sovg'ani rad etib, savdogardan uning ko'zidan oqqan bir tomchi yoshni hadya qilishni so'rabdi...

Nazirxon faqat g'amgin qo'shiqlarni kuylar, g'am va alamga to'la raqslarni ijro etar ekan. Uning uzun kipriklari ostidagi g'amga to'la yirik ko'zlariga ko'zi tushgan tomoshabin oh urar, raqqosaning qo'llari ham oh chekayotgandek, qalbi esa og'riqdan tipirchilayotgandek tuyulardi. Birdaniga qo'llari sekin pastga tushar, yelkalar sekin-sekin silkinar, u sekin aylana boshlar, ko'zlar yumuq, tana jonsizdek tuyular edi...”

O'sha davrda savdogarlar shahri, boy va quvnoq shahar bo'lmish Qo'qonda barcha bayramlarga, hatto kambag'al ayollar yig'inlariga ham taklif etadigan sevimli raqqosa — **Cho'ntak bachcha** yashagan ekan. Unga juda kichik va bejirim qomati uchun shunday nom berishgan. Cho'ntak bachcha patnisda ham raqs tusha olgan, uning raqsida bir jahon alanga, baxt va sho'xlik bo'lgan. “Shumlik va qiziqqonlik, xushchaqchalik, quvlik va shodonlikka boy Cho'ntak bachcha tonggacha raqs tusha olar, uning raqsi eng g'amgin kishini kulishga majbur qilar edi. Uning raqslari g'am-alamning malhami edi...”

Qo'qonlik yana bir raqqosa — **Adalxon** ham o'z davrida juda mashhur bo'lgan. Uning o'ziga xos usuldagi raqslari xalq tili bilan aytganda soddaligi bilan ajralib turar, biroq chuqur ma'noga ega bo'lib, insondagi tabiiylik, ko'ngilning qimmatli fazilatlarini namoyon etar edi. Qo'qonlik raqqosalarga xos bo'lmagan libosi Adalxonning olijanob soddaligini ko'rsatib turgan: u ochiq rangdagi shoyi ko'ylak ustidan qomatiga yopishib turuvchi oq kamzul kiyar, boshiga oq ro'molni durra qilib qiya o'rar edi. Uning yagona taqinchog'i mayda marvariddan bir necha qator qilib terilgan xalqa ziragi bo'lardi. Adalxon Sharqning buyuk shoirlari she'rlariga raqslar ishlab, tana harakatlari bilan ularning falsafiy ma'nosini ifodalashga urinardi. Adalxonning muxlisleri uning ismiga “otin” so'zini qo'shib ishlatishardi...

Tamaraxonim o'z esdaliklarida 1916-yildagi boy bayramda o'zi guvoh bo'lgan o'sha davr afsonaviy raqqosalari tomoshalari to'g'risida quyidagicha yozgan:

“Biz juda po‘rim, hashamatli kiyingan yallachilarchilardan ko‘zimizni uzolmasdik. Ularning oldida bizning boy qishloq ayollarining kiyimi ko‘rimsiz tuyulardi.

Men banoras taftadan tikilgan paranjisini yechgan *Adalxonni* ko‘rib qotib qoldim. U kelishgan, baland bo‘yli qomati va gavdasini tutishi bilan boshqalardan ajralib turardi. Uning egnida o‘sha paytda urf bo‘lgan “chuchvara baxmal” duxobadan tikilgan besh bo‘lak matodan bichilgan, beli tor “besh bel” chakmon, etagi zanjir kashtali ko‘ylak, uning ostidan yuqori poshnasi baland, ipak naqshli ikki xil rangli etik ko‘rinib turardi, do‘ng peshonasini shokilali “qirqma farang” shoyi ro‘mol siqib turardi. Bir necha qator marvariddan tikilgan uzun sirg‘alari yelkasiga tushib, ularning yonida zulflari yoyilib turardi. Yonoqlari, quloqlari oldida bodom guli shaklidagi gajaklari yonoqlariga behi urug‘ining eritmasi bilan yopishtirib qo‘yilgan edi. Bo‘ynidagi tilla zanjirning bir uchi soat solingan cho‘ntakchaga solingan, yuzida ajoyib pardoz, ya‘ni grim qilingan edi. Bodom ko‘zlarga surma, qoshlarga o‘sma tortilgan, yuzlarga anor po‘chog‘ining qaynatmasidan qizil surtilgan, lablariga bilinar-bilinmas karmin surilgan. Hamma uzoq, jim holatda Adalxonni kuzatib turdi. Jimlikni dadil dasturxonchining jarangdor ovozi buzdi, u nonlarni tez-tez ushatib, barchani dasturxoniga taklif qildi. Adalxon xina qo‘yilgan uzun barmoqlari bilan uning qo‘lidan piyolani olib, aylantirib bir necha ho‘plam ichdi.

Adalxonning yonidagi sozandalar dutorlarini sozlab, qizitilgan doirani unga tutqazishdi. U doirani avaylab qo‘liga oldi-da, yallachilarga bir qarab qo‘yib, doira chalgancha mag‘rur va erkin ovozda kuylay boshladi.

...Marg‘ilonlik mashhur Adalxon sipo qora baxmal ko‘ylak kiygan, uzun sochlariga bog‘langan kumush soch popugi tovonigacha tushib, jiringlab turardi. Adalxon “Tanovar”ni kuylay boshladi, qo‘shiq matniga yallachilar, uy egalari va hurmatli mehmonlarning nomlarini qo‘shib ayta boshladi.

Adalxon ko‘zlarini yarim yumgancha, past ovozda kuylay boshladi: “Ko‘rmayin bosdim tikonni, tortadurman jabrini, ko‘rsam edim, bosmas edim, tortmas edim dardini”. U so‘zlarni chuqur ko‘ngil dardi bilan aytar, tinglovchilar sekin bosh qimirlatib eshitishar edi. Uning tovushi go‘zal avjiga chiqdi. Hamma joyida qotib qolgan, miq etmasdan tinglar edi...

Dasturxonchi doira chalib, barchani hovliga taklif qildi. U yerda, gurillab yonayotgan gulxan atrofida yallachilar raqs boshlashdi. Adalxon gulxan yorug‘ida sirli sharpadek raqs tusha boshladi, uning ko‘ylaklarida kamalak ranglari aks etardi...

Ko‘chada karnay-surnay ovozlari eshitildi, hamma o‘sha tomonga yugurdi, men esa Adalxondan ko‘zimni uzolmas edim. U ham o‘sha tomonga yo‘l oldi. Paranj yopingan kelinni qarindoshlari mash‘alalar yorug‘ida aravada olib kelishardi. Yallachi qo‘shiq boshladi: “Yig‘lama qiz, yig‘lama, yor, to‘y seniki yor, yor, ostonasi tildan uy seniki, yor, yor. Tog‘da toychoq kishnaydi ot bo‘ldim deb, yor, yor, uyda kelin yig‘laydi yot bo‘ldim deb, yor, yor...”

Namanganliklar Sharofat satang Sobirova degan raqqosani juda yaxshi ko‘rishgan. Dadil, mag‘rur va mustaqil bo‘lgan bu ayol baland poshnali etik, erkakcha chopon kiyib, yuzini yopmasdan bozor aylangan ekan. Uning raqslari ham o‘ziga o‘xshagan mag‘rur va erkin bo‘lgan!

Xislat to‘plagan va I.Baxta qog‘ozga tushirgan, ustalar aytib bergan raqqoslar hayoti to‘g‘risidagi hikoyalar, mazkur kitob muallifi 1950—60-yillarda yozib olgan faktlar unchalik ko‘p emas, biroq ularda Farg‘ona vodiysi va Toshkent mumtoz raqs san‘atini bizgacha yetkazib bergan yirik professional raqs ustalarining nomlari saqlanib qolgan.

2. Xorazm

Karim Olloberganov (1904-yilda Xivada tug‘ilgan, 6 yoshidan o‘qigan, ustози: Qodirbergan bola Olloberganov (1895—1920) — baland bo‘yli, kelishgan, keng yelkali, qo‘llari katta, barmoqlari uzun va kuchli, yurishlari mag‘rur, darrov kishining e‘tiborini o‘ziga tortadigan kishi bo‘lgan. Tomoshabinlar va musiqachilarning e‘tiborini tortadigan musiqa birdaniga to‘xtab, “jarangdor raqs” mo‘jizasi boshlanadi. Qayroqlarni mohirona chalish ritmik kompozitsiyalar yaratilishiga olib kelib, tomoshabinlar va sozandalarni ortidan ergashtiradi. Toshlarning jaranglashi goh shivirlyaydi, gohida tosh ko‘chkisiday gumburlyaydi, asabiylashadi, da‘vat qiladi, do‘q uradi, keyin yana sekinlashib, jazirama peshin paytida ulkan yong‘oq tagidan oqib o‘tgan ariq suvidek jildiraydi... Hech bir ritmik fraza, hech bir akkord bo‘shliqqa singib, yo‘qolib ketmaydi — raqqosning harakatlari ohangga ritmik kaprichchio singari mos kelibgina qolmaydi — yo‘q! — qo‘llar, yelkalarining har bir harakati, tana yuqori qismining ritmik titrashlari, boshning burilishlari, tizzaning yengil va keskin bukilishlari, oyoq uchlarining har qanday harakati — hammasi bir bo‘lib yagona sahnani tashkil qiladi. Qayroqlar tovushi va plastika ehtiros deb atash mumkin bo‘lgan ruhiy holatni ifoda etuvchi yagona obrazni tashkil etadi.

Karim Olloberganov raqs paytida qo‘llari, tana yuqori qismining barcha mushaklari, oyoqlari faol harakatlanayotgan paytda tanasini harakatsiz tutib tutishni bilgan. Birdan to‘xtab qoladi: Qayroq ikki marta shaqillagandan keyin raqqos sekin-asta tizzalarini bukib, o‘tira boshlaydi. Tizzalar taxminan 70 gradusli burchak hosil qiladi, tovonlar o‘rtasida biroz joy qoladi, artist qanchalik pastroqqa cho‘ksa, tovonlar shunchalik balandroq ko‘tariladi. Qo‘llar ham ikki tomondan yuqoriga ko‘tarilib boradi, bittasi ko‘krak oldida to‘xtasa, ikkinchisi yuqoriga ko‘tarilib ketadi, jarangdor ritmlar esa davom etaveradi. Yelkalar goh yumshoqqina, erinibgina titrab qo‘yadi, goh kuchga to‘lib-toshadi. Tana esa ikki tomonga tebranib turadi. Shu o‘tirishda, ya‘ni

chuqur pliyе holatida qayroq bir necha marta qarsillaydi, keyin — sekin ko'tarilish boshlanadi, tana va qo'llar esa raqsdan bo'shamaydi...

Soraxon Olloberganova (1916-yilda Xivada tug'ilgan, ustozi Sheroziy; 1935—1943-yillarda O'zbek Davlat filarmoniyasida ishlagan; O'zSSRda xizmat ko'rsatgan artist) — Qayroq ufori mumtoz ijrosini xuddi o'zidek takrorlaydi, shunday past o'tirishlarni, ya'ni pliyeni bajaradi, qayroqning har bir jarangini tana plastikasi bilan uyg'unlashtira oladi, oyoqlari sho'xchan harakatlarni bajarayotgan paytda tanasining yuqori qismini harakatsiz saqlab turish ham qo'lidan keladi. Lekin u past bo'yli, kelishgan, qaddi raso ayol, yelkalari va qo'llari silliq, chiroyli, barmoqlari tekis va kuchli, yuzi Osiyo miniatyuralaridan ko'chirilgan "madonna"ga o'xshaydi. Uning ijro usuli o'ziga xos sirg'aluvchan keskinligi bilan ajralib turadi: tana yuqori qismi va qo'llarning beto'xtov, uzoq davom etuvchi, yagona harakatlari bir tovush-plastik frazadan boshqasiga o'tishning allaqanday ichki ritmi bilan bo'rttirib ko'rsatiladi.

Uning chuqur pliyega o'tirishlari qandaydir optik mo'jizaga o'xshaydi: keng kiyimlari tomoshabinni uning oyoqlarini ko'rish imkonidan mahrum etadi, raqqosaning oyoqlari "erib ketayotgandek" tuyuladi, go'yo birozdan so'ng uning o'zi ham sekin erib tugaydigandek... Shuning uchun bo'lsa kerak, Soraxon bu o'tirishda uzoq qolmaydi, balki tanasini keskin ko'tarib, davra bo'ylab yugurib harakatlanishni boshlaydi.

Odam Bobojonov (1895-yilda Gurlanda, Sherali mirob qishlog'ida tug'ilgan, ustozi garmonchi Momutxo'ja) — tashqi ko'rinishi va mohir raqslari bir-biriga nomutanosibligi bilan kishilarni hayron qoldirgan. U bo'yi baland, gavdasi katta, qo'llari va oyoqlari ham katta, og'irligi 120 kilo bo'la bo'lib, g'ayritabiiy chaqqonlik bilan, deyarli "vaznsizlik" holatida raqs kompozitsiyalarini ijro etgan, ayniqsa, sekin chuqur pliyega o'tirish paytida tana va qo'l harakatlari plastikasi juda ohangdor bo'lgan. Bobojonov keskin pliyе va keskin ko'tarilish harakatlarini ko'p qo'llagan, ko'tarilayotgan paytida oyoqlari harakatsiz bo'lgani holda tanasining yuqori qismi misoli ko'kka ko'tarilayotgan qushni eslatgan. Odam Bobojonovning, xuddi Yevropa mumtoz raqslaridagi kabi, oyoqlari va tizzalari ikki tomonga to'liq ochilish qobiliyatiga ega bo'lgan — oyoq uchlari ikki tomonga ochilib, bir to'g'ri chiziq hosil qila olgan va mana shu chiziq bo'ylab u oyoqlarini barcha mumtoz pozitsiyalarga qo'ya olgan. Masalan, V-simon pozitsiyada oyoq uchlari ikki tomonga ochiladi va bir oyoqning uchi ikkinchisining tovoniga tegib turadi.

Sekin ijro etiladigan bo'limlarda oldinda borayotgan oyoq orqadagi oyoq bilan chalishib, xoch hosil qilishi ayniqsa yaxshi chiqqan, chunki mana shunday qadam olish oyoqlarning ikki tomonga to'la ochilish qobiliyatidan darak beradi.

Maqom uforining sho'xchan o'yinlarini ijro etish paytida artist boshini mag'rur tutgan holda yarim o'tirish va shunday holda oyoqlarni galma-galdan oldingan tashlash harakatini juda tez, hatto tezlashgan tempda bajargan. Bunda qayroq ritmlari tana harakatlari bilan uyg'unlashib ketgan.

Maqom uforining boshqa guruhi — Dast usulining ko'p sonli professional ijrochilari orasida Masharif Jumaniyozov, Rimajon Matkarimova, Qurumboy Yoqubov, Matlatif Saidov, Yoqubjon Temirova va Zarif Latifovlar ayniqsa yorqin taassurot qoldirar edilar.

Masharif Jumaniyozov (1900-yilda Xivada tug'ilgan, ustozi Qodirbergan bola Otajonov) — raqs paytida chuqur o'tirishlar va tananing sekin ko'tarilishlarida oyoqlarning ikki tomonga to'la ochilish qobiliyatini namoyish etgan. Ayniqsa, artist tik turgan va o'tirgan oyoqlarini holda galma-gal oldinga tashlashlari juda yaxshi chiqqan. Bartovul ritm-ohangi usullarining so'nggi bo'limlarida Jumaniyozov raqsqa alohida figuralar sifatida bo'ksalar harakatini qo'shib yuborgan va ularni lo'nda qilib, joyida sakrab turgan holda bajargan.

Rimajon Matkarimova (1900-yilda Yusuf So'fi qishlog'ida tug'ilgan, ustozlari Onash cho'loq, Sheroziy) — butun Maqom uforini g'ayratga to'la raqs bilan ijro etgan. Bunda u raqsning hamma "yirik" shakllarini — qadamlarni, qo'llar, tana va bo'ksalar harakatlarini, o'tirishlar va yarim o'tirishlarni bo'rttirib ko'rsata olgan. Uning sho'xchan, isyonkor raqsi ekstatik to'yinganligi chuqur pliyega sekin o'tirish va shu holda qadam tashlash paytida ham so'nmagan — raqsning aynan shu bo'limlarida kuch to'planib, keyin joyda keskin aylanishlar paytida yana yuzaga chiqqandek bo'lgan. Tomoshabinlar bergan ismga ko'ra Onaxon deb nomlangan raqqosa ijrosining xususiyatlari shunda ediki, uning plastik usullari o'zgacha interpretatsiyada yangragan. Raqqosa ularni xuddi sekinlashtirib olingan kino tasmasidagi kabi ijro eta olgan. Uning raqslarida qadimiy Injil sir'ri notalari yashiringandek edi...

Qurumboy Yoqubov (1908-yilda Shabbotda tug'ilgan, ustozi Udamurot bola, 9 yoshdan boshlab raqs tushadi) ijrosida raqsning o'ziga xos "individual" usuli ko'zga tashlanadi. U Maqom uforining eng jazavali usullaridan biri uchun Burdam deb laqab olgan. **Burdam** o'zining butun mahoratini Maqomning sho'xchan o'yin bo'limlariga qaratgan — uning parvozli qadamlari, qo'l uchlarning nozik titrashlari, bosh tebratishlari, tovlanib turuvchi raqs statikasi "erkin" **Kichik lirik** o'yinning tipik ijrochisini ko'rsatib turar edi. "Mavri" raqslarida u jipslangan oyoqlari bilan yer bo'ylab sirpanib borar, bu bilan go'yo daryo mavjlarini ifodalar edi. **Ot Eroniy raqslarda** uning mayda qadamlari qush qadamlariga o'xshar, tana yuqori qismining orqaga-oldinga siltanishlari ham aynan qushga o'xshashlikni kuchaytirar edi. Burdam o'zining har bir mushagini o'ynata olardi. Yelka, ko'krak, qorin, bo'ksa mushaklarining titrashlari

va tovlanishlari xuddi beixtiyor, o'zidan-o'zi musiqa akkordlariga moslashib ketayotgandek bo'lardi.

Matlatif Saidov (1898-yilda Hazoraspeda tug'ilgan, ustozlari Qorvat bola, Rajab surnaychi) — Ko'narak bola (kanareyka) laqabini olgan. U ham Kichik o'yinlarni, faqat boshqacha talqinda ijro etgan. Baland bo'lyli, kelishgan, beli ingichka, boshi to'g'ri turadigan, oyoqlari uzun, barmoqlari ingichka va uzun, qo'l uchlari bukiluvchan. Matlatif Saidov raqslarni sekinlashib boruvchi plastik uslubda, usullarning ko'pini barmoq uchlari ijro etgan. Har qanday raqsda ham ijrochi yelkalar va tana yuqori qismining har bir harakatini, titrashlarni, sekin o'tirishlarni, oyoq uchida yurishlarni, hatto qosh uchishlarini alohida raqs frazasi kabi bo'rttirib ko'rsatgan. Shunisi qiziqarliki, u Xiva olachasidan tikilgan uzun, to'g'ri bichimli chakmon ustidan och binafsha rang belboq taqib, uning ham ustidan esa yelkasi osha katta, uchlari uzun shoyi ro'mol tashlagan.

Maqom uforining barcha qismlaridan **Kichik o'yinlar** tuzib, ijro etgan **Yoqubjon Temirova** (1931-yilda Bog'otda tug'ilgan, ustozlari surnaychi Burdam, Soraxon, Fotimaxon; 1947-yildan beri raqs tushadi) ayniqsa katta taassurot qoldiradi. U erkin qo'llar guruhiga mansub **Dast usulida** raqs tushadi. Uning raqsi aynan Xona bazmning o'zi: raqqosa atrofdagi o'tkinchi narsalardan — quyosh nuri, atirgullar, bog'dagi o'tlar hididan kayfiyat olgan holda usullardan foydalanadi. Raqqosaning bo'yi baland, ixcham, pariruxsor, ko'zlari shahlo, dam olish choqlarida xijolat bilan boqsa, raqs tushayotganda yonib turadi. Jonli ko'zlar uning yuzidagi ifodani dam-badam o'zgartirib turadi: goh g'amgin, goh jilmayib turadi, goh zavqlanadi, goh nigohi qalbingizning eng to'riga qadalgandek, goh ehtirosli orzularga to'la, goh yalinchoq, goh da'vatkor, keyin yana birdan itoatkor bo'lib qoladi va qop-qora quyuq kipriklar ostiga yashirinadi... Raqsni uning qo'llari yaratadi; u joyidan kam qo'zg'aladi, — ikki tomonga yengil siljishlar, tana yuqori qismining tebranishlari, oyoq uchlarni jipslashtirgan holda surilib borishlar, oyoq uchlari oldinga va orqaga qadam tashlashlar — raqsdagi harakatlar mana shulardangina iborat. Lekin Yoqubjon raqsi keskin qo'l harakatlari, ayniqsa, uzun va ingichka barmoqlarining goh titrashlari, goh bilagidan keskin bukilishlari, goh kapalak qanotlariday tovlanishlari, goh ninachini tutib va qo'yib yuborayotgandek mushtumcha bo'lib tugilishlari va barmoq uchlarning nozik chertishlari bilan kishini zavqlantirar edi.

Latif Zarifov (1914-yilda Xivada tug'ilgan, ustozlari Hoji Baliq, Razzoq ota, Sheroziy; Xiva teatrida ishlagan) — o'rta avlod artisti. Esini tanigandan beri butun umrini xorazmcha raqslarning barcha turlari va ijro uslublarini o'rganishga bag'ishlagan. U Maqom uforining barcha murakkab usullari formulalarini qayroq raqsining barcha asosiy shakllarini qo'llagan holda aniq ijro eta olardi, oyoq uchlarning ikki tomonga ochilish qobiliyati o'rtadan balandroq edi, mushaklarini sekin o'tirish va chuqur pliye paytlarida mohirona o'ynatar edi. O'sha-o'sha Maqomlarni erkin qo'llar usulida ijro etar ekan, u "asosiy" qo'l harakatlarning

turli-tuman ko'rinishlarini shakllantirish imkoniyatlarini qo'llagan. Uning raqs-o'yini tez yugurishlar, oyoqlarni galma-galdan orqaga tashlash, keskin o'tirishlar va "arqoncha" usulidagi harakatlari bilan ajralib turgan.

Buning ustiga Latif Zarifov **Gul ufori** guruhidagi raqslarni ham maromiga etkazib ijro etardi. Ayniqsa, uning ijrosidagi raqs-masallar juda ta'sirchan chiqqan, ularda raqqos tasviriy-ruhiy harakatlar orqali betakror yumor va bir vaqtning o'zida aktyorlik zavqi bilan jonivorlar va parrandalar dunyosining insonlarda uchraydigan qiliqlarini o'xshatar edi.

"Tustovuq" o'yini shunday raqslarga misol bo'la oladi. Bu raqs juft bo'lib ijro etiladi: "raqiblar" yuzma-yuz, cho'kkalagan holda xavotirli, asabiy sakrab-sakrab harakat qiladilar. Duelchilar ziyrak bo'lib turadilar, raqibning har bir harakati ikkinchisining ham javoban harakatini keltirib chiqaradi, bo'yin umurtqalari faol ishlab turadi. Mana, "xo'rozlar" to'qnashdi: cho'qqayib o'tirgan holda baland-baland sakrab, go'yo raqibini "o'rab" olmoqchi bo'lgandek, davra bo'ylab harakatlanadi va davraning markazida yotgan doirani qo'lga kiritishga intiladi. Raqiblar doiraga tashlanib, uni ikki chetidan ushlab oladilar. Shunda doirani to'la qo'lga kiritish maqsadida turli chalg'ituvchi harakatlar boshlanadi. Doira membranasida tez aytishga o'xshab ketadigan ritmik frazalar chalinadi; bu tovushlar tuzilishi bo'yicha juda kulgili eshitiladi. Umuman raqsning akrobatikasi ham juda qiziq.

Karim Olloberganov Gul ufori raqsini boshqacha ijro etadi. Uning savlatli ko'rinishi, haykaltarosh ishlagandek tekis yuzi tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketadi.

Karim ota tizzalarini birlashtirgan holda cho'qqayib o'tirgan holda tanasining yuqori qismi, qo'llari, yelkalari, bo'yin umurtqalarini qimirlatadi, orqa, ko'krak va qorin mushaklari titraydi — bu harakatlarning har biriga mos yuzida ham mimika paydo bo'ladi va groteskni aniq ifodalaydi. Uning ijrosidagi "Pishak" — Mushuk: ochko'z, badqovoq, bezbet va maqtanchoq, mug'ambir — bir so'z bilan aytganda — kulgili, lekin qo'rqinchli. "qum pishak" — bilinar-bilinmas titraydi, qo'rqoq va bechorahol, lekin baribir kalamush kabi yirtqich...

Gul ufori raqsularining ajoyib san'atini **Raim Matkarimov** namoyish etgan (1898-yilda Urganchda tug'ilgan, ustozlari Avazev) — 50-yillardayoq u masxaraboz edi, lekin ilgari Maqom ufori qayroq raqslari ijrochisi bo'lgan. Uning Gul ufori raqslari qahramonlari — quvnoq, beg'ubor; ishini yaxshi uddalay olmaydigan telpakdo'z va sartarosh, ojizligi bilan yoqimtoy ko'rinadigan quyoncha, doimo sayrab turuvchi, dalada don izlab yuradigan qushchalardir. Raqqosning bo'yi past, o'zi juda harakatchan, tanasining har bir bo'lagi alohida yashayotgandek, oyoqlari chaqqon, qo'l uchlari tinimsiz titrab turuvchi; turli harakat shakllaridan foydalanadi, lekin ularning hech birini alohida raqs figurasiga birlashtirmaydi. Uning raqsi butun tana, qo'llar, oyoqlar, bo'yin umurtqalari, qoshlar, lablar,

yuzining har bir mushagi birgalikda harakatlanishidan iborat. Uning Yelkov, Qum pishak, Chaqalak, Cho'girma tikish kabi raqslarini hech mubolag'asiz butun boshli raqs sahnasi deb atash mumkin.

Otajon Qutlimurotov (1902-yilda Shovotda tug'ilgan, ustozlari Nafis, Xolmurod, 9 yoshdan boshlab raqs tushadi) — Otajonning raqslari sirk san'ati xususiyatlari bilan sug'orilgan. "Afg'oni o'yin"ni u ikkita tayoqcha bilan ijro etadi. Tayoqchalar bilan ritm chiqargan holda ularning ustidan sakraydi, orqasiga o'tkazib aylantiradi. "Pichoq o'yini"ni esa u o'tkir tig'li ikkita pichoq bilan ijro etadi, ularni mohirona o'ynatadi, boshi uzra aylantirib, yerga sanchadi. Mashrab Rajabov bilan birgalikda Otajon cho'ponlarning "Belama" va ikki sevishgan kaptarlar haqidagi "Kaptar o'yini" raqslarini ijro etadi.

Raim Olloberganov ham sirk elementlari bilan raqslar ijro etgan, bunda Maqom o'yinining barcha qismlari va "Gul ufori" erkin raqsining hamma shakllaridan foydalangan. Ayniqsa, "Yupupu" — "Sassiipopishak" va "Otash o'yin" raqslari diqqatga sazovor.

Yupupu — katta sopol laganni yelkaga qo'yib ijro etiladigan o'yin. Bu og'ir lagan raqs davomida umurtqa pog'onasi bo'ylab yuqoriga va pastga sirpanib borib-keladi.

Otash o'yinni Raim Olloberganov yonib turgan mash'alalar bilan, og'zidan olov purkab ijro etadi. Bu nomerni u "Ajdaho" deb atagan.

Shunday qilib, Xorazm va Farg'ona maqom raqslari o'rtasidagi asosiy farq nimada?

Xorazm maqom raqsi, birinchidan, uchta guruhdan iborat — qayroq ufori, Dast usuli, Gul ufori; ikkinchidan, raqsning asosiy shakllarida oyoq harakatlari katta ahamiyat kasb etadi, lekin unda gir aylanish harakatlari bo'lmaydi, joyida turgan holda bir martalik aylanishlar bundan mustasno.

3. Buxoro

(Barno Namatiyeva bilan I.Baxta Buxoroda 1938-yilda, L.Avdeyeva va Ye.Nedyakova esa 1959—1961-yillarda Dushanbada suhbatlashgan)

(Barno Namatiyeva 1914-yilda Kerrida tug'ilgan, Buxoroda Tavo sozanda qo'lida tahsil olgan. Bu ma'lumotlarni tasdiqlaganlar: Mazal Abramova — Mindalxon (1916-yilda Buxoroda tug'ilgan, ustози Pinxasova, u esa o'z navbatida Kundalxon degan raqqosaning shogirdi bo'lgan), B.Mamonova (1872-yilda Buxoroda tug'ilgan, onasining shogirdi, ma'lumotni I.Baxta 1938-yilda yozib olgan), Usta Toji — Tojiddin Sobirov (1876-yilda Buxoroda tug'ilgan, ustози otasi — Usta Sobir, ma'lumotni I.Baxta 1938-yilda yozib olgan), Sa'dullo Sa'dullayev (1883-yilda Buxoroda tug'ilgan, otasi Usta Sa'dullo qo'lida tahsil olgan, ma'lumotni I.Baxta 1938-yilda yozib olgan).

Yuqorida Buxoro raqsi taniqli ijrochilarini tilga olindi, ko'p sonli Buxoro raqslarini o'rganib chiqish natijasida aniq xulosalar vujudga keladi: Buxoro raqs san'ati o'ziga xos tipik shahar san'ati bo'lib, shu hududda qadimda yashab o'tgan tojiklar, o'zbeklar va buxoro yahudiylarining son-sanoqsiz raqslarini o'ziga singdirib olgan. Shuningdek, u musiqiy-vokal san'at va, eng muhimi, tasviriy san'at va me'morchilik san'ati xususiyatlari bilan ham uyg'unlashib ketgan.

Usta Toji (Tojiddin Sobirov — 1876-yilda tug'ilgan) — sozanda, ota-bobolari ham sozanda o'tgan. U Katta o'yinlarni va Kichik lirik raqslarni yuksak badiiy mahorat bilan ijro etgan. Maqom uforining barcha qismlarini u Katta o'yin uslubida ijro etgan, Zang qismi o'yinlari bundan mustasno. "Yakqars" raqsi uning repertuarida markaziy o'rinni egallagan. Katta o'yinlarni ijro etayotganda Usta Toji yirik-yirik qadamlar bilan katta davralar hosil qilar, qo'llari va yelkaları harakatlari yirik va aniq bo'lardi. Usta Tojining kompozitsiyalarida charxlar va shoxlar ko'p bo'lardi, bu piruetlarni ham aniq, birmuncha sekin, katta g'ayrat va kuch bilan ijro etardi. Joyida turgan holatda va qadam tashlash paytida u tizzalarini ikki tomonga ochgan holda keskin demi-pliye harakatini bajarar edi.

Zanglar bilan ijro etiladigan raqsda sozandalar qo'l va oyoqlariga zanglarni taqib oladilar. Usta Toji bu raqsni juda yumshoq, lirik tarzda, tananing egiluvchanligini ko'z-ko'z qilib, ko'krak mushaklarini titratib, bo'yin umurtqalari harakati va qosh-ko'zlar ishoralarini bo'rttirib ko'rsatgan holda ijro etgan. Turli afsonalar pardasiga chulg'angan qadimiy raqslardan biri — "Hiroti"ni u Kichik o'yin uslubida o'ynardi. Bu raqsda jimjimador ritmik naqshlar hamda yelkalar, qo'llar va tana yuqori qismining xuddi shunday jimjimador harakatlari uyg'unlashib ketadi. Har bir raqs frazasi asosiy harakatlardan tashqari mayda, ko'zga tashlanar-tashlanmas yarim harakatlar bilan sug'orilganki, ularsiz bu saroy raqsi qiyomiga etmagan, badiiy jihatdan tugallanmagan bo'lardi.

Sa'dulla Sa'dullayev (1883-yilda tug'ilgan) ham shuningdek sozanda, ota-bobolari ham sozanda o'tgan bo'lib, qayroq raqsining mohir ijrochisi bo'lgan. U qayroqlari bilan murakkab ritmlarni chalib, harakatlarini taktga tushirgan holda, ya'ni raqsni ritmgaga mos keltirib ijro etardi. Sa'dullaning Katta o'yinni ijro etish uslubi kuch-g'ayratga to'laligi, yumori va sho'xchanligi bilan kishilarni zavqlantirgan.

U zanglar bilan ijro etiladigan Kichik o'yinni ham zargarlarga xos mohirlik bilan o'ynar edi. qo'llari va oyoqlari go'yo harakatlar orqali o'zaro musobaqalashgandek, ya'ni qo'llari harakat qilganda oyoqlari

statik holatda, oyoqlari harakat qilganda esa qo'llari statik holatda bo'lardi.

Shunday "musobaqa" paytlarida statik holatda turgan qo'l yoki oyoq shunchalik harakatsiz bo'lardiki, ularga taqilgan birorta ham zangdan tiq etgan tovush chiqmasdi.

Bibi Shirin Mamonova (1872-yilda tug'ilgan) — sozanda, ota-bobolari ham sozanda o'tgan. Maqom uforining barcha qismlarini ijro etgan, ayniqsa, "Chiligi" deb nomlangan uforini alohida qayd etgan va, uning ta'kidlashicha, bu uforida 32 usul mavjud bo'lgan ekan. Lekin ularning ko'pini Bibi Shirin eslay olmagan.

U raqslarni "Katta o'yin" uslubida, lekin o'ziga xos interpretatsiyada ijro etgan. Maqom uforining barcha qismlarini sozandalar juda sekin tempdan, aksariyat hollarda tiz cho'kib o'tirgan holatda boshlaganlar. Bibi Shirin esa butun raqsnı cho'zib, sekin, mag'rur, har bir frazani uzoq davom ettirgan holda ijro etgan.

Kerkigi (Mixal — Xalirxon Xaimova, 1888-yilda tug'ilgan) — mohirona raqs tushar, raqsning barcha shakllarini aniq ko'rsatib berar edi. Uning Katta o'yin ijro uslubi aktyorlik temperamenti bilan ajralib turgan. Saroy raqqosasi bo'lgani uchun u soatlab betinim qo'shiq aytib, raqs tushishga majbur edi, lekin, tomoshabinlarning aytishlaricha, biror marta ham tomosha paytida biror nota yoki biror harakatni buzib ijro etmagan. Uning repertuaridan turli turkumlarga oid alohida qo'shiq va raqslar joy olgan, masalan: O'lan, Zang, Nagan-gavon, Ufori, Maysara (qo'shig'i bilan), Soqinoma (qo'shig'i bilan).

Barno-sozanda (Barno Namatiyeva, 1914-yilda tug'ilgan) — ota-bobolari ham sozanda o'tgan, butun Maqom uforining ideal ijrochisi bo'lgan va uni yaxshi bilgan. Buning ustiga, raqsning hamma shakllarini mukammal bilgani holda, raqsning bir bo'limida sho'xchan faollikni namoyish qila turib, birdan keskin demi-plye holatidan sekin ko'tarilar, tana burilishlari va titrashlar, qo'llarning doiralar hosil qiluvchi suzishlari, barmoqlarning nozik egilishlari bilan harakatlar plastikasini bo'rttirib ko'rsatar edi.

Mindalxon (Mazol Abramova, 1916-yilda tug'ilgan) — lirik-intim mazmundagi Kichik o'yinlarning mohir ijrochisi edi. Uning raqslarida allaqanday ma'yuslik, mushuk kabi yumshoq qadamlar, ayyorlik bor edi. U qo'llari bilan hech qachon keskin harakatlar qilmas edi: har bir raqs frazasi so'ngida buxorocha raqslar uchun majburiy bo'lgan "nuqta" uning ijrosida butun tananing chuqur tin olishida namoyon bo'lardi.

⁷¹ To'fa Pinxasova bir necha yillardan beri Nyu-Yorkda yashaydi, bu yerda endilikda ko'pchilik mamlakatlarga tanilgan Buxoro ashula va raqs etnografik ansamblini tuzgan.

To'fa Pinxasova⁷¹ (1926-yilda tug'ilgan) — iqtidorli qo'shiqchi va raqqosa, ko'p sonli "charxlar"ni — butun Maqom ufori usullarini batafsil o'rganib chiqqan va ularni o'z ijrosida faol qo'llagan. U maydonlarda ijro etiladigan Katta o'yinlarning tipik ijrochisidir. O'zi o'rta bo'yli bo'lsa ham, raqs ijro etayotganda yoki vokal avji paytida u juda savlatli ko'rinadi. To'fa-sozanda raqs tushayotganda tomoshabinlarni o'zining noyob temperamenti va ichki ma'naviy qudrati bilan qoyil qoldiradi. Lekin gir aylanishlar va kutilmaganda ajabtovur holatda qotib qolishlar paytida ham, qo'llarni oldinga uzatib, tirsakdan bukilgan holda keskin harakatlar bajarayotganda ham go'zal va nazokatli bo'lib qolaveradi.

Bolaligi Buxoroning so'nggi amiri onasining saroy xonimlari orasida o'tgan O'zbekiston xalq artisti Maryam Yoqubova o'z xotiralarida shunday yozadi: "To'faxon Ambariashk yoki Xalirxon Kerkigidan hech qayeri kam emas. U Buxoro san'atini bizning kunlarga avaylab yetkazgan... Menincha, har qanday zamonaviy professional artist ham unga tenglasha olmasa kerak".

* * *

Shunday qilib, Buxoro maqom raqsi bilan Farg'ona va Xorazm maqom raqsarlari bilan qiyosiy tahlil qilinganda qanday xususiyatlarni ko'rish mumkin?

Buxoro maqom raqsi:

— birinchidan, Maqom ufori (Maqom raqsi)ning asosiy qismlarida qo'shiq va raqs sintezidir;

— ikkinchidan, unda saroy raqslarining muayyan ijro uslublari mavjud;

— uchinchidan, tana yuqori qismining alohida holati va qo'llar holatining ikki xil ko'rinishi — oldinga uzatilgan va tirsakdan bukilgan holatlari bilan ajralib turadi;

— to'rtinchidan, barcha harakat shakllarining ikki xil ko'rinishi — keskin va egiluvchan shakllarni o'zida mujassam qilgan;

— beshinchidan, oyoqlar holatida oyoq uchlarining o'rtacha va to'la ochilishi kuzatiladi;

— oltinchidan, keskin va sekin bajariladigan demi-plye va chuqur plye qo'llaniladi;

— yettinchidan, qadam tashlanganda oyoqlar yerga qattiq tiraladi;

— sakkizinchidan, joyida va davra bo'ylab gir aylanganda qo'llar statik holda qoladi, lekin tananing yuqori qismi bel chizig'i bo'ylab aylanaveradi.

Buxoro Maqom raqsi Katta va Kichik o'yin ijro uslublari asosiy shakllariga muvofiq ravishda Farg'ona va Xorazm Maqom raqsaridan keskin farq qiladi.

Biroq, Xorazm Maqom raqsidan farqli ravishda, Buxoro Maqom raqsi xuddi Farg'ona Maqom raqsi kabi, mohirona gir aylanishlarga boy, lekin ular boshqacha ijrochilik uslubida bajariladi.

V. XALQ BAYRAMLARI (TO'YLAR, SAYILLAR, HASHARLAR, TOMOSHALAR, GAP)

Maxsus diniy bayramlarni hisobga olmaganda o'zbek xalq bayramlari asrlar davomida *bash tipga* bo'lingan:

1. *To'ylar* — turli oilaviy bayramlar: o'g'il uylantirish yoki qiz uzatish, bola dunyoga kelishi va boshqa bir qator mayda marosimlar, masalan, "paxtasolar" — uzatilayotgan qizning uyida mahalla ayollari yig'ilib, uning sepini tikadilar, lekin bu marosim ko'proq zayofatga o'xshab ketadi; sunnat to'yi — o'g'il bolaning qo'lini halolash marosimi va h.k.

To'ydan oldingi sovchilik, maslahat oshlari ham bir qancha vaqt davom etadi. Mohiyat e'tibori bilan *to'ylar* tabuy ravishda mehmondorchilik va ko'ngilxuslik bilan kechgan *marosimlar* bo'lgan.

2. *Sayillar* — umumxalq bayramlari, birinchidan: mehnat bayramlari va taqvim bo'yicha nishonlanadigan sanalar (bahorda va kuzda); ikkinchidan: davlat miqyosidagi voqea-hodisalar, masalan, taxtga yangi hokim saylanishi yoki uning oilasida voris dunyoga kelishi va h.k.

Sayillar paytida kechasi gulxan atrofida o'yinlar — *Chavkr* tashkil qilingan. Ko'pincha katta sayillar paytida o'ziga xos *yurishlar, namoyishlar* o'tkazilgan. Bu yurish ishtirokchilari pape-mashedan yasalgan va ustiga hashamatli liboslar kiydirilgan katta qo'g'irchoqlar ko'tarib borganlar. Bu qo'g'irchoqlar afsonaviy qahramonlardan Rustamni, uning rafiqasi va a'yonlarini tasvirlagan. Yurishlarda professional artistlar va havaskorlar qatnashgan va butun yurish davomida ular qo'shiq aytib, musiqa chalib, o'ynab borganlar. Katta maydon o'rtasiga yetib kelganda qo'g'irchoqlarni shu yerga mahkam o'rnatib, konsertni davom ettirganlar.

Amir yoki xon o'z mehmonlari qurshovida maxsus supada, gilamlar ustida o'tirgan. Qolgan yuzlab tomoshabinlar maydonni to'ldirib tursa-da, artistlar faqat amir uchun o'ynaganlar. Amir va uning mehmonlari ketgandan so'ng esa maydon jonlanib, tomoshabinlar raqqoslar atrofida zich xalqa hosil qilib, tomoshaning davomini ko'rganlar.

"Og'zaki an'analardan ma'lum bo'lishicha, yurishlar O'rta Osiyoda juda qadimdan mavjud ekan. Qadimda ham shunday marosimlarga hashamatli va yuqori badiiy did bilan bezaklar berilgan", deb yozadi yuqorida tilga olingan ilmiy ish muallifi I.G.Baxta. "Bizni yurishlarning faqat raqsli joylari qiziqtirgani sababli, faqat shu haqda gapiramiz va umumiy kartinani buzmaganda, raqsga tegishli bo'lmagan joylarini tashlab ketamiz. Yusufjon qiziq Shakarjonov,

Usta Olim Komilov, Mahkam hofiz, Usta Toji va keyinchalik Xislat kabi mahalliy san'at bilimdonlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, yurish saroy oldidan boshlanib (Buxoroda Ark, Qo'qonda O'rda), shahar maydoniga qarab yo'l oladi; Buxoroda maydon amir saroyining yonginasida. Yurishda harbiylar, musiqachilar qatnashadi va Rustamni aks ettiruvchi qo'g'irchoq ko'tarib boriladi. Biroq, Buxoroda Rustamning ketidan ulkan ajdaho shaklini, Qo'qonda esa Rustamning rafiqasi shaklini ko'tarib borish ekan. Qo'qonda oppoq keng choponlarga o'rangan devonalar o'rtaga tushib o'ynab borishsa, Buxoroda "o'ynamaydigan bachchalar" yurishda ishtirok etar ekan".

Ayollar va erkaklar kiyimini kiygan o'yinchi bachchalar ikkala viloyatda ham bo'lgan. "Kema o'yini"ni shunga mos kostyumlar kiyingan holda ijro etuvchi bachchalar faqat Qo'qonda bo'lganligi qayd etilgan⁷².

Musulmonlarning sayillari orasida Ramazon juda keng nishonlangan.

"Musulmoncha qamar yili quyosh yilidan 11 kunga qisqaroq. Yilning 9-chi oyi — ramazon — masalan, bir marta 1 mart kuniga to'g'ri kelsa, keyingi safar 32 yildan so'ng yana shu kunga to'g'ri keladi. Shuning uchun ramazon bilan bog'liq har qanday bayram har yili surilib boraveradi. Islom ta'limotiga ko'ra, ramazon oyida Olloh o'zining rasuli Muhammadni islom hikmatlariga o'rgatib borib, o'ning oxirida Muhammad barcha sir-asrorlardan voqif bo'lgan ekan. Shuning uchun ramazon oyining oxirida uch kun bayram qilingan. Buning ustiga bu oy ro'za oyi bo'lgan. O'rta Osiyoda ro'za ham o'ziga xos original tarzda o'tadi.

Tong otgandan to'qosh qorayguncha, "Qora ipni oq ipdan ajratib bo'lmaydigan paytgacha", kun davomida eb-ichish mumkin bo'lmagan. Faqat kasalmand kishilar va yosh bolalar ro'zadan ozod qilingan. Kun botishi bilanoq ziyofat boshlangan, ro'zadorlar bemalol ovqatlanib olgan. Ramazon oyi tugagach, uch kun davomida hayit bayram qilingan.

Albatta, maydonlar va jamoat joylariga faqat erkaklar chiqqan, ayollar esa ichkarida xursandchilik qilganlar⁷³.

3. *Hasharlar* — o'z ixtiyori bilan jamoa bo'lib mehnat qilishni anglatadi, masalan: mahalla birlashib, bitta qo'shniga uy qurib beradi; kishimish uzumni katta qozonlarda qaynatilgan suvga pishib, quritishga tayyorlanadi; hovuzlar va ariqlar tozalanadi; masjidlar va choyxonalar ta'mirlanadi; qabriston panjaralari tartibga solinadi va h.k. Hasharni "charx hashar" deb ataganlari ham bejiz emas — chunki bu mehnat va xursandchilik davrasi deganidir.

Hasharda ovqatlar ham katta qozonda tayyorlanib, masalliqni ham o'rtada to'plangan va ishdan keyin dam olish artistlarsiz o'tgan.

⁷² *Ибрагимов И.И.* Из Коканда, газ. «Туркестанские ведомости», 1872 г., № 11. Пять дней в Коканде, там же, 1972 г., № 2.

⁷³ *Ибрагимов И.И.* Из Коканда, газ. «Туркестанские ведомости», 1872 г., № 11. Пять дней в Коканде, там же, 1972 г., № 2.

4. **Tomosha** — hokim aytgan kunda yoki bozor kuni bo'ladigan umumiy bayram. Bu kuni sirk tomoshalaridan tortib to taniqli qo'shiqchilar va raqqoslarning chiqishlarigacha ko'ngil ochar xursandchiliklar bo'lgan.

5. **Gap** — inqilobdan avval O'zbekistonda juda ajoyib **jamoat** tashkiloti mavjud bo'lgan. Uning ajoyibligi shundaki, mamlakatda ijtimoiy hayotga qiziqish juda sust bo'lgan. Biroq, xalq san'atni juda sevgan. Bu tashkilot "**gap**" deb atalgan. **Gap** — suhbat ma'nosini anglatga-da, aynan shu holda klubdagi kechaga o'xshash ma'noda keladi. Shunday kechalarda qishloq yoki shahar aholisi yoshiga va moddiy mavqeiga qarab to'garaklarga birlashgan.

Katta shaharlarda yosh va mavqedan tashqari yashash joylari ham ahamiyatga ega bo'lgan, chunki to'garaklar mahallaga va mavzega qarab ham shakllangan.

Shunday to'garak "**jo'ra**" deb atalgan. Bir shaharda, hatto bir mavzeda bir necha jo'ra bo'lishi mumkin bo'lgan, masalan — boyvachchalar jo'rasi, mehnatkash yigitlar jo'rasi, keksalar jo'rasi va h.k. Jo'ralar gap o'tkazadigan joy ham turli ravishda tanlangan. Ba'zan jo'ra tarkibida bo'lmagan kishi ham gap o'tkazish uchun joy berib tursa, boshqa hollarda esa jo'ra a'zolari galma-galdan gapni uylarida o'tkazib turishgan. Badavlat kishilar jo'rasi esa gapni uzoq vaqtgacha o'zlaridan birortasining mehmonxonasida o'tkazib kelgan.

Jo'ra gapga boshqa jo'ra a'zolarini ham taklif qilishi mumkin bo'lgan.

Gapni o'tkazishga sarflanadigan mablag'lar jo'ra a'zolari hisobidan shakllangan.

Gapda qo'shiqlar aytishgan, o'yinlar o'ynashgan, raqslar tushishgan, she'rlar o'qishgan, askiya qilishgan. Biror san'at turidan xabari borlar, mehmonlar yoki maxsus taklif qilingan qo'shiqchi va raqqoslar o'rtaga chiqqan. Ba'zi jo'ralar o'zining doimiy bir yoki bir necha artistiga ega bo'lgan.

Juma musulmonlarda dam olish kuni bo'lgani tufayli, gap ham asosan juma kunlari kechqurun boshlanib, tonggacha davom etgan.

Ayollarda jo'ra bo'lmagan, lekin gapga o'xshash yig'ilishlar, har hafta bo'lmasa-da, ularda ham bo'lib turgan.

Qishloqlarda gap zinaxonada o'tkazilgan. Ilgari aytilganidek, zinaxona — buqa va otlar uchun mo'ljallab qurilgan bino bo'lib, devor bo'ylab zinasimon pog'onalar — supalar o'rnatilgan va kelgan mehmonlar shu supalarda o'tirib, o'rtaga gulxan yoqib qo'yilgan.

Shunday qilib, artistlar, havaskorlar va keng omma ishtirokidagi bayramlarning asosiy ko'rinishlarini sanab o'tdik.

Lekin mazmunan shu bayramlardan birortasiga bog'liq bo'lgan **maxsus raqslar** deyarli yo'q edi. Maxsus to'y raqslari, yoki Yevropa xalqlariga xos bo'lgan hosil yig'ish raqslari umuman yo'q bo'lib ketgan. To'ylarda ham, sayillarda ham, hoh ular bahorga bag'ishlangan bo'lsin, hoh kuzga — ularda

oddiy raqslar ijro etilgan. Bayramning o'ziga xos muhiti ijrochiga biror janrni tanlab olish imkonini bergan.

Biroq, mahalliy miqyosdagi, ya'ni **alohida qishloqlar** yoki shaharlar miqyosida o'tkaziladigan **bayramlarga** murojaat qiladigan bo'lsak, bu bayramlarning o'tkazilish jarayonida juda ko'p qiziqarli xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. Bu xususiyatlarda o'zbeklar turmushidan allaqachon o'chib ketgan raqslar bekingandek...

Xalq uchun aynan qaysi bayramlar eng asosiysi, eng hayajonlisi bo'lgan, degan savolga shunday javob berish mumkin: albatta, yil fasllarining almashinuvi bilan bog'liqlari, chunki bu bayramlar kishilarning to'g'ridan-to'g'ri manfaatlarini aks ettirgan. Ularning har biri mehnat bilan bevosita bog'liq bo'lgan, lekin — mehnat ham, bayram muhiti ham allaqanday yuksak shoirona ruh bilan sug'orilgan.

Dehqonlar bahorda birinchi egat tortish kunini, g'o'zani chopiq qilish boshlangan kunini, kuzda mevalar va sabzavotlar, uzum va anor terimi, g'allani yanchish boshlangan kunni, kech kuzda pilla yig'imi boshlanishini bayram qilishgan. Gullagan tabiat va mehnat bahor bayramlarini birlashtirib turgan. Kuzgi sayillar — Xirmon to'ylarini tabiatning saxiy in'omlari bezab turgan.

Chorvadorlar ham o'z bayram kunlarini dehqonlarning bayramlariga qo'shganlar: chorvaning junini qirqish boshlangan kun yoki qo'zilar, buzoqlar, toychoqlar dunyoga kelgan kun, jonivorlarni so'yishga ruxsat berilgan kun va h.k. Shu kunlarda podachilar va cho'ponlar alohida ulug'langan.

Chorvadorlar qonida ovchi instinkti bo'lganligi sababli bayram kunlari dashtlar va tog'larda yashaydigan jonivorga bag'ishlangan o'yinlar vujudga kelgan.

Dehqonlar ham, chorvadorlar ham, tog'lik ovchilar ham Suvni alohida e'zozlaganlar. Shuning uchun bahor kunlari "tashnalikdan xalos qiluvchi jonli Suv obrazi"ga bag'ishlab hazil, lekin chuqur ma'noli musiqali-raqsli o'yinlar ijro qilingan. Masalan, "Sus xotin":

...Turli yoshdagi ayollar davra qurib, o'rtaga keksa yoshdagi yakkaxon xonanda chiqadi; u o'ynab turib, lapar aytadi:

SUV XOTIN

Suv xotin, suvma xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Havo yog'sin, ho'l bo'lsin,
Yorug' jahon ko'l bo'lsin.
Arpa, bug'doy bosh tortsin,
Kayvonilar osh tortsin,
Nonu kulcha mo'l bo'lsin.

Qolgan ayollar chapak chalib, ritmik kompozitsiyalarni o'zgartirib turadilar, ikki tomonga tebranib, yakkaxon xonandaga jo'r bo'ladilar. Ular o'z qo'shiqlari bilan "Sus xotin"dan yerga ko'proq suv yuborishini so'raydilar.

Bu o'yinda davraning o'rtasidagi yakkaxon xonandani Suv ilohasiga, uni qurshab turgan ayollarni esa arzgo'y dehqon ayollarga o'xshatgini keladi...

Shunisi qiziqki, shu o'yin shakllangan Boysunda⁷⁴ ayollarda ham, erkaklarda ham "Ko'k salla" o'yini juda mashhur. Keksalarning hikoya qilishlaricha, bu dehqonlar raqsi ekan. Bu raqs Boysunning boshqa raqslariga o'xshamaydi, u shakli va ijro etish uslublari jihatidan ko'proq Farg'ona maktabi raqslariga o'xshab ketadi: masalan, vazmin yurishlar, maxsus oyoq harakatlarining bo'lmasligi va qo'llarning turli harakatlari va h.k.

Ijrochi chakmonning ostidan sallalik moviy matoni yenglaridan o'tkazib oladi va raqs paytida tomoshabinga sezdirmasdan matoning uchlarini yenglaridan chiqarib, uzaytiraveradi. Raqs kompozitsiyasining oxirida ijrochi yeng uchlaridan chiqib turgan matoni hilpiratib, uni xuddi osmonda to'plangan bulutlarga o'xshatadi va tomoshabin tasavvurida yomg'ir yog'ayotgandek tuyuladi.

"Sus xotin"ni hamma viloyatlarda ijro etishsa, "Ko'k salla"ni faqat Boysunda ijro etadilar.

Bahorgi tengkunlik paytida nishonlanadigan Navro'z bayrami arafasida bolalar ko'cha-kuyda yugurib, "Barat keldi" deb qo'shiq aytadilar.

Yangi yil kirgan kun turli joylarda turlicha nishonlangan, lekin barcha viloyatlar uchun umumiy tomoni — xotin-qizlar yig'ilib, ertalabgacha sumalak pishirishlaridir. Sumalak uchun ayollar bug'doyni alohida sharoitda undirib qo'yganlar va shundan juda shirin qilib tabarruk taomni pishirganlar. Shu kecha-kunduz ayollar paranji yopinmasdan, ochiq yuz bilan sumalak tarqatganlar. Kechasi bilan o'yin-kulgi qilib chiqqan ayollar bu marosimda xizmat qilish uchun professional qo'shiqchi va raqqosalarni taklif etmaganlar.

Afsuski, sumalak paytida ijro etiladigan maxsus raqslar bo'lmagan ekan.

...Dalalarda erigan qorlar ostidan boychechaklar ko'rinar-ko'rinmas, bolalar buvijonlari bilan birga dalaga chiqib, boychechaklarni terib olib, kichik-kichik guldastalar yasab, ularni tol novdalaridan to'qilgan savatchalarga solganlar va boshlariga qo'yib, qishloqqa qaytganlar. Yo'l-yo'lakay "Boychechak" qo'shig'ini aytib borganlar. Qo'shiqning ohangi yengil, sho'xchan, ritmli bo'lganligi uchun uni aytayotgan sochlari mayda o'rilgan qizchalar va beqasam choponchalar kiygan bolalar juda chiroyli ko'ringan.

...Majnunatning egik shoxlarida kurtaklar bo'rtib qolganda bo'y etgan qizlar to'p-to'p bo'lishib, majnuntol shoxlaridan olganlar va ularni ehtiyotlik

⁷⁴ Surxondaryo viloyati; O'zbekiston janubi; raqsarni suvratga olish 1960—1975-yillarda amalga oshirilgan.

bilan terisidan ajratganlar. Keyin mayda o'rilgan kokillariga yashil bargaklarni taqib olib, bir-birlariga maqtanib, aylanib ko'rsatganlar. Qator turib olishsa — raqs desa bo'lardi, biroq, afsuski, "majnuntol raqsi" ham tug'ilmay qolib ketgan.

...Sariq va qizil gilos pishganda bo'y etgan qizlar giloslarni dumi bilan terib, kichkina tayoqchaga zich qilib shunday bog'lab chiqadilarki, tayoqchani ochiq joyi qolmaydi. Keyin singillarini chaqirib, gilos marjonni devor osha kuyovga yoki sumalak qilingan kechada ko'ngil qo'ygan kishisiga ulotirishni so'raydilar. Endi bu oddiy raqs emas, balki butun boshli raqs tomoshasiga aylanib ketadi.

...Xorazmda bahorgi sayillar paytida yigitlar qishloq chekkasidagi o'tloqda arg'imchoq yasab, uni bodom, o'rik va shaftoli gullari bilan bezatib, qizlarni o'yinga taklif qilganlar va hammalari bir bo'lib raqslarga tushganlar, gulxanlardan sakraganlar⁷⁵.

...Buxoroda bahor oqshomlarida qizlar suv bo'yida to'planishib, chang-qo'biz chalib, raqsqa tushganlar. Undan tashqari, Buxoroda atirgullar ochiladigan kezlari "guli surx", ya'ni qizil gul bayrami ham o'tkazilgan⁷⁶.

"Guli surx" sayili kuni Buxorodan to'p-to'p xalq dalalarga chiqqan. Erkaklar va ayollar alohida-alohida bo'lib, davralar hosil qilganlar. Ayollar daraxtlarning shoxlariga har xil ola-bula lattachalarni bog'lab chiqqanlar, keyinchalik bu odat qandaydir qurbonlik belgisi deb tushunilgan. Keyin erkaklar ham, ayollar ham ibodat qilishni boshlaganlar. Shu bilan birga xursandchilik ham boshlanib ketgan: ovqatlar qilingan, raqsalar tushilgan, ayollar davrasiga professional yallachilar, erkaklar davrasiga esa raqqos bachchalar taklif qilingan. Bu bahoriy bayram hazrat Bahovuddin maqbarasi yaqinida o'tkazilgan. Maqbara Buxorodan bir necha kilometr narida joylashgan. Bahovuddin islom ta'limotining yetakchi olimlaridan bo'lsa-da, "guli surx" buxoroliklar islomni qabul qilishlaridan ancha ilgari vujudga kelgan.

Buxoroda faqat ayollar bilan o'tadigan "lolazor" sayli ham bo'lgan. Bu sayil o'zbeklar va tojiklar yonma-yon yashaydigan tumanlarda o'tkazilgan.

Toshkentda gul sayli Zangiota maqbarasi yaqinida o'tkazilgan.

Kosonda "qizg'aldoq sayili" o'tkazilgan bo'lsa, Obron va Boykunda oddiygina qilib "yil boshi" deb nomlangan bayram o'tkazilgan. Hilol degan qishloq yaqinida xalq bayramlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan "Kir hayit" degan joy ham bo'lgan.

Hisor tog'larida, Boysuntov (Surxondaryo) etaklarida Navro'z kunlari butun xalq bola-chaqalari bilan katta o'tloqqa chiqishgan, o'tlarning ustiga gilamlar

⁷⁵ Xorazmda kelinlar nikohdan keyingi dastlabki kuni paranji kiyganlar.

⁷⁶ Ayrim raqqoslar "guli surx"ni Navro'z deb hisoblaydilar.

to'shalib, davralar hosil qilib o'tirishgan va o'rtada ashulalar va raqslar ijro etilgan.

Shahrisabz atrofidagi Suvsulton, G'ilon, Miroqi, Hisorak, Kitob va boshqa qishloqlarda ham bahorgi "sayli bog'" bayrami xuddi shunday o'tkazilgan.

(Tog' qishloqlarida ayollar yuzlarini chachvon bilan to'sish odat bo'lmagan. Shunisi qiziqki, chachvon tutish vodiylarda qonun tusiga kirgan paytlarda ham tog'liklar chachvonni o'zlari to'qimaganlar, balki lo'lilardan sotib olgan ekanlar.)

Namangan yaqinidagi Kosonsoy tog'li hududida Navro'z bayrami ayniqsa tantanavor, quvnoq, shu bilan birga, romantik va sirli tarzda nishonlangan.

Butun aholi — kattayu-kichik, kimdir piyoda, kimdir aravada — yangi yil kirgandan keyin birinchi juma kuni shahardan tashqariga, Hazrati ota tabarruk mozori yaqinidagi o'tloqqa otlangan. Ancha uzoq bo'lgan bu yo'lni quyosh chiqquncha bosib o'tish kerak bo'lgan. Aravalarda mahallalar yollagan bachchalar — professional raqqoslar tikka turib borgan, katta boylarning esa o'z saroy raqqoslari bo'lgan. Bachchalar butun yo'l bo'yi, yo'lning notekisligi, har qadamda uchraydigan baland-pastliklar va burilishlar, ko'lmaklar va toshlarga qaramay, doira jo'rligida raqs tushib borganlar. Buning ustiga aravalar sekin yurmasdan, balki tezlik bilan uchib borgan, bachchalar aravadan yiqilmasligi uchun oshnalari bir necha belboqlar yordamida ularni ushlab borishgan.

Soy bo'yida esa mahalla-mahalla bo'lib o'tirgan erkaklar va ayollar o'tindan emas, balki qalin to'nkalardan katta gulxanlar yoqqanlar. O'ndan ortiq uzunligi bir metr dan oshadigan to'sinlarni bir-biriga zich qilib yerga qoqib, keyin yoqishgan. Bunaqa gulxan bir sutka yonib turgan va bir sutka davomida shu gulxan atrofida o'yin-kulgi va raqslar davom etgan.

Bundan tashqari, tog'da ochiladigan, qalin yashil bargli va katta jigarrang-malla gulli guloqi va tog' boychechagi barragul kabi bahorgi o'simliklarga bag'ishlangan *maxsus* raqs ham bo'lgan. Bu raqsni katta gulxan atrofida ijro etishgan.

Ayollar muayyan ritmik vaqt orasida birin-ketin turgan joylarida aylanish harakatini — *shox* tashlashni bajarishgan. Hammalari aylanib bo'lishgach, ritmik qadamlar bilan davra bo'ylab *ufo* harakatini davom ettirishgan.

Erkaklar shox tashlashmagan, ular bir usulni yakunlash paytida qo'llarini birdan yuqoriga ko'tarib, barmoqlarni qarsillatish bilan raqs figurasini yakunlashgan.

Kosonsoyda, hamma joylardagi singari, yangi yil kechasi sumalak pishirilgan, undan avvalroq esa kishilar toqqa chiqib, guloqi piyozlaridan terib kelishgan, sumalak pishiriladigan oqshom gullar ochilishga ulgurishi kerak bo'lgan.

Tongda bir guruh ayollar, bir qo'llarida piyolada sumalak, ikkinchisida shamchiroq tutgan holda, keng oppoq kiyimlar kiyib, qabristonga yo'l olishgan.

Eng birinchi ko'chaga chiqqan guruh ayollari cho'ziq ashula boshlashgan, qolganlar esa jo'r bo'lishgan. Barcha ko'chalarda oppoq kiyimlarga chulg'angan ayollar, qo'llaridagi shamchiroq oloviga tikilganча, yuzlab ovozlari xirgoyi qilib kelayotgan ohangga berilib, sekin-sekin yurib borishgan. Bu yurish ritmi va ohangi bilan Injil afsonalarini eslatib yuborgan... *Yurishnibg o'zi ham* aynan ritmik ohang takroridan, cheksizlikdan zavglangan *o'ziga xos pags* bo'lgan.

Kosonsoy qabristoni o'zining xunuk va sovuqligi bilan kishini hayron qoldiradi: tepalikda qabrlar zich, qator-qator bo'lib joylashgan bo'lib, usti yapaloq toshlar bilan qoplangan, birorta ham daraxt ko'rinmaydi — toshlarga xos sukunat!

Oq kiyimli ayollar "abadiy sukunat" darvozasidan kirib, o'zlariga yaqin kishilar qabrlari yonida to'xtaganlarva sumalakni qabr yoniga qo'yib, chakkalariga taqib olgan gulni chiqarganlar. Bu vaqtda hali ham qo'shiq davom etib turgan. Shunda ayollardan keksarog'i qo'shiqni to'xtatgan, qolganlar ham birdan jimib qolishgan. Keyin ayollar gulni va shamchiroqni qabr ustiga qo'yib, indamasdan tezgina qaytib ketishgan. Uyga kelib, kiyimlarini almashtirib olishgan. Bu kiyimlar yiliga bir martagina kiyilgan.

Lekin xalq uchun eng ahamiyatlisi — bu "ekish bayrami" bo'lgan. Bu kuni hamma dalaga chiqib, qo'shiqlar aytib, qarsak chalib, dehqonlar birinchi egat tortishgan va yerga birinchi urug'ni qadashgan.

Kuzda O'zbekistonning barcha viloyatlarida, anor teriladigan mavsumda yigitlar va erkaklar katta xo'naga yig'ilishib, devorlarni gilamlar bilan bezatib, shiftga uzum boshlarini osib qo'yishgan va ustiga katta lagan qo'yilgan xontaxta atrofida o'tirib, qo'shiqlar aytib o'tirgan holda anor suvini siqishgan. Anor suvidan simirib, yana qo'shiqlarni davom ettirishgan, o'rtaga professional artistlar chiqib raqsga tushishgan. Farg'ona vodiysida "Katta o'yin", Buxoro va Xorazm viloyatlarida "Maqom ufo" ijro etilgan.

Tamaraxonim shunday xotirlaydi (1915-yil oktabri):

"Anor bayramini men ilk marotaba Marg'ilonda ko'rganman. O'shanda meni Usta Olim taklif qilgan edi.

Chekkalari baland katta aravada Asakadan kichikroq tarvuzdek-tarvuzdek keladigan anorlar olib kelishdi. Ulardan ba'zilari yorilib ketgan va ichidan qip-qizil yirik-yirik donalari ko'rinib turardi.

G'isht terilgan yo'lka porloq rangli moybo'yoqlar bilan bezalgan ayvonga olib chiqardi. Atirgullar orasida tovuqlar yurardi. Meni ichkariga olib o'tdilar. Ichkari hovlida kichikroq hovuz atrofida anvoyi gullar ekilgan bo'lib, boyni

qizlari Chinnixon va Rayhonjon o'sma siqib o'tirgan ekanlar. O'shanda men birinchi bor o'zbekcha pardozi usullari bilan tanishdim. Chinnixon: "Sening qo'shnilarinikida raqs tushganingni tomdan ko'rdim. Bizlarga ham o'ynab berasanmi?" dedi. Men: "Albatta, agar domla ruxsat bersalar", deb javob berdim.

Tandirda o'tin charsillab yonar, savatlarda nonlar taxlangan, katta qozonda sho'rva miltillab qaynab yotardi. Nihoyat, mehmonxonaga savatlarda to'la anorlar va chuqur mis patnislar keltirishdi. Tanburning jozibador ohanglari taraldi, men sekingina mehmonxonaga derazasiga yaqinlashdim. Xonaning o'rtasida xontaxtalar ustida anor suviga to'la boyagi mis patnislar turar, har bir patnis atrofiga shamlar yoqilgan edi. Musiqachilar soz chalib va xirgoyi qilib o'tirar edilar. Devor bo'ylab atlas ko'rpachalarda bashang kiyingan boylar yonboshlab yotar, qarama-qarshi tomonda esa ayollar ham bor edi. Hammalarining qo'llarida dutor, tanbur, doira.

Tanbur va Usta Olimning changi ayniqsa jaranglab chiqardi. Birdan qora beshmat kiyib, qizil belboq taqqan, oyog'ida amirkon etik, boshida chiroyli do'ppi, chakkasiga rayhon taqqan kelishgan bir yigit o'rnidan turdi. U jilmayib, boylarga egilib salom qildi, keyin ikkala qo'li bilan xuddi barmoqlarini ho'llab olgandek harakat qilib, gilam uzra suza ketdi. Anor suvi to'latilgan idish yoniga kelib, shu yerga tiz cho'kib o'tirdi-da, gavdasini oldinga va orqaga tebratganicha, qo'shiq boshladi. Atrofdagilar unga jo'r bo'ldilar.

Bachcha juda murakkab raqsni ijro etib bo'lib, piyolalarga cho'mich bilan anor suvini quya boshladi — shunda tantanali musiqa ohanglari yangradi va raqqos anor suvidan hammaga tarqatib chiqdi. Anor suvini barcha birdan ichib tugatdi va birgalikda g'ur'ondan bir sura o'qib yuborishdi.

Anor bayramida raqs tushgan bachchaning ismini bilmayman, lekin raqs-qo'shiq tomoshasi mening xotiramda muhrlanib qoldi va u yillar o'tgandan so'ng sahna uchun raqs-qo'shiq kompozitsiyalarni yaratishda menga juda qo'l keldi.

20-yillar xotiralaridan

Bir kuni Ministrlar Sovetining raisi Fayzulla Xo'jayev Qori Yoqubov ikkovimizni Urgutga anor bazmiga taklif qildi.

O'sha paytlar Urgut kichkina qishloq edi. Biz kechga yaqin katta anorzorga kelib tushdik. Qorong'i tushib qolgan edi. Bizni gilamlar solingan supaga o'tqazib, oldimizga maxsus tayyorlangan ovqatlardan qo'yishdi. Ovqatlar shunchalik achchiq ediki, ularning nimadan tayyorlanganligini bilib bo'lmadi. Lekin anordan darak bo'lmadi.

Birdan yakkayu-yagona fonusni o'chirib qo'yishdi va uzoqda mash'alalar yog'dusi ko'rindi. Ko'p o'tmay maydonchaga yasanib olgan yigit-qizlar chiqib kelishdi. Yigitlar qo'llarida mash'alalar, qizlar esa savatlarda rayhon aralash anor solib ko'tarib olishgan. Qizlar Urgut udumlariga xos kiyimlar — gulli uzun ko'ylaklarining ustidan parcha kamzul kiyib olishgan edi. Ularning taqinchoqlari ham g'alati — hammalarining burunlarida sirg'a sochlariga yergacha tushib turadigan sochpopuklar taqilgan. Qizlar savatlarni, anor suvi solingan katta chinni tog'oralarni yerga qo'yishchdi, ularning atrofini musiqachilar va qo'shiqchilar o'rab olishdi, mash'ala tutgan yigitlar esa ularning hammasini o'rab turardi. Keyin hammalari bir bo'lib Samarqand ushshoqini ayta boshlashdi. Maqomni Domla Halim Ibodov va Hoji Abdulaziz aytishar edi. Qo'shiq boshlanishi bilan bizga anor suvi solingan piyolalarni uzatishdi. Shunda davraning o'rtasiga ayollarning kiyimini kiygan bir o'smir yigitcha chiqdi. Uning qo'lga ikkita kosada anor suvi tutqazib qo'yishdi, u kosalarni aylantirib shunday o'yin qildiki, bir tomchi ham anor suvi to'kilmadi. Bunga qoyil qolmay ilojim yo'q edi! Yigitchadan keyin menga gal keldi, lekin men faqat bir kosa anor suvini oldim..."

Farg'ona vodiysida kambag'al oilalarning ayollari anor bayrami kunlari guruh-guruh bo'lib anorzorlarga chiqishgan, kampirilar o'tloqda davra qurib o'tirib olib, qo'shiq aytishgan, yoshlar esa yon-atrofdan tarqoq holda improvizatsiyali anor raqsini ijro etishgan.

Xorazmda kech kuzda yoshlar ko'l bo'yida qishga parranda go'shtini g'amlash uchun to'planishgan. Erkaklar ov qilgan, ayollar esa parrandaning patini yulib, go'shtini tozalab, dudlab, dimlab pishirishgan. Kechqurun gulxan atrofida, o'rdaklar va g'ozlar olovda pishib, yoqimli hidlar taratib turgan paytda, ayollar qo'shiq aytishib, o'yin tushib, xursandchilik qilishgan. Ularning har biri o'zicha o'ynayvergan. Bu marosim Galalaylim (Qush bozori) deb atalgan.

Bayram kunlari bir-biriga ulanib ketavergan. Qovun sayili ketidan Uzum sayili, Sumat kishmish davom etgan.

Koson degan joyda (Qarshi) uzum sayili uzumchilik bilan shug'ullanadigan barcha qishloqlardagi kabi amaliy mazmunga ega bo'lgan — mahalla erkaklari navbatma-navbat birortasining hovlisiga yig'ilishib, bosh-bosh uzumlarni mayiz qilishga tayyorlashgan, suvini siqishgan. Bu yig'ilishlar "Xolamli" deb atalgan. Albatta, bu marosim ham qo'shiq va raqslarsiz o'tmagan.

Lekin asosiy kuzgi bayram birinchi g'alla yanchish boshlangan kun hisoblangan. Bu kuni erkaklar maydonga yig'ilib, juvoz haydayotgan kishiga taqlid qilib, "Xo'p hayda" marosimini ijro etishgan. Bu juda jo'shqin, quvnoq tomosha. Yig'ilganlar hammasi qarsak chalib, birgalikda quyidagi qo'shiqni aytishgan:

XO'P HAYDA

Xo'p hayda, xo'p hayda,
Qalqon qulog'im, hayda,
Temir tuyog'im, hayda,
Ostingda bosgan donni
Oyog'ing qilsin mayda,
Sen po'stidan judo qil,
Somoni senga foyda.
Chu, he, jonivorim, hayda,
Xirmonni qilgin mayda,
Ishni tamom qilmasang,
Joningga tinim qayda!
Men belginangga minib,
Chu-chu deyman silkinib,
Charchab men ham, jonivorim,
Boraman ko'zim tinib,
Chu, he, jonivorim, hayda.
Mayda qilgin, ko'rayin,
Shoxingga gul o'rayin,
Senga kelgan baloni
Tog'dan-toqqa jurayin,
Mayda, ha, mayda.

Shunga alohida e'tiborni qaratmoqchi edikki, ko'pgina xalq bayramlari bekorchilik, betashvish xursandchilik bilan o'tadigan kun emas, balki Mehnat bayramlari bo'lgan. Birinchi egat tortilgan kuni nishonlanadigan Ekish bayrami kunida hamma qo'shiq aytib, o'yin tushishdan ham ko'ra, asosan yer haydab, ekin ekishgan, g'alla yanchish kunlari ham xuddi shunday o'yin-kulgidan tashqari asosan donni yanchish bilan shug'ullanishgan.

Shuning uchun ham qo'shiqlarning so'zlari, ohanglari, raqslarning ritmi, harakatlari juda sodda bo'lgan. Ularning go'zalligi esa, ko'pchilik bo'lib ijro etilganligi uchun favqulodda quvonch va ishtiyoq bilan sug'orilganligidadir. Aynan mana shunday bayramlarda yangi-yangi qo'shiqlar va raqslar paydo bo'lgan, chunki bu paytda hamma ijrochi bo'lib, tomoshabinlar esa, qarsak chalib turgan keksalar va yosh bolalarni hisobga olmaganda, umuman bo'lmagan.

Biroq, aynan shu xalq marosimlari va oddiy raqslarni yuqori tabaqa vakillari nazar-pisand qilmaganlar. Shu kungacha ham o'zbek xalqi so'z boyligida kishini pastga uradigan "hoshim" degan laqab saqlanib qolgan. "Hoshim" deganda sodda, qishloqi degan ma'no tushuniladi. Aynan qishloq odamlari

o'sha boyvachchalarga mahsulot yetishtirib berayotgan bo'lsa-da, ma'lum vaqtdan beri qishloq mehnatkashlariga nisbatan ana shunday bepisand munosabat saqlanib keladi.

Bu holatni tarixiy jihatdan izohlash unchalik qiyin emas. Arab xalifalari o'zlariga qaram bo'lgan xalqlarni xalifa va uning atrofidagi a'yonlarini boqishga majbur deb hisoblaganlar. Musulmonlarning tabarruk kitoblarida savdogarlar aholining eng hurmatli tabaqasi deb aytilgan ekan! Donishmand ota o'g'illariga meros qilib qoldirgan "talant" — tillo tanga haqidagi Assiriya-Bobil afsonasi o'rta asrlar arab dunyosida alohida ma'no kasb etgan. Ota ikki o'g'liga bir talantdan pul berib: "O'z aqlingiz bilan kun ko'ring", debdi. O'g'illardan biri talantni yerga ko'mib qo'yib, shu yerni haydab, ishlay boshlabdi. Juda boyib ketmasa ham, harholda otasi va oilasini boqishga qurbi yetar ekan. Ikkinchi o'g'il talantni olib, bozorga boribdi va olib-sotarlik qilib, ancha mablag' topibdi. Tez kunda u boyib ketibdi va otasi bergan tangani qaytaribdi. "Donishmand" ota ikkinchi o'g'lini maqtay, birinchisini toza mazax qilgan ekan.

Ko'p asrlar davomida xalq orasida mashhur bo'lgan mana shu afsonani har bir tabaqa vakillari har xil tushunadi. Olib-sotarlik hisobidan tirikchilik qiladigan tadbirkor: "Talantingni yerga ko'mma!" deydi. Xalq orasida esa "talanti"ni yerga ko'mib, bug'doy undirganni talantli (ya'ni iqtidorli) deydilar.

Yana shuni ham unutmashlik kerakki, Arab xalifaligi jangchilariga oq libosli Hoshim laqabli Muqanna qarshilik ko'rsatgan...

Xalq bayramlariga nisbatan ana shunday bepisandlik xalqning yerga munosabatini o'zgartira olmadi, dehqon mehnatini ulug'lashga bo'lgan ishtiyoqini so'ndira olmadi.

Xalq sayillari mazmunan Hasharlarga o'xshashib ketadi, chunki sayillarda ham, hasharlarda ham maxsus o'yinlar va raqslar orqali **Mehnat ulug'langan. O'yinlarning ishtirokchisi esa Xalq bo'lgan.**

Shunday qilib, biz xalq sayillarini ko'rib chiqdik. Ular haqiqatan ham umumxalq bayramlari bo'lgan, chunki abadiy **yaratuvchi bo'lmish ona tabiatni va mehnatkash insonni ulug'lagan.**

Bayramlarni izohlashni biz ikkinchi banddan boshladik. Birinchi bandda **to'ylar** — oilaviy bayramlar turgan edi. Ularda butun qarindosh-urug'lar qatnashgan, lekin asrlar davomida mavjud bo'lgani bilan to'ylar bayram ishtirokchilari uchun qo'shiq va raqslar ijro etish uchun maydonchaga aylanib qolmagan. Nikoh to'ylari va sunnat to'ylarida feodal tamoyil g'alaba qildi: bu to'ylarda boylik va dabdaba bilan maqtanish odat tusiga kirib qoldi. Kambag'al oila o'g'il tug'ilgan kundanoq sunnat to'yiga atab, keyinchalik esa uni uylantirayotganda qalin berish uchun mablag' yiqqan. Va, albatta, bu pullar marosimlarni keragicha hashamatli qilib o'tkazishga yetmagan. Shunda boylardan

qarz olishga to'g'ri kelgan va butun oila boyning sirtmog'iga tushib qolgan. Mana shunday "hashamatli" to'ylarda albatta taniqli yallachilar va bachchalar xizmat qilgan, mehmonlar esa, mezbon to'lagan mablag'dan tashqari, xizmatda bo'lgan san'atkorlarga naqd pul berishi lozim bo'lgan. Zavqlanib ketgan tomoshabinlar tanga pulni tuflab raqqosaning peshonasiga yopishtirsa, qog'oz pullarni do'ppining ostiga qistirgan...

Agar qachonlardir to'ylarda ijro etiladigan maxsus raqslar mavjud bo'lgan bo'lsa ham, ular yo'q bo'lib ketgan, bu esa professional raqqoslar uchun esa kelin-kuyovlarning derazalari tagida kechasi bilan raqs tushib, go'yoki yovuz ruhlarni haydab, pul va shon-shuhrat topishlariga imkon yaratgan...

Gaplar ham shunday o'tgan, ularda ham professional san'atkorlar ishtirok etishi lozim bo'lgan.

Lekin Farg'ona vodiysi qishloqlarida nishonlanadigan bahoriy bayramlar sirasiga kiruvchi bitta ayollar to'yi haqida hikoya qilsak, qiziqarli bo'ladi deb o'ylaymiz. Bir xonadonda yaqin qarindosh ayollar va dugonalar yig'ilishib, xonada yoki hovlidagi supada davra qurib o'tirishar va piyolalarga o'sma siqib, qoshlariga qo'yar ekanlar. "O'sma quyosh ichildi" degan bu kechada ellik-oltmish nafar ayollar qatnashar ekanlar. Ular tebranib o'tirishgancha, lirik qo'shiqlar aytishar ekan. Qoshlariga o'sma qo'yib bo'lishgach, ayollar bu marosimni o'tirgan joylarida raqs tushish bilan tugallar ekanlar. Qo'shiq davom etib turgan paytda ular qo'llarini tizzalaridan olib, ikki tarafga — chap qo'llarini diagonal bo'ylab o'ngga, o'ng qo'llarini diagonal bo'ylab chapga ko'tarar, keyin pastga tushirib, mana shu harakatni bir necha bor qaytarar ekanlar. Shunda o'ziga xos "qo'llar raqsi" vujudga kelgan, soddaligiga qaramay, bu bir yagona raqs sifatida qabul qilingan.

Tomoshani ta'riflab bo'lmaydi, chunki bu, ta'bir joiz bo'lsa, "sayil"ning o'zi. Biroq Farg'ona vodiysida bo'lib o'tgan tomoshalardan birining juda qiziqarli ta'rifi saqlanib qolgan.

Tamaraxonim xotiralaridan

"Qo'qon arava" nima o'zi, nega uni shu kungacha eslaydilar, muzeylarga qo'yadilar? Chunki "Qo'qon arava" oddiy transport vositasi emas, balki o'ziga xos poyga aravasidir. Xalq sayillari kunlari shu aravada poygalar bo'lar edi. Shuning uchun Qo'qon aravani maxsus aravaso'zlar yasalar edi. Bunday ustalar qadimdan faqat Farg'onada bo'lgan. Ular aravaning qismlarini va bezaklarini maxsus tanlab olingan yog'ochdan yasaganlar... Mening ustozim, taniqli musiqachi Usta Olim duradgor aravaso'z ham, changsoz ham bo'lgan edi. Aravaning asosi tayyor bo'lgach, urchuq yasaydigan usta yig'chilar yog'ochdan bezaklar, qoziqchalar, oynachalar uchun gardishlar yasaganlar. Keyin bularning hammasini nozik naqshlar bilan bezaganlar. Ayollar esa paxta tolasi va shoyi iplardan popukchalar tikkanlar. Otlarning egar-jabduqlari, hatto uzangisi ham

o'ymakor kumushdan yasalgan. Aravakash poygabozlar uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rishgan, g'alaba esa eng chidamli va eng epchilniki bo'lgan. Otlarni ham bayramdan ancha oldin tanlab olib, maxsus tayyorgarlikdan o'tkazishgan.

Aravalar poygasi vodiylarda, shahar yaqinida o'tkazilar edi. Farg'ona vodiysida poyga yilda bir marta bo'lar, yigitlar unga yil davomida tayyorgarlik ko'rishar edi.

Yo'l bo'ylab butun vodiya musiqalar yangrar, taniqli qo'shiqchilar va raqqoslar ashula va raqslar ijro etardilar. Aynan mana shunday bayramda haqiqiy qahramonlikni madh etuvchi qo'shiqlarni eshitish va haqiqiy yigitlarning raqslarini tomosha qilish mumkin edi.

QISQACHA XULOSALAR

I. 1) O'zbek xalq bayramlarini ko'rib chiqib, biz raqslarni har qaysisi o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan oltita turga bo'ldik. Taqlidiy raqslar, Tasviriy (maishiy) raqslar, Predmetli raqslar, Lirik raqslar, Tarixiy raqslar va Marosim raqslari.

2) Risolada biz uchun muhim yangilik — yoppasiga davra bo'lib ijro etiladigan Tarixiy raqslardir: Oyoqyalang, Qarg'alar, To'da-to'da, Guloqi, Sadr.

3) Yil fasllari almashinishi bilan bog'liq o'ziga xos maishiy marosimlar haqida hikoya qiluvchi materiallar ham katta ahamiyatga ega.

4) Xalq raqslari katta shaharlardan uzoqdagi tumanlarda ko'proq rivojlanganligini ko'rib chiqib, biz xalq raqs an'analari qanday ijtimoiy-maishiy sharoitda saqlanib kelganligi haqida tasavvur hosil qildik.

Dehqonchilik bilan shug'ullanib, o'troq hayot kechiruvchi qadimiy aholi sayillari va bayramlarida raqslar vujudga kelgan va rivojlanib borgan. Raqs musobaqalarini ko'p joylarda Xinoband ("xandonidan" so'zining buzib aytilishi) deb ataydilar.

Turkiy tilli va qadimdan o'troq hayot kechiruvchi xalqlarda va yarim ko'chmanchi chorvadorlarda ham raqs xuddi shunday umumxalq bayramlarida vujudga kelib, rivojlanib borgan. Bunda raqs ko'p sonli yakkaxon ijrochilar musobaqasi sifatida bo'lib, atrofdagi ko'plab tomoshabinlar qarsaklar yordamida "beshqarsak" va "chorqarsak" ritmik figuralari bilan "akkompaniator" vazifasini bajarganlar.

II. 1) Yuqorida biz shuni ko'rsatib o'tdikki, forsiy tilli xalqlar madaniyati va keyingi 14 asr davomida shakllangan turkiy tilli xalqlar madaniyati o'zbek xalq professional musiqa va raqs san'atining shakllanishiga yordam berdi. Professional raqs san'ati *Mumtoz raqs san'ati* bo'lmish o'ziga xos "syuitalar"ga — "Maqom raqsi", "Maqom ufori", "Katta o'yin" kabilarga bo'lindi.

2) Shu yerda alohida qayd etish lozimki, qadim zamonlarda shakllangan Professional raqs va Xalq raqsi o'rtasidagi doimiy muloqot ularni deyarli tenglashtirdi va Professional raqsni Xalq raqsidan keskin uzoqlashib ketishiga yo'l qo'ymadi.

III. Professional va xalq raqs san'atini batafsil ko'rib chiqar ekanmiz, raqs san'atni ikki turga bo'luvchi milliy Tasnifni alohida qayd etib o'tishimiz darkor:

1) "Katta o'yin", "Mardon o'yin", "Kichkina o'yin".

2) "Poybozi" ("Poy o'yin") — oyoqlar raqsi va "qo'l o'yin".

"Poyboz" qismida ko'plab alohida, maxsus oyoq harakatlari aniqlandi.

IV. Hozirgi kunlarga yetib kelgan, noyob ifodali, professional raqs Shakllari va xalq raqs Shakllari ro'yxatiga kirmagan raqs Shakllariga ega bo'lgan turli diniy o'yinlar ham juda qadimiydir.

V. Keng xalq ommasi orasida inson shaxsi ideali shakllandi va hayrat, hayotga muhabbat, samimiylilik, ezgulik va bitmas-tuganmas yumor uning asosiy xususiyatlari deb tan olindi.

Aynan shunday "ideal shaxs" butun o'zbek raqs san'atining obyektivi va mazmuniga aylanib bordi.

Umumiy xalq tasavvurida badiiy obrazlarda yashagan shartli "ideal" kishida "ideal" fazilatlarini tarbiyalash uchun xizmat qilgan.

Chunki "... san'at — dunyoni anglash, ham muayyan faoliyat turi demakdir".

"... san'at — harakat, o'zgarish, ijod..."

"... san'at jamiyatni o'zgartirish xususiyatiga ega".

"... san'atning hayotga ta'sirini e'tiborsiz qoldirish mumkin emas..."

O'zbek xalq raqs san'ati insonga dunyoni anglash va "yaratishda", ya'ni ijod qilishda yordam bergan.

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. RAQS VA RAQS HAQIDAGI KITOBLAR	4
1. O'zbek xoreografiyasi va uni o'rganish	11
2. O'zbek millatining Shakllanishi to'frisidagi materiallarning qisqacha sharhi	15
3. Bir oz nazariyadan	23
4. Xalq raqs san'atida janrlar	27
5. O'zbek professional mumtoz va xalq lirik raqsining hissiy obrazlilik	29
II. O'ZBEK MILLIY XOREOGRAFIYASI	40
1. Taqlidiy, tasviriy raqs, predmetli raqs va ularning tarixiy ildizlari	40
2. Xalq tasviriy-ifodali va taqlidiy raqslari	50
3. Ekstatik raqs	55
III. PROFESSIONAL, XALQ LIRIK VA XALQ BAYRAM RAQSINING SHAKLLANISHI VA URF BO'LISHI	62
1. Raqsning shakllanishi va urf bo'lishi	62
2. Dunyoviy raqs san'ati	74
3. O'zbek mumtoz xoreografiyasi	78
4. Lirik xalq va professional raqs	80
5. Kostyumlar	91
6. Havaskorlik raqs san'ati	94
7. Tarixiy raqs	95
IV. IJROCHI XABARCHILAR	98
1. Farg'ona vodiysi	98
2. Xorazm	107
3. Buxoro	112
V. XALQ BAYRAMLARI (TO'YLAR, SAYILLAR, HASHARLAR, TOMOSHALAR, GAP)	116
QISQACHA XULOSALAR	130

Erishga berildi 1.12.2000. Bosishga ruxsat etildi 10.12.2000.

Bichimi 70 X 90 1/16. "Tayms" garniturasini.

Shartli bosma tabog'i 17,75. Adadi 600 nusxa.

L.Avdeyeva (1928-yili Qo'qonda tavallud topgan).

Bolaligida Namangan shahrida, 1936-yildan Toshkentda, Qashqar mahallasida yashagan. Pionerlar saroyidagi raqs studiyasida tahsil olgan (pedagoglar: R.Sanina, V.Gubskaya); o'zbek raqsini Usta Olim Komilovning assistentlari, asosan B.Arutinova o'qitishgan. Usta Olim Komilov har payshanba kuni har bir guruhdan imtihonni o'zi qabul qilar edi.

Toshkent Teatr institutining teatrshunoslik fakultetini tugatgan (1951-yil). "Manfur kosmopolitlar"ga qarshi quvg'un davrida Moskvadan quvib yuborilgan, O'zbekiston Hukumati tomonidan hurmat va e'tibor bilan qabul qilingan A.Afros, M.Grigoryev, I.Vishnevskaya singari jahon teatr san'ati bilimdonlari teatrshunoslik fanlaridan dars o'tishardi. Jahon raqsi tarixini esa I.Martinova o'qitgan.

Shaxsiy ahdlashuvga muvofiq Avdeyeva mashhur o'zbek rejissori Mannon Uyg'ur qo'lida kursda ta'lim olgan, o'zbek raqsini esa Ali Ardobus Ibrohimovdan o'rgangan. O'qishni bitirganidan keyin Toshkent Xoreografiya bilim yurtiga yuborilgan, bu dargohda u Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov, keyinchalik Tamaraxonim, L.Petrosova, G.Rahimova va boshqalar bilan mulqotda bo'ldi. Muallif ularning xotiralarini yozib oldi, raqs va ayrim harakatlarni suvratga tushirdi. 1953-yildan Hamza nomidagi San'atshunoslik institutida ishlay boshladi. 1956-yildan esa Omonova sharofati bilan Surxondaryo viloyatining deyarli barcha qishloqlarini, xususan Boysunni kezib chiqdi.

Shundan keyin har yili ikki-uch oydan institut rasmiy ekspeditsiyalarida, xizmat safarlarida, shuningdek, obkom kotiblari taklifi bilan O'zbekistonning turli mintaqalarida shaxsiy xizmat safarlarida bo'ldi. Muallif 1956-1985-yillarda Surxondaryo, Buxoro viloyatlari qishloqlarining ayrim usullarini, shuningdek, Xorazmning barcha qishloqlari raqslari, o'yinlarini og'zaki, fotoplyonkada, qisman kinoplyonkada qayd etib bordi. Keyin Qo'qonda, Farg'ona vodiysi va Namangan viloyatida, shu jumladan, tog'li tumanlarda izlanishlarini davom ettirdi.

Ekspeditsiyalarda asosan Nazir Tursunov, Valentina Ulyanova va Fazliddin Shamsiddinivlar ham ishtirok etishgan.

Avdeyeva, Roza Karimova bilan hammualliflikda XX asr o'zbek raqsi haqida to'rtta o'quv darsligi yaratishdi. Darsliklardan tashqari o'zbek xoreografiyasi va teatr san'atiga bag'ishlangan qator kitoblarni nashr ettirdi (jumladan, "Sora Eshonto'rayeva", "Muhiddin Qori Yoqub", "Mukarrama Turg'unboyeva", "Galiya Izmailova", "Bernora Qoriyeva", "Tamaraxonim" va boshqalar).



Fargona mintaqasi
Ферганский регион





2



3



4



5



6



7



8



9



10



11




12



13

Xorazm mintaqasi
Хорезмский регион



15



14



16



17



18



19



20



21



22




23



24



25



26



27

Surxandaryo mintaqasi.
Сурхан-Дарьинский регион





30



32



33



31



34



35

Qashqadaryo mintaqasi.
Кашкадарьинский регион.



36



37



38



39



40



41

Бухоро
Бухара



42



43



44




45




46



47



48



49



50




51



52



53



54



Surxondaryo viloyati, milodiv V asr.

Сурхандарьинская область, V в. н.э.



Kosonsoy (tog'li qishloq)-
Namangan bayram libosi.
"Navro'z"ga atab tikilgan vafaqat
undakiyilgan "Gulagi" deb atalgan
bu libos satin yoki shohidan tikilgan
libos yoqasidan pastroqdatog'
nilufari bilan ziynatlangan.

Касансай (горное селение)-
Наманганский праздничный
бытовой костюм.
Шился и одевался только
в праздники "Навруз".
Он имел название "Гулаги"-
горная лилия, вышитая на груди
платья из сатина или шелка.




Samarqand, XIX asrning II yarmi.
Самарканд, 2 пол. XIX в.



Namangan,
XIX asrning II yarmi.
Professional raqqosalibosi.

Наманган. 2 пол. XIX в.
Костюм
профессиональной танцовщицы.



Qarshi shahri, XIX asrning II yarmi
г. Карши, 2 пол. XIX в.



Samarqand viloyati,
XIX asrning II yarmi. Bayram libosi.

Самаркандская область. 2 пол. XIX в.
Бытовой праздничный костюм.



Qashqadaryo, XIX asr. "Kambag'al libosi"
Кашкадарья XIX в. "Костюм бедняка"



Xiva, XIX asrning II yarmi.
Хива 2 пол. XIX в.



Qo'qon professional raqqos libosi.
XIX asrning oxiri XX asr boshlari.
Xalat matosi qo'ngir rangli
xitoyi shohidan,
ostidan korset kiyilgan.

Кокандский костюм
профессиональной
танцовщицы.
Конец XIX - начало XX века.
Ткань халата китайская чесуча
(плотный шелк) кремового цвета.
Под костюм одевался корсет.



Kosonsoy Namangan bayram libosi.

Касансай Наманганский
(горное селение)
бытовой праздничный костюм.



Вухоро, XIX asrning II yarmi.
Бухара, 2 пол. XIX в.



KosonQarshi bayram libosi.

Касан-Каршинский
бытовой праздничный костюм.



Qarshi shahri, XIX asrning II yarmi
г. Карши, 2 пол. XIX в.



Бухоро-Самарқанд,
XIX asr oxiri XX asr boshlari.
Durman qiz libosi.

Бухара - Самарқандский тип.
Кон. XIX - нач. XX в.
Костюм дурменки.



Farg'onabayram libosi.
XX asr boshlari.
Libos ostidan korset kiyilgan.

Ферганский бытовой
праздничный костюм.
Начало XX в.
Под костюм одевали корсет.

Farg'ona mintaqasi.

- Foto № 1** - «Kichkina o'yin» turkumiga kiruvchi Farg'ona ayollar lirik raqsi. Tamaraxonim. 1938-yil fotosi. Toshkent San'at muzeyi.
- Foto № 2** - Yusufjon qiziq Shakarjonov. 1915-yil. Farg'ona sirkidagi chiqish.
- Foto № 3** - Usta Olim Komilov.
- Foto № 4** - Xoja Siddiq Islomov. Guruh fotosidan lavha. 1928-yil.
- Foto № 5** - Yusufjon qiziq Shakarjonov. Raqsga hozirlik. 1956-yil. Farg'ona.
- Foto № 6** - «Gul o'yin». Qo'qon. 1956-yil. Toshkent. Hodiya Hamdamova (Doyrachilar Karomatxon Muhammadiyeva, Hurmatxon Hamdamova).
- Foto № 7** - Hodiya Hamdamova.
- Foto № 8** - Hodiya Hamdamova.
